

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti**

**Ro'yxatga olindi:**

**Nº \_\_\_\_\_  
« \_\_\_\_ » 2021 yil**

**«TASDIQLAYMAN»**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
\_\_\_\_\_ dots. Sh.M. Xodjiyev  
« \_\_\_\_ » 2021 yil**

**"TARMOQ KIMYOSI VA TEXNOLOGIYASI"**

**FANI BO'YICHA**

**O'QUV - USLUBIY MAJMUA**



- Bilim sohasi:** 300000 – Ishlab chiqarish texnik soha  
**Ta'lif sohasi:** 320000 – Ishlab chiqarish texnologiyasi  
**Ta'lif yo'nalishi:** 5320400–Kimyoviy texnologiya (organik moddalar)

**BUXORO-2022**

O'quv-uslubiy majmua BuxMTIning № \_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan va 20\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_ dagi \_\_\_ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Tarmoq kimyosi va texnologiyasi” fan dasturi asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchi:** Rayimov Z.X «Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi» assistenti .

**Taqrizchilar:** Ismatov.S.Sh.-ByxMTI,“Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi” kafedrasi dotsenti.t.f.n.  
G.A.Xudoynazarova - BDU, “Umumiy va noorganik kimyo” kafedrasi dotsenti.k.f.n.

O'quv-uslubiy majmua “Kimiyoviy va oziq-ovqat texnologiyasi” fakultetining “Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi” kafedrasi majlisida (20\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_-son bayonnomma) muhokama etildi va fakultetning uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri:\_\_\_\_\_ dots A.A.Haydarov

O'quv-uslubiy majmua “Kimiyoviy va oziq-ovqat texnologiyasi” fakultetining uslubiy kengashida ko'rib chiqildi (20\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_-son bayonnomma) va institutning uslubiy kengashiga tasdiqlashga topshirildi.

Fakultet kengashi raisi: \_\_\_\_\_ dots.R.T.Adizov

O'quv-uslubiy majmua institutning uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (20\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_-sonli majlis bayonnomasi).

## MUNDARIJA.

Bet

1. Ma’ruza mavzulari.....	4
2. Amaliy mashg’ulotlar.....	73
3. Glossariy.....	147
4. O’quv dasturi.....	149
5. Fanning ishchi o’quv dasturi.....	155
6. Testlar (mavzuga oid savollar).....	162
7. Foydalilanilgan adabiyotlar.....	193

# **MA'RUZA MATNI**

## **1-Ma’ruza**

### **Kirish. “Tarmoq kimyosi va texnologiyasi fanining maqsadi va vazifalari.**

#### **Reja:**

- 1.Kirish
- 2.Fanning maqsadi va vazifalari
- 3.Mexanik va kimyoviy texnologiyaga
- 4.Texnologik jarayon xaqida tushuncha.

#### **Kirish**

Zamonaviy kimyoviy texnologiya tabiiy va texnika fanlari yutuqlaridan foydalaniib, fizik va kimyoviy jarayonlar, ushbu jarayonlarning unumli usullarini amalga oshirish va turli modda, mahsulot, material buyumlarni sanoatda ishlab chiqarishni boshqarishni bilish muhimdir.

“Tarmoq kimyosi va texnologiyasi” fani avvalambor fizik-kimyo, kimyoviy termodinamika va kimyoviy kinetika fanlariga asoslangandir, shu bilan bir qatorda, ushbu fanlar yirik sanoat jarayonlarida amalda qo’llaniladi va rivojlantiriladi. Shu bois “Tarmoq kimyosi va texnologiyasi” fanini iqtisod, fizika, matematika, kibernetika, amaliy mexanika va boshqa texnika fanlaridan alohida tasavvur qilib bo’lmaydi. Fan va sanoatning rivojlanishi kimyo sanoati korxonalarining ko’payishiga olib keldi. Misol tariqasida hozirgi kunda neft asosida 80 mingdan ortiq turli mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligini aytish mumkin. Kimyoviy ishlab chiqarishning o’sishi bir tarafdan kimyo va texnika fanlarining rivojlanishi, ikkinchi tarafdan kimyoviy texnologik jarayonlarning asosini yaratish imkonini berdi. Izlanishlar tufayli chiqindisiz texnologiya ham yaratildi.

Kimyo sanoati xalq xo’jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo’lib, ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirishga, ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga, xalqning moddiy-ma’naviy ta’minot darajasining ortishiga hal qiluvchi ta’sir ko’rsatadi.

#### **Fanning maqsadi va vazifalari**

**Fanni o’qitishdan maqsad** - talabalarda organik moddalarni ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik jarayonlari bilan tanishtirish, turli texnologik jarayonlarni tahlil qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Ushbu dastur asosiy organik sintez korxonalarida qo’llaniladigan tabiiy xomashyo manbalari, tayyor mahsulot tasnifi, organik moddalarning tuzilishi va olinish usullari, tarixi va rivojining tendensiyasi, istiqboli hamda respublikadagi ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar natijalari va xududiy muammolarning organik sintez sohasida ishlatiladigan texnologiyalar istiqboliga ta’siri masalalarini qamraydi.

Organik mahsulotlar sintez qilishda sodir bo’ladigan jarayonlarni o’rganib, mavjud kamchiliklarni aniqlashda, texnologik jarayonlarni zamonaviy tadqiq qilish usullari – matematik modellashtirish usullarini qo’llash, chiqindisiz texnologiyalar tadbiq qilish imkoniyatlarini beradi.

**Fanning vazifasi** – Organik moddalar tasniflanishi va nomlanishi, ular xossalaringning o‘ziga xosligi, ularning noorganik moddalardan farqi, organik moddalar sintez qilish jarayonlarining kimyoviy o’zgarishlari, asosiy usullari va qonuniyatlarini o’rganish.

## **Mexanik va kimyoviy texnologiyaga.**

Mexanik texnologiya qayta ishlanadigan materiallarning faqat shakli va ba'zan fizikaviy xossalari o'zgarish jarayonlarini o'rganadi. Kimyoviy texnologiya moddalar tarkibi, xossalari va tuzilishining o'zgarishi bilan boradigan jarayonlarni, hamda bu jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan apparatlarni o'rganadi. Bunday bo'lish nisbatan shartlidir, chunki ba'zan, moddalarga mexanik ishlov berilganda ularda kimyoviy reaksiyalar ham boradi. Masalan: cho'yan yoki po'latni suyuqlantirib suyuqlanmalarini qo'yish jarayoni mexanik texnologiyaga kiradi, ammo unda kimyoviy reaksiyalar ham bo'ladi, kimyoviy jarayonlar esa o'z navbatida mexanik jarayonlar bilan birgalikda sodir bo'ladi.

..... Kimyoviy texnologiyaning muhim vazifasi kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishda u yoki bu kimyoviy reaksiyalarning borishi uchun qulay, optimal iqtisodiy samarali usullar va sharoitlarni qidirib topishdir. Kimyoviy texnologiya xomashyonini kimyoviy qayta ishlashni boshqarish jarayonlarini, sotsial va iqtisodiy faktorlarni resurslar bilan taminlash va ishlab chiqarishdagi xavfsizlikni taminlash, parametrlar (harorat, bosim, jarayon, konsentratsiyasi xom ashyoni qayta ishlash tezligi va boshqalar) optimal qiymatlarini topish, apparatlarni tayyorlash uchun materiallarni tanlash, jarayonining texnologik sxemasini yaratish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kabi ishlarni bajaradi. Bularni amalga oshirishda kimyo va fizikaning fundamental qonunlaridan foydalaniladi.

Kimyoviy ishlab chiqarish texnologik jarayonlarda kimyoviy reaksiyalardan tashqari mexanik va gidrodinamik operatsiyalar (maydalash, navlash, xom ashyoni uzatish, apparatdan chiqarish, filrlash, yuvish) hamda fizik-kimyoviy (eritish, yutirish, gazni kondensatsiyalash, ekstraktsiyalash, xaydash, rektifikatsiyalash) jarayonlar bosqichidan o'tadi.

..... Biror texnologik sxemani yaratishda kimyoviy texnologiyaning umumiy printsiplaridan qo'llaniladi. Ular – jarayon doimiyligi, reaktsiya issiqligidan foydalanish, xom ashyoni kompleks (chiqindisiz) ishlatish, ishlab chiqarishni kombinirlash.

Davriy jarayonlar – reaktsion apparatga xom ashyo yoki yarim fabrikatning ayrim portsiyalari kiritiladi. Keyinchalik reaktsiya o'tkazilib, tugagandan keyin apparatdan chiqariladi. SHundan so'ng apparat to'xtatilib operatsiya yana qaytariladi.

Jarayonni amalga oshirishda reaktsiyani o'tkazish sharoitlari doimo o'zgarib turadi. Chunki vaqt o'tishi reaktsiyaning dastlabki kontsentratsiyasi o'zgaradi, bu o'z navbatida reaktsiya tezligining pasayishiga, temperaturaning o'zgarishiga olib keladi. SHu kabilarga ko'ra davriy jarayonlar kam quvvatli hisoblanadi.

..... Doimiy ishlab chiqarish jarayonlari – bunda xom ashyo berilishi va mahsulotning chiqarilishi apparatni yoki sistemani to'xtatmasdan olib boriladi. Bu turdag'i jarayonlar quyidagi afzallikkarga ega:

..... A) Apparatlarning turib qolishining yo'qligi.

..... B) Jarayon sharoitlarining barqarorligi, optimal rejimning doimiyligi.

V) Apparatlar o'lchamining kichikligi, shuning asosida binolar o'lchami ..... kichrayadi va kapital harajatlar kamayadi.

G) Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati mavjudligi.

Bulardan tashqari yarim doimiy va serkulyatsion (yopiq) ishlab chiqarish jarayonlari ham mavjud.

Ishlab chiqarish chiqindilarini ishlatish printsipi deyarli barcha kimyoviy ishlab chiqarishda tayyor mahsulotdan tashqari chiqindilar paydo bo'ladi. Agarda yuqoridaq printsipga amal qilinsa, ya'ni chiqindilarni qayta ishlash mexanizmlari yaratilsa: 1) mahsulot tannarxi oshadi; 2) atrof-muxit ifloslanishdan saqlanadi; 3) ishlab chiqarish rentabelligi oshadi.

Kimyoviy texnologiyaning asosiy tamoillari- jarayonlar doimiyligi, qaramaqarshi oqim, reaktsiya issiqligidan foydalanish, xom ashyni kompleks ishlatish va ishlab chiqarishni kombinirlashlardir.

### **Texnologik jarayon xaqida tushuncha.**

Kimyoviy texnologiyada fizikaviy va kimyoviy hodisalar birgalikda olib qaraladi. Kimyoviy – texnologik jarayon bu dastlabki xom ashylardan olinishi ko'zlangan tayyor mahsulotni olishga imkon beradigan operastiylar majmuidan iborat. Kimyo sanoatida turli – tuman texnologik jarayonlar ishlatiladi. Bunday jarayonlar ayrim belgilariga qarab bir necha sinflarga bo'linadi.

Texnologiya jarayonlarini ularning harakatlantiruvchi kuchiga ko'ra 5 sinfga bo'linadi:

1. Mehanik jarayonlar,
2. Gidromehanik jarayonlari,
3. Issiqlik almashinish jarayonlari,
4. Modda almashinish jarayonlari,
5. Kimyoviy jarayonlar,

Mehanik jarayonlar qattiq materiallarni mehanik kuch ta'sirida qayta ishlash bilan bog'liq. Bunday jarayonlarga saralash, uzatish, aralashtirish, maydalash kabilar kiradi. Bu jarayonlarning tezligi qattik jismlarning mehanik qonuniyatları bilan ifodalanadi. Bunda xarakatlantiruvchi kuch vazifasini mehanik bosim kuchi yoki markazdan qochma kuch bajaradi.

Gidromehanik kuchlarga suyuq va gazsimon sistemalardagi harakat (aralashtirish, filtrlash, cho'ktirish) bilan bog'lik jarayonlar kiradi. Bunday jarayonlarning tezligi gidromehanika qonunlari bilan aniqlanadi. Gidromehanik jarayonlarning xarakatlantiruvchi kuchi – gidrostatik va gidrodinamik bosimdir.

Issiqlik almashinish jarayoni – xaroratlar farqi mavjud bo'lganda bir (harorati yuqori) jismidan ikkinchi (xarorati past) jismga issiqlikning o'tishidir. Bu guruxga sovitish, isitish, buglatish, kondensatlash va sun'iy sovuq hosil qilish jarayonlari kiradi. Jarayonning tezligi gidrodinamik rejimga bog'lik xolda issiqlik uzatish qonunlari bilan ifodalanadi, issiklik jarayonlarining xarakatlantiruvchi kuchi sifatida issik vasovuk muxitlar o'rtaсидаги xaroratlar farqi ishlatiladi.

Modda almashinish bir yoki bir necha komponentlarning bir fazadan fazalarni ajratuvchi yuza orqali ikkinchi fazaga o'tishidir. Komponentlar bir fazadan ikkinchi fazaga molekulyar va turbulent difuziyalar yordamida utadi. Shu sababli bu jarayonlar diffuzion jarayonlar xam deyiladi. Bu guruxga absorbilash, adsorblash, suyuqliklarni xaydash, ekstraksiyalash, quritish jarayonlari kiradi. Jarayonlarning tezligi fazalarning gidrodinamik xarakatiga boglik bo'lib, modda o'tkazish konuniyatları bilan ifodalanadi. Modda almashinish jarayonlarining xarakatlantiruvchi kuchi fazadagi konstentrasiyalarning farqi bilan belgilanadi.

Kimyoviy jarayonlar - modddalarning o'zaro ta'siri natijasida yangi birikmalarning hosil bo'lqidir. Kimyoviy reakstiyalarda issilik va modda almashinish jarayonlari xam sodir bo'ladi. Bundagi jarayonlarning tezligi kimyoviy kinetika konuniyatlari bilan ifodalanadi. Reakstiyalar tezligi, ayniqsa sanoat miqyosida modddalarning gidromexanik xarakatiga, kimyoviy jarayonlarning xarakatlantiruvchi kuchi esa raekstiyaga kirishayotgan modddalarning konstentrastiyasiga bogliq bo'ladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Texnologiya terminini ta'riflang
2. Mexanik va kimyoviy texnologiyani farqlang
3. Davriy va uzlusiz jarayonlarni izohlang
4. Texnologik jarayon sinflarini izohlang
5. Chiqindisiz texnologiyaning afzalliklari nimada?

## **2-Ma'ruza**

### **Organik moddalar klassifikatsiyasi.**

#### **Reja:**

1. Uglevodorodlar klassifikatsiyasi
2. To'yingan asiklik uglevodorodlar (parafinlar yoki alkanlar)
3. To'yinmagan etilen qatoridagi uglevodorodlar (alkenlar)
4. Diyen uglevodorodlar (alkadiyenlar)
5. Atsetilen qatoridagi uglevodorodlar (alkinlar)

### **Uglevodorodlar klassifikatsiyasi**

Uglevodorodlar klassifikatsiyaga asos qilib olingan, chunki boshqa organik birikmalar uglevodoroddagi bitta yoki bir nechta vodorod atomlari o'rniga boshqa guruhlarning almashinishidan hosil bo'lgan deb qaraladi.

Organik birikmalarni uglerod zanjiriga qarab asosan quyidagi uchta katta qismga bo'lish mumkin:


I. Atsiklik (alifatik) yoki ochiq zanjirli birikmalar.

Bunda uglerod atomlari o'zaro bir-biri bilan bog'lanib ochiq - to'g'ri yoki tarmoqlangan zanjir hosil qiladi.

Bular ham o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi:


- 1) To'yingan ochiq zanjirli birikmalar.

Masalan,




- 2) To'yinmagan ochiq zanjirli birikmalar:


- a) bitta qo'sh bog'li



b) bitta uch bog'li




v) ikkita qo'sh bog'li




II. Karbosiklik birikmalar: uglerod atomlari o‘zaro bir-biri bilan bog’lanib, yopiq zanjirni hosil qildilar. Ular o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

a) to 'yngan karbosiklik birikmalar; bularga asosan sikloparafinlar kiradi:




b) to‘yinmagan alisiklik va aromatik birikmalar. Bular o‘z navbatida bitta, ikkita va uchta qo‘sish bog‘li bo’lishi mumkin:



Uchta qo'sh bog'li karbosiklik birikmalarga aromatik birikmalar deyiladi. Ular o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, asosan oltita uglerod atomidan tashkil topgan siklik guruhlardan iboratdir.

III. Geterosiklik birikmalar. Geterosiklik birikmalarning molekulasi ham yopiq zanjirlidir. Ularda yopiq zanjir (sikl) hosil qilishda ugleroddan boshqa atomlar - geteroatomlar ham qatnashadilar. Ko‘pincha, geteroatom sifatida kislorod, azot, oltingugurt va boshqa atomlar qatnashadi. Bu xil birikmalar to‘yingan va to‘yinmagan bo‘ladilar. Masalan:



Bulardan tashqari, har bir sinf birikmadagi bitta yoki bir nechta vodorod boshqa atomlarga yoki atomlar guruhiga, ya'ni funksional guruhga o'rinni almashtsa, organik birikmalarning yana bir necha xil sinflari hosil bo'ladi. Uglevodorodlardan bitta vodorod atomi chiqarilsa, uglevodorod qoldig'i - radikali qoladi. Radikal «R» harfi bilan belgilanadi.

Masalan:

Uglevodorodlar	R-H
Uglevodorod radikali	R-
Galogenli hosilalar	R-X
Spirtlar	R-OH
Aldegidlar	R-C=O   H
Ketonlar	R-C-R    O
Kislotalar	$R-C\begin{matrix} \nearrow O \\ \searrow OH \end{matrix}$
Oddiy efirlar	R-O-R
Murakkab efirlar	$R-C\begin{matrix} \nearrow O \\ \searrow O-R \end{matrix}$
Nitrobirikmalar	$R-NO_2$
Aminobirikmalar	$R-NH_2$
Sulfobirikmalar	$R-SO_3H$
Metallorganik birikmalar	$R-Me$ , $R-Me-HgI$ $Ar-N=N-Ar$
A'zo va diazobirikmalar	$Ar-N=N-X$

Har bir funksional guruh alohida sinf birikmani ifodalaydi. Agar organik birikmada ikkita va undan ko'p funksional guruh bo'lsa, bularni aralash funksional birikmalar deyiladi. Endi har bir sinfga taalluqli organik birikmalarni alohida-alohida o'rganib chiqamiz.


Bu maqsadda nazariy va aniqlangan ma'lumotlar quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi:

- o'rganilayotgan sinf birikmaning ifodasi va umumiyligi formulasi;
- tuzilishi;
- nomenklaturasi va izomeriyasi;
- olinish usullari;
- fizik va kimyoviy xossalari;
- alohida vakillari va xalq xo'jaligidagi ishlatalishi.


## To‘yingan asiklik uglevodorodlar (parafinlar yoki alkanlar)

Uglerod atomlari o‘zaro bir-biri bilan oddiy kovalent bog‘ bilan bog’langan va qolgan valentliklari vodorod bilan to‘yingan organik birikmalarga to‘yingan uglevodorodlar - alkanlar deb atyiladi. To‘yingan uglevodorodlarda uglerod atomlari birinchi valentlik holatda ( $sp^3$  - gibriddlangan holatda) bo’lib, uglerod zanjirini hosil qilishda sarf bo’lmagan valentlik birliklari vodorod atomlari bilan to’la to‘yingan bo’ladi.


Shuning uchun ham ulami to‘yingan uglevodorodlar deyiladi. To‘yingan uglevodorodlarning birinchi va eng sodda vakili  $CH_4$  - metandir. Shuning uchun ham bu uglevodorodlarni metan qatoridagi uglevodorodlar deb ham yuritiladi. Metan molekulasining tuzilishini elektron (oktet) formulada quyidagicha ifodalash mumkin:




Oktet formulada molekula hosil qilishda ishtirok qiladigan atomlarning tashqi elektronlari ifodalangan. Bu juft elektronlar atomlar orasida kim yoviy bog’lanish hosil qiladi yoki bo’sh holatda qoladi. Uglerod atomining  $sp^3$  - gibriddlanishida uning to‘rtta elektron orbitallari o‘zaro  $109^{\circ}28'$  burchak ostida harakat qiladi. Metan va etan molekulasida atomlarning fazodagi joylanishi tetraedrik va shar sterjenli ko‘rinishda (1,2-rasmlar) ifodalanadi. Stuyart-Brigleb modelida bu burchak yaqqol ko‘rinib turibdi, chunki model atomlarning kovalent va Van-der-Vals radiusining haqiqiy nisbatiga qarab tayyorlangan (3-rasm).



1-rasm. Metan molekulasining fazoviy tuzilish modeli




2-rasm. Etan molekulasining fazoviy tuzilish modeli



3-rasm. To'yingan uglevodorodlar zanjirining urnumiyl ko'rinishi

Agarda metan molekulasidagi bitta vodorodni metil -  $\text{CH}_3$  - guruhga almashtirsak, to'yingan uglevodorodning keyingi vakili – etan hosil bo'ladi:



### To'yinmagan etilen qatoridagi uglevodorodlar (alkenlar)

Tarkibida ham a-bog‘, ham 71-bog’ (ya'ni qo'sh bog‘) bo'lgan uglevodorodlarga to'yinmagan uglevodorod deb aytildi. Ulaming umumiy formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n}$ . Demak, etilen qatoridagi uglevodorodlar to'yingan uglevodorodlarga nisbatan vodorod sonining ikkitaga kamligi bilan farq qilar ekan, shuning uchun ularni to'yinmagan uglevodorodlar deyiladi. To'yinmagan uglevodorodlar gomologik qatorga ega:

$\text{C}_2\text{H}_4$  etilen


$\text{C}_3\text{H}_6$  propilen

$\text{C}_4\text{H}_8$  butilen

$\text{C}_5\text{H}_{10}$  amilen va hokazo


1. Etilen, propilen va butilen sanoatda neftni qayta ishslash natijasida hosil bo'ladigan gazlardan olinadi. Har xil polimer birikmalami olishda ishlatiladigan etilen qatoridagi uglevodorodlar aikanlarm krekkinglab olinadi.

2. Spirlarni o'ziga suv tortib oluvchilar ( $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{CuSO}_4$ ,  $\text{ZnCl}_2$ ) ishtirokida qizdirib, etilen qatoridagi uglevodorodlarni olish mumkin. Sulfat kislota ishtirokida spirlami degidratlab. ya'ni aralashmani  $140^\circ\text{C}$  gacha qizdirilganda oldin etil sulfat murakkab efiri hosil bo'ladi. So'ngra reaksiyon aralashma  $160-170^\circ\text{C}$  gacha qizdirilganda, efir parchalanib yana sulfat kislota va to'yinmagan uglevodorod hosil bo'ladi:



### Diyen uglevodorodlar (alkadiyenlar)

Tarkibida ikkita qo'sh bog‘ tutgan to'yinmagan uglevodorodlarni diyen uglevodorodlar deyiladi. Ularning umumiy formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$  Masalan:



Diyen uglevodorodlar qo'sh bog'lam ing joylashgan o'rniga qarab uch turga bo'linadi:

a) Qo'sh bog'lari yonma-yon joylashgan diyen uglevodorodlar kumulyativ qo'sh bog'li diyenlar deyiladi.

Masalan,  $\text{CH}_2=\text{C}=\text{CH}_2$  propadiyen yoki alien.


b) Qo'sh va oddiy bog'lar ketma-ket joylashgan diyen uglevodorodlar konyugirlangan qo'sh bog'li diyenlar deyiladi.

Masalan,  $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$  butadiyen 1,3.

v) Qo'sh bog'lari bitta yoki bir nechta -  $\text{CH}_2$  guruh bilan ajralgan diyen uglevodorodlar izolatsiyalangan (ajralgan) diyenlar deyiladi.

Masalan,  $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}_2$  geksadiyen-1,5.

Diyen uglevodorodlar orasida eng ahamiyatlisi konyugirlangan qo'sh bog'li diyen uglevodorodlardir, chunki ular polimerlanish reaksiyasiga kirishib, qimmatbaho polimer material - sintetik kauchukni beradi. Diyen uglevodorodlar asosan sistematik (S) nomenklatura bo'yicha nomlanadi, bunda to'yingan uglevodorod nomidagi oxirgi harf o'rniga «diyen» qo'shimchasi qo'shib o'qiladi, masalan, propan - propadien va hokazo. Shuningdek, diyen uglevodorodlar ratsional (R) va travial (T) nomlar bilan ham nomlanadi. Masalan:




### Atsetilen qatoridagi uglevodorodlar (alkinlar)

Tarkibida uch bog' tutgan uglevodorodlar atsetilen qatoridagi to'yinmagan uglevodorodlar yoki alkinlar deyiladi. Bu birikmalarning umumiyl formulasi diyen uglevodorodlam ikiga o'xshashdir  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$ . Ular ham gomologik qatorga ega bo'lib, birinchi vakili atsetilendir  $\text{CH}\equiv\text{CH}$  yoki  $\text{C}_2\text{H}_2$ .

Nomenklaturasi. Ratsional nomenklaturaga ko'ra hamma atsetilen qatoridagi uglevodorodlami atsetilenning hosilalari deb qaraladi va radikallar nomiga atsetilen so'zi qo'shib o'qiladi. Sistematisk nomenklaturaga ko'ra atsetilen qatoridagi uglevodorodlarni to'yingan uglevodorod deb qarab, ularning nomidagi «an» qo'shimchasi «in» qo'shimchasi bilan almashtiriladi va uch bog' qaysi ugleroddan so'ng boshlansa, shu uglerodning raqami

qo'yib o'qiladi. Zanjirdagi uglerod atomini raqamlash uch bog' qaysi tomonga yaqin bo'lsa, shu tomondan boshlanadi. Masalan:

$\text{H}-\text{C}\equiv\text{C}-\text{H}$	atsetilen (R)
$\text{CH}_3-\text{C}\equiv\text{C}-\text{H}$	etin(S)
$\text{CH}_3-\text{C}\equiv\text{C}-\text{CH}_3$	metilatsetilen (R)
$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{C}\equiv\text{C}-\text{H}$	propin (S) dimetilatsetilen(R) butin-2 (S) etilatsetilen (R) butin-1 (S)



### Nazorat savollari:

- Organik moddalar uglevodorod zanjir tuzulishiga ko'ra qanday sinflarga bo'ladi?
- Assiklik uglevodorodlar qanday guruxlarga bo'linadi?
- Karbosiklik uglevodorodlar qanday guruhlarga bo'linadi
- To'yinmagan uglevodorodlarning qanday guruhlari bor?
- Funksional guruhlar turiga ko'ra uglevodorodlar qanday guruhlarga bo'linadi?

### 3-Ma'ruza

#### Organik xomashyolarning tabiiy manbaalari.

##### Reja:

- Neft haqida umumiy ma'lumotlar
- Uglevodorod gazlari
- Ko'mir konlari

#### Neft haqida umumiy ma'lumotlar

Neft so'zi forscha — yonib ketish, alanganish ma'nosini anglatadi. Yer qa'rining cho'kindi qismida tarqalgan neft tashqi ko'rinishiga ko'ra o'ziga xos hidli quyuq moysimon suyuqlik bo'lib, turli tusdagi jigar rang ko'rinishga ega. Neft yer qobig'inining turli chuqurlikdagi qatlamlarida, turli - tuman g'ovak va boshqa tog' jinslari orasida uglevodorod gazlari bilan birgalikda 1,2÷2 kilometrdan 5÷6 kilometrgacha chuqurlikda yotadi.

Neftning organik qoldiqlaridan hosil bo'lish mexanizmi ulardan kislorod bilan azotning yo'qolib, uglerod bilan vodorodning yig'ilishiga asoslanadi. Yer qa'rida neft hosil bo'lishi organik hayotning keng rivojiana boshlagan davri, ya'ni taxminan bundan 350÷400 million yil oldin boshlangan. Neftning o'rtacha molekulyar massasi 220÷300 (ba'zan 450÷470 gacha ham yetadi) va neftning zichligi 770÷920 kg/m<sup>3</sup> bo'lib, 830 kg/m<sup>3</sup> dan past bo'lgan turi yengil, 831÷860 kg/m<sup>3</sup> atrofidagisi — o'rtacha va 860 kg/m<sup>3</sup> dan yuqorisi - og'ir neft deb yuritiladi. Neftning yonish issiqligi 43000÷45500 kDj/kg. Neft tarkibida organik moddalar mavjudligi tufayli uni qaynash harorati bilan emas, balki suyuq

uglevodorodlarning qaynash harorati bilan tavsiflanadi. Neft organik erituvchilarda eriydi, suvda erimaydi, ammo u bilan emulsiya hosil qilishi mumkin. Har qanday tabiiy boylikni, shu jumladan, neft va gaz manbalarini ham aniq bilish, chamlash va qanday geometrik shaklda joylashganligini o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifadir. Zahiralarni aniq hisoblash konda olib borilgan izlash va qidirish natijalari asosida tayyorlanadi.

Neftning fizikaviy xususiyatlari va sifat ko‘rsatkichlari uning tarkibidagi uglevodorodlarning miqdoriga bog‘liq. Agar neft tarkibida og‘ir uglevodorodlar miqdori ustunlik qilsa, bunday neftlarda benzin va moy moddalari kamroq bo‘lib, qatlamdagи harakati ham biroz sustroq bo‘ladi. Odatda, qatlamning yuqori qismida, gaz holatidagi eng yengil uglevodorodlar joylashadi, qatlamning o‘rta qismida esa gaz va kondensat aralashma holatda joylashadi, qatlamning pastki qismida og‘ir uglevodorodlar, ya’ni neft joylashadi. Qatlam holatidagi neft bilan yer yuziga olib chiqilgan neftning fizikaviy xossalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Buning asosiy sabablari - qatlam holatidagi neft yuqori bosim va harorat ta’sirida bo‘lib, ko‘pincha tarkibida ko‘p miqdorda tabiiy gaz erigan xolda bo‘ladi. Yer yuziga olib chiqilgan neft, oddiy sharoitda yuqori bosim va harorat ta’siridan xolos bo‘lgandan so‘ng tarkibidagi erigan gaz ajralib chiqishi natijasida deyarli barcha fizikaviy ko‘rsatkichlari o‘zgaradi.

Tarkibidagi elementlarning o‘xshashligiga qaramasdan turli joydan olingan neftlarning fizikaviy va kimyoviy xossalari har xil bo‘ladi. Bunga sabab, uglerod va vodorod atomlarining o‘zaro turli shaklda birika olishidir.

### 1.1-jadval

#### Ba’zi neftlarning element tarkibi (%da)

Neft konlari	C	H	O	S	N
Oxin (RF)	87,15	11,85	0,27	0,30	0,43
Saravak (Indoneziya)	86,50	12,44	0,68	0,35	0,13
Kenkiyak (Qozog‘iston)	86,19	12,51	0,55	0,63	0,12
Grozniy (RF)	85,9	13,0	0,8	0,13	0,07
Shaim (G‘arbiy Sibir)	85,8	13,28	0,36	0,64	0,10
O‘zbekiston	85,69	14,14	0,07	0,01	0,09
Surxan (Ozarboyjon)	85,30	14,10	0,54	0,03	0,03
Romashkin (RF)	85,34	12,65	0,21	1,62	0,18
	83,73	13,33	0,50	2,2	0,24

#### Uglevodorod gazlari

Tabiiy yoqilg‘i gazlar metan qatori uglevodorotlari aralashmasini o‘zida namoyon etadi. Ayrim konlardan chiquvchi gazlarida nordon komponentlar (vodorod sulfid, uglerod ikki oksidi, azot, kislorod, kamchil gazlar – gelyi va argon( $H_2S, CO, N_2, O_2, He, Ar$ )) bo‘ladi, shuningdek, barcha tabiiy gazlarni doimiy hamrohi suv bug‘laridir.

Tabiiy gaz tarkibiga kiruvchi uglevodorodlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

- I guruhga metan va etan kiradi, ular quruq gazlar hisoblanib, gazlarda ularning miqdori normal sharoitda 60 dan 95 % gacha bo'ladi.
- II guruhga propan, izobutan va n–butan kiradi. Bu uglevodorodlar normal sharoitda gaz ko'rinishida, oshirilgan bosimlarda ular suyuq holatga o'tadi.
- III guruhga izopentan, n–pentan, geksan va biroz yuqori molekulali uglevodorodlar kiradi. Ular normal sharoitda suyuq holatda bo'lib, benzin tarkibiga kiradi.

Tabiiy gazning asosiy tarkibiy qismini (92-99 %) metan  $\text{CH}_4$  tashkil etadi va qolgan qismini uglerod (II) oksidi ( $\text{CO}$ ), yonuvchi vodorod, azot, is gazi, suv bug'lari, oltingugurtli vodorod, ammiak ( $\text{H}_2, \text{N}_2, \text{H}_2\text{O}, \text{H}_2\text{S}, \text{NH}_3$ ) va boshqalarni tashkil qiladi.

Sun`iy gazlar qattiq va suyuq yonilg'ilarni qayta ishlash jarayonida olinadi, jumladan, sanoat gazi (domna, koks, yorituvchi, kanalizatsiya gazlari), generator gazi (qattiq yonilg'ilarni gazga aylantirishda) va boshqalar. Ularning tarkibi va xossalari, shu jumladan, yonish issiqligi keng ko`lamda o`zgaradi. Odatda, ular turli hiddagi yonuvchi va inert gazlarning aralashmasidan iborat. Ularning tarkibiga yonuvchi gazlar: metan, propan, butan  $\text{C}_n\text{H}_m$  formula ( $\text{CH}_4, \text{C}_2\text{H}_6, \text{C}_3\text{H}_8, \text{C}_4\text{H}_{10}, \text{H}_2, \text{CO}$ )li boshqa uglevodorodlar, vodorod, is gazi va shuningdek, inert gazlar va ifloslantiruvchi moddalar (karbonat angidrid, azot ( $\text{CO}_2, \text{N}_2$ ), namlik, smola holidagi moddalar, mexanik zarralar, oltingugurtli birikmalar va boshqalar) kiradi.

Gazsimon yonilg'ilar siqilgan va suyultirilgan ko'rinishda ishlatiladi. Kritik harorati havo haroratidan yuqori bo`lgan uglevodorodlar past bosimda gaz holatidan suyuq holatga o'tadi. Bunday gazlar - suyultirilgan gazlar deyiladi.  $20^\circ\text{C}$  haroratda propanni suyuq holatga o`tkazish uchun 0,85 MPa, butan uchun 0,2 MPa bosim talab qiladi<sup>1</sup>.

Siqilgan gazlar kritik harorati havo haroratidan past bo`lgan uglevodorodlar hisoblanadi. Siqilgan gazning asosiy tarkibiy qismi bo`lgan metanni suyuq holatga o`tkazish uchun -  $82^\circ\text{C}$  harorat talab etiladi. Atmosfera bosimida esa metan -  $161^\circ\text{C}$  haroratda ham suyuq holatga o'tadi. -  $82^\circ\text{C}$  haroratdan yuqori bo`lganda har qanday yuqori bosimda ham metan suyuq holatga o`tmaydi.

Gazlarni qayta ishlashning mohiyati shundaki, ularni tarkibidan nordon komponentlar va namlikni yo'qotish, so'ngra bu gazlardan I va II guruh uglevodorodlarini ajratishdan iboratdir.

Ma'lumki uglevodorod gazlari kelib chiqishiga ko'ra ularni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy gazlar, mustaqil hosil bo`lgan bo'lib tarkibida juda oz miqdorda suyuq uglevodorod saqlagan gazlar;
2. Yo'ldosh gazlar, neft bilan birgalikda chiquvchi gazlar;
3. Zavod gazlari, neftni qayta ishlashdagi destruktiv jarayonlarda hosil bo'ladigan gazlar.

Tabiiy gazlardan sanoat korxonalari va aholi turar joylarida yoqilg'i sifatida keng foydalilaniladi, bundan tashqari kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda xom ashyo bo'lib

<sup>1</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB.V.237-259p.

xizmat qiladi. Bu mahsulotlar asosan vodorod, acetilen, formal'degid, xloroform  $H_2, C_2H_2, CH_2O, CHCl$ , va boshqalar.

Yo'ldosh gazlar kommunal ehtiyojlar va avtotransportlarda yoqilg'i uchun qo'llaniladi, shuningdek, piroliz jarayonlari uchun xom ashyo sifatida ham foydalaniladi.

Neft xom ashyolarini qayta ishlashda har bir destruktiv jarayonlardan zavod gazlari hosil bo'ladi. Zavod gazlari uglevodorod tarkibiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Termik kreking gazlari tarkibida metan va boshqa miqdorda to'yinmagan uglevodorodlarga boy bo'ladi. Katalitik kreking gazlarida butanlar va butilenlar miqdori ko'pligi bilan xarakterlanadi.

### Ko'mir konlari

Ko'mir konlari — foydali qazilmalar sifatida tarkibida, asosan, ko'mir bo'lgan konlar. Ko'mir konlari tabiatda cho'kindi jinslardan hosil bo'lganligi tufayli yakka yoki bir necha qatlam shaklida uchraydi. Qatlam yoki qatlamlarning qalinligi, ko'mirning sifati, atrofidagi geologik sharoitlariga qarab Ko'mir konlarining umumiyligini geologik zahiralari balansdagi va balansdan tashqari zahiralarga ajratiladi. Geol.-razvedka ishlari natijasida konning sharoitlari, chegaralari va, albatta, foydali qazilmaning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida olinadigan qo'shimcha ma'lumotlar zahiralarni bir toifadan ikkinchisiga o'tkazishga asos bo'ladi. Xalq xo'jaligi talablarini, zamonaviy texnologiya va texnika imkoniyatlarini kompleks iqtisodiy baxolab, Ko'mir konlarining balansdagi zahiralari sanoat zahiralari toifasiga o'tkaziladi va qazib olinadi.

Ko'mirni konlardan qazib olishda ochiq, yer osti va kombinatsiyalashgan usullar qo'llaniladi. Ochiq usulda qazishning asosiy sharti — foydali qazilma qatlamlari yer yuzasiga yaqin joylashgan bo'lishi kerak, bu sharoitda karyer (ko'pincha Ko'mir konlarida — kesma)da yuqori quvvatli rotorli qazib olish kombaynlaridan foydalaniladi. Qatlamlar chuqurligi oshavergach, ochiq usulda qazib olingan ko'mirning hajmiga nisbatan puch tog' jinslarining miqdori oshib boradi. Muayyan sharoitlarda ko'mirni yer osti (shaxta) usulida qazib olish samaradorli bo'ladi.

Ba'zi Ko'mir konlarida qatlam qanotlarining bir tomoni yer yuzasiga yaqin joylashib, hatto yuzaga chiqib qolish holdari ham uchraydi, lekin ularni yotish burchagi katta bo'lgani uchun tez chuqurlashadi, bunday sharoitlarda Ko'mir konlarining bir qismi ochiq usulda, qolgan chuqur-lashgan qismi esa yer osti usulida qazib olinadi.

Xiyla katta o'lchamli yoki zahirali, uzluksiz yoki orol shaklida tarqalgan ko'mirli formatsiya maydonlari ko'mir xavzasi deb ataladi. Ko'mir havzalarining vujudga kelishi Yer po'sti strukturasining rivojlanishiga, ya'ni sinekliza, chekka bukilma va boshqalarga bog'liq. Mac, Germaniyada mashhur Saar va Rur ko'mir havzalari, Hindistonda Jariya, Raniganj, Bokaro, Fransiyada Nor va Pade-Kale, Lotaringiya, Polshada Sileziya, Buyuk Britaniyada Jan. Uels, Yorkshir va Lankashir, Chexiyada Ostrana-Karvina havzasi, Bolgariyada Bolqon havzasi, Avstraliyada Yangi Jan. Uels, Kvinslend, AQShda Appalachi, Illinoys, Pensilvaniya, Michigan havzalari, Ukrainada Donetsk, Qozog'istonda Qarag'anda, Ekibastuz, Rossiyada Kuznetsk, Chelyabinsk, Pechora va boshqa Bular orasida 7 tasi o'ta yirik — gigant ko'mir havzalari (har birining geologik zahirasi 500 mlrd. t dan oshadi) deb hisoblanadi: To'ngus, Lena, Taymir, Kansk-Achinsk, Kuznetsk (Rossiyada), Alma-Amazona (Braziliyada) va Appalachi (AQShda). Yer yuzida 3600 dan

ko‘proq Ko‘mir konlari va havzalari hisobga olingan bo‘lsa, ulardan 220 tasida Ko‘mir konlarining zahiralari 0,5 mld. t dan oshadi.

Jahonda eng ko‘p ko‘mir zahiralariga ega bo‘lgan va ko‘p miqdorda ko‘mir qazib olinayotgan 9 mamlakat katoriga Xitoy, AQSH, Rossiya, Polsha, Germaniya, Chexiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Avstraliya kiradi. Ularda har yili dunyo bo‘yicha qazib olinayotgan ko‘mirning o‘rta hisobda 87% qazib olinadi. O‘zbekistonda aniqlangan (2000 yil) ko‘mir zahiralari hajmi qariyb 2 mld. t. ni tashkil qiladi, mutaxassislar bashorati bo‘yicha ko‘mir zahiralari 5,7 mld. t dan oshadi. Ko‘mir 3 kondan: Angren ko‘mir koni, Sharg‘un ko‘mir koni va Boysun toshko‘mir konidan qazib olinmoqda. Bularning eng kattasi Angren ko‘mir koni. Angrenda ko‘mirning sanoat zahirasi 100 yildan ko‘proq vaqtga yetadi. Ko‘mir bilan birga kaolin ham olinadi. O‘zbekiston bilan Germaniya "Kaolin" qo‘shma korxonasi yiliga 200 ming t sifatli kaolin chiqarmoqda.

Sharg‘un va Boysun Ko‘mir konlarida yiliga 80 va 10 ming t toshko‘mir qazib olinmoqda. Bu ko‘mir metallurgiyada koks o‘rniga qullanilishi mumkin. Konlarning zahiralari ko‘p yillar mobaynida foydalanishni ta’minlaydi. Angren va Boysun Ko‘mir konlarida olingan ko‘mirdan aktiv ko‘mir ishlab chiqarish mo’ljallangan.

Ko‘mirni qazib olishda bir qancha muammolar mavjud. Ulardan eng muhimi — atrof muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko‘rish. Ko‘mirni, ayniqsa, ochiq usulda qazib olishda puch tog‘ jinslaridan juda ko‘p miqdorda to‘kmalar, sun’iy tepaliklar hosil bo‘ladi. To‘kmalar tarkibidagi ko‘mir qoldiqlari o‘z-o‘zidan yonish holdari bo‘lib turadi, tuproq tarkibi o‘zgaradi. Yangi fan tarmog‘i — konchilik ekologiyasi hozirgi vaqtida landshaft rekultivatsiyasi muammolarini o‘rganmoqda. Agar yer yuzasida ko‘l, daryo yoki aholi yashaydigan joy bo‘lsa, o‘sha maydonda foydali qazilma olinmasdan qoldiriladi. Amalda suv havzasini quritish yoki aholi yashaydigan joyni ko‘chirish holdari ham uchraydi. Mac, Ohangaron daryosi loyihalashtirilgan karyer maydonini kesib utganligi tufayli daryo suvi konning jan. tomonidan o‘z. 5,5 km li tonnel orqali o‘tkazildi. Angren razreziga to‘g‘ri kelgan eski qishloq xonadonlari ham ko‘chiriladi.

O‘zbekistonda foydalanishga topshirilmagan, lekin hisobga olingan va sanoat ahamiyatga ega Ko‘mir konlari mavjud. Mas, Oltinsoy tumani hududida (Boysundan 50 km) bir qatlamlı kon aniqdangan, qatlamning qalinligi 6,5 m gacha bo‘lib, 500 m chuqurlikkacha joylashgan zahiralari 20 mln t miqdorida baholangan. Sharg‘undan 30 km masofada 6 qatlamdan iborat kon topilgan. Qatlamlarning qalinligi 1,0—10,3 m, 600 m chuqurlikkacha joylashgan zahiralari 62 mln. t miqdorida baholangan. Farg‘ona viloyatida qalinligi 2–6 m bo‘lgan 2 katlamdan iborat kon aniqlangan, 500 m chuqurlikkacha joylashgan zahiralar hajmi — 84 mln. t.

O‘zbekistondagi konlarning ko‘miri tarkibida o‘rtacha 0,5—2,5% oltingugurt, 8,5—20,0% kul bo‘lib, 1 kg ko‘mir 6500—7200 kkal issiqlik beradi

### Nazorat savollari:

- 1.Neftni ta’riflang.
- 2.Neftni birlamchi qayta ishlash qanday jarayonlarni o‘z ichiga oladi?
- 3.Uglevodorod gazlari kelib chiqishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
- 4.Uglevodorod gazlarini tozalashning qanday bosqichlarini bilasiz?
- 5.Ko‘mir konlarini tavsiflang,

## 4-Ma’ruza

### Naftani gidrotozalash jarayoni.

#### Reja:

1. Gidrotozalash jarayonining kimyosi
2. Gidrotozalash jarayoniga ta’sir etuvchi omillar
3. Distillyatlarni gidrotozalash texnologik tizimi

#### **Gidrotozalash jarayonining kimyosi**

Neft xom ashysosi deganda barcha distillyatli neft fraksiyalari va qoldiqlarini ko’zda tutadilar.


Neft xom ashysining oltingugurt, azot-kislород saqlagan birikmalar, olefin va metallardan tozalash zarurligi neftni qayta ishlashda turli tozalash jarayonlarini yaratishni belgiladi. Vodorod va katalizator ishtirokida yuqori harorat va bosimda boradigan jarayonlar eng samarali bo’lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida faqat shu jarayonlar tovar mahsulotlarda geteroatomli birikmalar va to’ymagan uglevodorodlar miqdori bo'yicha hozirgi talablarga to'g'ri keladigan neft mahsulotlarini olishga imkon beradi.

Neft xom ashysini gidrotozalash jarayonining ximizmini ko’rib chiqamiz, bunda tozalashda metallar og’ir qoldiqlarda asosan koks va katalizatorlarda to’planib ularni zaharlanishiga e’tibor berish kerak<sup>2</sup>.


Gidrotozalash jarayonlarining ximizmi C-S, C-N, C-O va C-Me (S-oltingugurt, N-azot, O-kislород, Me-metall, S-uglerod) bog’larning destruksiyalanishiga olib keladi va S-S bog’larga deyarli tegmaydi. Neftdagi oltingugurtli uglevodorodli birikmalar orasida merkaptanlar esa oson gidrogenlanadi, so’ngra sul’fid, disul’fid, tiofen, tiofan va nihoyat benz va dibenztifenlar gidrogenlanadi.

Geteroatomli birikmalar uglevodorodlarga qaraganda gidrogenolizga tezroq uchraydi, shuning uchun genroatomlar xom ashysidan vodorod sul’fid, ammiak va suv holida chiqarib yuboriladi. Oltingugurt eng oson ajralib chiqadi so’ngra kislород turadi, azot eng barqaror metallar uglevodorodlardan chiqarilganda ular katalizatorni qoplab uning faolligini pasaytiradilar yoki jarayonning og’ir mahsulotlarida to’planadi.


Merkaptanlar vodorod sul’fid va tegishli uglevodorodlargacha gidrogenlanadi.



sul’fidlar merkaptanlar hosil bo’lish orpqali vodorod sul’fidgacha va tegishli to’yingan uglevodorodgacha gidrogenlanadi:




Disul’fidlar ham vodorodsul’fid va to’yingan uglevodorodlargacha gidrogenlanadi:




<sup>2</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB.V.153-197p.


Tiofen va tiofan (halqali sul'fidlar) tegishli to'yingan uglevodorodlarga cha va vodorodsul'fidgacha gidrogenlanadi:




Benz va dibenztiofenlar vodorodsul'fid va tegishli aromatik uglevodorodlarga cha gidrogenlanadi:




Kislorodli birikmalar gidrogenlanganda tegishli uglevodorodlar va suv hosil bo'ladi.



Azot saqlagan birikmalar gidrogenlanganda tegishli uglevodorodlar va ammiak hosil bo'ladi:



Bundan tashqari kam miqdorda gidrokreking jarayoni borishi mumkin.



Oltingugurtli azotli, kislorod saqlagan birikmalarning molekulyar massasi va aromatlanish darajasining oshishi ulardan geteroatomlarning chiqarib yuborilishini qiyinlashtiradi.

Gidrotozalash jarayonlarida alyumokobal'tmolibdenli (AKM) yoki alyumonikel' molibdenli katalizatorlar qo'llanilib ularga turli qo'shimchalarni kiritadilar.

Sanoatda qo'llaniladigan alyumokobal'tmolibdenli katalizator yuqori tanlash qobiliyatiga ega. Uning ishtirokida S-S bog'larning o'zilishi yoki aromatik halqalarning to'yinish reaksiyalari deyarli sodir bo'lmaydi. S-S bog'larning o'zilish reaksiyalarida katalizator yuqori faolligi va yaxshi termik barqarorligi bilan harakterlanadi. SHu sababli o'zoq xizmat muddatiga ega. Bu katalizatorning muhim afzalligi uning potensial katalitik zaharlarga barqarorligidir. Bundan tashqari katalizator to'yinmagan birikmalarni to'yintirish, uglerod-azot, uglerod-kislorod bog'larning o'zilish reaksiyalarida ma'qul faollik bilan farq qiladi va amaliyotda barcha neft fraksiyalarini gidrotozalash uchun qo'llaniladi.

Alyumonikel' molibdenli katalizatorning to'yinmagan birik-malarni to'yintirish reaksiyalarida faolligi kamroq, ammo aromatik uglevodorodlarni to'yintirish jihatidan (AKM ga nisbatan 10-50 % ga ko'p) va azotli birikmalarni gidrogenlash jihatidan (AKM ga nisbatan 10-18 % ga ko'p). SHu bilan birga u o'zining dastlabki yuqori faolligini tezroq yo'qotadi<sup>3</sup>.

Ochiq neft mahsulotlari gidrotozalashining hozirgi zamon katalizatorlari faolligini yo'qotmasdan 3-6 yilgacha ishlaydi.

Ishlagani sari katalizatorda koks (katalizator massasidan 17-20 %) va oltingugurt (katalizator massasidan 0,5-1,5 %) to'planadi. Katalizatorning faolligi pasayadi. Bug' yoki gaz havoli aralashma bilan koks va oltingugurtni kuydirib faollikni tiklash mumkin. Odatda gidrotozalash katalizatorlari uchtadan kam bo'lмаган regenerasiyaga bardosh beradi.

Katalizatorning faolligi faol komponent yo'qolganda pasayishi mumkin. Bu harorat 600 °C gacha ko'tarilganda va molibden uch oksidining bug'lanishi sodir bo'lganda regeneresiya paytida sodir bo'lishi mumkin. Harorat 760 °C dan yuqori bo'lganda faol alyuminiy oksidi faol bo'lмаган nikel' alyuminatiga aylanadi, katalizatorning qizib biriktirilishi sodir bo'lib buning natijasida uning faol yuzasi kamayadi.

Aniqlashlaricha, molibdendisul'fidi va aralash nikel' sul'fidi ( $\text{Nis}+\text{Ni}_2\text{S}$ ) eng yuqori faollikka ega. ANM va AKM katalizatorlari dastlabki oltingugurtlanishga muhtojdir. Motor yoqilg'isini sanoat miqyosida gidrotozalash jarayonlarida tegishli metallarni past valentli sul'fidlarga aylantirish uchun vodorodda kam miqdorda (foiz ulushlarida) vodorod sul'fidning bo'lishi yetarlidir.

Gidrotozalash katalizatorlari uchta komponentdan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

Kislotali, degidro-gidrogenlovchi va mexanik mustahkamlik va g'ovak strukturani ta`minlaydigan, bog'lovchi. Faol komponentlar ( $\text{MoO}_3$ ,  $\text{NiO}$  va  $\text{CoO}$ ) gidrogenlovchi funksiyani ta`minlaydilar. Ularning miqdori 18-25 % (mas) ga yetishi mumkin.

Alyuminiy oksidi va alyuminosilikatlar kislotali funksiyani va bog'lovchi funksiyani bajaradilar. Gidrotozalash katalizatorlarini ikkita usul bilan oladilar, ular quyidagilar:  $\gamma$ - $\text{Al}_2\text{O}$  ( $\gamma$ -alyuminiy oksidi) ni molibden, nikel' yoki kobal't to'zları bilan

<sup>3</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB.V.153-197p.

birga cho'ktirish (qanday katalizator olishiga qarab – AKM yoki ANM nimi), hamda alyuminiy gidrogendi Al(OH)<sub>3</sub> tegishli to'zlarni singdirish. Katalizator tayyorlashning asosiy bosqichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: singdirish, birga cho'ktirish, yuvish quritish, qoq qilib qo'yish, qizdirish, qaytarish, xlорлаш va олtingugurtlash. Faollikni oshirish uchun turli promotorlarni kiritadilar, ular orasida boshiseolitlar, nodir yer metallar va boshqalar bor.

Kaliy va litiyni 1,5 % (mas.) gacha bo'lган miqdorda qo'shish AKM-katalizatorining barqaror faolligini 10-20 % ga oshirishga imkon beradi, ayniqsa og'irlashgan fraksiyani qayta ishlashda koks hosil bo'lishining kamayishi hisobiga fтор va xlorni saqlagan qo'shimchalarning faollashtiruvchi ta'siri ehtimol molibdenli markazlarning l'yuiskislotaligi oshishida va anionli vakansiyalarning elektronoakseptor kuchida bo'lsa kerak.

Katalizatorlarning tarkibiga fosforni ularning faolligini, barqarorligini va alyuminiy fosfat hosil bo'lish hisobiga katalizator granulalarining barqarorlik xossalari oshirish maqsadida kiritadilar.

Fosfor birinchi navbatda gидроазотирловчи va kamroq darajada gидроолингуртсизлантирувчи faollikni oshiradi. Yuqori qumtuproqli seolitlarni qo'shish deparafinlash jarayonlari uchun zarurdir, shu bilan birga Y seolitning eng yaxshi kationli shakli bo'lib kobal'tli yoki nikel'lisi hisoblanadi.

Qoldiqli xom ashyni qayta ishlashda katalizatorlar ishining barqarorligini oshirish uchun titan va sirkoniy oksidlarini 3-10 % (mas.) miqdorida qo'llaydilar.

ANM-kompozisiyasini kremniy (IV)-oksiidi bilan modifikasiyalash mexanik barqarorligini va katalizatorning termik barqarorligini oshirishga imkon beradi.

Gidrotozalashning eng yaxshi katalizatorlarini "Haldor Topsoe", "Criterion", "Chevron" va boshqa shunga o'xhash katalizatorli kompaniyalar ishlab chiqaradilar. Rossiyada uchta katalizatorli kompaniyalar (TNK-VR-Ryazanda va OAO NK "Rosneft" Angarsk va Novokuybishevskda) chet el katalizatorlari bilan raqobat qila oladilar gidrotozalash katalizatorlarini ishlab chiqaradilar.

### **Gidrotozalash jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar**

Ularga quyidagilar kiradi: katalizatorlarning ta'siri (ilgari ko'rib chiqilgan edi), xom ashyning xossalari, harorat, bosim, VGS ning aylanib turish karraligi va issiqlik effekti.

*Xom ashyo.* Gidrotozalash qurilmasiga kelib tushayotgan xom ashysoda namlikning miqdori 0,02-0,03 % (mas.) dan oshmasligi kerak. Namlik miqdorining ko'pligi katalizatorning mustahkamligiga ta'sir qiladi, korroziyaning jadallahuvini kuchaytiradi, barqarorlashtirivchi ustunning normal rejimini buzadi. Xom ashysoda mexanik qo'shimchalar bo'lmasligi kerak, chunki ular reaktorga tushib katalizatorda to'planadi va natijada uning ishlash samaradorligi pasayadi. Xom ashyni havo kislороди bilan muloqoti hisobiga uning tarkibidagi to'yinmagan va kislородли birikmalarning Ko'p kondensasiyalanishini oldini olish maqsadida gidrotozalash qurilmalarining xom ashyo

bilan ta'minlashni to'g'ri oziqlantirishni sxemasi bo'yicha tashkillashtirishni yoki uni oraliq xom ashyo parklarida rezervuarlarda inert gazli "yostiq" ostida saqlash kerak. Xom ashyonini havo kislороди bilan muloqoti reaktor blokining sistemasida (issiqlik almashtirgich, kompressor va reaktorlarda) qatlamlar hosil bo'lishiga olib keladi.

*Harorat.* Gidrotozalash reaksiyasi uchun optimal bo'lib 260-420 °C dagi harorat intervali hisoblanadi. 260 °C dan past haroratda oltigugurtsizlantirish reaksiyasi sekin boradi, 420 °C dan yuqori haroratda krekinglash va kokslanish reaksiyalari kuchayadi. Katalizatorning ishslash qobiliyati susayishining oxirida qurilma ishlab turganda yuqoriroq haroratni saqlab turadilar, chunki haroratning ko'tarilishi katalizator faollining pasayishini qoplaydi.

*Bosim.* Sistemada umumi bosim 2,5 dan 6 MPa gacha bo'lgan bosim optimal bo'lib hisoblanadi, bunda vodorodning parsial bosimi 1,5-3,7 MPa gacha tashkil qiladi. Tozalanayotgan mahsulot qancha og'ir bo'lsa, undagi to'yinmagan uglevodorodlar qancha ko'p bo'lsa, reaktorga kirishdagi vodorod saqlagan gazdagi vodorodning parsial bosimi shuncha yuqori bo'lishi kerak. Vodorodning parsial bosimi oshishi bilan tozalash darjasini yaxshilanadi, koks hosil bo'lishi kamayadi, katalizatorning xizmat qilish muddati oshadi.

Vodorod saqlagan gazning yetkazib berilish (aylanib turish) karraligi O °C da va 0,1 MPa bosimda xom ashyoning bir hajmiga gazning hajmi 200 dan 700 gacha o'zgaradi.

To'yinmagan uglevodorodlar yoki smolali moddalarning miqdori yuqori bo'lgan distillyatlarni, masalan kokslashning dizelli fraksiyalarini yoki vakuumli gazoylni gidrotozalashda aylanib turadigan gaz va xom ashyoning nisbati eng yuqoridir. Aylanib turish karraligining oshishi qurilmaning regenerasiyasiz ishslash davomiy-ligining oshishiga ko'maklashadi.

Hajmiy tezlik 1 dan 10 soat<sup>-1</sup> gacha o'zgaradi va dastlabki xom ashyoning sifatiga ham talab qilinadigan tozalash darajasiga bog'lik bo'ladi. To'g'ri haydalgan benzinni tozalashda hajmiy tezlik 5 soat<sup>-1</sup> ni, vakuumli gazoylni tozalashda esa 1 soat<sup>-1</sup> ni tashkil qiladi. Xom ashyoning oltingugurtsizlanish chuqurligining hajmiy tezlikka bog'liqligi 19-rasmida keltirilgan. Rasmdan ko'rinish turibdiki hajmiy tezlikning kamayishi xom ashyoning oltingugurtsizlanish chuqurligining oshishiga va uning yod sonining pasayishiga (to'yinmagan uglevodorodlar miqdorining kamayishiga) olib keladi<sup>4</sup>.


*Reaksiyaning issiqlik effekti.* To'yinmagan, aromatik va oltingugurt saqlagan birikmalarning gidrogenlash reaksiyasi issiqlik ajralishi bilan sodir bo'ladi. Yengil to'g'ri haydalgan yoqilg'i-benzin, kerosin, dizel yoqilg'isi kabilarni gidrotozalashda reaksiyaning issiqlik effekti uncha katta emas va 1 kg xom ashyoga 70-80 kDj ni tashkil qiladi. To'yinmagan hamda og'ir yoqilg'ilarning miqdori yuqori bo'lgan yoqilg'ini gidrotozalashda reaksiyaning issiqlik effekti 260-500 kDj kg gacha bo'ladi.

<sup>4</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB.V.153-197p.

Reaksiyon zonadan ortiqcha issiqlikni chiqarib yuborish uchun reaktorga katalizator qatlamlari orasiga sovuq aylanib turadigan gazni yoki sovuq gaz va gidrotozalashning suyuq beqaror mahsulotning aralashmasining yetkazib turishni qo'llaydilar.

*Vodorodning sarfi.* Gidrotozalashda vodorod gidrogenlash, eritish va puflashga sarflanadi. Gidrogenlashga vodorodning sarfi yuqori darajada xom ashyoga to'yinmaganlar hamda smolalarning miqdoriga bog'liq bo'ladi va to'g'ri haydalgan benzinga 0,1 % dan, kokslash benzini yoki vakuumli gazoylga 1,3 % gacha o'zgaradi. Suyuq mahsulotlarda eritishdagi vodorodni yo'qotishlar tozalanadigan mahsulot moleqo'lyar massasasining va sistemadagi umumiy bosimning ko'tarilishi bilan oshadi.

Gidrotozalash jarayonida toza vodorodni emas balki vodorodning hajmiy miqdori 50-95 % ni, qolgan qismi metan, etan, propan va butan tashkil qilgan gazni qo'llaydilar. Gidrotozalash reaksiyalarning natijasida vodorod yutiladi, uglevodorodni gazlar, vodorodsul'fid va suv hosil bo'ladi. SHuning uchun vodorodning vodorod saqlagan gazdagagi miqdori reaktorga kirishda chiqishdagiga qaraganda yuqori.



19-rasm. Kokslash distillyatini yetkazib berish hajmiy tezligining uning oltingugurtsizlanishi va yod soniga ta'siri:

1-alyumonikel' molibdenli katalizatorda xom ashyoni oltingugurt-sizlantirish chuqurligi. 2-alyumokobal'tmolibdenli katalizatorda xom ashyoni oltingugurtsizlantirish chuqurligi; 3-ikkala katalizator-larda yod soni.

Xom ashyoni oltingugurtsizlantirish chuqurligi deganda xom ashya va gidrogenizatda oltingugurt miqdori farqining xom ashyaodagi oltingugurt miqdori nisbatining % dagi ifodasi tushiniladi.

Dizel yoqilg'isini gidrotozalash jarayonida ancha miqdorda parchalanish gazlari ajralib chiqadi. 28 % (mas.) gacha, shuning uchun vodorodning miqdori vodorodsaulagan gazda 50,0 % (hajm) bo'lgan holda qo'llanganda gaz puflab olish zaruriyati tug'iladi. Parsial bosim reaktorga yetkazib berilayotgan vodorod saqlagan gazning tarkibi bilan bog'liq bo'ladi.

## **Distillyatlarni gidrotozalashning sanoat qurilmalari.**

Jarayonning vazifasi hozirgi zamon talablarining darajasiga javob beradigan geteroatomli birikmalar (ayniqsa, oltingugurtli) dan tozalashni o'tkazish. Distillyatlarni gidrotozalash qurilmasi quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi, ular quyidagilar: reaktorli, VSG ni ajratish bilan gaz mahsulotli aralashmani separasiyalash, VSG ni vodorod sul'fiddan tozalash, kompressorli, gidrogenizatni barqarorlashtirish<sup>5</sup>.

Mazkur bobda misol tariqasida dizelfraksiyalar, vakuumli distillyat va parafinni gidrotozalash qurilmalarining tavsifi berilgan. Gidrotozalashning boshqa qurilmalari ko'rib chiqilmaydi, chunki ular asosan ko'rib chiqilganlar bilan bir xil.

Dizel yoqilg'isi distillyatini gidrotozalash texnologik tizimini quyida ko'rib chiqamiz (20-rasm).

Jarayon qo'zg'almas qatlAMDAGI alyumokobaltmolibdenli katalizatorlar ishtirokida o'tkaziladi.

Xom ashyo 1-nasos yordamida berilib, 16-kompressordan kelayotgan vodorod saqlovchi gaz bilan aralashtiriladi. Aralashma 6-chi va 4-chi issiqlik almashtirgichlarda isitilgandan, so'ng 2-quvurli pechga va aralashma  $380 - 425^{\circ}\text{C}$  temperaturada 3-reaktorga tushadi. Aralashmani reaktorga kirish va chiqishdagi temperaturalar farqi  $10^{\circ}\text{C}$  dan oshmasligi kerak.


Reaksiya mahsulotlari 4, 5 va 6-chi issiqlik almashtirgichlarda  $160^{\circ}\text{C}$  gacha sovitiladi, bir vaqtda gaz xom ashyo aralashmasi, shuningdek, barqarorlashtirish kolonnasi xom ashysosi isitiladi. Gaz mahsulotli aralashmani keyingi sovutish 7-havoli sovutish jihozida, soviguncha (taxminan  $38^{\circ}\text{C}$  gacha) 8-suvli sovutgichda amalga oshiriladi.

Beqaror gidrogenizat yuqori bosimli 9-separatorda sirkulyalanuvchi gazdan ajratiladi. Gidrogenizat separator pastidan chiqariladi, 10-issiqlik almashtirgichdan o'tishda  $240^{\circ}\text{C}$  gacha isitiladi, so'ngra 5-issiqlik almashtirgichga va 11-barqarorlashtiruvchi kolonnaga kiritiladi.

Ayrim qurilmalarda gaz mahsulotli aralashmalar uchun yuqori temperaturali separaciyalash o'tkaziladi. Bunday hollarda aralashma  $210 - 230^{\circ}\text{C}$  temperaturada yuqori bosimda qizdiriluvchi separatorda ajratiladi, ya`ni separatorda ajratiladigan suyuqlik barqarorlashtirish kolonnasiga yuboriladi.

---

<sup>5</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. *Fundamentals of Petroleum Refining*. ©2010. Elsevier B.V. 153-197p.



**20-rasm.** Dizel yoqilg'isini gidrotozalash qurilmasi texnologik sxemasi:

1, 15, 19, 21-nasoslar; 2-quvurli pech; 3-reaktor; 4, 5, 6, 10-issiqlik almashtirgichlar; 7, 12, 14-havoli sovitish jihozlari; 8-suvli sovitkich; 9, 13, 17, 20-separatorlar; 16-markazdan qochma kompressor; 11-barqarorlashtiruvchi kolonna; 18, 22-absorberlar.

Sirkulyatsiyalanuvchi vodorod saqlovchi gaz 18-absorberda vodorod sulfiddan monoetanolaminning suvli eritmasi yordamida tozalanib, 16- kompressor orqali tizimga qaytariladi.

Suv bug'i 11-kolonna pastiki qismidan kiritiladi. Benzin bug'lari, gaz va suv bug'lari 135°C temperatura atrofida kolonna yuqorisidan chiqib, havoli sovutkich 12 ga tushadi, so'ngra 13-separatorda gazning suyuq aralashma qismi ajratiladi. Separatorda ajralgan benzinning bir qismi 15-nasos yordamida 11-kolonna yuqorisiga «to'yintirish» sifatida qaytariladi. Balans miqdori esa qurilmadan chiqariladi. Uglevodorod gazlari 22-absorberda vodorod sulfiddan tozalanadi.

Gidrotozalangan mahsulot 11-kolonna pastidan chiqariladi va 10-issiqlik almashtirgichda, 14-havoli sovitkichda sovitilib,  $50^{\circ}\text{C}$  temperaturada qurilmadan chiqariladi.

Qurilmada katalizatorni qayta tiklash uchun  $400 - 550^{\circ}\text{C}$  va 2 MPa da toblantiriladi, so'ngra tizim orqali inert gaz o'tkaziladi.

## Nazorat savollari:

1. Gidrotozalash jarayonlarini o'tkazishdan maqsad nima?

2. Gidrotozalash jarayonlarida qanday katalizatorlar qo'llaniladi?
3. Sirkulyatsiyalanuvchi vodorod saqllovchi gazni jarayondagi o'rni qanday
4. Katalizatorni qayta tiklash qanday shariotda o'tkaziladi?
5. Gidrotozalash jarayoni qanday amalga oshiriladi?

## 5-Ma'ruza

### **Aromatik birikmalar ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi.**

#### **Reja:**

1. Aromatik uglevodorod xossalari
2. Katalitik riforming jarayonining umumiy xarakteristikasi.
3. Qo'zg'almas katalizator qatlamida boruvchi reforming

#### **Aromatik uglevodorod xossalari**

Organik sintez sanoatida aromatik uglevodorodlar olefmlardan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Tabiiy manbalardan olinadigan aromatik uglevodorodlar orasida benzol, ksilollar katta ahamiyatga ega. Ba'zi bir aromatik birikmalami fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bilan tanishamiz (6-jadval).

#### **Aromatik uglevodorod xossalari**

*6-jadval*

<b>Uglevodorod nomi</b>	<b>0,1 MPa bosimida qaynash temperaturasi, °C.</b>	<b>Suyuqlanish temperatura-si, °C</b>	<b>Chaqnash temperatura-si, °C</b>
<b>Benzol</b>	<b>80,1</b>	<b>+5,5</b>	<b>-14</b>
<b>Toluol (metilbenzol)</b>	<b>110,6</b>	<b>-95,0</b>	<b>+5</b>
<b>o-ksilol (1,2-dimetilbenzol)</b>	<b>144,4</b>	<b>-25,2</b>	<b>+29</b>
<b>m-ksilol (1,3-dimetilbenzol)</b>	<b>139,1</b>	<b>-47,9</b>	<b>+29</b>
<b>n-ksilol (1,4-demetilbenzol)</b>	<b>138,3</b>	<b>+13,3</b>	<b>+29</b>
<b>Psevdokumol (1,2,4-trimetilbenzol)</b>	<b>169,3</b>	<b>-43,8</b>	<b>-</b>
<b>Durol (1,2,4,5,-tetra-metilbenzol)</b>	<b>196,8</b>	<b>+79,2</b>	<b>-</b>
<b>Naftalin</b>	<b>218,0</b>	<b>+80,3</b>	<b>-</b>

6-jadvaldan ko'rinish turibdiki, ksilol izomerlarining qaynash temperaturasi bir-biriga yaqin, ulami qisman rektifikatsiya yo'li bilan ajratish mumkin. n-ksilol va durol boshqa izomerlarga nisbatan yuqori temperaturada suyuqlanadi, shuning uchun ulami aralashmalardan qayta kristallah usuli bilan ajratiladi. Bu usul naftalinni ajratish uchun ham qo'llaniladi.

Aromatik uglevodorodlar qutbli erituvchilardan dietilenglikol, fenolda yaxshi eriydi. Ular qattiq sorbentlarga (aktivlangan ko'mir, silikagel) yaxshi yutiladi. Ushbu xossalari hisobiga aromatik uglevodorodlami sanoatda ekstraksiya, ekstraktiv haydash va

adsorbsiya yo‘li bilan ajratish mumkin. 6-jadvaldan ko‘rinishi bo‘yicha aromatik uglevodorodlar benzol, toluol va ksilollami chaqnash temperaturasi ancha past, shuning uchun ularni alanglanishi oson. Aromatik uglevodorodlar boshqa uglevodorodlar sinfiga nisbatan zaharli hisoblanadi. Qonni zaharlash xususiyatiga ega. Aromatik uglevodorodlarni olish manbai neft mahsulotlarini piroliz va riforming jarayoni hamda toshko‘mimi kokslashdir.

### **Katalitik riforming jarayonining umumiy xarakteristikasi.**

Hozirda neftni qayta ishlash zavodlarida benzin sifatini yaxshilash imkonini beruvchi, shuningdek qimmatbaxo monomerlar olish jarayonlaridan biri katalitik riforming hisoblanadi va bu jarayon keng tarkalgan bo‘lib, ayni vaqtida katalitik riforming qurilmalari asosan platinali katalizatorlar ishtirokida boradi.

Katalitik riforming jarayonidan maqsad, yuqori oktanli avtomobil benzin komponentini ishlab chiqarish, shuningdek aromatik uglevodorodlar: benzol, toluol, ksilollar olishdir. Jarayon natijasida vodorod saqlovchi gaz ham olinadi va keyinchalik yoqilg‘i, moy va boshka frakstiyalarni gidrotozalashda ham gidrokreking qurilmalarida foydalilanildi.

Katalitik riforming xom-ashyosi bo‘lib to‘g’ri haydashdan olingan benzin frakstiyalari xizmat qiladi. Yuqori oktanli benzin olish uchun  $85-180^{\circ}\text{C}$ da qaynovchi benzin frakstiyalari xizmat qilsa, benzol, toluol, ksilol olish uchun  $62-85^{\circ}\text{C}$ ,  $85-115^{\circ}\text{C}$  va  $115-150^{\circ}\text{C}$  frakstiyalaridan foydalilanildi. Ba’zida keng benzin frakstiyalariga termik kreking jarayonidan olingan past oktanli benzin ham qo’shiladi.

Bunda xom-ashyo oltingugurtli bo’lsa, katalizator zaharlanishi mumkin, shuning uchun doim riformingda gidrotozalangan xom-ashyo kiritiladi. Xom-ashyo tarkibidagi oltingugurt miqdori 0,01% (mass.) bo’lishi kerak.

Katalitik riforming vaqtida neftning benzin frakstiyasi uglevodorodlarining katta miqdori aromatik uglevodorodlarga aylanadi. Bunda olti a’zoli naften uglevodorodlari degidrirlanishi va parafin uglevodorodlarni degidrostikllanishi kuzatiladi. Bir vaqtning o’zida aromatik uglevodorodlarni dealkillanish reakstiyalari ham boradi. Shuningdek, ularni zichlanishi tufayli katalizator yuzasida koks qatlarni hosil bo’lishiga olib keladi. Katalizator kokslanishini oldini olish va riforming vaqtida hosil bo’lgan tuyinmagan uglevodorodlar gidrogenlanishi uchun reaktordagi vodorodbosimini yuqori oktanli benzin olishda 3-4 MPa, individual aromatik uglevodorodlar olishda 2 MPa saklash zapur.

Barcha asosiy reakstiyalar issiqlik yutilishi bilan boradi. Uglevodorodlarni o’zgarish darajasi jarayon issiqlik effekti yig’indisiga ko‘ra aniqlanadi. Jarayon borishida harorat ( $480-520^{\circ}\text{C}$ ) pasayadi va xom-ashyoda boshqa o’zgarish kuzatilmaydi. Shuning uchun xom-ashyoni to’la o’zgarishi uchun aralashma oraliq qizdirishdan o’tkazish lozim. Jarayon to’la o’tishi uchun odatda 3ta ketma-ketlikda o’rnatilgan reaktorlardan foydalilanildi.

Yuqori oktanli benzin komponentini chiqish miqdori 80-85% (mass.)ni tashkil etadi, uningoktanli soni 80-85 (motor usulida)ga teng.

Riforming jarayonini o’tkazishda asosan sanoat katalizatorlaridan hisoblangan alyumoplatinali katalizatorlar (0,3-0,8 mass.platina) qo’llaniladi. Keyingi yillarda platina bilan reniy birikmasi katalizatorlari keng qo’llanilmokda. Bimetalli platina-reniyli

katalizatorlarni qo'ullash orqali reaktordagi bosimni 3-4dan 0,70-1,4 MPa gacha pasaytirishga erishildi. Katalizator stilindrik shakldabo'lib, uning diametri 2,6mm, balandligi 4mm bo'ladi.

Katalitik riforming jarayoni umumiy tavsifi.

Ushbu qurilma tadqiqot usuli bo'yicha 102 oktan soni va motor usulida 90gacha bo'lgan, benzin ishlab chikarish uchun xizmat qiladigan mahsulotlar tarkibiga kiradigan etillanmagan riformatni va vodorodni iste'mol qiluvchi barcha qurilmalar uchun vodorod ishlab chikarish uchun mo'ljallangan. Qurilma ATdan etkaziladigan gidrotozalangan og'ir naftani qayta ishlaydi. Jarayon u yoki bu reakstiyalarni faollashtiradigan 0,3% (mass) platina va promotorlar bilan to'yintirilgangan glinozyom bo'lgan katalizator ishtirokida olibboriladi.

Xom-ashyo materiallar, mahsulotlar tavsifi.

Katalitik riforming qurilmasi uchun xom-ashyo bo'lib neftni atmosferali haydash qurilmasi frakstiyalash bo'limidan etkaziladigan past oktanli gidrotozalangan benzin ishlatiladi. Riforming jarayonini olib borishda ishlab chiqariladigan vodorodning bir qismi ishlatiladi. Katalizatorni faollashtirish uchun juda kam miqdorda suv, xlororganik birikmalar va DMDSlar (dimetildisulfid) ishlatiladi. Qurilmaga etkaziladigan xom-ashyoning tarkibida mexanik qo'shimchalar emulgastiyalangansuv, suvda erigan kislota va ishqorlar bo'lmasligi kerak. Katalizatorlar – yuqori oktanli etillanmagan benzinni olish uchun girotosalangan benzinni riformlash, glikozyomni 0,3% platina va promotorlar bo'lgan to'yintirilgan katalizator ishlatiladi. Katalitik faollikni tashuvchisi bo'lib, platina xizmat qiladi. Xlororganikaning katalizatordagi konstentrasiyasi dozalash nasoslash orqali xloragentni qo'shishi hisobidan tutib turiladi. Xlororganik birikmalar katalizatorni reakstiya va regenirastiya stikllarida xlorlash uchun qo'llaniladi.

Ko'p ishlatiladigan xlororganik birikmalar quyidagilar:

- trixloretilen ( $C_2 H_3 Cl_3$ ),
- tetraxloretilen ( $C_2 H_2 Cl_4$ ),

Odatda qurilmada trixloretilen ( $C_2 H_3 Cl_3$ ) qo'llaniladi.

Trixloretilen tinik, yengil, harakatlanuvchi suyuqlik. Katalitik riforming regeneratoriga toza ko'rinishda va xom-ashyo qabuli quvuriga benzindagi 1%li eritma ko'rinishida uzatiladi.

Riforming jarayonini o'tkazish shartlariga asosiy omillar o'zgarishining ta'siri.

A. Xom-ashyoning sifati.

Xom-ashyo kimyoviy tarkibi, haydalishi va zichligi bo'yicha xarakterlanadi. Xom-ashyo qancha kam parafinlangan bo'lsa, uni riformatlash shuncha oson kechadi va aksincha parafinli xom-ashyo murakkabroq riformatlanadi, buning uchun degidrostiklizastiyaning qulay sharoitlarini ta'minlash kerak. Buni amalga oshirish qiyin. Haydash xom-ashyo komponentlarining harakati bo'yicha tarqalishini xarakterlaydi. Qaynash temperaturasining yuqori harorati  $180^{\circ}C$ .

V. Harorat.

Oktan sonini rostlash maqsadida harorat asosiy ishchi parametr hisoblanadi. Haroratni oshishi oktan sonini yaxshilaydi. Riformatni chiqishini kamaytiradi. Ristirkulyastion gazda vodorodni tozaligini kamaytiradi va koks hosil bo'lishini oshiradi.

V. Bosim.

Reaktordagi bosim asosiy parametr hisoblanadi. Bosim qancha past bo'lsa, belgilangan oktan soniga riformat va vodorodning chiqishi shuncha yuqori bo'ladi. Bosimni pasayishi koks hosil bo'lishini kuchaytiradi, ammo amortizastiya darajasini pasaytiradi. Bosimning pasayishida turbokompressorning unumdorligi pasayadi va vodorod saqlagan gazning aylanma harakatining karraligi pasayadi. Bosimnin goshishi bilan gaz hosil bo'lishi oshadi, katalizatnin gchiqishi pasayadi.

G. Vodord saqlagan gazning aylanish karraligining tavsija etiladigan yuqori bo'lishi qurilmaning unumdorligini pasaytiradi, aksincha uning pasayishi katalizatorda koks hosilbulishini kupaytiradi.

D. Aylanma gazda vodorodning miqdori (konst- si)

Aylanma harakatlanayotgazda vodorod konstentrasiyasining pasayishi katalizatordagi yuqori koks hosilbo'lishiga olib keladi, riforming asosiy reakstiyalari tezligini oshiradi.

E. Katalizatorning faolligi.

Katalizator metallari oksidlar ko'rinishida hosil bo'ladi va ularni faol bo'lishi uchun vodorod yordamida tiklash zarur. Tiklanishda metall fazasini yaxshi dispersiyasini ta'minlash uchun tiklanishdan oldin katalizator dastlab yuqori haroratda bo'rishi kerak. Katalizator metal funkstiyasining faolligi uchun metalning yaxshi disperstiysi birlamchi ahamiyatga egadir. Uning faolligi ko'rsatkichlarini dispersiyaga bog'lik holda stiklogeksanning benzolga degidrirlash reakstiyasi bilan tavsiflash mumkin.

J. Xlororganikaning ta'siri.

Xlor katalizatorda kerakli kislotalilikni beradi. Katalizatorning kislotaliligi katalizator massasidan 0,9-1,1% chegaradagi xlor miqdoriga rostlanadi. Xloring ortiqchasi juda katta kislotalilik vodorodning iste'molchilari bo'lishi va riformat bo'yicha unumdorlik uchun nomaqbul bo'lishi gidrokrekkingning reakstiyalarini kuchaytiradi. Bundan tashqari, haroratning oshishiga olib keladi, koks hosil bo'lishiga zamin yaratadi. Judapast kislotalilik katalizatorning kislotalilik funkstiyasini pasaytiradi, bu aromatik birikmalar hosil bo'lishini kamaytiradi.

Riforming jarayoning kimyoviy reakstiyalari.

## **Qo'zg'almas katalizator qatlamida boruvchi riforming**

Qurilma quyidagi bloklardan iborat: xom-ashyonidagi gidrotozalash, stirkulyastyalanuvchi gazni tozalash, katalitik riforming, gazlarni separatsiyalash va benzinni barqarorlashtirish.

Xom-ashyo 12-nasos orqali bosim ostida (4,7 MPa) gidrotozalangan stirkulyastyalanuvchi vodorod saqlagan gaz va riformingdan ajralgan ortiqcha vodorod saqlovchi gaz bilan aralashtirishga beriladi. Bu aralashma 16-pechning alohida bo'limida qizdiriladi ( $450^{\circ}\text{C}$ ) va 15-gidrotozalash reaktoriga kiritiladi. Reaktordagi alyumokobaltmolibdenli (AlCoMo) katalizator ishtirotkida oltingugurtli birikmalar buzilib, so'ngra vodorod sulfid ( $\text{H}_2\text{S}$ ) holida chiqariladi. Shu bilan bir vaqtida azotli va kislordanli birikmalardan ham tozalash jarayoni boradi. Bug'-gazli aralashma 15-reaktordan chiqib, 10-qaynatgich va 14-sovutgichda sovutiladi va  $35^{\circ}\text{C}$  harorat bilan 8-gazoseparatorga kiritiladi. Bu erda aralashma suyuq gidrogenizatga va gazga aralashtiriladi. Gaz 2-absorber pastki qismidan monoetanolamin (MEA) yordamida vodorod sulfiddan tozalash uchun kiritiladi, so'ngra 11-kompressor yordamida 4,7-5,0 MPa bosimgacha siqiladi va

gidrotozalash tizimiga yuboriladi. Ortiqcha gaz 1-kompressor yordamida 5MPagacha siqiladi va qurilmadan chiqariladi.


Gidrogenizat 8-gaz separatoridan 9-issiqlik almashtirgichda sovutiladi va 7-bug'latuvchi kolonnaga kiritiladi. Kolonna yuqori qismidan chiquvchi vodorod sulfid, uglevodorod gazlari va suv bug'i 6-sovutgichda sovutiladi va 4-separatorga yuboriladi. Separator pastki qismidan 5-nasos orqali kondensat yig'id olinadi va 7-bug'latuvchi kolonnaga qaytariladi. Vodorod sulfid va uglevodorod gazlari MEA bilan tozalash uchun 3-kolonnaga kiritilladi. Kolonna yuqori qismidan chiquvchi bug'lar 27-frakstiyalovchi absorberga yuboriladi.

Gidrogenizat 7-bug'latuvchi kolonna pastki qismidan chiqarilib 10-qaynatgich va 9-issiqlik almashtirgichdan so'ng, 13-nasos orqali riforming blokiga yuboriladi. Gaz mahsuloti aralashma dastlab 20-issiqlik almashtirgachda qizdiriladi, keyin 16-pechda 500-520°C haroratda 19-reaktorga kiritiladi. Aralashma 18 va 17-reaktorlardan ketma-ketlikda o'tib, har bir reaktordan so'ng 16-pechda qizdiriladi va nihoyat oxirgi 17-reaktordan keyin gaz mahsuloti 20-issiqlik almashtirgich va 21-sovutgichda 30°Cgacha sovutiladi va 22-yuqori bosimli separatorda (3,2-3,6 MPa) katalizatdan stirkulyastyalanuvchi vodorod saqlagan gazni ajratish uchun kiritiladi. Stirkulyastyalanuvchi gaz 5 MPa bosim ostida 24-kompressor yordamida platforming tizimiga qaytariladi, ortiqchasi esa gidrotozalash tizimiga uzatiladi. Beqaror katalizat 22-separatordan 23-past bosimli separatorga (1,9 MPa) kiritiladi. Katalizatdan ajralgan uglevodorodli gaz separator yuqori qismidan chiqarilib, 27-frakstiyalovchi absorberga kirishdan oldin gidrotozalashdagi uglevodorod gazlari bilan aralashtiriladi. Absorbent sifatida beqaror katalizat (benzin) xizmat qiladi. 27-absorberda 1,4 MPa bosimda yuqorida harorat 40°C da quruq gaz ajratiladi. Beqaror katalizat 26-nasos yordamida 31-issiqlik aralashtirgich orqali 34-kolonnaga beriladi va bu erda beqarorlashtiriladi. Mahsulotning bir qismi 27 va 34-kolonnaning pastki qismidagi haroratni tutib turish uchun 28-pech orqali stirkulyastiya qilib turiladi. Barqarorlashtirishni bosh frakstiyasi 32-jihozda sovutiladi va 33-yig'gichga kiritiladi, u erda 35-nasos orqali kolonnaga "sovuj-sug'orish" sifatida qaytariladi, ortiqchasi qurilmadan chiqariladi.

Kolonna 34ni pastki qismidan barqaror benzin 31 va 30-issiqlik almashtirgichda sovutilgandan keyin 29-nasos orqali 27-frakstiyalovchi absorberga kiritiladi, uning ortiqcha qismi qurilmadan chiqariladi.

#### Qurilma ish rejimi:

Harorat, 0C.....	480-520
Bosim, MPA.....	3-4
Xom-ashyoni uzatish hajmi tezligi, soat-1.....	1,5-2,0
Stirkulyastyalanuvchi N <sub>2</sub> saqlagan gazning xom-ashyoga nisbatan karraligi, m <sup>3</sup> /m <sup>3</sup> .....	1500
Bosqichlar bo'yicha katalizatorni taqsimlanishi .....	1:2:



**Rasm-9. Qo`zqalmas katalizator qatlamida boruvchi katalitik riforming texnologik sxemasi:**

1, 11, 24 – kompressor; 2 – absorber; 3 – vodorod sulfiddan tozalash kolonnasi; 4 - separatorlar; 5, 12, 13, 25, 26, 29, 35, 36 - nasoslar; 6 – kondensator-sovitgich; 7- bug'latish kolonnasi; 8, 22, 23 – gaz-separatorlari; 9, 20, 30, 31 - issiqlik almashtirgichlar; 10 - qaynatkich; 14, 21 - sovitkichlar; 15 – gidrotozalash reaktori; 16 – ko'p seksiyali pech; 17-19 – reforming reaktorlari; 27 – fraksiyalovchi absorber; 28 - quvurli pech; 32 - havoli sovitish jihozlari; 33-yig'gich; 34 – barqarorlashtirish kolonnasi.

### Nazorat savollari

1. Katalitik riforming jarayonini o'tkazishdan maqsad nima?
2. Katalitik riforming jarayonlarida qanday katalizatorlar qo'llaniladi?
3. Sirkulyatsiyalanuvchi vodorod saqlovchi gazni jarayondagi o'rni qanday?
4. Katalizatorni qayta tiklash qanday shariotda o'tkaziladi?
5. Aromatik uglevodorodlarni tavsiflang.

### 6-Ma'ruza Atsetilen ishlab chiqarish. Reja:

1. Atsetilen haqida.
2. Atsetilen generatorining tuzilishi
2. Atsetilenni kalsiy karbiddan olish texnologiyasi.

Atsetilen etin  $C_2H_2$  uch bog'li to'yinmagan uglevodorodlarning eng oddiy vakili. Mol. m. 26,04. Rangsiz gaz. Suyuqlanish temperaturasi —  $81^\circ$  (1277 mm sim. ust. da). Toza Atsetilen hidsiz. Atsetilen yuqori bosim ostida qizdirilsa portlaydi, havo bilan aralashmasi ham portlashi mumkin. Atsetilen kalsiy karbidga suv ta'sir ettirib olinadi. U yuqori temperaturada chala oksidlab va elektr kreking yordamida metandan (tabiiy gazdan) ham hosil qilinadi. Atsetilen kimyoviy reaksiyalarga juda yaxshi kirishadi. U birikish reaksiyasiga kirishganda, reaksiya ikki bosqichda boradi, birinchi bosqichda etilen

qatoriga kiruvchi birikmalar hosil bo‘lib, ikkinchi bosqichda bular to‘yingan birikmalarga aylanadi. Atsetilenni xlorlash reaksiyasidan foydalanib, sanoatda ko‘p ishlatiladigan geksaxloretan va trixloretilen kabi muhim birikmalar olinadi. Atsetilenga simob tuzlari ishtirokida suv molekulasingin birikishi (qarang Kucherov reaksiyasi) natijasida atsetaldegid hosil bo‘ladi yoki Atsetilen katalizator ishtirokida polimerlansa, kauchuk ishlab chiqarishda xomashyo vazifasini o‘taydigan vinilatsetilen olinadi. Atsetilen to‘yinmagan birikma bo‘lishiga qaramay, urin almashinish reaksiyalariga ham kirishishi mumkin. Atsetilen 1836-yilda kashf qilingan. Uni ilk bor 1862-yil fransuz kimyogari M. Bertlo ko‘mir va vodoroddan sintez qilgan. Nemis kimyogari F. Vyoler 1862-yilda Atsetilenni kalsiy karbidsan quyidagi reaksiyaga asosan olish mumkinligini ko‘rsatib berdi:



Bu usul hozir ham texnik usullardan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Sanoatda Atsetilen olishning muhim usuli tabiiy gazlarni termik krekinglashdir. Uni elektrokreking usuli bilan metanni volta yoyi orqali (1600ye da) o‘tkazib olish ham mumkin. Atsetilen yonishidan ko‘p miqdorda issiqlik ajralib chiqqanligi uchun metallarni payvandlashda va har xil mahsulotlarni sintez qilishda ishlatiladi

Atsetilen-rangsiz gaz bo‘lib, toza holda efir hidiga ega; -83,8°C temperaturada (0,102 M Pa bosimda) kondensatsiyalanadi. Atsetilennenning havo bilan 2,0-8,1% aralashmasi; kislород bilan 2,8-78% aralashmasi portlash xavfiga ega. Atsetilen parchalanish natijasida katta miqdorda issiqlik ajraladi:




Ushbu parchalanish kislородsiz muhitda kerakli initsiatorlar ishtirokida sodir bo‘ladi. 0,2MPa bosimda sodir bo‘ladigan parchalanish uncha xavfli bo‘lmaydi. Yuqori bosimdagи parchalanish reaksiyasi 1000 m/s tezlikdagi detonatsiya to’lqinida portlash bilan sodir bo‘ladi. Portlashni oldini olish uchun reaksiyani 0,2 MPa bosim ostida olib boriladi. Bosim ostida ishlash vaqtida atsetilen azot bilan suyultiriladi. Atsetilenni siqish uchun maxsus atsetilen kompressorlari qo’llaniladi. Atsetilenni yana bir muhim texnik xossalardan biri, uning boshqa uglevodorod gazlariga nisbatan yaxshi erish xususiyati hisoblanadi. Masalan, 20°C haroratda 1 hajm suvda 1 hajmga yaqin atsetilen eriydi, 60 °C da esa 0,37 hajm eriydi. Atmosfera bosimi va 20°C da atsetilennenning eruvchanligi quyidagicha,%: metanolda-11,2; atsetonda- 23, dimetilformamidda-32; N-metilpirrolidonda-37. Atsetilenni olish va boshqa gazlar aralashmasidan ajratishda atsetilennenning eruvchanligi muhim ahamiyatga ega.

### **Atsetilen ishlab chiqarishning ikki usuli mavjud:**

1. Kalsiy karbiddan olish.
2. Uglevodorodlardan olish.

**Atsetilenni kalsiy karbiddan olish texnologiyasi.** Bizga ma’lumki, kalsiy karbidi kalsiy oksidi va koksdan olinadi. Reaksiya kuchli ekzotermik bo‘lib katta elektrenergiya sarfini talab etadi, bu esa ishlab chiqariladigan atsetilennenning tan narxida o‘z aksini topadi.



**Kalsiy karbidga suv ta'sir ettirilsa, atsetilen hosil bo'ladi (reaksiya ekzotermik tarzda sodir bo'ladi):**




**1 kg texnik kalsiy karbiddan (tarkibida koks, kalsiy oksid va boshqa aralashmalar) 230–280 litr atsetilen olinadi. Nazariy jihatdan olganda esa 1 kg toza  $\text{CaC}_2$ dan 380 litr atsetilen olish mumkin.**

Kalsiy karbidni parchalanish reaksiyasida jarayonni yaxshi sodir bo'lishi uchun ma'lum bir shart-sharoitlarga amal qilish kerak. Reaksiya geterogen bo'lganligi sababli, uning tezligi kalsiy karbidning yirik yoki maydaligiga bog'liq. Kalsiy karbid qancha mayda bo'lsa, reaksiya tezligi shuncha katta bo'ladi. Reaksiya aralashmasini aralashtirib turish kerak, chunki karbidning sirtida ohak qatlami hosil bo'lishi mumkin; u esa  $\text{CaC}_2$  ni to'liq parchalanishiga xalaqt beradi. Reaksiya muhitida hosil bo'lgan issiqlikni tashqariga chiqarib turish kerak, chunki atsetilen polimerlanishi yoki parchalanishi mumkin. Atsetilen generatorlari. Kalsiy karbidni suv ta'sirida parchalanishi sodir bo'ladigan apparatami atsetilen generatorlari deyiladi. Issiqlikni chiqarish bo'yicha generatorlar ikki turga bo'linadi: 1. Ho'l turdag'i generatorlar, bu generatorlardagi reaksiya issiqligi ortiqcha suv yordamida sovitiladi. Generatorlarda 1kg  $\text{CaC}_2$ ga 10kg suv sarflanadi, bunda kalsiy gidroksid suvda suspenziya ko'rinishida hosil bo'ladi uni tiklash mumkin emas.

2. Quruq turdag'i generatorlar. Ulardagi issiqlik ortiqcha olingan suvning bug'lanishi natijasida reaksiya muhitidan chiqariladi. Bu usulda kalsiy gidroksid quruq holda hosil bo'ladi va uni qurilish materiallari olishda qo'llash osonlashadi.

Ho'l turdag'i generatorlar reagentlarni solish bo'yicha quyidagi sistemalarga bo'linadi: «suvga karbid», «karbidga suv» va kontaktli (suv va karbid o'zaro ta'sirda). Sanoatda ko'p miqdorda atsetilen olish uchun «Suvga karbid» turdag'i generatorlarni qo'llash xavfsiz hisoblanadi. Bu apparatlarda karbid bo'laklari ortiqcha olingan suvga solinadi. Bu apparatni qizib ketishini oldini oladi va reaksiya issiqligini chiqarish uchun shart-sharoit yaratadi, «suvga karbid» turdag'i atsetilen generatorlari bilan tanishamiz (11-rasm). Apparatning taxminan Va qismi kalsiy gidroksidning suvli suspenziyasi bilan to'ldiriladi. 50-80 mm o'lchamdag'i  $\text{CaC}_2$  dastlab, 1-oraliq bunkerga keladi, u yerdagi havoni siqib chiqarish uchun azot yuboriladi.

So'ngra 2-konusimon qopqoq ochiladi va kalsiy karbid 2-bunksrga tushadi. Kalsiy karbidni kelishini avtomat tarzda 4-sektorli baraban boshqaradi. Sektorli baraban tezligini atsetilenga bo'lgan ehtiyojga qarab boshqarib turiladi. Kalsiy karbid bo'lakchalari 6-trubadan o'tib 5-konusga keladi va karbidning parchalanishi 10-ralashtirgich yordamida 9-tuynukchalarda sodir bo'ladi. Aralashtirgich yordamida kalsiy karbid bo'lakchalaridagi ohak qatlami tozalanadi.



**11-rasm. Suvga karbid turidagi atsetilen generatorining sxemasi:**

1,3-kalsiy karbid solish bunker; 2-qopqoq; 4-sektor barabani;  
5-taqsimlovchi konus; 6-yutuvchi truba; 7-gidravlik idish; 8-qobiq;  
9-tuynukchalar; 10-arashtirgich; 11-shlyuzli zatvor.

Kalsiy karbid suv ta'sirida parchalanishi natijasida kalsiy gidroksidining suvdagi suspenziyasi (ohakli sut), shuningdek, koks, fenrosilitsiy aralashmasidan iborat shlam hosil bo'ladi. Shlam generatoming tagida cho'kadi va 11-shlyuzli zatvorda yig'ladi. Ohakli sut uzlusiz ravishda generatorning pastki qismidan chiqariladi va tindiriladi. Tindirilgan eritmaga suv qo'shiladi va CaC<sub>2</sub> ni parchalash uchun generatorga yuboriladi. Hosil bo'lgan atsetilenni generatordan tashqariga chiqariladi. Bosim ortib ketsa (400-450 MPa) ortiqcha hosil bo'lgan gaz 7-gidravlik zatvor yordamida atmosferaga chiqariladi. «Suvga karbid» turidagi generatorlarda soatiga 500 m<sup>3</sup> atsetilen ishlab chiqariladi.

Atsetilen aralashmalari va ularni tozalash. Generatordan chiqayotgan atsetilen yuqori konsentratsiyaga ega (99%) bo'lib, uning tarkibida 1% quyidagi aralashmalar mavjud: NH<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>S, PH<sub>3</sub> va h.k. Bu moddalar kalsiy karbid tarkibidagi birikmalami suvda parchalanishi natijasida hosil bo'ladi:




Bu moddalar (NH<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>S) zararli bo'lib, atsetilenni qayta ishlash jarayonida qo'llaniladigan katalizatorni zaharlash qobiliyatiga ega (masalan, ikki valentli simob tuzlarini qaytaradi), shuning uchun karbid usuli bilan olingan atsetilenni tozalash jarayoni eng zarur bosqichlardan biri hisoblanadi. Buning uchun, ya'ni atsetilenni tozalash uchun natriy gipokloritning suvli eritmasidan foydalilanadi, u aralashmadagi birikmalami kerakli kislotalarga oksidlaydi, masalan:



Endi ho'l usul yordamida kalsiy karbiddan atsetilen olish texnologiyasi bilan tanishasiz (12-rasm). Kalsiy karbid 1-vagonetkalarda 2-monorelsdan «ho'l» turdag'i 6-generator bunkeriga tushiriladi. Kalsiy karbidni parchalanishi natijasida hosil bo'lgan

ohakli sut uzluksiz harakatlanuvchi aralashtirgichli 5-tindirgichga yuboriladi. Aralashtirgich hosil bo'lgan ohak loyqasini markaziy tushirilish shtutseri tomonga suradi. Ohak loyqasi maxsus nasoslar yordamida tindirish o'ralariga yuboriladi. Tindirilgan kalsiy gidroksidning suvli eritmasi 5- tindirgichdan 4-sovutgich orqali 3-bakka qaytib keladi, u yerda unga kerakli miqdorda suv qo'shiladi va 6-generatorga yuboriladi. Generatorda hosil bo'lgan atsetilenning temperaturasi 50-60°C bo'lgani sababli, uni 7-sovutgichda sovutiladi, kondensatdan ajratiladi va sulfat kislota eritmasi bilan namlangan 8-nasadkali skrubberdan o'tkaziladi. U yerda atsetilen ammiak qoldiqlaridan tozalanadi, so'ngra atsetilen gazi natriy gipoxlorit solingan 9-skrubberga yuboriladi. Oxirida atsetilen 10-ishqor solingan skrubberga yuboriladi, u yerda gipoxlorit kolonnasidan ilashgan xlordan tozalanadi. Barcha yutuvchi eritmalar sirkulatsiyasi nasoslar yordamida bajariladi; ishlatilib bo'lingan eritmaning bir qism sistemadan chiqariladi va tozasi bilan aralashtiriladi. Tozalangan atsetilen 11-ho'l gazgolderda yig'iladi, 12-yong'inni oldini oluvchi to'siqdan o'tadi va 13-kompressor yordamida iste'mol uchun yuboriladi.

Atsetilenni quruq usuldagagi generatorlar yordamida olish texnologiyasida tindirgich va sovutgich bo'lmaydi.



### **12-rasm. Kalsiy karbiddan atsetilen olish texnologiyasi:**

**1-vagonetkalar; 2- monorels; 3- bak; 4-7- sovutgich; 5- tindirgich;**  
**6- atsetilen generatori; 8-10- skrubbyler; 11-gazgolder;**  
**12- yong'inni to'suvchi apparat; 13- kompressor.**

#### **Tayanch so'z va iboralar**

Atsetilen, kalsiy karbid, ekzotermik, polimerlanish, atsetilen generatorlari, xo'l turdag'i generatorlar, quruq turdag'i generatorlar, katalizator

#### **Nazorat savollari**

1. Atsetilennenning fizik-kimyoiy xossalari.
2. Atsetilen ishlab chiqarishning nechta turi mavjud?
3. Kalsiy karbiddan atsetilen olish qanday amalga oshiriladi?
4. Ho'l turdag'i atsetilen generatorlari.
5. Suvga karbid turidagi atsetilen generatorlari.


## 7-Ma’ruza

### Eterifikatsiya jarayonlari.

#### Reja:

1. Eterifikatsiya jarayonlari tavsifi
2. Karbon kislotalar efirlarini sintez qilish texnologiyasi. Olingan mahsulotlar.
3. Eterifikatsiya jarayoni texnologiyasi.


Murakkab efirlar hosil bo’lishiga olib keluvchi barcha jarayonlarga eterifikatsiya reaksiyalari deyiladi. Ushbu mavzu bo‘yicha kislota, ularning angidridlari va xlorangidridlarini spirtlar va olefinlar bilan reaksiyalarini ko‘rib chiqamiz. Jarayon kimyosi va nazariy asoslari. Eterifikatsiya reaksiyalarining eng muhimlaridan biri organik va noorganik kislotalami spirtlar bilan o‘zaro ta’siri natijasida murakkab efirlar va suv hosil bo’lishi jarayonlari hisoblanadi.



Ikki asosli kislotalar ishtirokida ikki qator nordon va o‘rtacha efirlar hosil bo’ladi, ularning chiqimi ta’sir etayotgan reagentlar nisbatiga bog’liq:



Ikki va ko‘p atomli spirtlar uchun to’liq va to’liq bo’limgan efirlar hosil bo’ladi, bu hol reaksiya reagentlari nisbatiga bog’liq:



Kislota va spirt bifunksional bo’lganda, jarayon yuqori molekulalni birikmalar hosil bo’lishi bilan sodir bo’ladi, ya’ni poliefirlar hosil bo’ladi:




Yuqoridagi reaksiyalar muvozanatda sodir bo’ladi, qaytar jarayonlarda esa murakkab efirlar gidrolizga uchraydi.

Spirtlarni karbon kislotalar bilan eterifikatsiyasini katalizatorlarsiz olib borish mumkin, lekin bu hoi u juda sekin ketadi, reaksiyani yetarli tezlikda olib borishi uchun yuqori temperatura kerak bo’ladi ( $200\text{-}300^\circ\text{C}$ ). Agarda katalizator aralashmasi yomon yuvilsa va mahsulot sifatiga salbiy ta’sir etganda, nokatalitik jarayon qo’llaniladi.

Kislota katalizatorlari ( $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HCl}$ , ion almashinuvchi smolalar) ishtirokida murakkab efirlar eterifikatsiya va gidroliz jarayolari  $70\text{-}150^\circ\text{C}$  suyuq fazada olib boriladi. Katalizator sifatida geterogen kislota turidagilari ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ , alyumosilikatlar, fosfatlar) ham qo’llaniladi. Bunda eterifikatsiya jarayoni gaz fazasida olib boriladi, lekin bu usul deyarli kam qo’llaniladi. Ba’zi hollarda, masalan, ko‘mir va fosfat kislota bilan spirtlar asosida

murakkab efirlar olishda reaksiya kerakli natija bermaydi, shuning uchun ularning xlorangidridlaridan foydalaniladi:



Karbon kislota xlorangidridlarining narxi ancha qimmat bo'lganligi sababli, ularning o'miga kislota angidridlaridan foydalanish mumkin. Ularning spirtlar bilan reaksiyalari ikki bosqichda sodir bo'ladi. Dastlab murakkab efir va kislota hosil bo'ladi va jarayon shu bilan tugaydi. Lekin sharoit o'zgartirilsa, ajralib chiqayotgan kislota bilan spirt eterifikatsiya reaksiyasiga kirishadi, bunda angidriddagi ikkala atsil guruhi ishtirok etadi:




Ozgina qizdirishi natijasida birinchi bosqich boshlanadi va kuchli mineral kislotalar ta'sirida tezlashadi. Ikkinci bosqich ham erkin kislotalar ishtirokidagi eterifikatsiyaga o'xshaydi va u ham kislotali katalizatorlami talab etadi.

Kislota angidridlari ishtirokidaga eterifikatsiya kislotaga nisbatan ancha qimmat bo'lganligi sababli, kam qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan eterifikatsiya agentlaridan eng faoli xlorangidridlar, pasti angidridlar va eng pasti karbon kislotalar hisoblanadi:



Qo'shilayotgan sinf reaksiyalariga murakkab efirlar alkagolizi (1) va atsidolizi (2) va pereeterifikatsiya (3) jarayonlari kiradi.



Ulardan eng ahamiyatlisi murakkab efirlar alkagolizi hisoblanadi. Alkagoliz, atsidoliz va pereeterifikatsiya jarayonlar karbon kislotalar eterifikatsiyasi kabi kuchli kislotalar katalizatorligida sodir bo'ladi. Oxirigi vaqtarda karbon kislotalarni olefinlar bilan to'g'ri eterifikatsiyasi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.


Bu jarayonda olefinlarni spirtlarga gidratatsiya bosqichi sodir bo'lmaydi, reaksiya kislota turidagi katalizatorlar ishtirokida tezlashadi:



### **Karbon kislotalar efirlarini sintez qilish texnologiyasi. Olingan mahsulotlar.**

Karbon kislotalar murakkab efirlari muhim amaliy ahamiyatga ega, ular erituvchi, gidravlik suyuqlik, moylovchi moylar, plastifikator va monomerlar sifatida qo'llaniladi. Sirka kislota va past spirtlar asosida olingan murakkab efirlar ancha arzon bo'lganligi sababli erituvchi sifatida qo'llaniladi. Ushbu barcha efirlar rangsiz bo'lib, ular suvda yomon eriydi. Ular yonish va portlash xususiyatiga ega.

Etilatsetat  $\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$  ( $T_{\text{qayn.}} = 77,1^\circ\text{C}$ ). Uni etanolni sirka kislota bilan eterifikatsiyalab olinadi:



Sanoatda Tishenko reaksiyasi asosida, ya'ni alyuminiy alkogolyat ishtirokida atsetaldeggidan etilatsetat olinadi:




Bir atomli spirtlar-etanol gomologlari bilan sirkə kislota asosida olingan murakkab efirlar orasida eng muhimini quyidagilar hisoblanadi:

$\text{CH}_3\text{COOCH}(\text{CH}_3)_2$   
izopropilatsetat ( $T_{qayn} = 88,4^\circ\text{C}$ )  
 $\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$   
izobutilatsetat  
( $T_{qayn} = 116,5^\circ\text{C}$ )  
 $\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$   
n-butilatsetat ( $T_{qayn} = 126,5^\circ\text{C}$ )  
 $\text{CH}_3\text{COOCH}(\text{CH}_3)\text{C}_2\text{H}_5$   
ikkilamchi-butilatsetat  
( $T_{qayn} = 112,4^\circ\text{C}$ )

Izopropil va ikkilamchi butilatsetat olish uchun propil yoki n-butenni sirkə kislota bilan eterifikatsiyalanadi:



Ko'p atomli spirtlar-etilenglikol va glitserin bilan sirkə kislota asosida ham murakkab efirlar olish mumkin, ularni erituvchi sifatida qo'llaniladi:



Ftal angidrididi va  $\text{C}_4\text{-C}_8$  spirtlar asosida olingan murakkab efirlar plastifikator sifatida muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, izooktanol va 2- etilgeksanoldan sintez qilinganlari:




### Eterifikatsiya jarayoni texnologiyasi.

Murakkab efirlar olish jarayonini ikki katta guruhgaga ajratish mumkin: 1) Katalizatorsiz suyuq fazada boruvchi yoki gomogen katalitik jarayonlar, bunda kimyoviy reaksiya ajratish jarayoni bilan birgalikda olib boriladi; 2) Suyuq yoki gaz fazasida boruvchi geterogen katalitik reaksiyalar ajratish jarayonisiz alohida apparatlarda olib boriladi. Birinchi turdag'i jarayonlar eterifikatsiya texnologiyasida keng tarqalgan.

Etilatsetat olish uzluksiz texnologik sxemasi bilan tanishamiz (31-rasm). 1-bakdan sirkə kislota, etanol katalizator sulfat kislotadan iborat reagentlar aralashmasi 2-isitgichda isigandan so'ng 4-eferizatorning tepe qismiga yuboriladi. Kolonnani bug' bilan isitish

natijasida hosil bo'lgan etilatsetat spirt va suv bug'lari bilan birgalikda kolonnadan haydaladi, tarelkalardan pastga harakat qilayotgan suyuqlik esa suv bilan to'yinadi. Reaksiya massasini efirizatorda bo'lish vaqtini va xomashyo reagentlar shunday nisbatda olish kerakki, bunda kub suyuqligi tarkibida oz miqdorda reaksiyaga kirishmagan sirkakislota ( $H_2SO_4$  ham) bo'lishi kerak. Bu suyuqliknini kubdan tashqariga chiqariladi va neytrallangandan so'ng kanalizatsiyaga yuboriladi.



### 31-rasm. Uzluksiz usul bilan etilatsetat olish texnologiyasi:

1-bak; 2-issiqlik almashtirgich; 3-kondensator; 4-efirizator; 5,10-rektifikatsiya kolonnmlari; 6,9-kondensator-deflegmatorlar; 7-alarashtirgich; 8-seperator; 11-sovutgich; 12-yig'gich; 13-qaynatgich.

Reaktorning tepe tomonidan chiqayotgan gazlar tarkibida 70% spirt va 20% efirdan iborat. Bu gazlar sovutish va kondensatsiyalanish uchun dastlab 2-issiqlik-almashtirgichga keladi, u yerda isigandan so'ng 3-kondensatga yuboriladi, 2-apparatdagi kondensat va 3-apparatdagi kondensatning bir qismini 4-reaktoming tepe tomoniga yuboriladi. Qolgan qismi 5-rektifikatsiya kolonnasiga keladi, u yerda azeotrop aralashma suvli spirtdan ajratiladi. 5-kolonna kubi 13-qaynatgich yordamida isitiladi, 6-apparatda esa flegma hosil qilinadi, uning bir qismi sug'orish uchun ishlatiladi. 5-kolonna suyuqligi spirtdan va suvdan iborat. U kolonnadan chiqariladi va 4-eterizatoming pastki tarelkalariga kelib tushadi, shu bilan kolonnaning pastki qismi kerakli miqdordagi spirt bilan ta'minlanadi. 5-kolonnadan keladigan bug'lar 6-apparatda kondensatsiyalanadi, hosil bo'lgan kondensatning bir qismi u yerdan sug'orishga, qolgan qismi esa 7-alarashtirgichga keladi va teng miqdordagi suv bilan aralashtiriladi. Hosil bo'lgan emulsiya 8-seperatorda ajratiladi, ikkita qatlam hosil bo'ladi, yuqori qismi efir va unda erigan spirt, suvdan iborat, pastki qismi esa spirt va efirning suvli eritmasidan iborat. Pastki qismini 5-kolonnaning o'rta tomonidagi tarelkalariga yuboriladi. 8-seperatordagi efimi suv va spirtdan tozalash uchun yuboriladi. Bu jarayon 10-rektifikatsiya kolonnasida olib boriladi, bunda efir, spirt va suvdan iborat azeotrop aralashma bir-biridan haydash orqali ajratiladi. Aralashmaning bir qismi 9-kondensatordan o'tgandan so'ng 10-kolon-nani sug'orish uchun yuboriladi,

qolgan qismi esa 7-arashtirgichga qaytariladi. Etilatsetatni 10-kolonna kubidan sovutish uchun ll-sovutgichga yuboriladi, u yerdan esa 12-yig'gichda yig'ladi.

### Nazorat savollari:

- 1.Eterifikatsiya jarayoni nima maqsadda amalga oshiriladi?
- 2.Etil atsetat ishlab chiqarishda qanday xomashyolar ishlataladi?
- 3.Etil atsetat ishlab chiqarishda qanday katalizator dan foydalaniladi?
- 4.Murakkab efirlar qanday maqsadlar uchun qo'llaniladi.
- 5.Etil atsetat sintez qilish jarayoni qanday amalga oshiriladi?


### 8-Ma'ruza

#### Etanol ishlab chiqarish texnologiyasi

##### Reja:


1. Olefinlarni sulfat kislotali gidratatsiya usuli.
2. Etanol ishlab chiqarish.

**Olefinlarni sulfat kislotali gidratatsiya usuli.** Ushbu usul eng birinchi va hozirgacha qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Bu jarayon ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda olefinlar sulfat kislota bilan o'zaro ta'sir etib mono-, dialkilsulfatlar (sulfat kislota efirlari) hosil bo'ladi: ikkinchi bosqichda hosil bo'lgan mono- va dialkilsulfatlar suv ta'sirida gidrolizlanadi va bir atomli spirtlar hosil bo'ladi:



Olefinlarni sulfat kislota bilan gidratatsiyalashda jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun etilen boshqa gomologlardan yaxshilab tozalangan bo'lishi lozim, chunki ular (boshqa gomologlar)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta'sirida polimerlanish va smolasimon birikmalar hosil bo'lishi mumkin. Polimerlanishni oldini olish uchun absorbsiya o'tkaziladi. Bunda 60–98% li sulfat kislota  $0\text{--}70^\circ\text{C}$  temperatura va  $0,2\text{--}2$  MPa bosimda sulfat kislota va olefin shunday olinadiki, 1 mol  $\text{H}_2\text{SO}_4$  1,2–1,3 mol olefinni yutishi lozim, bu esa kislota sarfini kamaytiradi.

Etilen va propilenni sulfat kislota yordamida absorbsiyalash uchun 2 xil turdag'i apparatdan foydalaniladi (27-rasm). 27-rasmdagi a-turdagi apparat aralashtirgichli gorizontal absorber bo'lib, uning o'qiga ko'plab diskilar mahkamlangan. Absorberning ichki tomoniga taxminan  $1/3$  qism sulfat kislota solinadi, diskilar harakatlanganda tuman hosil bo'ladi, u esa fazalar yuzasida o'zaro muloqot bo'lischini kuchaytiradi. Reaksiya issiqligi suv yordamida sovutiladi. Bu apparat davriy ravishda ishlaydi. Rasmdagi b-turdagi apparat uzlusiz ravishda ishlaydi, u 20–25 tarelkadan iborat kolonnani tashkil qiladi. Har bir tarelkada trubkasimon sovutgich joylashgan bo'lib, undan sovuq suv o'tib turadi, sovuq suv ajralayotgan reaksiya issiqligini pasaytirishiga yordam beradi. Kolonnaning yuqorida tarelksiga kerakli konsentratsiyali toza sulfat kislota yuboriladi, kubdan kerakli tarkibdagi reaksiya massasi ajratiladi. Etilen yoki propilen kolonnanning pastki qismidan suyuqlikka qarama-qarshi yo'nalishda yuboriladi.



**27-rasm. Etilen va propilenni sulfat kislota bilan hidratlash qurilmalari:** a) diskli aralashtirgichli gorizontal absorber; b) uzlusiz ravishda ishlaydigan tarelkali-kolonnali absorber.

Birinchi bosqichda olingan reaksiya massasi keyingi sulfonatlar hidrolizi bosqichiga yuboriladi. Suyuqlik suv bilan suyultiriladi va kuchli bug' bilan isitiladi, so'ngra spirit, oddiy efir va polimerlar tindirish jarayoniga yuboriladi va rektifikatsiya yo'li bilan ajratiladi. Bunda 90% li spirit olinadi. Gidrolizdan keyingi sulfat kislotaning konsentratsiyasi 40–50% ni tashkil qiladi. Undan alyuminiy sulfat olinadi yoki uni konsentrantiriladi, so'ngra absorbsiyaga qaytariladi. Sulfat kislota bilan olefinlarni hidratatsiyalash jarayonining asosiy kamchiligidan biri, ishlatilgan kislotani utilizatsiya qilinishidir.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchilik tufayli olefinlarni to'g'ridan-to'g'ri hidratlash usulini yaratishga sabab bo'ldi. Bu usulda kislotali katalizatorlar ishtirokida olefindagi qo'shbog'ga suvni birikishi sodir bo'ladi. Katalizator sifatida qattiq tashuvchiga (silikagel, alyumosilikat) shimdirlig'an fosfat kislotadan foydalilanadi. Etilen hidratatsiyasi 260–300°C 2,5–3,0 MPa bosimda olib boriladi. Bunda olefin konsentratsiyasi 97–99% tashkil qilishi lozim. Reaksiya uzlusiz ravishda ishlaydigan apparatlarda olib boriladi, uni hidratator deyiladi. U diametri 1,5 va balandligi 10 metr bo'igan po'lat kolonnadan iborat. Fosfat kislota ta'sirida yemirilishni oldini olish uchun jihozning qobig'i va tag tomoni qizil mis bilan qoplanadi. Katalizator reaktorga baland qilib solinadi, olefin va suv bug'i qo'shimcha isitiladi (reaksiya haroratigacha) va apparatning yuqori qismidan yuboriladi, katalizator qatlamidan o'tgandan so'ng, u hidratorming pastidan chiqariladi.


Gidratatsiya jarayonida katalizator tashuvchi sirtidan fosfat

kislotaning doimiy ravishda chiqib ketishi sababli, 400–500 soatdan so'ng katalizator faolligini yo'qotadi. Shu sababli, yangi katalizator tayyorlanadi, bunda tashuvchiga 60–65% li fosfat kislota shimdirliladi va u 100°C da quritiladi. Unda 35% erkin fosfat kislota bo'ladi.

**Etanol ishlab chiqarish.** Etanolni etilenni to'g'ridan-to'g'ri gidratatsiyalab olish mumkin:



Bu jarayon katalizator va bosim ostida yuqori temperaturada sodir bo'ladi. Jarayon yuqori temperaturada sodir bo'lgani sababli energiyani tejash muhim ahamiyatga ega. Etilen hidratatsiyasida suv bug'i va suvdan foydalaniлади, bunda uch xil jarayon sodir bo'lishi mumkin:



28-rasm. Etanol olish texnologiyasi:

1,2-kompressorlar, 3-trubkasimon pech, 4-issiqlik almashtirgichlar, 5-reaktor, 6-tuzni ajratgich, 7-sovutgich, 8,10-separatorlar, 9-absorber, 11-yengil fraksiyani haydash kolonnasi, 12- etanolni haydash kolonnasi, 13-oqova suvlarni ion-almashinish usuli bilan tozalash qurilmasi, 14-nasos, 15-drossel ventilli, 16-kondensatorlar.

Etanolni olish texnologiyasi 28-rasmida keltirilgan. Xomashyo sifatida tarkibida 47–50% etilen, 50–52% etan va 1% miqdorida aralashmalardan iborat gaz qo'llaniladi. 1-kompressor yordamida gaz 3-reaksiya kolonnasining pastki tomoniga yuboriladi. Gaz mayda barboter orqali o'tib, yuqoriga ko'tariladi.

Har bir tarelkada gaz suyuqlik qatlamida barbaterlanadi, buning natijasida uning kislota bilan uchrashi yuzasi kattalashadi. Reaksiya isiqligini chiqarish uchun har bir tarelkada sovuq suv aylanadigan trubkali sovutgichlar joylashtirilgan. Reaksiya kolonnasidan chiqayotgan gazlar tarkibi 90% etan, 4–6% etilenden iborat bo'lib, suyuqlikning sachrashi natijasida ajraladi.

Kolonnadan chiqayotgan gazlar 8–10 atm bosimigacha drosel-lanadi, 8-nasadkali skrubberdan o'tadi, so'ngra to'liq neytrallash uchun 9-skrubberda 5–10% li natriy ishqori bilan yuviladi.

Neytrallangan gazni pirolizlashga etanni etilengacha degidrirlash uchun yuboriladi. 3-reaksiya kolonnasining past tomonidan etilsulfat kislota dietilsulfat va reaksiyaga kirishmagan sulfat kislota aralashmasi uzlusiz ravishda oqib chiqadi. Ushbu aralashmani 4-sovutgichda 50°C gacha sovutiladi va 6–7 atm bosimgacha drossellangandan so'ng gidroliz jarayoniga yuboriladi.

3-kolonnani nomlanishni oshirish uchun suyuqlikning (ekstragent) bir qismini oraliq tarelkadan qaytarib olinadi (gazni yo'nalihi bo'yicha sakkizinchisi) va 2-separatorda gazdan ajratilgandan so'ng sulfat kislota bilan birgalikda sirkulatsiya nasosi yordamida kolonnaning yuqori tomoniga yuboriladi. Bu etilenni suyuqlikda erishiga yordam beradi va kolonna bo'ylab temperaturani bir xil bo'lishini ta'minlaydi.

Alkilsulfatlar gidrolizi 5-apparatda sodir bo'ladi. Gidroliz uchun etil spiriti rektifikatsiyasida xosil bo'lgan suvdan foydalaniladi.

Gidroliiz jarayonida, etil spiritidan tashqari oraliq mahsulotlar – dietil efiri, polimerlar va h.k. hosil bo'ladi. Gidrolizga yubarilayotgan suyuqlikni drossellashda, shuningdek, gidroliz reaksiyasi issiqligi va sulfat kislotaning suyultirishda ajralayotgan issiqlik hisobiga eritmadan gazlar ajralishi sodir bo'ladi (etilen, etan va h.k.). Ushbu gazlar dietil efiri bug'lari bilan birgalikda gidrolizerning tepe qismidan 8 va – skrubberlarga ular bilan birgalikda kelgan sulfat kislota qoldiqlarini yuvish va neytrallash uchun yuboriladi. Yuvgan va neytrall gazlar 3-kolonnadan chiqib ketyotgan gazlar bilan birga piroliz sexiga yuboriladi.

Gidrolizerdagи suyuqlikni muntazam ravishda aralashtirib turish uchun 8-skrebberni past tomonidan chiqayotgan suvni 6-nasosga vo'naltiriladi. U yerda suv gidrolizerning tepe tomonidagi gidrolizat bilan aralashgan holda gidrolerni pastki qismiga keladi. Gidrolizat sirkulatsiyasi va uning suv bilan jadal aralashishi hisobiga alkilsulfatlarni deyarli to'liq gidrolizlanishi sodir bo'lishiga olib keladi. Girolizni 5,5–6 atm bosimda va 92–96°C olib boriladi. Gidrolerning

pastki tomonidan kelayotgan suyuqlik tarkibida etil spiriti, suv, sulfat kislota, dietil efiri, shuningdek, gidrolillanmagan etilsulfatlar mavjud. Gidrolizatda erigan, shuningdek, oz miqdorda etilen va etan bo'ladi. Ushbu suyuqlik uzliksiz ravishda gidrolizeming pastidan 7-bug'latish kolonnasining yuqori tarelkalariga oqib keladi. U yerdan etilsulfat kislota va dietilsulfat gidroliz jarayonini nihoyasiga yetkazish uchun bug'latish kolonnasining pastki qismiga yuboriladi. So'ngra, suyuqlikdagi spirit, efir va suv bug'inining bir qismi haydab ajratiladi. Bug'latish 1,4–1,5 atm bosimda  $125^{\circ}\text{C}$  kolonnaning kub qismida va  $110^{\circ}\text{C}$  da yuqori qismida olib boriladi. 7-bug'latish kolonnasining kub qismidan 45–47% li sulfat kislota ajratiladi va smolasimon moddalardan tozalangandan so'ng konsentraltirishga (boyitishga) yuboriladi. Suyultirilgan kislota 90% hosil bo'lguncha bug'latiladi va 96–98% li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  olish uchun oleum qo'shiladi. Ayrim hollarda esa foydalanilgan sulfat kislotani tozalanilgandan so'ng superfosfot, ammoniy sulfat va h.k ishlab chiqarishga yuboriladi.

7-bug'latish kolonnasining yuqori qismidan olinadigan tarkibida suv bug'i, etil spiriti, dietil efiri, etilen va etandan iborat bug'-gaz aralashmasi tarelkali 13-neytrallash-bug'latish kolonnasiga keladi. Aralashma keladigan joyida balandroqda kolonnaga 5% li natriy ishqorining suvli eritmasi yuboriladi. Ishqoriy eritmada o'tayotgan bug'-gaz aralashmasi neytrallanadi va yuqoridagi tarelkalarda tepadan kelayotgan suv bilan yuviladi.

Spirtni haydash uchun 13-kolonna kubiga o'tkir suv bug'i yuboriladi. 13-kolonnaning yuqori qismidan chiqayotgan neytrallangan bug'lar 12-apparatda kondensatsiyalanadi; 14-separatorda kondensat gazlardan ajratiladi, so'ngra 11-skrubberda suv bilan yuviladi va atmosferaga chiqariladi. 14-separatordan kelayotgan spirtning suvli eritmasi 15-sovitgichda sovutiladi va rektifikatsiyaga yuboriladi. Spirit mahsulotining taxminiy tarkibi (%).

Etil spiriti .....	25-35;	Suv .....	60-6
Dietil efiri .....	3-5;	Polimerlar .....	0,05

#### Nazorat savollari:

1. Jarayon qanday temperaturada olib boriladi?
2. Bosim jarayonga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Temperatura jarayonga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Qanday katalizatorlardan foydalaniladi?
5. Etanol organik sintez uchun qanday ahamiyatga ega?

#### 9-Ma'ruza


#### Stirol ishlab chiqarish.

#### Reja:


1. Stirol ishlab chiqarish kimyosi.

## 2.Jarayon texnologiyasi.

Alkilaromatik birikmalami degidrirlash stirol va uning gomologlarini olishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda degidrirlash jarayonni ikki bosqichda amalga oshiriladi, buni benzol yoki uning gomologlarini olefin bilan o'zaro reaksiyasi tarzida quyidagicha ifodalash mumkin:




Stirol  $\text{C}_6\text{H}_5-\text{CH}=\text{CH}_2$  rangsiz suyuqlik bo'lib, 0,1 MPa bosim ostida uning qaynash temperaturasi  $145,2^\circ\text{C}$  teng. U qizdirish yoki initsiatorlar ishtirokida qattiq polimer polistirol hosil qiladi.




Polistirol yaxshi elektr izolatsiyalanish xususiyatiga ega va kimyoviy reagentlar ta'siriga chidamli. U elektr va radiotexnika jihozlarini qismlarini, penoplast, plastmassa buyumlari ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Stirol sintetik kauchuklar (SSK) olishda muhim xomashyo hisoblanadi. a-metilstirol  $\text{C}_6\text{H}_5-\text{C}(\text{CH}_3)=\text{CH}_2$  rangsiz suyuqlik,  $161-162^\circ\text{C}$  qaynaydi, u stirolga nisbatan sekin polimerlanadi, shuning uchun reaksiya aralashmasidan uni ajratish va saqlash qulay. Sintetik kauchuklar ishlab chiqarishda a-metilstirol stirol bilan bir qatorda qo'llaniladi, lekin plastik massalar ishlab chiqarishda u kam miqdorda qo'llaniladi.


Divinilbenzol  $\text{C}_6\text{H}_4(\text{CH}=\text{CH}_2)_2$  (izomerlar aralashmasidan iborat) ionalmashuvchi smolalar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi. Divinilbenzolni dietilbenzol izomerlari aralashmasidan olinadi, bunda degidrirlash oraliq viniletibenzol hosil bo'lishi bilan boradi:



Yana bir muhim monomer 5-vinil-2-metilpiridin bo'lib, u tegishli dialkilpiridinni degidrirlash bilan olinadi:




Yuqorida ko'rsatilgan monomerlar orasida eng muhimi stirol hisoblanadi. Oxirgi yillarda u propilenoksid bilan birgalikda etilbenzolgdroperoksiddan olinmoqda.



### Jarayon texnologiyasi.

56-rasmda stirol ishlab chiqarish texnologik sxemasi keltirilgan. Toza va retsirkullangan etilbenzol oz miqdordagi bug'l bilan birgalikda 3- va 4-issiqlik almashtirgichga yuboriladi, u yerda bug'lar issiq reaksiya aralashmasida  $520-530^\circ\text{C}$  gacha

isiydi. 700°C gacha isigan suv bug'i 1-trubkasimon pechda ishlanadi, u yerdan esa etilbenzol bug'lari bilan aralashtirishda va 5-reaktorga yuboriladi. Reaksiya aralashmasi reaktordan chiqayotgan uning temperaturasi 560°C teng bo'ladi. U o'z issiqligini dastlab 3,4-issiqlik almashtirgichdagi etilbenzolni isitish uchun, so'ngra 2-utilizator-qozonda past bosimli bug' olish uchun sarf qiladi (ushbu bug' 3-issiqlik almashtirgichda keladigan etilbenzolni suyultirish uchun xizmat qiladi). So'ngra bug'-gaz aralashmasisovutiladi suv va namakob yordamida 6-sovutgichda, 7-separatorda kondensat gazdan ajratiladi, u yoqish gazi bo'limiga yuboriladi. Shundan so'ng 8-separatordagi kondensat suv va organik fazalarga ajratiladi.



56-rasm. Stirol ishlab chiqarish texnologik sxemasi:

1-trubkasimon pech; 2-utilizator qozon; 3,4-issiqlik almashtirgich; 5-reaktor; 6-sovutgich; 7,8-separatorlar; 9-12-rektifikatsiya kolonnalar; 13-deflegmatorlar; 14-qaynatgich.

Organik faza tarkibidagi, etilbenzol, stirol va oraliq mahsulotlarni (benzol, toluol) pech moylari deyiladi. U rektifikatsiyaga yuboriladi, stirolni termik polimerlanishi oldini olishi uchun ingibitorlar (masalan, gidroxinon) qo'shiladi, temperatura pasaytirish uchun haydashni vakuumda olib boriladi. Etilbenzol va stirolni qaynash temperaturalari bir-biriga yaqin bo'lgani sababli (136 va 145°C) rektifikatsiya jarayoni ancha qiyinlashadi. Pech moyini 9-vakuum rektifikatsiyaga yuboriladi u yerda undagi benzol, toluol va etilbenzol haydaladi. Ushbu distillyat 10- kolonnada benzol-toluol va etilbenzol fraksiyalariga ajratiladi. 9- kolonnadagi stirol bo'lgan kub suyuqligini 11-vakuum rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi, u yerda kolonnadagi kub suyuqligini oxirgi rektifikatsiyalash uchun 12-vakuum-kolonnaga jo'natiladi. Distillyat tarkibi 99,8% stioldan iborat. Kolonna kubida stirol polimerlaridan iborat og'ir qoldiq qoladi. Undagi uchuvchan moddalarni

ikkita haydash kubida davriy ravishda haydaladi, ular 12-kolonnaga rektifikatsiyaga qaytariladi.

Barcha sharoitlar bir xil bo'lganda bu koeffitsiyent qo'zg'aIMas katalizatomikidan yuqori. Ko'p miqdorda issiqlik ajraladigan oksidlanish jarayonini bir me'yorda bu kattalik muhim ahamiyatga ega. Qo'zg'aluvchan katalizator dan foydalanilganda havoning kam sarflanishiga erishiladi. Bu usulning yutuqlari bilan birga kamchiliklari mavjud. Katalizatoming ko'p miqdorda sarf bo'lishi, iloji boricha naftalindan foydalanish zarur, moslamaning yemirilishi. Konvertordan ajralayotgan kontakt gazi tarkibida 0,5-15 mol% ftal angidridi bor. U darhol kondensatsiyaga uchrab, kristall hosil qiladi. Bu kristall kondensat ustiga yopishadi va issiqlik almashinuvini yomonlashtiradi.

Ftal angidridi qurilma yuzasidan 2 xil usulda olib tashlanadi:

1. Mexanik qirish. 2. Suyuqlantirish.

Mahsulot oxirigacha toza bo'lishi uchun 2 qayta haydalishi lozim. Sublimatlangan ftal angidridi sovitiladigan vallarga kelib yopishadi, u yerda pichoq yordamida kesib olinadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Stirolning monomer sifatidagi ahamiyati nimada?
2. Stirol ishlab chiqarish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
3. Quvurli pechda suv qancha haroratda isitiladi?
4. Separatorlar jarayonga nima uchun kerak?
5. Rektifikatsiya qurilmalaridan jarayonda nima maqsadda foydalaniladi?

## **10-Ma'ruza**

### **Nitrolash jarayonlari kimyosi va texnologiyasi..**

#### **Reja:**

1. Nitrolash jarayonlari tavsifi
2. Parafinlarni nitrolash
3. Jarayon texnologiyasi

Nitrobirkimlar biologik moddalar hisoblanadi. Ularning barchasi ozmi-ko'pmi zaharli ta'sir etuvchi vositalardir. Molekulaga gidroksil yoki karboksil guruhi kiritilganda zaharlilik xususiyati kamayadi. Nitroguruh markaziy asab sistemasi va jigarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin nitroguruhli moddalarni ko'pchiligi biologik xususiyatni ham namoyon qilishi sababli, turli mikroblar va hasharotlarga qarshi preparatlar sifatida qo'llaniladi. Masalan, antibiotiklardan levometsitin, p-nitrobenzilpenitsillin bunga misol bo'la oladi. Dorivor vositalar va vitaminlar olishda aromatik va geteroaromatik, alifatik nitrobirkimlar oraliq mahsulot sifatida muhim ahamiyatga ega.

Organik birikmalar tarkibidagi vodorod atomi o'rniga  $\text{NO}_2$  guruhi almashinish jarayoniga nitrollash reaksiyasi deyiladi. Nitrollash vositalari sifatida nitrat kislota, nitrat va sulfat kislota aralashmasi (melanj), nitrat va sırka kislota aralashmasi, azot oksidlaridan foydalaniladi. Nitrollash reaksiyasi tez sodir bo'luvchi, qaytmas va ekzotermik jarayondir.

Nitrollashda aromatik uglevodorodlar, ularning hosilalari, to‘yinmagan birikmalar va alkanlar xomashyo sifatida qo’llaniladi.

Organik birikmalarga nitroguruh turli usullar yordamida kiritilishi mumkin. Sanoatda eng muhim ahamiyatga ega bo’lganlari quyidagilar hisoblanadi: 1) aromatik yadroda nitrollash; 2) to’yingan uglevodorodlarni nitrollash.

Nitrollash jarayoniga quyidagi omillar ta’sir ko’rsatadi:

- 1) kislota konsentratsiyasi;
- 2) aralashtirish tezligi;
- 3) temperatura.

Kislota konsentratsiyasi ta’siri. Nitrollash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda eng muhim omillardan biri kislota konsentratsiyasi hisoblanadi. Reaksiya muhitida suvning konsentratsiyasini ortishi nitrat kislotani kislotali dissotsiatisiyasiga va nitroniy-kationlarini kamayishiga sabab bo’ladi. Suvsiz nitrat kislota tarkibida taxminan 1% nitroniy-ionlari mavjud bo’ladi, lekin 5% suv qo’shilishi natijasida  $\text{NO}_2^+$  konsentratsiyasi nolga tushadi. Nitroniy ionining sulfat va nitrat kislotalar aralashmasidagi miqdorini 7-jadvaldan ko’rish mumkin.


**Sulfat va azot kislotalar aralashmalarida nitroniy kationi miqdori** 7-jadval

Nitroniy kationi	$\text{H}_2\text{SO}_4 : \text{HNO}_3, \%$				
$\text{NO}_2^+$ ga dissotsiatsiyalangan $\text{HNO}_3$	100	62,5	16,7	5,9	1
aralashmadagi $\text{NO}_2^+$	10	12,5	10	5,3	1

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, sulfat va azot kislota aralashmalarida nitroniy-ioni miqdori nisbatan ancha yuqori. Nitrollash jarayoniga temperatura ham katta ta’sir ko’rsatadi. Temperaturani 10°C ga ko’tarilishi natijasida reaksiya tezligi uch marta ortadi. Nitrollash reaksiyasida aralashtirish tezligi ortishi bilan reaksiya tezlashadi.

Nitrollash asosan kislota qatlamida sodir bo’ladi, chunki uglevodorodlarni kislota aralashmasidagi eruvchanligi  $\text{NO}_2$  ni uglevodorodda eruvchanligiga nisbatan ancha yuqori bo’ladi. Nitrollovchi vositalar tabiatini nitrollash jarayoni sharoitiga katta ta’sir ko’rsatadi. Konsentrangan nitrat kislota yoki nitrollash aralashmasi ishtirokida reaksiyani past temperaturada va reaksiya massasini doimo sovutish orqali olib boriladi.

Suyultirilgan  $\text{HNO}_3$  yoki azot oksidlari ishtirokida esa jarayon reaksiya massasini isitish bilan yuqori temperaturada olib boriladi. Nitrollash jarayonida katalizatorlar deyarli qo’llanilmaydi. Biroq, simob va uning tuzlari ishtirokida benzolni nitrat kislota bilan nitrollash natijasida pikrin kislota sintez qilish mumkin.




**Parafinlarni nitrollash.**


Parafinlami nitrollashni birinchi marta M.I. Konovalov XIX asmi oxirlarida kashf qildi. Keyinchalik parafinlami nitrollashni quyidagi usullari yaratildi:

- 1) Gaz fazasida 350-500°C da 40-70% li HNO<sub>3</sub> yordamida;
- 2) suyuq fazada 100-200°C da 50-70% li HNO<sub>3</sub> bilan;
- 3) suyuq yoki gaz fazasida azot ikki oksidi bilan.


Parafinlami nitrollashda nitroguruh turli uglerod atomlaridagi vodorod atomi bilan o'rincin almashadi; ularni reaksiyaga kirishish qobiliyatini parafinlarni xlorlashdagi kabi quyidagi tartibda joylashtirish mumkin: uchlamchi>ikkilamchi>birlamchi. Temperaturani ko'tarilishi bilan ularni reaksiyaga kirishish qibiliyati tenglashadi, lekin doimo nitroparafinlar izomerlari aralashmasi hosil bo'ladi, bunda uglerod skeleti izomerizatsiyasi ro'y bermaydi:



Nitroguruh keyingi o'rincin almashinish reaksiyalariga to'siqlik qiladi, shuning uchun gaz fazasidagi nitrollashda ortiqcha miqdorda olinadigan uglevodorod (3:1 dan 10:1) ishtirokida, dinitrohosilalar hosil bo'lmaydi. Lekin suyuq fazadagi nitrollashda mononitrobirkimlar nitrat kislotada reaksiyaga ishlatiladigan uglevodorodlarga nisbatan yaxshiroq eriydi, natijada dinitrohosilalar hosil bo'lishi kuzatiladi. Bunda ikkinchi nitroguruh birinchi nitroguruhdan uzoqroq holatga yoki nitroguruhi mavjud bo'lgan uglerodga birikadi. Buning natijasida 2-nitropropandan yaxshi chiqm bilan 2,2-dinitropropan olish mumkin:




Parafinlami yuqori temperaturada gaz fazasida nitrollash jarayonlarida uglerod zanjiri destruksiyaga uchrashi natijasida doimo past nitroparafinlar ham hosil bo'ladi:



Bu jarayon destruktiv nitrollash deyiladi. Bu jarayon tarmoqlangan uglevodorodlar uchun to'g'ri zanjirliga nisbatan kamroq uchraydi.

Nitrollash jarayonlarida sodir bo'ladigan oraliq, noxush reaksiyalardan biri, bu parafinlami nitrat yoki azot ikki oksidi bilan oksidlanishi hisoblanadi. Shuning uchun hosil bo'ladigan mahsulot unumi 50-80% ni tashkil qiladi. Oksidlash mahsulotlari tarkibida aldegid va ketonlar, karbon kislotalar, uglerod oksidlari borligi aniqlandi. Oksidlash jarayonlari temperatura ko'tarilishi bilan kuchayadi. Shuning uchun har bir uglevodorodni nitrollash uchun o'zining optimal temperaturasi mavjud bo'lib, unda mahsulotning chiqimi eng yuqori bo'ladi.

Nitrollash reaksiyalari erkin-radikal mexanizmi asosida sodir bo'ladi. Nitrat kislotasini gomolitik parchalanishi va hosil bo'lgan radikallarni uglevodorod bilan o'zarta'siri natijasida radikallar hosil bo'ladi.




Birinchi reaksiyalar natijasida hosil bo'lgan azot to'rt oksidi o'sha zahoti nitrollash vositasi sifatida ishlatiladi, shuningdek, u uglevodorodlar bilan reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega, undagi vodorod atomini tortib oladi (chunki  $\text{NO}_2$  da juftlanmagan elektronlar mavjud). Nitrollashdagi asosiy reaksiya erkin radikallarni azot to'rt oksidi bilan o'zaro ta'siridir, bu reaksiya zanjirli jarayonni rivojlantiradi:




## Jarayon texnologiyasi.

Parafinlarni gaz fazasida nitrollash reaksiyaları orasida propanni 40-70% li nitrat kislota bilan nitrollash jarayoni sanoatga tatbiq qilingan usullardan biri hisoblanadi. Bu jarayon 400-450°C, 0,5-1 MPa bosim ostida olib boriladi, bunda propanni nitrat kislotaga 5:1 mol nisbatda olinadi. Hosil bo'ladigan nitroparafinlar tarkibi quyidagi mahsulotlardan iborat: 25% nitrometan (qaynash temperaturasi 101,2°C), 10% nitroetan (qaynash temperaturasi 114°C) 20% 1-nitropropan (qaynash temperaturasi 131,6° C) va 40% 2-nitro- propan (qaynash temperaturasi 120,3°C). Ularni retifikatsiya usuli bilan bir- biridan ajratish mumkin.

Nitroparafinlar rangsiz suyuqlik bo'lib, uncha o'tkir bo'lmasan hidga ega. Ular erituvchi sifatida keng qo'llaniladi va organik sintezning muhim oraliq mahsulotlari hisoblanadi. Ulardan nitrospirtlar, aminospirtlar, nitrofenollar va bir qator portlovchi moddalar (masalan, uch (nitroksimetil) nitrometan) va boshqa zarur moddalar olinadi:



Endi gaz fazasida propanni nitrat kislota bilan nitrollash texnologiyasi bilan tanishamiz (48-rasm). Jarayon adiabat turidagi silindrsimon 2-jihozda olib boriladi, unda isitish moslamalari mavjud bo’lmaydi. Reaksiya natijasida ajralayotgan issiqlik, xomashyo uglevodorodlami isitish va nitrat kislotani bug’latish uchun sarf bo’ladi. Isitilgan propan 2-reaktoming pastki tomoniga keladi. Nitrollash va oksidlash mahsulotlarini reaksiyaga kirishmagan propan bilan birgalikda suv yordamida 3sovutgichda sovutiladi va oksidlanish mahsulotlari (aldegid va ketonlar) va nitrobirikmalami kondensatsiyalanish mahsulotlami yig’ish uchun 4-absorberga yuboriladi. Absorber gidroksilamin xlориднинг suvli eritmasi bilan sug’oriladi (namlanadi).



**48-rasm. Propanni nitrollash texnologik sxemasi:**

1-istigich; 2-reaktor; 3-sovutgich; 4-absorber; 5- issiqlik almashtirgich; 6- bug'latish kolonnasi; 7- kondensator; 8-separator; 9-retifikatsiya kolonnasi; 10-qaynatgichlar.

Absorber kubidagi suyuqlik 6-bug'latish kolonnasiga keladi. U yerda nitroparafinlar hamda oksimlar gidrolizida hosil bo'lgan aldegid va ketonlar absorbentdan haydab ajratiladi va 5-sovutgichda sovutilgandan so'ng absorberga qaytariladi. 6-bug'latish kolonnasidagi bug'lar 7-kondensatorda kondensatsiyalanadi, 8-separatorda esa ikkita qatlamga ajraladi. Hosil bo'lgan pastki suv qatlami bug'latish kolonnasining yuqori qismiga, yuqori organik qatlamini esa 9- retifikatsiya kolonnasiga yuboriladi. Nitroparafinlar keyingi qayta ishlash jarayoniga, ya'ni tozalash va retifikatsiyalashga yuboriladi, unda suv, nitrometan, nitroetan, 2-nitropropan va 1-nitropropan ajratib olinadi. Jarayonning tejamkorligi absorberdan ketayotgan gazlar tarkibidagi propan va azot oksidlarni regeneratsiyasi bilan bog'liq. Ushbu gazlarda =85% C<sub>3</sub>H<sub>8</sub> va 10% NO bo'ladi. Regeneratsiya bo'limida aralashmadagi propanni sovutish yoki kerosin bilan absorbsiyalash orqali ajratiladi, chunki kerosinda boshqa H<sub>2</sub>,CO,CO<sub>2</sub> komponentlari erimaydi. Qolgan gazga havo aralashtiriladi, hosil bo'lgan azot to'rt oksidi suv yoki suyultirilgan nitrat kislotasi yordamida yig'iladi. Bunda azot oksidlari nitrat kislotaga aylanadi, qolgan gaz esa atmosferaga chiqariladi. Regeneratsiyalangan propan va nitrat kislotasi toza xomashyo bilan aralashtiriladi va nitratorga yuboriladi. Nitroparafinlar ishlab chiqarish sanoati portlash xavfiga ega, undan tashqari, kuchli nitrat kislotasi va yuqori temperatura ta'siriga uchraydi. Shuning uchun qo'llaniladigan asbob-uskunalar legirlangan po'latdan, ferrosilid, titan yoki tantaldan yasalishi lozim. Parafinlami (160-180°C yuqorida qaynaydigan >C<sub>10</sub>) suyuq fazada nitrollashning eng samarali usullaridan biri azot kislotasi bug'ida nitrollash hisoblanadi. Ushbu jarayonda barbataj turidagi reaktorda suyuq uglevodorod 130-220°C nitrollanadi. Reaksiya massasiga tushirilgan ilonsimion trubalarga suyuq kislotasi yuboriladi. Reaksiya vaqtida ajralayotgan issiqlik kislotasi tomonidan yutiladi.

So‘ngra kislota bug’lari taqsimlanish moslamasiga keladi va reaksiya massasi orqali barbotirlanadi, uglevodorodlar nitrollanish amalgal oshadi. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, bunda reaksiya hajmida nitrat kislota bug’lari uncha ko‘p miqdorda bo’lmaydi, shuning uchun jarayon xavfsiz va oson boshqariladi.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Propan, nitrollash, texnologiya, oksidlanish, absorber, nitrollash vositalari, nitrat kislota, nitrat va sulfat kislota aralashmasi (melanj), nitrat va sirka kislota aralashmasi, azot oksidlari, ekzotermik reaksiya, kislota konsentratsiyasi, aralashtirish tezligi, temperatura.

### **Nazorat savollari:**

1. Nitrollash jarayoni va uning turlari.
2. Nitrollovchi vositalar.
3. Nitrollash jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.
4. Parafinlami nitrollash usullari.
5. Parafinlami nitrollash texnologiyasi.

### **11-Ma’ruza**

### **Glogenlash jarayonlari.**

#### **Reja:**

1. Galogenlash jarayoni.
2. Galogenlovchi agentlar.
3. Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari mexanizmi.

### **Glogenlash jarayoni.**

Asosiy organik sintez texnologik jarayonlarida sodir bo‘ladigan muhim kimyoviy reaksiyalami quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Galogenlash reaksiyalari;
2. Gidrolizlanish reaksiyalari;
3. Gid- ratatsiya;
4. Degidratatsiya;
5. Eterifikatsiya;
- 6 . Alkillash;
7. Sulfatlash;
8. Sulfirlash;
9. Oksidlash;
10. Gidrirlash;
11. Degidrirlash va h.k.

Organik birikmalarga galogen atomlarini kiritish jarayonlarini galogenlash deyiladi. Galogenlash reaksiyalariga: ftorlash, xlorlash, bromlash va yodlash kiradi.

Galogenlash organik moddalar sintezida muhim o’rin tutadi. Bu usul bilan quyidagi mahsulotlar olinadi:

1) xlororganik oraliq mahsulotlar (1,2-dixloretan, xlorgidrinlar, alkilxloridlar) molekula tarkibiga harakatchan xlor atomini kiritish bilan bir qator muhim moddalar olish mumkin;


2) xlor va ftororganik monomerlar (vinil xlorid, vinilidenxlorid, tetraftoretien);

3) xlororganik erituvchilar (metilen xlorid, uglerod to'rtxlorid, uch va to'rtxloretien);

4) xlor va bromorganik pestitsidlar (geksaxlorsiklogeksan, kislota va fenollami xlorli hosilalari) Undan tashqari, galogenli hosilalami sovutish vositalari (xlorftor hosilalar, freonlar deyiladi), meditsinada (xloral, xloretan), plastifikatorlar, moylovchilar va h.k. sifatida qo'llaniladi.

Galogenlash reaksiyalari 3 turga bo'linadi: o'rin almashish; biriktirish; parchalanish.

O'rinni almashinish galogenlash reaksiyasida uglevodorod molekula-sidagi vodorod atomi yoki reaksiya guruhi galogen bilan o'rin almashadi.






Galogen tutgan uglevodorodlardagi bir galogen atomini boshqa galogen atomiga almashinishdan brom, ftor va yodli hosilalami olish mumkin:






Organik birikmadagi OH-guruhni galogenga almashinishi natijasida kislotalarning xlor angidridlari olinadi:




Biriktirish bilan galogenlash reaksiyalari to'yinmagan uglevodo-rodga galogen birikishi bilan boradi. Erkin galogenlar C=C, C-C va C<sub>Ar</sub>-C<sub>Ar</sub>bog'larga birikish qobiliyatiga ega:



Galogenvodorodlar qo'shbog' va uchbog'ga birikadi, shuningdek, olefinlar ham xlorgidrinlash reaksiyasiga kirishadi:



Ba'zi hollarda additiv xlorlash past valentlik holatida ham ro'y beradi. Masalan, uglerod oksid va xlordan fosgen olish mumkin:



Xlorli hosilalami reaksiyalari muhim ahamiyatga ega.

Xlorli hosilalami parchalanish reaksiyalarini bir nechta turi mavjud: a) degidroxlorlash HCl birikishning parchalanishi; b) dex-lorlash; d) xloroliz e) xlorlinoliz; yoki yuqori temperaturada piroliz;

Degidroxlorlashga misol keltiramiz:



Dexlorlash reaksiyalari esa yuqori temperaturada keladi



Xloroliz yoki xlorinoliz reaksiyalari xlor ta'sirida uglerod uglerod bog'ini uzelishi bilan boradi:



Yuqori temperaturada piroliz:




**Galogenlovchi agentlar.** Eng muhim galogenlovchi agentlar-bu erkin galogenlar va suvsiz galogenvodorodlardir. Atmosfera bosimi ostida ularning qaynash temperaturasi quyidagicha, °C:


F <sub>2</sub> ... -188,0;	HF... +19,4
Cl <sub>2</sub> ... -34,6;	HCl ... -83,7
Br <sub>2</sub> ... +58,8;	HBr... -67,0

Ushbu galogenlar organik erituvchilarda yaxshi eriydi Br<sub>2</sub>>Cl<sub>2</sub>>F<sub>2</sub> va HBr>HCl>HF. Bu xususiyatlari ulami suyuq fazada galogenlashda muhim ahamiyatga ega. Ular o'tkir hidli bo'lib, ko'zni, nafas olish organlarini yallig'lantiradi, erkin galogenlar bo'g'ish xususiyatiga ega.

Cl<sub>2</sub> olishda NaCl suvli eritmasi elektroliz qilinadi, natijada bir vaqtning o'zida vodorod va ishqor hosil bo'ladi:




Yuqori temperaturada vodorod va xlomi o'zaro birikishi natijasida vodorod xlorid sintez qilinadi:




**Radikal-zanjirli xlorlash.** Barcha galogenlash jarayonlari, ularning sodir bo'lishi mexanizmi bo'yicha 2 guruhga bo'linadi: radikal- zanjirli va ion-katalitik.

Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalarida parafin, olefin va aromatik uglevodorodlardagi vodorod atomi hisobiga o'rin almashinadi, shuningdek, galogenlamli C=C va C<sub>Ar</sub>-C<sub>Ar</sub>, bog'larga birikishi sodir bo'ladi.

Parafin uglevodorodlari faqat o'rin almashinish reaksiyasi orqali molekuladagi vodorod atomini birin-ketin galogenga almashtiradi.




Olefinlar radikal-zanjirli xlorlanadi. Reaksiya gaz muhitida ion katalizatorlarisiz davom etadi va reaksiya xlomi qo'shbog'ga birikishi va vodorod atomini almashishi bilan boradi:




Olefirlarning xlor bilan reaksiyasi davomida temperatura oshishi bilan birikish reaksiyasi sekinlashadi, o'rinni olish reaksiyasi esa tezlashadi.

Aromatik uglevodorodlar ham radikal-zanjirli mexanizm asosida xlorlash reaksiyasiga kirishadi. Olefinlar singari reaksiya 3 xil yo'nalishda borishi mumkin. Yon zanjimi o'rinni almashinishi, aromatik halqada o'rinni almashinish va halqadagi C-C bog'ga birikish hisobiga sodir bo'ladi. Benzol qatori uglevodorodlarida yon zanjirdagi vodorod atomi o'rinnini birin-ketin xlor atomi olishi mumkin:



Agar aromatik halqaga ulangan zanjir uzun bo'lsa, o'rinni olish aholatda boradi, masalan, etilbenzoldan a-xloretilbenzol  $\text{C}_6\text{H}_5\text{-CHCl-CH}_3$  hosil bo'ladi.


Temperatura pasayishi ( $<30^\circ\text{C}$ ) bilan benzol gomologlarini xlorlashda halqadagi C-C bog'ga xlor birikishi ko'payadi, temperatura ortishi bilan esa C-H bog'dagi vodorodning xlorga almashishi ko'payadi. Masalan, past temperaturada ( $<30^\circ\text{C}$ ) benzoldan geksaxlor-siklogeksan, yuqori temperaturada esa xlorbenzol hosil bo'ladi:




### **Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari mexanizmi.**

Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari uch bosqichda sodir bo'ladi: zanjir paydo bo'lishi; zanjimi davom etishi (zanjimi o'sishi); zanjimi uzilishi.


**Zanjir paydo bo'lishi.** Buni har xil yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. Radikal-zanjirli xlorlash jarayonlari tarmoqlanmagan zanjirli reaksiyalar turiga mansub bo'lib, reaksiya natijasida oraliq xlor atomlari va erkin radikallar hosil bo'ladi. Gaz fazasida termik xlorlashda yuqori temperatura ta'sirida xlor molekulalarining idish devorlari yoki nasadkaga urilishi natijasida xemosorbsiya orqali Cl-Cl bog'laming uzilishi osonlashadi:




Ba'zi hollarda, termik xlorlash reaksiyasi past temperaturalarda ( $100-200^\circ\text{C}$ ) boshlanadi (xlor molekulasi bu temperaturada atomlarga ajrala olmaydi), bunda atom va radikallami hosil bo'lishi xlorni organik modda bilan o'zaro ta'siri orqali amalga oshadi:



Fotokimyoviy xlorlashda xlor molekulasining atomlarga bo'minishi kvant nur energiyasini yutish hisobiga sodir bo'ladi. Masalan, ultrabinafsha nurlar yordamida xlor molekulasi xlor radikallariga parchalanadi (simob-kvars lampasi yordamida):





Kimyoviy initsirlashda initsiatorlar qo'shiladi, ya'ni mo'tadil haroratda erkin radikallarga parchalanuvchi moddalar. Xlorlashda ko'pincha benzoil peroksiidi yoki 2 ,2-azo-bis(izobutironitril) (porofor) initsiatorlari ishlataladi:




Hosil bo'lgan fenil radikallari xlor molekulasiga birikishi natijasida xlor radikallari vujudga keladi:




Zanjirni davom etishi (zanjirni o'sishi) paydo bo'lishida hosil bo'lgan xlor atomlari yordamida amalga oshadi:



Olefinlarga xlomi birikishi quyidagicha bo'ladi:




Aromatik uglevodorodlardagi xlomi birikish reaksiyasi ancha qiyin tarzda amalga oshadi:




Zanjirining uzunligi, ya'ni zvenolarning soni o'ta toza moddalarni xlorlashda bir necha o'n mingtaga yetishi mumkin. Agarda texnik moddalar ishlatsa, zanjir bir necha yuz zvenolardan iborat bo'ladi.

**Zanjirning uzilishi.** Gazli muhitda xlorlashda ko'pincha chiziqli zanjir uzilishlari sodir bo'lishi mumkin:


1) nasadka yoki reaktor devoriga urilishdan:




2) uglevodorod radikallarining bir-biri bilan to‘qnashishidan:



3) xlor radikallarining o‘zaro birikishi orqali:



4) uglerod radikalining xlor radikali bilan to‘qnashishidan:



5) ingibitorlar ta’sirida (fenollar, kislorod, oltingugurt birikmalari orqali).

### Nazorat savollari.

1. Aromatik uglevodorodlarga xlorni birikishi qanday amalga oshadi?
2. Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari mexanizmi qanday?
3. Galogenlovchi agentlarga nimalar misol bo’ladi?
4. Parafinlarning galogenli hosilalarini tavsiflang
5. Parafinlarga galogenlarning birikishi qanday amalga oshiriladi

## 12-Ma’ruza Vinilxlorid ishlab chiqarish.

### Reja:

1. Gidrogalogenlash jarayoniga umumiyligi tavsif.
2. C=C bog’lari bo'yicha gidroxlorlash.
3. Atsetilenden vinilxlorid olish

**Gidrogalogenlash.** Uglerod-uglerod qo'sh yoki uchbog'lar hisobiga galogenlash jarayonlari muhim amaliy ahamiyatga ega.

**C=C bog'lar bo'yicha gidrogalogenlash.**

Gidrogalogenlash ekzotermik qaytar reaksiya hisoblanadi. Uning muvozanati temperatura pasayishi bilan o'ng tomoniga siljiydi va < 50 °Cda reaksiya qaytmaydi:



Turli galogenvodorodlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati erkin galogenlarning faolligiga qarama-qarshi ravishda quyidagicha ortib boradi:




Gidroxlorlashda katalizator sifatida ko'pincha  $AlCl_3$ , yoki  $FeCl_3$  qo'llaniladi. Reaksiya elektrofil mexanizmi asosida sodir bo'ladi.  $MCl_3$  faolligini  $\pi$ -kompleksni  $\sigma$ - kompleksga o'tishining osonligida deb tushuntirish mumkin.

Yoki oraliq metallilxloridvodorod kislota  $\text{NaCl}_4$  (yoki  $\text{FeCl}_4$ ) bosil bo'ladi, undagi proton yuqori faolikka ega bo'ladi.

Ikkala mexanizm uchun eksperiment asosida aniqlangan bir xil kinetik tenglama mos keladi:

$$r = [\text{MCl}_3][\text{HCl}] [\text{RCH}=\text{CH}_2]$$

Gidroxlorlashda, asosan katalizator  $\text{MCl}_3$  ishtirokida oraliq polimerlanish reaksiyasi ham sodir bo'ladi:



Bunda past molekulali suyuq polimerlar bosil bo'ladi, temperatura ortishi bilan ularning miqdori ko'payadi.

Olinadigan mahsulotlar. Ular orasida eng muhimi etil xlorid  $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$  hisoblanadi, u normal sharoitda gaz (kondensatsiyalanish temperaturasi  $+12,3^\circ\text{C}$ ). Uni  $\text{AlCl}_3$  ishtirokida etilenga  $\text{HCl}$  ta'sir ettirib olinadi:



Etilxlorid etillovchi agent sifatida qo'llaniladi. Masalan, dietildixlorsilan ishlab chiqarishda  $(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{Cl}_2$ , to'rt etil qo'rg'oshin  $\text{Rb}(\text{C}_2\text{H}_5)_4$  va h.k. qo'llaniladi.

Etil bromid  $\text{C}_2\text{H}_5\text{Br}$  suyuqlik ( $T_{mp}=38,4^\circ\text{C}$ ). Uni, motor yoqilg'ilarini oktan sonini oshirish uchun tetraetilqo'rg'oshin eritmasini tayyorlashda qo'llaniladi.

$\text{C}\equiv\text{C}$  bog'lar bo'yicha gidroxlorlash. Bu reaksiya ekzotermik tarzda sodir bo'ladi va olefinlarni gidroxlorlash jarayoniga nisbatan ikki marta ko'p issiqlik ajraladi:



$\text{HCl}$  ni atsetilenga birikishi bosqichma-bosqich sodir bo'ladi, avval vinilxlorid, so'ngra 1,1-dixloretan bosil bo'ladi:



Shuning uchun atsetilenning gidroxlorlash reaksiyalari faqat birinchi reaksiyani tezlashtirish uchun selektiv katalizatorlar ishtirokida olib boriladi. Bunday maqsad uchun simobning ikki valentli va misning bir valentli tuzlarini qo'llash ijobiy ahamiyatga ega. Simobning ikki valentli tuzlari orasida  $\text{HgCl}_2$  sulema gaz fazasida  $150\text{--}200^\circ\text{C}$  da quruq reagentlar ishtirokida qo'llaniladi. Bunda atsetaldegid va 1,1-dixloretan

hosil bo'ladi.  $\text{Cu}_2\text{Cl}_2$  ishtirokida oraliq jarayon atsetilenning dimerizatsiyasi natijada vinilatsetilen hosil bo'ladi:



Bu reaksiyani to'xtatish uchun yuqori konsentratsiyali HCl olinishi va katalizator konsentrlangan xlorid kislota erigan bo'lishi kerak.

Simob va mis tuzlarini gidroxlorlash reaksiyalariga katalitik ta'sirini koordinatsion kompleks hosil bo'lishi orqali tushuntirish mumkin, bunda atsetilen faollashadi va xlor anioni bilan o'zaro ta'sirlashadi va haqiqiy metall-organik birikma hosil bo'ladi, ular kislota ta'sirida tez parchalanadi:



Vinilxlorid  $\text{CH}_2=\text{CHCl}$  (rangsiz gaz,  $T_{\text{bord}} = -13,9^\circ\text{C}$ ). U eng muhim monomerlardan biri hisoblanadi. Undan turli polimer materiallar olinadi:




Sanoatda vinilatsetenni suyuq fazada  $40\text{--}60^\circ\text{C}$   $\text{Cu}_2\text{Cl}_2$  ishtirokida gidroxlorlash orqali olinadi.



**Atsetilenden vinilxlorid olish.** Gaz fazasida geterogen katalitik jarayon yo'li bilan atsetilen va vodorod xloriddan vinilxlorid sintez qilinadi. Faollashtirilgan ko'mirga sulema shmdirish yo'li bilan katalizator tayyorlanadi. Hosil bo'lgan katalizator tarkibida 10% (mass)  $\text{HgCl}_2$  bo'ladi. Atsetilenni gidroxlorlash bilan vinilxlorid olish texnologiyasi bilan tanishamiz (23-rasm).

Tozalangan atsetilen 1-olovni to'suvchidan o'tadi va namlikni kondensatsiyalanishi hisobiga 2-sovitgichda quriydi, so'ngra 3-kolon-naga keladi. 4-aratlashtirgichda u, quruq vodorod xlorid bilan aralashadi va 5-trubkasimon reaktorga keladi. Atsetilenni konversiya darajasi 97–98% tashkil qiladi., bunda reaksiya gazlari tarkibida 93% vinilxlorid, 5% HCl, 0,5–1,0 %  $\text{C}_2\text{H}_2$ , 0,3 % atsetaldegid va 1,1-dixloretan bo'ladi. Ular o'lari bilan sulema bug'ini olib ketadi. Gaz 6-sovitgichda soviydi, 7,8-skrubberlarda sulema va HCl dan tozalanadi (20% li xlorid kislota, suv, ishqor yordamida). Shundan so'ng gaz 10-nomakopli sovitgich-

da sovutiladi va 11-kompressor yordamida 0,7–0,8 MPa bosim ostida siqiladi.



**23-rasm. Atsetilenni gidroxlorlash bilan vinilxlorid olish texnologik sxemasi:** 1—olovni to'suvchi; 2,6,10—sovutgichlar; 3—quritish kolonnasi; 4—aralashshtigich; 5—reaktor; 7-9—skrubberlar; 11—kompressor; 12,13—rektifikatsiya kolonnaları; 14—separator; 15—deflegmator; 16—qaynatgich.

Aralashma navbatma-navbat 12 va 13-rektifikatsiya kolonnalarida ajratiladi. Dastlab, og'ir qoldiq (1,1 dixloretan), so'ngra yengil qismi (atsetilen, atsetaldegid) ajratiladi.

### Tayanch so'z va iboralar

Gidrogalogenlash jarayonlari, atsetilen, vinil xlorid, gidrolizlanish reaksiyalari, fторlash, xlorlash, bromlash va yodlash, 1,2 -dixloretan, xlorgidrinlar, aleilxloridlar, reaktorlar.

### Nazorat savollari:

1. Gidrogalogenlash reaksiyasi bilan olinadigan mahsulotlar.
2. Vinilxlorid olish texnologiyasi.
3. C=C bog'lari bo'yicha gidroxlorlash.
4. Vinil xloridning monomer sifatidagi ahamiyati.
5. Vodorod xloridni tavsiflang.

### 13-Ma'ruza

Sintetik yoqilg'ilar ishlab chiqarish jarayoni kimyosi va texnologiyasi.

## **Reja:**

1. “Oltin yo‘l GTL” zavodi
2. Sintetik yoqilg’ilar ishlab chiqarish jarayoni kimyosi
3. GTL texnologiyasi

### **“Oltin yo‘l GTL” zavodi**

Hozirgi kunda neft va gaz sanoatida bir qancha ko‘zga ko‘rinadigan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga misol tariqasida “Oltin yo‘l GTL” zavodi barpo etilmoqda zavod dunyodagi yetakchi litsenziar kompaniyalar — “Sasol” (JAR), “Xaldor Topse” (Daniya) va “Shevron” (AQSH) texnologiyasi asosida barpo etilmoqda. Qurilish ishlari bosh pudratchi — Koreya Respublikasining “Hyundai Engineering Co. Ltd.” Va “Hyundai Engineering and Construction Co., Ltd”, Singapurning “Enter Engineering Pte. Ltd.” kompaniyalari tomonidan olib borilmoqda.

Majmua uchun zarur 11 mingdan ortiq texnologik uskunalar Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, AQSH, Germaniya, Italiya, Xitoy, Rossiya kabi 21 ta davlatdagi 126 ta zavodda tayyorlanmoqda.

Loyihaning umumiy qiymati 3,6 milliard \$. Uning amalga oshirilishi natijasida yiliga 3,6 milliard kub metr gaz chuqur qayta ishlanib, YeVRO-5 standartlariga javob beradigan 1,5 million tonna sintetik suyuq yoqilg‘i ishlab chiqariladi. Bular 311 ming tonna aviakerosin, 743 ming tonna dizel yonilg‘isi, 431 ming tonna nafta, 53 ming tonna suyultirilgan gazdir. Zavodda gazni qayta ishlash orqali 300 \$lik mahsulot ishlab chiqariladi. Foyda ikki barobar ortadi. Yiliga hisoblaganda, tabiiy gazdan ko‘ra tayyor GTL mahsulotlaridan ko‘riladigan qo‘sishimcha daromad 576 million \$dan oshadi.

Ta’kidlanishicha, zavod mahsulotlari hozirda chetdan import qilanayotgan xomashyolar o‘rnini qoplaydi. Buning evaziga yiliga neft sotib olishga ketadigan 1 milliard \$dan ortiq valyuta mablag‘lari iqtisod qilinadi. Tabiiy gaz Toza gaz konlarining gazini tabiiy gaz deb nomlash qabul qilingan. Tarkibiy qismi bo‘yicha u yo‘ldosh gazlardan anchagina farq qiladi. Tabiiy gazda metanning miqdori yo‘ldosh gazdagidan ko‘p bo‘lib, 98% gacha yetishi mumkin; C<sub>2</sub> va ayniqsa, C<sub>3</sub> – C<sub>4</sub> uglevodorodlarning miqdori tabiiy gazda, odatda, yuksak emas. Ko‘pgina tabiiy gazlarda ko‘proq miqdorda inert gazlar (N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>) va kamyob gazlar (Ar, He va boshqalar) ham mavjud. Ayrim tabiiy gazlarning tarkibi 3a-jadvalda keltirilgan. Tabiiy va yo‘ldosh gazlar tarkibiga faqat to‘yingan uglevodorodlar kiradi.

### **Gaz holidagi olefinlarning qo‘llanilishi.**

Neftkimyo sintezi sanoatida gaz holidagi olefin uglevodorodlardan juda keng foydalilaniladi. Polietilen, etil spirti, stirol va vinilxlorid olishda etilen ishlatiladi. Uni oksidlab atsetaldegid, etilen oksidlari olinadi. Propilen esa polipropilenni va u orqali quyi molekular polimer bo‘lmish sintetik yuvish vositalari xomashyosini, izopropil spirtini, glitserinlarni ham olishga ishlatiladi. Butilenni asosiy ishlatilish joyi – uni sintetik kauchuk

uchun eng zarur monomer bo‘lmish butadienga degidrirlash, hamda spirtlar ishlab chiqarishdir; uni oksidlab va xlorlab ham qimmatli mahsulotlar olinadi.

Izobutilen – sintetik kauchuk ishlab chiqarishda monomer hisoblanadi. Izoamilenlar ham sintetik kauchuk ishlab chiqarishdagi izopren olishga yo‘naltiriladi.


Alternativ benzinni ishlab chiqarish Uchta sanoat yo’nalishini ajratish mumkin.

I. Ko’mirdan benzin (ko’mirlarni destruktiv gidrogenlash).

II. Gazdan benzin (GTL – Gas Liquid);


III. Etanol. Ko’mirdan benzinni olish jarayoni (ko’mirlarni destruktiv gidrogenlash)

Ko’mirlarni destruktiv gidrogenlash nemis kimyogarlari F. Bergius va M. Pir tomonidan 1913 yilda kashf etilgan. Ko’mirga suv bug’i bilan yuqori haroratli ishlov berishga asoslangan bo’lib, quyidagi reaksiya bo'yicha boradi.



va keyinchalik sintetik benzinni tashkil qiluvchi suyuq uglevodorodlar olinadi.


Bu texnologiya 450 C haroratda va 30 – 70 MPa bosimda vodorod ishtirokida suyuq yoqilg’ini olishga imkon berdi. 1926 yilda nemis kimyogarlari F. Fisher va G. Tropsh uglevodorodlarni suvli gazdan (suvli gaz deganda CO va H<sub>2</sub> dan tarkib topgan gazni tushunadilar) olishga imkon beradigan katalizatorlarni taklif qildilar.



Rasm-1. Sintez gaz ishlab chiqarish reaktori

Ularning tadqiqotlari asosida Germaniyada sintetik yoqilg’i olishning sanoat jarayoni ishlab chiqilgan; shu bilan biriga gaz holidagi va suyuq holidagilar bilan birga qattiq uglevodorod (parafin) lar hosil bo’ladi. Sanoat katalizatorlari sifatida alyuminiy oksidiga cho’ktirilgan kobalt, nikel va VIII guruhning boshqa metallarni qo’llaganlar.

Fisher Tropsh bo'yicha sintez jarayoni ko'mirlarni destruktiv gidrogenlash kabi ikkinchi jahon urushi vaqtida Germaniyada keng rivoj topdi: 1942 – 1944 yillarda qo'ng'ir va toshko'mir lar asosida sintetik suyuq yoqilg'ini ishlab chiqarish bir yilda 5 mln. m ga yaqinni tashkil qiladi.



**Rasm-2. Fisher Tropsh sintez jarayoni reaktorining texnologik sxemasi**

So'ngra bu ishlab chiqarish Janubiy Afrika Respublikasida (JAR) bu mamlakat uchun neftni sotib olish ma'n qilingan sharoitda muvaffaqiyat bilan ishlab turgan. Shuni takidlash kerakki, Germaniyada bu texnologiyalar bo'yicha qurilmalar XX asrning 80 – yillarida to'xtatilgan edi, chunki ko'mirdan olingan benzin neftdan ancha qimmat edi. XXI asrning boshida VR neft kompaniyasining olimlari tomonidan bu jarayon tiklandi, ammo Veba Sombi Cracker (VSS) nomi bilan og'ir neft qoldiqlaridan ochiq neft mahsulotlarini olish jarayoni sifatida. Ko'mirdan olingan benzinning sifati yuqri emas, u past oktan soniga ega. Dizel frastiyalarni ham olish mumkin. Keyinchalik olingan mahsulotlarni gidrokrekinga uchratiladi. Gazdan benzin olish jarayoni (GTL) Jarayon asosida sintez – gazni olish bilan metanni oksidlash reakstiyasi va sintez – gazni suyuq yoqig'iga qayta ishlash yotadi. GTL texnologiyasini qo'llash u yoki bu sabablarga ko'ra bozorga chiqarib bo'lmaydigan gaz resurslarini foydali ishlatish uchun maqsadga muvofiqdir. Odatda, bu jarayon yirik gaz konlarida va yuqori gaz olish bo'lgan neft konlarida yo'ldosh neft gazlarini foydali ishlatishda qo'llaniladi. GTL texnologiyasi sanoat miqyosida ancha katta kapital mablag'larni talab qiladi va neft narxining o'zgarishiga juda sezgir. Quvvati yiliga 20 ming t bo'lgan birinchi zavod 1991 yilda JAR da qurildi. An'anaviy GTL – mahsulotlar metanoldan tashqari o'z ichiga sirka kislota, olefinlar, dimetil efirini (dizel yoqilg'isining komponenti sifatida ishlatilishi mumkin), mochevina ammiak, mineral o'g'itlarni va uglerod zanjirining uzunligi har xil bo'lgan sintetik uglevodorodlar. Bu texnologiya yordamida past qaynaydigan, alkanlar, polioksimetilenlar, nafta, benzin sifatida qo'llaniladigan distillyatlar, kerosin, dizel yoqig'isi, surkov moylar va paraffinni olish mumkin. Sintez sharoitini o'zgartirib turib suvli gaz asosida kislorod saqlagan gazlarni xususan spirtlar – metanol va etanolni oladilar, ular esa avtomobil benzinning komponenti

sifatida qo'llanilishi mumkin, vaholanki ular ma'lum kamchiliklarga ega (benzin bilan qo'shilganda qatlamlarga bo'linish mumkinligi, gidroskopligi, korrozion faolligi, yuqori bug'lanish issiqlik). Hozirgi vaqtda Yaqin Sharq mamlakatlarida (Qatarda) bu texnologiya sanoat rivojini topdi (2010 yilda "Shell" neft kompaniyasining texnologiyasi bo'yicha bir yilda 1,6 mld. m<sup>3</sup> gazni to'g'ri haydalgan benzin, kerosin, dizel frakstiyalari va bazali moylarga qayta ishlash bo'yicha zavod ishga tushirilgan. Mahsulot sifatini oshirish uchun gidrokreking bosqichi shart. Etanol ishlab chiqarish Etanol benzinli dvigatellar uchun bevosita yoqilg'i bo'lishi mumkin hamda avtomobil benzinining komponentiga qo'shimcha sifatida ishlatilishi mumkin. Etanolni motor yoqilg'isi sifatida birinchilardan bo'lib G. Ford qo'llashni boshlagan, u 1880 yilda etanolda ishlaydigan avtomobil (Model T) ni ixtiro qilgan. Uzoq vaqt davomida qimmatligi hamda yuqori gidroskopikligi va etarli quvvatga ega emasligi tufayli etil spirti yoqilg'isi yoki yoqilg'iga komponent sifatida qo'llanilmadi. Motor yoqilg'isi sifatida etanolni keng qo'llanilishi ko'pgina mamlakatlarda o'tgan asrning 70 – yillarida boshlandi, bu neft krizislari hamda motor yoqilg'isining ekologik xossalariqa qo'yiladigan keskin oshgan talablar bilan belgilangan edi. Etilenni gidrotatstiyalash va nooziq – ovqat xomashyosini gidrolizlash yo'li bilan olingan etanol texnik etanol deb nom olgan va turli texnik maqsadlarda shu jumladan motor yoqilg'isi yoki uning komponenti sifatida qo'llaniladi. Etilenni to'g'ridan – to'g'ri gidrotastiyalash usuli bilan etanolni ishlab chiqarganda qattiq tashuvchida fosfat – kislotali katalizatorlarni qo'llaydilar; jarayon 260 – 280 C haroratda va 7 – 8 MPa bosimda sodir bo'ladi. Jarayonning eng katta kamchiligi bo'lib bitta o'tishda xomashyo konversiyasining pastligi (4 – 5 %) hisolanadi, bu ko'p miqdordagi o'zgarmagan xomashyo resirkulyastyanihining zarurligiga hamda katalizatorning yuqori korrozion agressivligiga va uni reaksiya zonasidan olib ketilishiga olib keladi. Yog'ochning gidrolizianishi mahsulotlarini bijg'itib gidroliz spirtini oladilar. Bijg'itish uchun zarur bo'lган shakillarni yog'och xomashyosi bo'lган qipiқ, yog'och bo'laklari va yog'ochni qayta ishlashning boshqa chiqindilarini gidrolizlab oladilar. Polisaxaridlarni saqlagan xomashyo (selyuloza) ni 5 % - li sulfat kislota bilan 180 C va 1 – 1,5 MPa da ishlab beradilar, bu glyukozaning hosil bo'lishiga olib keladi, so'ngra esa uni spirtli bijig'itadilar. Bunday usul bilan olingan etanolni suvdagi eritmani rektifikatsiyalaydilar. Etanolni oziq – ovqat xomashyosidan olganda kraxmal yoki uglevodorodlarni saqlagan don, kartoshka, shakar qamish, makkajo'xori va shunga o'xshagan o'simlik mahsulotlar qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati uglevodorodlarni etanolga qayta ishlaydigan bakteriyalar yordamida bu mahsulotlarni bijg'itishdan iborat. 95 % va undan ortiq % li "toza" etanol motor yoqig'isi sifatida uncha katta bo'lмаган hajmlarda qo'llaniladi, 5 dan 85 % gacha spirtni saqlagan etanolning benzin bilan turli aralashmalari eng keng qo'llaniladi. Bunda asosan bioetanol deb ataladigan o'simlik xomashyosining qayta yangilanadigan manbalaridan olingan etanol qo'llaniladi. Bioetanolni ishlab chiqarish uchun neftdan an'anaviy yoqilg'i (benzin) ni ishlab chiqarishga qaraganda sarflanadigan energiyaga qaraganda ko'proq energiya talab

qilinadi. Don, shakarqamish yoki makkajo'xorini ekish, parvarishlash, o'g'itlarni ishlab chiqarish, yig'ish va qayta ishlash (fermentastiyalash) uchun zarur bo'lgan quvvat hosil qilingan bioetanolning quvvat miqdoriga deyarli teng. Shu vaqtning o'zida neftdan yoqilg'i ishlab chiqarish uchun qilinadigan sarflar hosil qilingan yoqilg'i quvvat miqdorining qariyib 10 – 30 % ni tashkil qiladi. Etanol motor yoqilg'isi sifatida Braziliyada eng ko'p qo'llaniladigan, bu o'simlik xomashyosi bo'lgan shakarqamishdan etanolni ishlab chiqarish imkoniyatlari katta ekanligi bilan belgilangan. Brazilyada 2,5 mln. avtomobil (avtoparking 90 %) motor yoqilg'isida ishlaydi, bu yoqilg'i ko'proq yoki kamroq miqdorda o'z tarkibida etanolni saqlaydi. AQSh da motor yoqilg'isini ishlab chiqarishda etanol muhim o'rinni egallaydi, u asosan makkajo'xoridan ishlab chiqariladi. Bozorda E 85 benzin etanolli yoqilg'isining (85 % etanol va 15 % benzin) naydo bo'lishi egiluvchan yoqilg'i sistemasi bo'lgan avtomobillarning yangi konstenstiyasini ishlab chiqarish zarurati bilan bog'liq. Avtomobilga quyidagi talablar quyiladi: u etanolni saqlamagan benzin uchun ham, 100 % spirtni saqlagan uchun ham to'g'ri keladigan yoqilg'i bakiga esa bo'lishi kerak va tegishli ravishda avtomatik qayta sozlash va yoqilg'ining tarkibiga bog'liq bo'lgan yoqilg'i: havo zarur bo'lgan nisbatini saqlab turadigan sistemasiga ega bo'lishi kerak. Undagi qo'llaniladigan rezina texnik buyumlar spirt va benzinka nisbatan chidamli bo'lishi kerak. Rossiyada avtomobil benzinda etanolni ishlatishda asosiy to'siq bo'lib etanol narxining qimmatligi va uning akstizi hisoblanadi. Benzin (franstuzcha-benzine) -turlicha tuzilgan uglevodorodlar aralashmasi, 30- 2050 C atrofida qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Muzlash temperaturasi-600 C, alangalanish temperaturasi 0 C dan past, zichligi 700-780 kg/m<sup>3</sup> (0,70-0,78 g/sm<sup>2</sup>). Havoda benzin bug'lari konstentrasiysi 74-123 g/m<sup>3</sup> ga etganda portlaydigan aralashmalar hosil bo'ladi. Benzin asosan, neftni haydash va katalitik qayta ishlash yo'li bilan olinadi: ozroq benzin toshko'mir va yonuvchi slanestlar qayta ishlash yo'li bilan (destruksiya gidrogenlash), shuningdek tabiiy va yo'lakay gazlardan olinadi. Benzin asosan, ichki yonuv dvigatellar uchun yonilg'i sifatida ishlatiladi. Qariyib 10% benzin erituvchi, yuvadigan suyuqlik sifatida va boshqa maqsadlar uchun qo'llaniladi. Xulosa Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, sintetik uglevodorodlar asosidagi sintetik yoqilg'ining eng katta afzallik jihatni esa, ularning inson organizmiga ko'rsatadigan ta'siridadir. Ya'ni, sintetik yonilg'i odamga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmaydi (albatta, buni hali isbotlash ham kerak). Gap shundaki, uglevodorodlarning o'zi ham juda xilma-xil bo'lib, ularning kimyogarlar tili bilan aytganda, chiziqli, tarmoqli, siklik, aromatik kabi turlari mavjud. Shunga ko'ra, turli guruhlarga mansub turdag'i uglevodorodlar, bir-biriga juda o'xshash yoqilg'i xossalariiga ega bo'lsa-da, biroq, ularning boshqa fizik xossalari, masalan, hidi, qovushqoqligi, inson organizmiga ta'siri kabi xususiyatlari mutlaqo farqlanadi. Bu juda muhim jihatdir. Agar, neftdan olingan benzin odam oshqozoniga tushsa, u aniq zaharlanadi. Sintetik benzin esa neytral modda bo'lib, tarkibida turli zaharli moddalar, smolalar, aromatika bo'lmaydi va

demak u odamni zaharlamaydi. Bu juda muhim jihatdir. Bu borada hozirgi kunda qilinayotgan ishlar insoniyatning yanada yengil turmush tarzini yaratib yaxshilaydi.

### Nazorat savollari:

1. GTL texnologiyasi xomashyosi nima?
2. GTL texnologiyasi maxsulotlarini tavsiflang.
3. Fisher tropsh reaksiyalarini tavsiflang.
4. Sintez gaz nima?
5. “Oltin yo‘l GTL”zavodi.

## 14-Ma’ruza

### Vinilatsetilen ishlab chiqarish


#### Reja:

1. Vinilatsetilen fizik-kimyoviy xossalari
2. Vinilatsetilen ishlab chiqarish texnologiyasi

### Vinilatsetilen fizik-kimyoviy xossalari



Vinilatsetilen - o’tkir hidli rangsiz gaz. Suvda erimaydi, uglevodorodlar, benzol va boshqa organik erituvchilarda eriydi.

Sanoatda vinil asetilenni suvli muhitda ammiak xlorid va tuzli tuzlar ishtirokida asetilenni dimerlash yo‘li bilan olinadi:



Vinil asetilen odatda reaksiyalarda asetilen kabi xossalarni namoyon etadi.

Suvni simob tuzlari ishtirokida biriktirib, metil vinil keton hosil qiladi:



### Vinilatsetilen

Quyida vinilatsetilenni sanoat ishlab chiqarishda ishlatiladigan atsetilen dimerizatsiyasi katalizatorlarining taxminiy tarkibi keltirilgan.

Mis tuzlari ta’sirida asetilenlarning oksidlovchi dimerlanish mexanizmini o’rganish katta amaliy ahamiyatga ega. Masalan, vinilatsetilen, shuningdek, asetilendenan vinilxlorid ishlab chiqarishda diatsetilen hosil bo’lish mexanizmini tushuntirish mumkin.

Misning bir valentli tuzlari tuzlari simob va rux tuzlari singari bir qator asetilen reaktsiyalari uchun odatiy katalizatorlardir. Ular asosan vinilatsetilen, xloropren va akrilonitril ishlab chiqarish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'ldi.

Asetilenni katalitik dimerizatsiyalash jarayonida, ishlab chiqarishning asosiy mahsuloti vinilatsetilenden tashqari, bir qator reaktsiya yon mahsulotlari hosil bo'ladi. Bu asetilenning kimyoviy faolligi va unga bog'liq bo'lgan ko'plab reaktsiyalarga bog'liqligi bilan bog'liq.

### **Vinilatsetilen ishlab chiqarish texnologiyasi**

Vinil asetilen ishlab chiqarish operatsiyalariga asetilenni dimerizatsiya qilish va olingan vinilatsetilenni ajratish va tozalash jarayonlari kiradi.


Vinil asetilen ishlab chiqarishning asosiy apparati - atsetilen dimerizatsiya reaktori. Reaktor konstruktsiyasi bajarilishi kerak bo'lgan eng muhim shartlardan biri katalizatorda gaz (asetilen) oqimlarining yaxshi taqsimlanishini, ya'ni gazning katalizator bilan yaxshi aloqa qilishini ta'minlashdir.

Vinil asetilen ishlab chiqarish yonuvchan va portlashga xavfli jarayondir. Shuning uchun asetilenni kisloroddan yaxshilab tozalash zarur. Vinil asetilen ishlab chiqarish jarayonining xavfli tomoni divinilatsetilennen paydo bo'lishi va mavjudligi bilan bog'liq.

Divinilatsetilen polimerlanib, peroksid birikmalariga oson oksidlanadigan plastik va qattiq moddalarga aylanadi. Peroksidlar engil ishqalanishdan, mahalliy qizib ketishdan va boshqalardan portlashi mumkin, shuning uchun ular asetilen portlashiga olib kelishi mumkin. Bu divinilatsetilenni vinilatsetilen ishlab chiqarishda eng xavfli mahsulotlardan biriga aylantiradi. Divinilatsetilen peroksidlarini hosil qilish uchun kislorodning yuqori konsentratsiyasi talab qilinmaydi.

Bu shuni anglatadiki, kislorodning tizimga kirishiga yo'l qo'ymaslik uchun ko'rilgan barcha choralar bu potentsial xavfni kamaytiradi, lekin uni yo'q qilmaydi. Haroratning oshishi bilan divinilatsetilennen polimerlanishi va xavfli peroksidlarning hosil bo'lishi tezlashgani uchun haroratni belgilangan rejimdan oshishiga yo'l qo'ymaslik kerak va ishlab chiqarish xavfini kamaytirish uchun bir qator maxsus choralar ko'rish kerak.

Xom ashyo asetilen kimyoviy aralashmalardan tozalagichlar yordamida tozalanadi va vinilatsetilen ishlab chiqarishga o'tkaziladi. Vinil asetilen ishlab chiqarishning asosiy apparati - atsetilen dimerizatsiya reaktori. Vertikal ko'pikli reaktorda vinilatsetilen ishlab chiqarish texnologik jarayoni olib boriladi.



### Vinilatsetilen ishlab chiqarish jarayoni texnologik sxemasi

Vinilatsetilen ishlab chiqarish texnologik jarayonining sxematik diagrammasi yuqorida keltirilgan.

Vinil asetilen sintezining qo'shimcha mahsulotlari - vinilxlorid, asetaldegid, atsetilenedin, asetilen tetramer konsentrangan shaklda erkin kislorod bilan oksidlanib, beqaror mahsulot hosil qiladi. Kislorod bilan o'zaro ta'sirlashganda atsetilenni chuqurroq polimerizatsiya qilish yo'li bilan olingan divinilatsetilen peroksid birikmalarini hosil qilishi mumkin, ular past impulslarda, shu jumladan yorug'lik ishqalanishida portlashi mumkin.

### Nazorat savollari:

1. Vinilatsetilen fizik – kimyoviy xossalari.
2. Atsetilenden vinilatsetilenning olinishi qanday amalga oshiriladi.
3. Vinilatsetilen ishlab chiqarish katalizatorlari.
4. Atsetilenning fizik – kimyoviy xossalari.
5. Atsetilenning olinish usullari.

### 15-Ma'ruza

#### Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof muhitga ta'siri.

##### Reja:

1. Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof muhit uchun zararliligi
2. Atrof-muhitdagi chiqindilarni kimyoviy vositalar yordamida tozalash.
3. Ekologiya muammolari

#### Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof muhit uchun zararliligi

Kimyo sanoatining atrof-muhitga zarari haqida gapirilganda faqat ishlab turgan ximiyaviy ishlab chiqarish korxonalarini emas, balki butun ximiyaviy mahsulotlar tushuniladi. Masalan, sintetik polimerlar tabiiy polimerlardan farq qilib, bo'linuvchi feramentlarga ega emas. Ana shu ma'noda sintetik polimerlarni biologik jihatdan yo'qotib bo'lmaydi. Ularni ishlatib bo'linganidan keyin yoqib yuborilishi natijasida havoning ifloslanishi yanada ko'payadi. Kimyo sanoatida polimerlarning miqdori tezlik

bilan ortib borayotganini hisobga olgan holda ularning foydalanib bo‘linganidan so‘ng aniq mahsulot sifatida utilizatsiya qilish muammosi yana ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham ximiklar oldiga biologik parchalanuvchi plastmassalar va sintetik tola yaratish masalasi qo‘yilishi bejiz emas.

Kimyo sanoatida chiqindilardan qanday foydalanilmoxda? Hozirgi vaqtida kimyo sanoatida hosil bo‘ladigan 750 turdagи chiqindilardan faqat 250 tasi qisman yoki butunlay qayta ishlatilmoxda. Ishlatilinmagan chiqindi holidagi xom ashyning tannarxi esa yiliga astronomik raqami – taxminan 100 mld. so‘mni tashkil etmoqda.

Tezlik bilan rivojlanayotgan ishlab chiqarishning insonga va atrof-muhitga ta’sir etuvchi haqiqiy va potensial zarari kimyoviy korxonalardan foydalanadigan ko‘pgina mamlakatlar olimlari va jamoatchiligidan kuchli norozilikni yuzaga keltirdi. Ommaning ta’siri ostida AQSHda va ba’zi Yevropa mamlakatlarida kimyoviy korxonalardan chiqariladigan normadan yuqori zararli moddalarning ortib ketishini ko‘rib chiqadigan va katta miqdorda jarima soladigan qonun qabul qilindi. Bu tadbirning ajoyib natijasi shu bo‘ldiki, qisqa vaqt ichida, ammo katta miqdorda kapital mablag‘ sarf qilib kam chiqindili yoki chiqindisiz texnologiya jumlasiga kiruvchi, texnologik prinsiplar jihatidan yangi texnologiyalar ishlab chiqildi.

Bunday chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida sanoat ishlab chiqarilishida yangi yo‘nalish vujudga keldi. Uning mohiyati xomashyodan kompleks ravishda foydalanish, sanoat va maishiy chiqindilar hamda zararli tashlandiqlarni utilizatsiya kilish, oqava suvlarni tozalash natijasida ulardan foydalanish, barcha foydali boyliklardan ishlab chikarishda kayta foydalanish mahsadida butunlay yoki qisman

Xom ashyni kompleks ravishda kayta ishlash turli-tuman maxsulotlar tayyorlash imkonini beradi, uning bir kismi xo‘jalikning bevosita ishi bo‘lib hisoblanmaydi, shuning uchun ko‘pgina chiqindilardan foydalanilmaydi, chunki ular iqtisodiy jihatdan foyda keltirmaydi. Ma’lumki, xom ashynidan har tomonlama va kompleks ravishda foydalanish muammosi tarmoqlararo ish-lab chikarish strukturasini amalga oshirgan takdirdagina hal qilinishi mumkin. xozirgi vaqtida aynan shu strukturadan mamlakatimiz xalq ho‘jaligida foydalanilmokda.

Muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish katta miqdorda kapital mablag‘ talab kiladi. Ekspertlarning bergen bahosiga ko‘ra keltirgan zararimiz tufayli atrof-muhitni butunlay qayta tiklash uchun 5% gacha milliy mahsulotni, ya’ni 30—35% dan ko‘proq kapital mablag‘ni sarflash kerak. Jamoatchilikning fikri asosida ho‘jalik yuritish siyosati o‘zgargan bo‘lsa ham, hozircha dunyodagi birorta ham mamlakat buncha xarajatni sarflashga qodir emas.

### **Atrof-muhitdagi chiqindilarni kimyoviy vositalar yordamida tozalash.**

Dastlab oqava suvlardan boshlaymiz. Sanoat oqava suvlari va xo‘jalik oqava suvlari bo‘ladi. Bir kunda jon boshiga 200 l dan ko‘prok, ishlatiladigan xo‘jalikdagi oqava suvlari nisbatan biologik usulda tozalanadi, chunki ulardagи hamma qo‘srimchalar organik tabiatda uchraydi. Shuning uchun katta zarrachali qattiq jismlarni yo‘kotishdan iborat

bo‘lgan birinchi qayta ishlashdan va bakteriyalarni yo‘qotish maqsadida xlor yoki ozon bilan tozalangandan so‘ng xo‘jalikdagi suvlari to‘g‘ri burchakli yoki silindir shaklidagi maxsus qurilmalardagi faollashtirilgan ko‘pik yordamida biokimyoviy oksidlanadi. Bunda mikroorganizmlar o‘sadi, natijada ko‘shimcha biomassa hosil bo‘ladi. Ko‘shimcha biomassadan oqsil-vitaminli konsentrat olishda foydalaniladi. U qishloq xo‘jalik mollariga qo‘shimcha oziq modda sifatida beriladi, natijada mollarning vazni sezilarli darajada ortadi.

Biologik tozalangan suvni tabiiy, biologik, jarayonlar toza-lashni tugallaydigan dengiz yoki daryoga quyish va shu bilan bir qatorda bu suvni uchinchiligi marta qayta ishlash mumkin. Bunda hosil bo‘lgan mahsulotdan sanoat sistemasida va hatto, ichimlik suv sifatida foydalanish mumkin. Oqava suvlarni uchlamchi qayta ishlash jarayoni quyidagilardan iborat: aktivlangan ko‘mirga sorbsiya, selektiv koagulyatsiya, aeratsiya, fosfatlarni cho‘ktirish, azot birikmalarini yo‘qotish, bakteriyalarni filtrlash, elektrokimyoviy qayta ishlash va sterillash.

Faollashtirilgan ko‘mirga yuttiresh (sorbsiya) erigan va muallaq qo‘shimchalarni yo‘qotishning eng samarali usulidir. Bunda ko‘mir suv bug‘i atmosferasida  $930^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilib regeneratsiyalanadi va faollashtiriladi. Ko‘mir sirtiga adsorbilangan organik qo‘shimchalar bug‘ bilan birga haydaladi. Koagullanish, ya’ni mayda zarrachalarni aglomeratsiyalash ularni katta zarrachalar bilan birga cho‘kishi bilan sodir bo‘ladi.

Cho‘ktiruvchi sifatida kalsiy gidrokarbonat bilan ta’sirlasha oladigan alyuminiy sulfatdan foydalanish mumkin:



Bu reaksiyada alyuminiy gidroksid kolloid zarrachalarni o‘z ichiga qamrab oladi va ular bilan birga cho‘kmaga tushadi.

### **Ekologiya muammolari**

Ekologiya muammosi Yer yuzining xamma joylarida xam dolzarb, faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida turlichadir.

O‘zbekistonda murakkab, xafli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat quyidagilardan iborat:

1-Yerlarning sho’rlanganligi O‘zbekiston uchun ekologik muammodir.

2-Suv zaxiralaring, shu jumladan er usti va er osti suvlarining keskin tanqisligi xamda ifloslanganligi katta tashvish tug’dirmoqda.

3-Orol dengizini qurib borish xavfi g’oyat keskin muammo.

4-Xavo bo‘shliqining ifloslanishi xam respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan taxtiddir.

Mutaxassislarining ma'lumotiga qaraganda, xar yili respublikaning atmosfera xavosiga 4 million tonnaga yaqin zararli moddalar qo‘shilmoqda shularning yarmi uglerod oksidiga to‘qli keladi, 15 % ni uglerod chiqindilari, 14 % ni oltingugurt kuli oksidli, 9 % ni azot oksidi, 8 % ni kattiq moddalar tashkil etadi va 4 % ga yaqin o‘ziga xos o’tkir zaxarli moddalarga to‘g‘ri keladi.

Atmosferada uglerod yig’indining ko‘payib borishi natijasida o‘ziga xos keng ko‘lamdagisi issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatda Er xavosning o‘rtacha xarorati ortib ketadi.

Bu ekologik muammolarning oldini olish uchun chiqindisiz ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, chiqindilarni qayta ishlash yoki zararsizlantirish ishlab chiqarish

korxonalarida tozalash moslamalaridan keng foydalanish, atmosfera xavosiga chiqayotgan gaz changlarini qayta ishlash, ushlab qolish ularni zararsizlantirish muxim ahamiyatga ega.

Shularni hisobga olib, xozirgi kunda O'zbekistonda qurilayotgan ishlab chiqarish korxonalarida shu masalalar muxim hisoblanadi.

Biron bir moddaning chegaraviy mumkin bo'lgan miqdori deganda moddaning inson ish qobiliyati, salomatligi va kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan kontsentratsiyasi tushuniladi. Atmosferaga chiqayotgan turli zaharli moddalarning zaharlilik darajsi ularning  $1 \text{ m}^3$  xavodagi milligramm miqdorini aniqlash yo'li bilan belgilanadi [ $\text{mgG}^{-1}\text{m}^3$ ].

Atmosfera xavosini changdan tozalashning quyidagi usullari mavjud.

1. Gravitatsion usul.
2. Quruq inertsion va markazdan qochma kuch asosida tozalash.
3. Quyish usuli.
4. Filtrlash usuli.
5. Elektrostatik usul.
6. Tovush va ultratovush yordamida koagullah.

Atmosfera xavosini zaxarli gazlardan absorbtion, adsorbtion, katalitik va termik usullar bilan tozalash mumkin.

Oqava suvlarni tozalash usullari quyidagilarga bo'linadi:

1. Mexanik tozalash usullari: filtrash, tindirish.
2. Fizik-kimyoviy usullar: koagulyatsiya, flokulyatsiya, flotatsiya va x.k.
3. Kimyoviy usul:
  - a) Regenerativ usul: adsorbsiya, xaydash rektifikatsiya.
  - b) Destruktiv usul: oksidlash, termookisdlash.
4. Biokimyoviy usul: kislородли aerobli va kislородсиз muxitda anaerobli.

Sho'rtan gaz kimyo kompleksida xar xil chiqindilarni yo'qotish uchun bir qancha tadbirlar ko'zda tutilgan shulardan biri chiqindilarni yondirish moslamasidir.

Bu moslamaga zavodni xar xil nuqtalaridan quvurlar orqali yoqish uchun chiqindilar yuboriladi oqim miqdori norma bo'yicha 200 kg/soat, maksimum 800 kg/soat ga mo'ljallangan bu chiqindilar qatoriga past molekula oqirlikka ega bo'lgan polietilen xam kiradi. Xulosa qilib aytganda suyuq xolatdagi barcha chiqindilar yoqishga yuboriladi.

Atmosferaga chiqarib tashlanadigan chiqindilar qatoriga: fakeldan chiqayotgan gazsimon moddalar, saqlovchi rezervuardan (idishlardan) xosil bo'layotgan gazsimon moddalar va boshqalar.

Qattiq xolatdagi chiqindilarni ishlatish to'g'risida yuqorida aytib o'tildi (bularga polimer, silikagel alyuminiy oksidlar kiradi, katalizator qoldiqlari).

#### **Nazorat savollari:**

1. Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof muhit uchun zararliligi
2. Atrof-muhitdagi chiqindilarni kimyoviy vositalar yordamida tozalash.
3. Ekologiya muammolari
4. Chiqindisiz texnologiyaning qanday afzalliklari bor.
5. Plastmassalarning afzalliklari va kamchiliklarini izohlang.

# **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

## 1-amaliy mashg'ulot

### Komyoviy ishlab chiqarish jarayonlarini o'rGANISH.

#### Komyoviy ishlab chiqarish strukturalari

Kimyoviy ishlab chiqarish kimyoviy texnologiyaning tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Kimyoviy ishlab chiqarish – mashina va uskunalar yordamida xomashyoni zarur mahsulotlarga aylantirishdagi jarayon va operasiyalar majmuyidir.

Kimyoviy ishlab chiqarishga quyidagi talablar qo'yiladi:

- ishlab chiqarishda zarur mahsulotlarni olish;
- ekologik xavfsizlik;
- ekspluatatsiya qilishdagi xavfsizlik va mustahkamlik;
- xomashyo va energiyadan maksimal foydalanish;
- mehnat unumining maksimal bo'lishi.


Kimyoviy ishlab chiqarishning asosiy vazifasi mahsulot olish bo'lib, bunda komyoviy ishlab chiqarishning ko'p funksionalligi hisobga olinadi.

Kimyoviy ishlab chiqarish 1.1-rasmda keltirilgan funksional qismlarni o'z ichiga oladi:

1.1-rasmdagi 1–3-pozisiyalar – xom ashyoni mahsulotga aylantiruvchi komyoviy ishlab chiqarishning o'zi. Bu yerdagi 1-pozisiya xomashyoni oldindan tayyorlash, ya'ni uni maydalash, aralashmalar dan tozalash, komponentlarni aralashtirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Xomashyoni tayyorlash uning xili va aylantirish sharoitiga bog'liqdir.



**Komyoviy ishlab chiqarish korxonalari**



**1.1-rasm.** Kimyoviy ishlab chiqarish strukturasi va funksional elementlari:

1 – xomashyoni tayyorlash; 2 – xomashyoni qayta ishlash; 3 – mahsulotlarni ajratish; 4 – chiqindining sanitar ishlanishi va utilizatsiyasi; 5 – energetik sistema; 6 – suv va yordamchi materiallarni tayyorlash; 7 – boshqarish tizimi.

Tayyorlangan xomashyo bir necha o‘zgarishlardan o‘tib (2-pozisiya), ishlab chiqarishning zarur mahsulotiga aylanadi. 3-pozisiyada tabiiy xom ashyolar tarkibida mavjud bo‘lgan aralashmalarini asosiy mahsulotdan ajratish va ulardan tozalash ko‘zda tutiladi. Xomashyodan ajratilgan chiqindi yoki nokerak mahsulotlar o‘z navbatida zararli, atmosferaga chiqarib yuborilganda uni buzuvchi yoki foydali moddalarni saqlashi mumkin, ularni tashlab yubormaslik zarur bo‘ladi. Shu bois kimyoviy ishlab chiqarishning muhim xususiyatlaridan biri sanitar tozalash va ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanish hisoblanadi.

Sanitar tozalash yoki chiqindilarni zararsizlantirish orqali zaharli tarkiblarni yo‘qotish bilan atmosferani buzmaslikka erishishiladi. Ishlab chiqarish chiqindilarini ishlatish va yo‘qotishda korxona joylashgan hududning va umuman atrof-muhitning ekologik vaziyatini hisobga olgan holda ish tutmoq lozim bo‘ladi. Ajralayotgan chiqindi va ikkilamchi mahsulotlardan maqsadli foydalanish eng ratsional yo‘l hisoblanadiki, bu bilan tashlanayotgan kimyoviy moddalar miqdori kamaytiriladi, bu esa har qanday korxona uchun ayni muddaodir.

Xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirishda energiyaning eng ko'p qismini kimyo sanoati ishlataladi, bunda energetik resurslarning 15 foizi sarflanadi. Shu boisdan kimyoviy ishlab chiqarishda energetik tizim muhim o'rinni egallaydi (5-pozisiyaga qarang). Sarflanayotgan energiya to'g'ridan-to'g'ri mahsulot olishga emas, balki uni ishlab chiqarishga sarflanadi. Ba'zi jarayonlar energiya ajralishi bilan boradi (ekzotermik reaksiyalarda), shuning uchun ham energiyani ishlab chiqarish bosqichlariga zarur miqdorda sarflagan holda undan xomashyoni ishlashda qaytadan foydalanish mumkinligini o'ylash kerak. Energiya bilan bir qatorda kimyoviy ishlab chiqarishda yordamchi materiallar ham ishlatiladi. Bularga mahsulotlarni ajratish va tozalashda zarur bo'lgan sorbentlar, reaksiya muhitini yumshatuvechi neytral reagentlar (intergazlar va boshqalar) kiradi. Bunday moddalar ichida suv asosiy o'rindrardan birini egallaydi, chunki u texnologik tizimlardagi oqimni sovutishda, bug' ishlab chiqarishda, ularni eritish va suyultirishda ko'plab qo'llanadi. Rasmdagi 6-pozisiyadan yordamchi materiallarni va ayniqsa, ishlatiladigan suvni tayyorlash kimyoviy ishlab chiqarishning muhim va murakkab qismlaridan ekanligi ko'rinish turibdi. Murakkab kimyoviy ishlab chiqarishni boshqarish ham zarurdir (rasmning 7-pozisiyasiga nazar soling). Bunda ishlab chiqarishni nazorat qilib turish, jarayonni ko'zda tutilgan sharoitda ushlab turish, noxush hodisa (avariya)lardan asrash va zarurat tug'ilganda murakkab tizimni to'xtatish amalga oshiriladi. Bu texnologik jarayonni boshqarish tizimini avtomatlashtirishdir. Endi kimyoviy ishlab chiqarishning komponentlariga to'xtab o'tsak bo'ladi.

### **Mexanik va kimyoviy texnologiyaga.**

Mexanik texnologiya qayta ishlanadigan materiallarning faqat shakli va ba'zan fizikaviy xossalari o'zgarish jarayonlarini o'rganadi. Kimyoviy texnologiya moddalar tarkibi, xossalari va tuzilishining o'zgarishi bilan boradigan jarayonlarni, hamda bu jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan apparatlarni o'rganadi. Bunday bo'lish nisbatan shartlidir, chunki ba'zan, moddalarga mexanik ishlov berilganda ularda kimyoviy reaksiyalar ham boradi. Masalan: cho'yan yoki po'latni suyuqlantirib suyuqlanmalarini qo'yish jarayoni mexanik texnologiyaga kiradi, ammo unda kimyoviy reaksiyalar ham bo'ladi, kimyoviy jarayonlar esa o'z navbatida mexanik jarayonlar bilan birgalikda sodir bo'ladi.

..... Kimyoviy texnologiyaning muhim vazifasi kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishda u yoki bu kimyoviy reaksiyalarning borishi uchun qulay, optimal iqtisodiy samarali usullar va sharoitlarni qidirib topishdir. Kimyoviy texnologiya xomashyoni kimyoviy qayta ishlashni boshqarish jarayonlarini, sotsial va iqtisodiy faktorlarni resurslar bilan taminlash va ishlab chiqarishdagi xavfsizlikni taminlash, parametrlar (harorat, bosim,

jarayon, konsentratsiyasi xom ashyni qayta ishlash tezligi va boshqalar) optimal qiymatlarini topish, apparatlarni tayyorlash uchun materiallarni tanlash, jarayonining texnologik sxemasini yaratish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish kabi ishlarni bajaradi. Bularni amalga oshirishda kimyo va fizikaning fundamental qonunlaridan foydalaniladi.

Kimyoviy ishlab chiqarish texnologik jarayonlarda kimyoviy reaksiyalardan tashqari mexanik va gidrodinamik operatsiyalar (maydalash, navlash, xom ashyni uzatish, apparatdan chiqarish, filrlash, yuvish) hamda fizik-kimyoviy (eritish, yutirish, gazni kondensatsiyalash, ekstraktsiyalash, xaydash, rektifikatsiyalash) jarayonlar bosqichidan o‘tadi.

..... Biror texnologik sxemani yaratishda kimyoviy texnologiyaning umumiyligi printsiplaridan qo‘llaniladi. Ular – jarayon doimiyligi, reaktsiya issiqligidan foydalanish, xom ashyni kompleks (chiqindisiz) ishlatish, ishlab chiqarishni kombinirlash.

Davriy jarayonlar – reaktsion apparatga xom ashyo yoki yarim fabrikatning ayrim portsiyalari kiritiladi. Keyinchalik reaktsiya o’tkazilib, tugagandan keyin apparatdan chiqariladi. SHundan so’ng apparat to’xtatilib operatsiya yana qaytariladi.

Jarayonni amalga oshirishda reaktsiyani o’tkazish sharoitlari doimo o’zgarib turadi. Chunki vaqt o’tishi reaktsiyaning dastlabki kontsentratsiyasi o’zgaradi, bu o’z navbatida reaktsiya tezligining pasayishiga, temperaturaning o’zgarishiga olib keladi. SHu kabilarga ko’ra davriy jarayonlar kam quvvatli hisoblanadi.

..... Doimiy ishlab chiqarish jarayonlari – bunda xom ashyo berilishi va mahsulotning chiqarilishi apparatni yoki sistemanı to’xtatmasdan olib boriladi. Bu turdagı jarayonlar quyidagi afzalliklarga ega:

..... A) Apparatlarning turib qolishining yo‘qligi.

..... B) Jarayon sharoitlarining barqarorligi, optimal rejimning doimiyligi.

V) Apparatlar o’lchamining kichikligi, shuning asosida binolar o’lchami ..... kichrayadi va kapital harajatlar kamayadi.

G) Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati mavjudligi.

Bulardan tashqari yarim doimiy va serkulyatsion (yopiq) ishlab chiqarish jarayonlari ham mavjud.

Ishlab chiqarish chiqindilarini ishlatish printsipi deyarli barcha kimyoviy ishlab chiqarishda tayyor mahsulotdan tashqari chiqindilar paydo bo’ladi. Agarda yuqoridagi printsipga amal qilinsa, ya’ni chiqindilarni qayta ishlash mexanizmlari yaratilsa: 1) mahsulot tannarxi oshadi; 2) atrof-muxit ifloslanishdan saqlanadi; 3) ishlab chiqarish rentabelligi oshadi.

Kimyoviy texnologiyaning asosiy tamoillari- jarayonlar doimiyligi, qaramaqarshi oqim, reaktsiya issiqligidan foydalanish, xom ashyni kompleks ishlatish va ishlab chiqarishni kombinirlashlardir.

### **Texnologik jarayon xaqida tushuncha.**

Kimyoviy texnologiyada fizikaviy va kimyoviy hodisalar birgalikda olib qaraladi. Kimyoviy – texnologik jarayon bu dastlabki xom ashylardan olinishi ko’zlangan tayyor mahsulotni olishga imkon beradigan operastiylar majmuidan iborat. Kimyo sanoatida turli – tuman texnologik jarayonlar ishlatiladi. Bunday jarayonlar ayrim belgilariga qarab bir necha sinflarga bo’linadi.

Texnologiya jarayonlarini ularning harakatlantiruvchi kuchiga ko’ra 5 sinfga bo’linadi:

1. Mexanik jarayonlar,
2. Gidromexanik jarayonlari,
3. Issiqlik almashinish jarayonlari,
4. Modda almashinish jarayonlari,
5. Kimyoviy jarayonlar,

Mexanik jarayonlar qattiq materiallarni mexanik kuch ta'sirida qayta ishlash bilan bog'liq. Bunday jarayonlarga saralash, uzatish, aralashtirish, maydalash kabilar kiradi. Bu jarayonlarning tezligi qattik jismlarning mexanik qonuniyatları bilan ifodalanadi. Bunda xarakatlantiruvchi kuch vazifasini mexanik bosim kuchi yoki markazdan qochma kuch bajaradi.

Gidromexanik kuchlarga suyuq va gazsimon sistemalardagi harakat (aralashtirish, filtrlash, cho'ktirish) bilan bog'lik jarayonlar kiradi. Bunday jarayonlarning tezligi gidromexanika qonunlari bilan aniqlanadi. Gidromexanik jarayonlarning xarakatlantiruvchi kuchi – gidrostatik va gidrodinamik bosimdir.

Issiqlik almashinish jarayoni – xaroratlar farqi mavjud bo'lganda bir (harorati yuqori) jismdan ikkinchi (xarorati past) jismga issiqlikning o'tishidir. Bu guruxga sovitish, isitish, buglatish, kondensatlash va sun'iy sovuq hosil qilish jarayonlari kiradi. Jarayonning tezligi gidrodinamik rejimga bog'lik xolda issiqlik uzatish qonunlari bilan ifodalanadi, issiklik jarayonlarining xarakatlantiruvchi kuchi sifatida issik vasovuk muxitlar o'rtasidagi xaroratlar farqi ishlatiladi.

Modda almashinish bir yoki bir necha komponentlarning bir fazadan fazalarni ajratuvchi yuza orqali ikkinchi fazaga o'tishidir. Komponentlar bir fazadan ikkinchi fazaga molekulyar va turbulent difuziyalar yordamida utadi. Shu sababli bu jarayonlar diffuzion jarayonlar xam deyiladi. Bu guruxga absorbilash, adsorblash, suyuqliklarni xaydash, ekstrakstiyalash, quritish jarayonlari kiradi. Jarayonlarning tezligi fazalarning gidrodinamik xarakatiga boglik bo'lib, modda o'tkazish konuniyatları bilan ifodalanadi. Modda almashinish jarayonlarining xarakatlantiruvchi kuchi fazadagi konstentrasiyalarning farqi bilan belgilanadi.

Kimyoviy jarayonlar - modddalarining o'zaro ta'siri natijasida yangi birikmalarning hosil bo'lishidir. Kimyoviy reakstiyalarda issilik va modda almashinish jarayonlari xam sodir bo'ladi. Bundagi jarayonlarning tezligi kimyoviy kinetika konuniyatları bilan ifodalanadi. Reakstiyalar tezligi, ayniqsa sanoat miqyosida modddalarining gidromexanik xarakatiga, kimyoviy jarayonlarning xarakatlantiruvchi kuchi esa raekstiyaga kirishayotgan modddalarining konstentrasiyasiga bogliq bo'ladi.

## **2-amaliy mashg'ulot**

### **Organik moddalar sinflarini o'rganish.**

#### **Uglevodorodlar klassifikatsiyasi**

Uglevodorodlar klassifikatsiyaga asos qilib olingan, chunki boshqa organik birikmalar uglevodoroddagi bitta yoki bir nechta vodorod atomlari o'rniga boshqa guruhlarning almashinishidan hosil bo'lgan deb qaraladi.

Organik birikmalarni uglerod zanjiriga qarab asosan quyidagi uchta katta qismga bo'lish mumkin:


I. Atsiklik (alifatik) yoki ochiq zanjirli birikmalar.

Bunda uglerod atomlari o‘zaro bir-biri bilan bog’lanib ochiq - to‘g‘ri yoki tarmoqlangan zanjir hosil qiladi.

Bular ham o‘z navbatida quyidagi guruhlarga bo’linadi:


1) To‘yingan ochiq zanjirli birikmalar.

Masalan,




2) To‘yinmagan ochiq zanjirli birikmalar:


a) bitta qo'sh bog'li



b) bitta uch bog'li





v) ikkita qo'sh bog'li






II. Karbosiklik birikmalar: uglerod atomlari o'zaro bir-biri bilan bog'lanib, yopiq zanjirni hosil qiladilar. Ular o'z naybatida ikkiga bo'linadi:

a) to 'vingan karbosiklik birikmalar; bularga asosan sikloparafinlar kirdi;




b) to‘yinmagan alisiklik va aromatik birikmalar. Bular o‘z navbatida bitta, ikkita va uchta qo‘sish bog‘li bo’lishi mumkin:



Uchta qo'sh bog'li karbosiklik birikmalarga aromatik birikmalar deyiladi. Ular o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, asosan oltita uglerod atomdan tashkil topgan siklik guruhlardan iboratdir.

III. Geterosiklik birikmalar. Geterosiklik birikmalarning molekulasi ham yopiq zanjirlidir. Ularda yopiq zanjir (sikl) hosil qilishda ugleroddan boshqa atomlar -

geteroatomlar ham qatnashadilar. Ko‘pincha, geteroatom sifatida kislorod, azot, oltingugurt va boshqa atomlar qatnashadi. Bu xil birikmalar to‘yingan va to‘yinmagan bo‘ladilar. Masalan:



Bulardan tashqari, har bir sinf birikmadagi bitta yoki bir nechta vodorod boshqa atomlarga yoki atomlar guruhiga, ya’ni funksional guruhga o‘rin almashsa, organik birikmalarning yana bir necha xil sinflari hosil bo‘ladi. Uglevodorodlardan bitta vodorod atomi chiqarilsa, uglevodorod qoldig‘i - radikali qoladi. Radikal «R» harfi bilan belgilanadi.

Masalan:

Uglevodorodlar	R-H
Uglevodorod radikali	R-
Galogenli hosilalar	R-X
Spirtlar	R-OH
Aldegidlar	R-C=O   H
Ketonlar	R-C-R    O
Kislotalar	$R-C\overset{=O}{\sim}OH$
Oddiy efirlar	R-O-R
Murakkab efirlar	$R-C\overset{=O}{\sim}O-R$
Nitrobirikmalar	$R-NO_2$
Aminobirikmalar	$R-NH_2$
Sulfobirikmalar	$R-SO_3H$
Metallorganik birikmalar	$R-Me$ , $R-Me-HgI$



## A'zo va diazobirikmalar

Har bir funksional guruh alohida sinf birikmani ifodalaydi. Agar organik birikmada ikkita va undan ko‘p funksional guruh bo‘lsa, bularni aralash funksional birikmalar deyiladi. Endi har bir sinfga taalluqli organik birikmalarni alohida-alohida o‘rganib chiqamiz.


Bu maqsadda nazariy va aniqlangan ma'lumotlar quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi:

- a) o'rganilayotgan sinf birikmaning ifodasi va umumiylari formulasi;
  - b) tuzilishi;
  - v) nomenklaturasi va izomeriyasi;
  - g) olinish usullari;
  - d) fizik va kimyoviy xossalari;
  - y) alohida vakillari va xalq xo'jaligida ishlatalishi.


## To‘yingan asiklik uglevodorodlar (parafinlar yoki alkanlar)

Uglerod atomlari o‘zaro bir-biri bilan oddiy kovalent bog‘ bilan bog’langan va qolgan valentliklari vodorod bilan to‘yingan organik birikmalarga to‘yingan uglevodorodlar - alkanlar deb aytiladi. To‘yingan uglevodorodlarda uglerod atomlari bиринчи valentlik holatda ( $sp^3$  - gibridlangan holatda) bo’lib, uglerod zanjirini hosil qilishda sarf bo’lmagan valentlik birliliklari vodorod atomlari bilan to’la to‘yingan bo’ladi.

Shuning uchun ham ulami to‘yingan uglevodorodlar deyiladi. To‘yingan uglevodorodlarning birinchi va eng sodda vakili  $\text{CH}_4$  - metandir. Shuning uchun ham bu uglevodorodlarni metan qatoridagi uglevodorodlar deb ham yuritiladi. Metan molekulasining tuzilishini elektron (oktet) formulada quyidagicha ifodalash mumkin:



Oktet formulada molekula hosil qilishda ishtirok qiladigan atomlarning tashqi elektronlari ifodalangan. Bu juft elektronlar atomlar orasida kim yoviy bog'lanish hosil qiladi yoki bo'sh holatda qoladi. Uglerod atomining  $sp^2$ -gibridlanishida uning to'rtta elektron orbitallari o'zaro  $109^{\circ}28'$  burchak ostida harakat qiladi. Metan va etan molekulasida atomlarning fazodagi joylanishi tetraedrik va shar sterjenli ko'rinishda (1,2-rasmlar) ifodalanadi. Styuart-Brigleb modelida bu burchak yaqqol ko'riniib turibdi, chunki model atomlarning kovalent va Van-der-Vals radiusining haqiqiy nisbatiga qarab tayyorlangan (3-rasm).



a) tetraeder ko'rinishi




b) shar-stergen ko'rinishi




v) Stuyart-Brigleb modeli bo'yicha

1-rasm. Metan molekulasining fazoviy tuzilish modeli



a) tetraeder shaklida




b) shar-sterjen ko'rinishi




v) Stuyart-Brigleb modeli bo'yicha

2-rasm. Etan molekulasining fazoviy tuzilish modeli



3-rasm. To'yingan uglevodorodlar zanjirining urnumiy ko'rinishi

Agarda metan molekulasidagi bitta vodorodni metil -  $\text{CH}_3$  - guruhga almashtirsak, to'yingan uglevodorodning keyingi vakili – etan hosil bo'ladi:



### To'yinmagan etilen qatoridagi uglevodorodlar (alkenlar)

Tarkibida ham a-bog', ham 71-bog' (ya'ni qo'sh bog') bo'lgan uglevodorodlarga to'yinmagan uglevodorod deb aytildi. Ulaming umumiyligi formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n}$ . Demak, etilen qatoridagi uglevodorodlar to'yingan uglevodorodlarga nisbatan vodorod sonining ikkitaga kamligi bilan farq qilar ekan, shuning uchun ularni to 'yinmagan uglevodorodlar deyiladi. To'yinmagan uglevodorodlar gomologik qatorga ega:




C<sub>3</sub>H<sub>6</sub> propilen

C<sub>4</sub>H<sub>8</sub> butilen

C<sub>5</sub>H<sub>10</sub> amilen va hokazo


1. Etilen, propilen va butilen sanoatda neftni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan gazlardan olinadi. Har xil polimer birikmalami olishda ishlatiladigan etilen qatoridagi uglevodorodlar aikanlarm krekkinglab olinadi.

2. Spirlarni o'ziga suv tortib oluvchilar (H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>, CuSO<sub>4</sub>, ZnCl<sub>2</sub>) ishtirokida qizdirib, etilen qatoridagi uglevodorodlarni olish mumkin. Sulfat kislota ishtirokida spirlami degidratlab. ya'ni aralashmani 140°C gacha qizdirilganda oldin etil sulfat murakkab efiri hosil bo'ladi. So'ngra reaksiyon aralashma 160-170°C gacha qizdirilganda, efir parchalanib yana sulfat kislota va to'yinmagan uglevodorod hosil bo'ladi:



### Diyen uglevodorodlar (alkadiyenlar)

Tarkibida ikkita qo'sh bog' tutgan to'yinmagan uglevodorodlarni diyen uglevodorodlar deyiladi. Ularning umumiy formulasi C<sub>n</sub>H<sub>2n-2</sub> Masalan:



Diyen uglevodorodlar qo'sh bog'lam ing joylashgan o'rniqa qarab uch turga bo'linadi:

a) Qo'sh bog'lari yonma-yon joylashgan diyen uglevodorodlar kumulyativ qo'sh bog'li diyenlar deyiladi.

Masalan, CH<sub>2</sub>=C=CH<sub>2</sub> propadiyen yoki alien.


b) Qo'sh va oddiy bog'lar ketma-ket joylashgan diyen uglevodorodlar konyugirlangan qo'sh bog'li diyenlar deyiladi.

Masalan, CH<sub>2</sub>=CH-CH=CH<sub>2</sub> butadiyen 1,3.

v) Qo'sh bog'lari bitta yoki bir nechta - CH<sub>2</sub> guruh bilan ajralgan diyen uglevodorodlar izolatsiyalangan (ajralgan) diyenlar deyiladi.

Masalan, CH<sub>2</sub>=CH-CH<sub>2</sub>-CH<sub>2</sub>-CH=CH<sub>2</sub> geksadiyen-1,5.

Diyen uglevodorodlar orasida eng ahamiyatlisi konyugirlangan qo'sh bog'li diyen uglevodorodlardir, chunki ular polimerlanish reaksiyasiga kirishib, qimmatbaho polimer material - sintetik kauchukni beradi. Diyen uglevodorodlar asosan sistematik (S) nomenklatura bo'yicha nomlanadi, bunda to'yingan uglevodorod nomidagi oxirgi harf o'rniqa «diyen» qo'shimchasi qo'shib o'qiladi, masalan, propan - propadien va hokazo. Shuningdek, diyen uglevodorodlar ratsional (R) va travial (T) nomlar bilan ham nomlanadi. Masalan:



### Atsetilen qatoridagi uglevodorodlar (alkinlar)

Tarkibida uch bog' tutgan uglevodorodlar atsetilen qatoridagi to'yinmagan uglevodorodlar yoki alkinlar deyiladi. Bu birikmalarning umumiy formulasi diyen uglevodorodlam ikiga o'xshashdir  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$ . Ular ham gomologik qatorga ega bo'lib, birinchi vakili atsetilendir  $\text{CH}\equiv\text{CH}$  yoki  $\text{C}_2\text{H}_2$ .

Nomenklaturasi. Ratsional nomenklaturaga ko'ra hamma atsetilen qatoridagi uglevodorodlami atsetilenning hosilalari deb qaraladi va radikallar nomiga atsetilen so'zi qo'shib o'qiladi. Sistematik nomenklaturaga ko'ra atsetilen qatoridagi uglevodorodlarni to'yingan uglevodorod deb qarab, ularning nomidagi «an» qo'shimchasi «in» qo'shimchasi bilan almashtiriladi va uch bog' qaysi ugleroddan so'ng boshlansa, shu uglerodning raqami qo'yib o'qiladi. Zanjirdagi uglerod atomini raqamlash uch bog' qaysi tomonga yaqin bo'lsa, shu tomondan boshlanadi. Masalan:

$\text{H}-\text{C}\equiv\text{C}-\text{H}$	atsetilen (R) etin(S)
$\text{CH}_3-\text{C}\equiv\text{C}-\text{H}$	metilatsetilen (R) propin (S)
$\text{CH}_3-\text{C}\equiv\text{C}-\text{CH}_3$	dimetilatsetilen(R) butin-2 (S)
$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{C}\equiv\text{C}-\text{H}$	etilatsetilen (R) butin-1 (S)
$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\   \\ \text{HC}\equiv\text{C}-\text{C}-\text{CH}_3 \\   \\ \text{CH}_3 \end{array}$	uchlamchi butilatsetilen (R) 3,3-dimetilbutin-1 (S)

### 3-amaliy mashg'ulot

#### Uglevodorod gazlari, neft va toshko'mir xomashyolarini o'rganish.

#### Uglevodorod gazlari

Tabiiy yoqilg'i gazlar metan qatori uglevodorotlari aralashmasini o'zida namoyon etadi. Ayrim konlardan chiquvchi gazlarida nordon komponentlar (vodorod sulfid, uglerod ikki oksidi, azot, kislorod, kamchil gazlar – geliy va argon( $\text{H}_2\text{S}, \text{CO}, \text{N}_2, \text{O}_2, \text{He}, \text{Ar}$ )) bo'ladi, shuningdek, barcha tabiiy gazlarni doimiy hamrohi suv bug'laridir.



### Uglevodorod gazlari va ularni qayta ishlash

Tabiiy gaz tarkibiga kiruvchi uglevodorodlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

- I guruhga metan va etan kiradi, ular quruq gazlar hisoblanib, gazlarda ularning miqdori normal sharoitda 60 dan 95 % gacha bo'ladi.
- II guruhga propan, izobutan va n–butan kiradi. Bu uglevodorodlar normal sharoitda gaz ko'rinishida, oshirilgan bosimlarda ular suyuq holatga o'tadi.
- III guruhga izopentan, n–pentan, geksan va biroz yuqori molekulali uglevodorodlar kiradi. Ular normal sharoitda suyuq holatda bo'lib, benzin tarkibiga kiradi.

Tabiiy gazning asosiy tarkibiy qismini (92-99 %) metan  $\text{CH}_4$  tashkil etadi va qolgan qismini uglerod (II) oksidi ( $\text{CO}$ ), yonuvchi vodorod, azot, is gazi, suv bug'lari, oltingugurtli vodorod, ammiak ( $\text{H}_2, \text{N}_2, \text{H}_2\text{O}, \text{H}_2\text{S}, \text{NH}_3$ ) va boshqalarni tashkil qiladi.

Sun'iy gazlar qattiq va suyuq yonilg'ilarni qayta ishlash jarayonida olinadi, jumladan, sanoat gazi (domna, koks, yorituvchi, kanalizatsiya gazlari), generator gazi (qattiq yonilg'ilarni gazga aylantirishda) va boshqalar. Ularning tarkibi va xossalari, shu jumladan, yonish issiqligi keng ko`lamda o`zgaradi. Odatda, ular turli hiddagi yonuvchi va inert gazlarning aralashmasidan iborat. Ularning tarkibiga yonuvchi gazlar: metan, propan, butan  $\text{C}_n\text{H}_m$  formula ( $\text{CH}_4, \text{C}_2\text{H}_6, \text{C}_3\text{H}_8, \text{C}_4\text{H}_{10}, \text{H}_2, \text{CO}$ )li boshqa uglevodorodlar, vodorod, is gazi va shuningdek, inert gazlar va ifloslantiruvchi moddalar (karbonat angidrid, azot ( $\text{CO}_2, \text{N}_2$ ), namlik, smola holidagi moddalar, mexanik zarralar, oltingugurtli birikmalar va boshqalar) kiradi.

Gazsimon yonilg'ilar siqilgan va suyultirilgan ko'rinishda ishlatiladi. Kritik harorati havo haroratidan yuqori bo`lgan uglevodorodlar past bosimda gaz holatidan suyuq holatga o'tadi. Bunday gazlar - suyultirilgan gazlar deyiladi.  $20^\circ\text{C}$  haroratda propanni suyuq holatga o`tkazish uchun 0,85 MPa, butan uchun 0,2 MPa bosim talab qiladi<sup>6</sup>.

Siqilgan gazlar kritik harorati havo haroratidan past bo`lgan uglevodorodlar hisoblanadi. Siqilgan gazning asosiy tarkibiy qismi bo`lgan metanni suyuq holatga o`tkazish uchun -  $82^\circ\text{C}$  harorat talab etiladi. Atmosfera bosimida esa metan -  $161^\circ\text{C}$  haroratda ham suyuq holatga o'tadi. -  $82^\circ\text{C}$  haroratdan yuqori bo`lganda har qanday yuqori bosimda ham metan suyuq holatga o`tmaydi.

Gazlarni qayta ishlashning mohiyati shundaki, ularni tarkibidan nordon komponentlar va namlikni yo'qotish, so'ngra bu gazlardan I va II guruh uglevodorodlarini ajratishdan iboratdir.

<sup>6</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB. V.237-259p.

Ma'lumki uglevodorod gazlari kelib chiqishiga ko'ra ularni uch guruhgaga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy gazlar, mustaqil hosil bo'lgan bo'lib tarkibida juda oz miqdorda suyuq uglevodorod saqlagan gazlar;

2. Yo'ldosh gazlar, neft bilan birgalikda chiquvchi gazlar;

3. Zavod gazlari, neftni qayta ishlashdagi destruktiv jarayonlarda hosil bo'ladigan gazlar.

Tabiiy gazlardan sanoat korxonalarini va aholi turar joylarida yoqilg'i sifatida keng foydalaniлади, bundan tashqari kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda xom ashya bo'lib xizmat qiladi. Bu mahsulotlar asosan vodorod, acetilen, formal'degid, xloroform  $H_2, C_2H_2, CH_2O, CHCl_3$  va boshqalar.

Yo'ldosh gazlar kommunal ehtiyojlar va avtotransportlarda yoqilg'i uchun qo'llaniladi, shuningdek, piroлиз jarayonlari uchun xom ashya sifatida ham foydalaniлади.

Neft xom ashylarini qayta ishlashda har bir destruktiv jarayonlardan zavod gazlari hosil bo'ladi. Zavod gazlari uglevodorod tarkibiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Termik kreking gazlari tarkibida metan va boshqa miqdorda to'yinmagan uglevodorodlarga boy bo'ladi. Katalitik kreking gazlarida butanlar va butilenlar miqdori ko'pligi bilan xarakterlanadi.

### **Neft haqida umumiyyatli ma'lumotlar**

Neft so'zi forscha — yonib ketish, alanganish ma'nosini anglatadi. Yer qa'rining cho'kindi qismida tarqalgan neft tashqi ko'rinishiga ko'ra o'ziga xos hidli quyuq moysimon suyuqlik bo'lib, turli tusdagi jigar rang ko'rinishga ega. Neft yer qobig'inining turli chuqurlikdagi qatlamlarida, turli - tuman g'ovak va boshqa tog' jinslari orasida uglevodorod gazlari bilan birgalikda 1,2÷2 kilometrdan 5÷6 kilometrgacha chuqurlikda yotadi.

Neftning organik qoldiqlaridan hosil bo'lish mehanizmi ulardan kislorod bilan azotning yo'qolib, uglerod bilan vodorodning yig'ilishiga asoslanadi. Yer qa'rida neft hosil bo'lishi organik hayotning keng rivojlana boshlagan davri, ya'ni taxminan bundan 350÷400 million yil oldin boshlangan. Neftning o'rtacha molekulyar massasi 220÷300 (ba'zan 450÷470 gacha ham yetadi) va neftning zichligi 770÷920 kg/m<sup>3</sup> bo'lib, 830 kg/m<sup>3</sup> dan past bo'lgan turi yengil, 831÷860 kg/m<sup>3</sup> atrofidagisi — o'rtacha va 860 kg/m<sup>3</sup> dan yuqorisi - og'ir neft deb yuritiladi. Neftning yonish issiqligi 43000÷45500 kDj/kg. Neft tarkibida organik moddalar mavjudligi tufayli uni qaynash harorati bilan emas, balki suyuq uglevodorodlarning qaynash harorati bilan tavsiflanadi. Neft organik erituvchilarda eriydi, suvda erimaydi, ammo u bilan emulsiya hosil qilishi mumkin. Har qanday tabiiy boylikni, shu jumladan, neft va gaz manbalarini ham aniq bilish, chandalash va qanday geometrik shaklda joylashganligini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifadir. Zahiralarni aniq hisoblash konda olib borilgan izlash va qidirish natijalari asosida tayyorlanadi.



### Neft va uni qayta ishlash

Neftning fizikaviy xususiyatlari va sifat ko'rsatkichlari uning tarkibidagi uglevodorodlarning miqdoriga bog'liq. Agar neft tarkibida og'ir uglevodorodlar miqdori ustunlik qilsa, bunday neftlarda benzin va moy moddalari kamroq bo'lib, qatlamdagi harakati ham biroz sustroq bo'ladi. Odatda, qatlamning yuqori qismida, gaz holatidagi eng yengil uglevodorodlar joylashadi, qatlamning o'rta qismida esa gaz va kondensat aralashma holatda joylashadi, qatlamning pastki qismida og'ir uglevodorodlar, ya'ni neft joylashadi. Qatlam holatidagi neft bilan yer yuziga olib chiqilgan neftning fizikaviy xossalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Buning asosiy sabablari - qatlam holatidagi neft yuqori bosim va harorat ta'sirida bo'lib, ko'pincha tarkibida ko'p miqdorda tabiiy gaz erigan xolda bo'ladi. Yer yuziga olib chiqilgan neft, oddiy sharoitda yuqori bosim va harorat ta'siridan xolos bo'lgandan so'ng tarkibidagi erigan gaz ajralib chiqishi natijasida deyarli barcha fizikaviy ko'rsatkichlari o'zgaradi.

Tarkibidagi elementlarning o'xshashligiga qaramasdan turli joydan olingan neftlarning fizikaviy va kimyoviy xossalari har xil bo'ladi. Bunga sabab, uglerod va vodorod atomlarining o'zaro turli shaklda birika olishidir.

1.1-jadval

#### Ba'zi neftlarning element tarkibi (%da)

Neft konlari	C	H	O	S	N
Oxin (RF)	87,15	11,85	0,27	0,30	0,43
Saravak (Indoneziya)	86,50	12,44	0,68	0,35	0,13
Kenkiyak (Qozog'iston)	86,19	12,51	0,55	0,63	0,12
Grozniy (RF)	85,9	13,0	0,8	0,13	0,07

Shaim (G'arbiy Sibir)	85,8	13,28	0,36	0,64	0,10
O'zbekiston	85,69	14,14	0,07	0,01	0,09
Surxan (Ozarboyjon)	85,30	14,10	0,54	0,03	0,03
Romashkin (RF)	85,34	12,65	0,21	1,62	0,18
	83,73	13,33	0,50	2,2	0,24

### Ko'mir konlari

Ko'mir konlari— foydali qazilmalar sifatida tarkibida, asosan, ko'mir bo'lgan konlar. Ko'mir konlari tabiatda cho'kindi jinslardan hosil bo'lganligi tufayli yakka yoki bir necha qatlama shaklida uchraydi. Qatlama yoki qatlamlarning qalinligi, ko'mirning sifati, atrofidagi geologik sharoitlariga qarab Ko'mir konlarining umumiy geologik zahiralari balansdagi va balansdan tashqari zahiralarga ajratiladi.



### Ko'mir va ko'mir konlari

Geol.-razvedka ishlari natijasida konning sharoitlari, chegaralari va, albatta, foydali qazilmaning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida olinadigan qo'shimcha ma'lumotlar zahiralarni bir toifadan ikkinchisiga o'tkazishga asos bo'ladi. Xalq xo'jaligi talablarini, zamonaviy texnologiya va texnika imkoniyatlarini kompleks iqtisodiy baxolab, Ko'mir konlarining balansdagi zahiralari sanoat zahiralari toifasiga o'tkaziladi va qazib olinadi.

Ko'mirni konlardan qazib olishda ochiq, yer osti va kombinatsiyalashgan usullar qo'llaniladi. Ochiq usulda qazishning asosiy sharti — foydali qazilma qatlamlari yer yuzasiga yaqin joylashgan bo'lishi kerak, bu sharoitda karyer (ko'pincha Ko'mir konlarida — kesma)da yuqori quvvatli rotorli qazib olish kombaynlaridan foydalilanadi. Qatlamlar chuqurligi oshavergach, ochiq usulda qazib olingan ko'mirning hajmiga nisbatan puch tog' jinslarining miqdori oshib boradi. Muayyan sharoitlarda ko'mirni yer osti (shaxta) usulida qazib olish samaradorli bo'ladi.

Ba'zi Ko'mir konlarida qatlama qanotlarining bir tomoni yer yuzasiga yaqin joylashib, hatto yuzaga chiqib qolish holdari ham uchraydi, lekin ularni yotish burchagi katta bo'lgani uchun tez chuqurlashadi, bunday sharoitlarda Ko'mir konlarining bir qismi ochiq usulda, qolgan chuqur-lashgan qismi esa yer osti usulida qazib olinadi.

Xiyla katta o'lchamli yoki zahirali, uzluksiz yoki orol shaklida tarqalgan ko'mirli formatsiya maydonlari ko'mir xavzasini deb ataladi. Ko'mir havzalarining vujudga kelishi Yer po'sti strukturasining rivojlanishiga, ya'ni sinekliza, chekka bukilma va boshqalarga bog'liq. Mac, Germaniyada mashhur Saar va Rur ko'mir havzalari, Hindistonda Jariya, Raniganj, Bokaro, Fransiyada Nor va Pade-Kale, Lotaringiya, Polshada Sileziya, Buyuk Britaniyada Jan. Uels, Yorkshir va Lankashir, Chexiyada Ostrana-Karvina havzasasi, Bolgariyada Bolqon havzasasi, Avstraliyada Yangi Jan. Uels, Kvinslend, AQShda

Appalachi, Illinoys, Pensilvaniya, Michigan havzalari, Ukrainada Donetsk, Qozog‘istonda Qarag‘anda, Ekibastuz, Rossiyada Kuznetsk, Chelyabinsk, Pechora va boshqa Bular orasida 7 tasi o‘ta yirik — gigant ko‘mir havzalari (har birining geologik zahirasi 500 mlrd. t dan oshadi) deb hisoblanadi: To‘ngus, Lena, Taymir, Kansk-Achinsk, Kuznetsk (Rossiyada), Alma-Amazona (Braziliyada) va Appalachi (AQShda). Yer yuzida 3600 dan ko‘proq Ko‘mir konlari va havzalari hisobga olingan bo‘lsa, ulardan 220 tasida Ko‘mir konlarining zahiralari 0,5 mlrd. t dan oshadi.

Jahonda eng ko‘p ko‘mir zahiralari ega bo‘lgan va ko‘p miqdorda ko‘mir qazib olinayotgan 9 mamlakat katoriga Xitoy, AQSH, Rossiya, Polsha, Germaniya, Chexiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Avstraliya kiradi. Ularda har yili dunyo bo‘yicha qazib olinayotgan ko‘mirning o‘rtacha hisobda 87% qazib olinadi. O‘zbekistonda aniqlangan (2000 yil) ko‘mir zahiralari hajmi qariyb 2 mlrd. t. ni tashkil qiladi, mutaxassislar bashorati bo‘yicha ko‘mir zahiralari 5,7 mlrd. t dan oshadi. Ko‘mir 3 kondan: Angren ko‘mir koni, Sharg‘un ko‘mir koni va Boysun toshko‘mir konidan qazib olinmoqda. Bularning eng kattasi Angren ko‘mir koni. Angrenda ko‘mirning sanoat zahirasi 100 yildan ko‘proq vaqtga yetadi. Ko‘mir bilan birga kaolin ham olinadi. O‘zbekiston bilan Germaniya "Kaolin" qo‘shma korxonasi yiliga 200 ming t sifatli kaolin chiqarmoqda.

Sharg‘un va Boysun Ko‘mir konlarida yiliga 80 va 10 ming t toshko‘mir qazib olinmoqda. Bu ko‘mir metallurgiyada koks o‘rniga qullanilishi mumkin. Konlarning zahiralari ko‘p yillar mobaynida foydalanishni ta’minlaydi. Angren va Boysun Ko‘mir konlarida olingan ko‘mirdan aktiv ko‘mir ishlab chiqarish mo’ljallangan.

Ko‘mirni qazib olishda bir qancha muammolar mavjud. Ulardan eng muhimi — atrof muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko‘rish. Ko‘mirni, ayniqsa, ochiq usulda qazib olishda puch tog‘ jinslaridan juda ko‘p miqdorda to‘kmalar, sun’iy tepaliklar hosil bo‘ladi. To‘kmalar tarkibidagi ko‘mir qoldiqlari o‘z-o‘zidan yonish holdari bo‘lib turadi, tuproq tarkibi o‘zgaradi. Yangi fan tarmog‘i — konchilik ekologiyasi hozirgi vaqtida landshaft rekultivatsiyasi muammolarini o‘rganmoqda. Agar yer yuzasida ko‘l, daryo yoki aholi yashaydigan joy bo‘lsa, o‘sha maydonda foydali qazilma olinmasdan qoldiriladi. Amalda suv havzasini quritish yoki aholi yashaydigan joyni ko‘chirish holdari ham uchraydi. Mac, Ohangaron daryosi loyihalashtirilgan karyer maydonini kesib utganligi tufayli daryo suvi konning jan. tomonidan o‘z. 5,5 km li tonnel orqali o‘tkazildi. Angren razreziga to‘g‘ri kelgan eski qishloq xonadonlari ham ko‘chiriladi.

O‘zbekistonda foydalanishga topshirilmagan, lekin hisobga olingan va sanoat ahamiyatga ega Ko‘mir konlari mavjud. Mas, Oltinsoy tumani hududida (Boysundan 50 km) bir qatlamlı kon aniqdangan, qatlamning qalinligi 6,5 m gacha bo‘lib, 500 m chuqurlikkacha joylashgan zahiralari 20 mln t miqdorida baholangan. Sharg‘undan 30 km masofada 6 qatlamdan iborat kon topilgan. Qatlamlarning qalinligi 1,0—10,3 m, 600 m chuqurlikkacha joylashgan zahiralari 62 mln. t miqdorida baholangan. Farg‘ona viloyatida qalinligi 2–6 m bo‘lgan 2 katlamdan iborat kon aniqlangan, 500 m chuqurlikkacha joylashgan zahiralari hajmi — 84 mln. t.

O‘zbekistondagi konlarning ko‘miri tarkibida o‘rtacha 0,5—2,5% oltingugurt, 8,5—20,0% kul bo‘lib, 1 kg ko‘mir 6500—7200 kkal issiqlik beradi

#### **4- amaliy mashg‘ulot**

**Neft maxsulotlarini oltingugurt birikmalaridan tozalash jarayonlarini o‘rganish.**

## Gidrotozalash jarayonining kamyosi

Neft xom ashyosi deganda barcha distillyatli neft fraksiyalari va qoldiqlarini ko'zda tutadilar.


Neft xom ashyosining oltingugurt, azot-kislorod saqlagan birikmalar, olefin va metallardan tozalash zarurligi neftni qayta ishlashda turli tozalash jarayonlarini yaratishni belgiladi. Vodorod va katalizator ishtirokida yuqori harorat va bosimda boradigan jarayonlar eng samarali bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida faqat shu jarayonlar tovar mahsulotlarda geteroatomli birikmalar va to'yinmagan uglevodorodlar miqdori bo'yicha hozirgi talablarga to'g'ri keladigan neft mahsulotlarini olishga imkon beradi.

Neft xom ashyosini gidrotozalash jarayonining ximizmini ko'rib chiqamiz, bunda tozalashda metallar og'ir qoldiqlarda asosan koks va katalizatorlarda to'planib ularni zaharlanishiga e'tibor berish kerak<sup>7</sup>.


Gidrotozalash jarayonlarining ximizmi C-S, C-N, C-O va C-Me (S-oltingugurt, N-azot, O-kislorod, Me-metall, S-uglerod) bog'larning destruksiyalanishiga olib keladi va S-S bog'larga deyarli tegmaydi. Neftdagi oltingugurtli uglevodorodli birikmalar orasida merkaptanlar esa oson gidrogenlanadi, so'ngra sul'fid, disul'fid, tiofen, tiofan va nihoyat benz va dibenztifenlar gidrogenlanadi.

Geteroatomli birikmalar uglevodorodlarga qaraganda gidrogenolizga tezroq uchraydi, shuning uchun genroatomlar xom ashyodan vodorod sul'fid, ammiak va suv holida chiqarib yuboriladi. Oltingugurt eng oson ajralib chiqadi so'ngra kislorod turadi, azot eng barqaror metallar uglevodorodlardan chiqarilganda ular katalizatorni qoplab uning faolligini pasaytiradilar yoki jarayonning og'ir mahsulotlarida to'planadi.


Merkaptanlar vodorod sul'fid va tegishli uglevodorodlargacha gidrogenlanadi.




sul'fidlar merkaptanlar hosil bo'lish orpqali vodorod sul'fidgacha va tegishli to'yingan uglevodorodgacha gidrogenlanadi:



Disul'fidlar ham vodorodsul'fid va to'yingan uglevodorodlargacha gidrogenlanadi:




Tiofen va tiofan (halqali sul'fidlar) tegishli to'yingan uglevodorodlargacha va vodorodsul'fidgacha gidrogenlanadi:




<sup>7</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB.V.153-197p.  
90


Benz va dibenztiofenlar vodorodsul'fid va tegishli aromatik uglevodorodlarga cha gidrogenlanadi:




Kislородли биримлар гидрогенланганда тегишли углеводородлар ва сув хосил бо'лади.



Azot saqlagan биримлар гидрогенланганда тегишли углеводородлар ва аммиак хосил бо'лади:



Bundan ташкари кам миқдорда гидрокреинг jarayoni borishi mumkin.



Oltinugurtli azotli, kislород saqlagan биримлarning molekulyar massasi va aromatlanish darajasining oshishi ulardan geteroatomlarning chiqarib yuborilishini qiyinlashtiradi.

Gidrotozalash jarayonlarida alyumokobal'tmolibdenli (AKM) yoki alyumonikel'molibdenli katalizatorlar qo'llanilib ularga turli qo'shimchalarni kiritadilar.

Sanoatda qo'llaniladigan alyumokobal'tmolibdenli katalizator yuqori tanlash qobiliyatiga ega. Uning ishtirokida S-S bog'larning o'zilishi yoki aromatik halqalarning to'yinish reaksiyalari deyarli sodir bo'lmaydi. S-S bog'larning o'zilish reaksiyalarda katalizator yuqori faolligi va yaxshi termik barqarorligi bilan harakterlanadi. SHu sababli o'zoq xizmat muddatiga ega. Bu katalizatorning muhim afzalligi uning potensial katalitik zaharlarga barqarorligidir. Bundan ташкари katalizator to'yinmagan биримларни to'yintirish, uglerod-azot, uglerod-kislород bog'larning o'zilish reaksiyalarda ma'ql

faollik bilan farq qiladi va amaliyotda barcha neft fraksiyalarini gidrotozalash uchun qo'llaniladi.

Alyumonikel' molibdenli katalizatorning to'yinmagan birik-malarni to'yintirish reaksiyalarida faolligi kamroq, ammo aromatik uglevodorodlarni to'yintirish jihatidan (AKM ga nisbatan 10-50 % ga ko'p) va azotli birikmalarni gidrogenlash jihatidan (AKM ga nisbatan 10-18 % ga ko'p). SHu bilan birga u o'zining dastlabki yuqori faolligini tezroq yo'qotadi<sup>8</sup>.

Ochiq neft mahsulotlari gidrotozalashining hozirgi zamon katalizatorlari faolligini yo'qotmasdan 3-6 yilgacha ishlaydi.

Ishlagani sari katalizatorda koks (katalizator massasidan 17-20 %) va oltingugurt (katalizator massasidan 0,5-1,5 %) to'planadi. Katalizatorning faolligi pasayadi. Bug' yoki gaz havoli aralashma bilan koks va oltingugurtni kuydirib faollikni tiklash mumkin. Odatda gidrotozalash katalizatorlari uchtadan kam bo'lмаган regenerasiyaga bardosh beradi.

Katalizatorning faolligi faol komponent yo'qolganda pasayishi mumkin. Bu harorat 600 °C gacha ko'tarilganda va molibden uch oksidining bug'lanishi sodir bo'lganda regeneresiya paytida sodir bo'lishi mumkin. Harorat 760 °C dan yuqori bo'lganda faol alyuminiy oksidi faol bo'lмаган nikel' alyuminatiga aylanadi, katalizatorning qizib biriktirilishi sodir bo'lib buning natijasida uning faol yuzasi kamayadi.

Aniqlashlaricha, molibdendisul'fidi va aralash nikel' sul'fidi ( $\text{NiS}+\text{Ni}_2\text{S}$ ) eng yuqori faollikka ega. ANM va AKM katalizatorlari dastlabki oltingugurtlanishga muhtojdir. Motor yoqilg'isini sanoat miqyosida gidrotozalash jarayonlarida tegishli metallarni past valentli sul'fidlarga aylantirish uchun vodororra kam miqdorda (foiz ulushlarida) vodorod sul'fidning bo'lishi yetarlidir.

Gidrotozalash katalizatorlari uchta komponentdan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

Kislotali, degidro-gidrogenlovchi va mexanik mustahkamlik va g'ovak strukturani ta'minlaydigan, bog'lovchi. Faol komponentlar ( $\text{MoO}_3$ ,  $\text{NiO}$  va  $\text{CoO}$ ) gidrogenlovchi funksiyani ta'minlaydilar. Ularning miqdori 18-25 % (mas) ga yetishi mumkin.

Alyuminiy oksidi va alyuminosilikatlar kislotali funksiyani va bog'lovchi funksiyani bajaradilar. Gidrotozalash katalizatorlarini ikkita usul bilan oladilar, ular quyidagilar:  $\gamma$ - $\text{Al}_2\text{O}$  ( $\gamma$ -alyuminiy oksidi) ni molibden, nikel' yoki kobal't to'zlar bilan birga cho'ktirish (qanday katalizator olishiga qarab – AKM yoki ANM nimi), hamda alyuminiy gidrogendi  $\text{Al(OH)}_3$  tegishli to'zlarni singdirish. Katalizator tayyorlashning asosiy bosqichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: singdirish, birga cho'ktirish, yuvish quritish, qoq qilib qo'yish, qizdirish, qaytarish, xlorlash va oltingugurtlash. Faollikni oshirish uchun turli promotorlarni kiritadilar, ular orasida boshiseolitlar, nodir yer metallar va boshqalar bor.

<sup>8</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB.V.153-197p.

Kaliy va litiyni 1,5 % (mas.) gacha bo'lgan miqdorda qo'shish AKM-katalizatorining barqaror faolligini 10-20 % ga oshirishga imkon beradi, ayniqsa og'irlashgan fraksiyani qayta ishlashda koks hosil bo'l shining kamayishi hisobiga fto r va xlorni saqlagan qo'shimchalarining faollashtiruvchi ta'siri ehtimol molibdenli markazlarning l'yuiskislotaligi oshishida va anionli vakansiyalarning elektronoakseptor kuchida bo'lsa kerak.

Katalizatorlarning tarkibiga fosforni ularning faolligini, barqarorligini va alyuminiy fosfat hosil bo'l sh hisobiga katalizator granulalarining barqarorlik xossalari oshirish maqsadida kiritadilar.

Fosfor birinchi navbatda gidroazotirlovchi va kamroq darajada gidrootingugurtsizlantiruvchi faollikni oshiradi. Yuqori qumtuproqli seolitlarni qo'shish deparafinlash jarayonlari uchun zarurdir, shu bilan birga Y seolitning eng yaxshi kationli shakli bo'lib kobal'tli yoki nikel'lisi hisoblanadi.

Qoldiqli xom ashyni qayta ishlashda katalizatorlar ishining barqarorligini oshirish uchun titan va sirkoni y oksidlarini 3-10 % (mas.) miqdorida qo'llaydilar.

ANM-kompozisiyasini kreminiy (IV)-oksiidi bilan modifikasiyalash mexanik barqarorligini va katalizatorning termik barqarorligini oshirishga imkon beradi.

Gidrotozalashning eng yaxshi katalizatorlarini "Haldor Topsoe", "Criterion", "Chevron" va boshqa shunga o'xshash katalizatorli kompaniyalar ishlab chiqaradilar. Rossiyada uchta katalizatorli kompaniyalar (TNK-VR-Ryazanda va OAO NK "Rosneft" Angarsk va Novokuybishevskda) chet el katalizatorlari bilan raqobat qila oladilar gidrotozalash katalizatorlarini ishlab chiqaradilar.

### **Gidrotozalash jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar**

Ularga quyidagilar kiradi: katalizatorlarning ta'siri (ilgari ko'rib chiqilgan edi), xom ashyning xossalari, harorat, bosim, VGS ning aylanib turish karraligi va issiqlik effekti.

*Xom ashyo.* Gidrotozalash qurilmasiga kelib tushayotgan xom ashysoda namlikning miqdori 0,02-0,03 % (mas.) dan oshmasligi kerak. Namlik miqdorining ko'pligi katalizatorning mustahkamligiga ta'sir qiladi, korroziyaning jadallashuvini kuchaytiradi, barqarorlashtirivchi ustunning normal rejimini buzadi. Xom ashysoda mexanik qo'shimchalar bo'lmasligi kerak, chunki ular reaktorga tushib katalizatorda to'planadi va natijada uning ishlash samaradorligi pasayadi. Xom ashyni havo kislrodi bilan muloqoti hisobiga uning tarkibidagi to'yinmagan va kislrodi birikmalarning Ko'p kondensasiyalanishini oldini olish maqsadida gidrotozalash qurilmalarining xom ashyo bilan ta'minlashni to'g'ri oziqlantirishni sxemasi bo'yicha tashkillashtirishni yoki uni oraliq xom ashyo parklarida rezervuarlarda inert gazli "yostiq" ostida saqlash kerak. Xom ashyni havo kislrodi bilan muloqoti reaktor blokining sistemasida (issiqlik almashtirgich, kompressor va reaktorlarda) qatlamlar hosil bo'l shiga olib keladi.

*Harorat.* Gidrotozalash reaksiyasi uchun optimal bo'lib 260-420 °C dagi harorat intervali hisoblanadi. 260 °C dan past haroratda oltigugurtsizlantirish reaksiyasi sekin

boradi,  $420^{\circ}\text{C}$  dan yuqori haroratda krekinglash va koxslanish reaksiyalari kuchayadi. Katalizatorning ishlash qobiliyati susayishining oxirida qurilma ishlab turganda yuqoriqo haroratni saqlab turadilar, chunki haroratning ko'tarilishi katalizator faollining pasayishini qoplaydi.

*Bosim.* Sistemada umumiy bosim 2,5 dan 6 MPa gacha bo'lган bosim optimal bo'lib hisoblanadi, bunda vodorodning parsial bosimi 1,5-3,7 MPa gacha tashkil qiladi. Tozalanayotgan mahsulot qancha og'ir bo'lsa, undagi to'yinmagan uglevodorodlar qancha ko'p bo'lsa, reaktorga kirishdagi vodorod saqlagan gazdagi vodorodning parsial bosimi shuncha yuqori bo'lishi kerak. Vodorodning parsial bosimi oshishi bilan tozalash darajasi yaxshilanadi, koks hosil bo'lishi kamayadi, katalizatorning xizmat qilish muddati oshadi.

Vodorod saqlagan gazning yetkazib berilish (aylanib turish) karraligi  $0^{\circ}\text{C}$  da va 0,1 MPa bosimda xom ashyoning bir hajmiga gazning hajmi 200 dan 700 gacha o'zgaradi.

To'yinmagan uglevodorodlar yoki smolali moddalarning miqdori yuqori bo'lган distillyatlarni, masalan kokslashning dizelli fraksiyalarini yoki vakuumli gazoylni gidrotozalashda aylanib turadigan gaz va xom ashyoning nisbati eng yuqoridir. Aylanib turish karraligining oshishi qurilmaning regenerasiyasiz ishlash davomiy-ligining oshishiga ko'maklashadi.

Hajmiy tezlik 1 dan 10 soat<sup>-1</sup> gacha o'zgaradi va dastlabki xom ashyoning sifatiga ham talab qilinadigan tozalash darajasiga bog'lik bo'ladi. To'g'ri haydalgan benzinni tozalashda hajmiy tezlik 5 soat<sup>-1</sup> ni, vakuumli gazoylni tozalashda esa 1 soat<sup>-1</sup> ni tashkil qiladi. Xom ashyoning oltingugurtsizlanish chuqurligining hajmiy tezlikka bog'liqligi 19-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinish turibdiki hajmiy tezlikning kamayishi xom ashyoning oltingugurtsizlanish chuqurligining oshishiga va uning yod sonining pasayishiga (to'yinmagan uglevodorodlar miqdorining kamayishiga) olib keladi<sup>9</sup>.

*Reaksiyaning issiqlik effekti.* To'yinmagan, aromatik va oltingugurt saqlagan birikmalarining gidrogenlash reaksiyasi issiqlik ajralishi bilan sodir bo'ladi. Yengil to'g'ri haydalgan yoqilg'i-benzin, kerosin, dizel yoqilg'isi kabilarni gidrotozalashda reaksiyaning issiqlik effekti uncha katta emas va 1 kg xom ashyyoga 70-80 kDj ni tashkil qiladi. To'yinmagan hamda og'ir yoqilg'ilarning miqdori yuqori bo'lган yoqilg'ini gidrotozalashda reaksiyaning issiqlik effekti 260-500 kDj kg gacha bo'ladi.


Reaksion zonadan ortiqcha issiqliknchi chiqarib yuborish uchun reaktorga katalizator qatlamlari orasiga sovuq aylanib turadigan gazni yoki sovuq gaz va gidrotozalashning suyuq beqaror mahsulotning aralashmasining yetkazib turishni qo'llaydilar.

*Vodorodning sarfi.* Gidrotozalashda vodorod gidrogenlash, eritish va puflashga sarflanadi. Gidrogenlashga vodorodning sarfi yuqori darajada xom ashyyoga to'yinmaganlar hamda smolalarning miqdoriga bog'liq bo'ladi va to'g'ri haydalgan benzinga 0,1 % dan, kokslash benzini yoki vakuumli gazoylga 1,3 % gacha o'zgaradi.

<sup>9</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB.V.153-197p.

Suyuq mahsulotlarda eritishdagi vodorodni yo'qotishlar tozalanadigan mahsulot moleqo'lyar massasasining va sistemadagi umumiy bosimning ko'tarilishi bilan oshadi.

Gidrotozalash jarayonida toza vodorodni emas balki vodorodning hajmiy miqdori 50-95 % ni, qolgan qismi metan, etan, propan va butan tashkil qilgan gazni qo'llaydilar. Gidrotozalash reaksiyalarning natijasida vodorod yutiladi, uglevodorodni gazlar, vodorodsul'fid va suv hosil bo'ladi. SHuning uchun vodorodning vodorod saqlagan gazdagagi miqdori reaktorga kirishda chiqishdagiga qaraganda yuqori.



*19-rasm. Kokslash distillyatini yetkazib berish hajmiy tezligining uning oltingugurtsizlanishi va yod soniga ta'siri:*

1-alyumonikel' molibdenli katalizatorda xom ashyni oltingugurt-sizlantirish chuqurligi. 2-alyumokobal'tmolibdenli katalizatorda xom ashyni oltingugurtsizlantirish chuqurligi; 3-ikkala katalizator-larda yod soni.

Xom ashyni oltingugurtsizlantirish chuqurligi deganda xom ashyo va gidrogenizatda oltingugurt miqdori farqining xom ashydagi oltingugurt miqdori nisbatining % dagi ifodasi tushiniladi.

Dizel yoqilg'isini gidrotozalash jarayonida ancha miqdorda parchalanish gazlari ajralib chiqadi. 28 % (mas.) gacha, shuning uchun vodorodning miqdori vodorodsaulagan gazda 50,0 % (hajm) bo'lgan holda qo'llanganda gaz puflab olish zaruriyat tug'iladi. Parsial bosim reaktorga yetkazib berilayotgan vodorod saqlagan gazning tarkibi bilan bog'liq bo'ladi.

### **Distillyatlarni gidrotozalashning sanoat qurilmalari.**

Jarayonning vazifasi hozirgi zamon talablarining darajasiga javob beradigan geteroatomli birikmalar (ayniqsa, oltingugurtli) dan tozalashni o'tkazish. Distillyatlarni gidrotozalash qurilmasi quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi, ular quyidagilar: reaktorli, VSG ni ajratish bilan gaz mahsulotli aralashmani separasiyalash, VSG ni vodorod sul'fiddan tozalash, kompressorli, gidrogenizatni barqarorlashtirish<sup>10</sup>.

<sup>10</sup> Mohamed A.Fahim, Taher A.Alsahhaf, Amal Elkilani. Fundamentals of Petroleum Refining. ©2010. ElsevierB.V.153-197p.



### **Gidrotozalash reaktori, separator va barqarorlashtirish kolonnasi**

Dizel yoqilg'isi distillyatini gidrotozalash texnologik tizimini quyida ko'rib chiqamiz (20-rasm).


Jarayon qo'zg'almas qatlAMDAGI alyumokobaltmolibdenli katalizatorlar ishtirokida o'tkaziladi.

Xom ashyo 1-nasos yordamida berilib, 16-kompressordan kelayotgan vodorod saqlovchi gaz bilan aralashtiriladi. Aralashma 6-chi va 4-chi issiqlik almashtirgichlarda isitilgandan, so'ng 2-quvurli pechga va aralashma  $380 - 425^{\circ}\text{C}$  temperaturada 3-reaktorga tushadi. Aralashmani reaktorga kirish va chiqishdagi temperaturalar farqi  $10^{\circ}\text{C}$  dan oshmasligi kerak.

Reaksiya mahsulotlari 4, 5 va 6- issiqlik almashtirgichlarda  $160^{\circ}\text{C}$  gacha sovitiladi, bir vaqtda gaz xom ashyo aralashmasi, shuningdek, barqarorlashtirish kolonnasi xom ashysosi isitiladi. Gaz mahsulotli aralashmani keyingi sovutish 7-havoli sovutish jihozida, soviguncha (taxminan  $38^{\circ}\text{C}$  gacha) 8-suvli sovutgichda amalga oshiriladi.

Beqaror gidrogenizat yuqori bosimli 9-separatorda sirkulyalanuvchi gazdan ajratiladi. Gidrogenizat separator pastidan chiqariladi, 10-issiqlik almashtirgichdan o'tishda  $240^{\circ}\text{C}$  gacha isitiladi, so'ogra 5-issiqlik almashtirgichga va 11-barqarorlashtiruvchi kolonnaga kiritiladi.

Ayrim qurilmalarda gaz mahsulotli aralashmalar uchun yuqori temperaturali separaciyalash o'tkaziladi. Bunday hollarda aralashma  $210 - 230^{\circ}\text{C}$  temperaturada yuqori bosimda qizdiriluvchi seperatorda ajratiladi, ya'ni seperatorda ajratiladigan suyuqlik barqarorlashtirish kolonnasiga yuboriladi.



**20-rasm.** Dizel yoqilg'isini gidrotozalash qurilmasi texnologik sxemasi:

1, 15, 19, 21-nasoslar; 2-quvurli pech; 3-reaktor; 4, 5, 6, 10-issiqlik almashtirgichlar; 7, 12, 14-havoli sovitish jihozlari; 8-suvli sovitkich; 9, 13, 17, 20-separatorlar; 16-markazdan qochma kompressor; 11-barqarorlashtiruvchi kolonna; 18, 22-absorberlar.

Sirkulyatsiyalanuvchi vodorod saqlovchi gaz 18-absorberda vodorod sulfiddan monoetanolaminning suvli eritmasi yordamida tozalanib, 16- kompressor orqali tizimga qaytariladi.

Suv bug'i 11-kolonna pastiki qismidan kiritiladi. Benzin bug'lari, gaz va suv bug'lari  $135^{\circ}\text{C}$  temperatura atrofida kolonna yuqorisidan chiqib, havoli sovitkich 12 ga tushadi, so'ngra 13-separatorda gazning suyuq aralashma qismi ajratiladi. Separatorda ajralgan benzinning bir qismi 15-nasos yordamida 11-kolonna yuqorisiga «to'yintirish» sifatida qaytariladi. Balans miqdori esa qurilmadan chiqariladi. Uglevodorod gazlari 22-absorberda vodorod sulfiddan tozalanadi.

Gidrotozalangan mahsulot 11-kolonna pastidan chiqariladi va 10-issiqlik almashtirgichda, 14-havoli sovitkichda sovitilib,  $50^{\circ}\text{C}$  temperaturada qurilmadan chiqariladi.

Qurilmada katalizatorni qayta tiklash uchun  $400 - 550^{\circ}\text{C}$  va 2 MPa da toblantiriladi, so'ngra tizim orqali inert gaz o'tkaziladi.

## 5-amaliy mashg'ulot

## Riforming kimyosi va texnologiyasini o'rganish.

### Aromatik uglevodorod xossalari

Organik sintez sanoatida aromatik uglevodorodlar olefmlardan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Tabiiy manbalardan olinadigan aromatik uglevodorodlar orasida benzol, ksilollar katta ahamiyatga ega. Ba'zi bir aromatik birikmalami fizik-kimyoviy ko'satkichlari bilan tanishamiz (6-jadval).

#### Aromatik uglevodorod xossalari

6-jadval

Uglevodorod nomi	0,1 MPa bosimida qaynash temperaturasi, °C.	Suyuqlanish temperatura-si, °C	Chaqnash temperaturasi, °C
Benzol	80,1	+5,5	-14
Toluol (metilbenzol)	110,6	-95,0	+5
o-ksilol (1,2-dimetilbenzol)	144,4	-25,2	+29
m-ksilol (1,3-dimetilbenzol)	139,1	-47,9	+29
n-ksilol (1,4-demetilbenzol)	138,3	+13,3	+29
Psevdokumol (1,2,4-trimetilbenzol)	169,3	-43,8	-
Durol (1,2,4,5,-tetra-metilbenzol)	196,8	+79,2	-
Naftalin	218,0	+80,3	-

6-jadvaldan ko'rinish turibdiki, ksilol izomerlarining qaynash temperaturasi bir-biriga yaqin, ulami qisman rektifikatsiya yo'li bilan ajratish mumkin. n-ksilol va durol boshqa izomerlarga nisbatan yuqori temperaturada suyuqlanadi, shuning uchun ulami aralashmalardan qayta kristallah usuli bilan ajratiladi. Bu usul naftalinni ajratish uchun ham qo'llaniladi.

Aromatik uglevodorodlar qutbli erituvchilardan dietilenglikol, fenolda yaxshi eriydi. Ular qattiq sorbentlarga (aktivlangan ko'mir, silikagel) yaxshi yutiladi. Ushbu xossalari hisobiga aromatik uglevodorodlami sanoatda ekstraksiya, ekstraktiv haydash va adsorbsiya yo'li bilan ajratish mumkin. 6-jadvaldan ko'rinishi bo'yicha aromatik uglevodorodlar benzol, toluol va ksilollami chaqnash temperaturasi ancha past, shuning uchun ularni alanganishi oson. Aromatik uglevodorodlar boshqa uglevodorodlar sinfiga nisbatan zaharli hisoblanadi. Qonni zaharlash xususiyatiga ega. Aromatik uglevodorodlarni olish manbai neft mahsulotlarini piroliz va riforming jarayoni hamda toshko'mimi kokslashdir.

#### Katalitik riforming jarayonining umumiylari xarakteristikasi.

Hozirda neftni qayta ishlash zavodlarida benzin sifatini yaxshilash imkonini beruvchi, shuningdek qimmatbaxo monomerlar olish jarayonlaridan biri katalitik

riforming hisoblanadi va bu jarayon keng tarkalgan bo'lib, ayni vaqtda katalitik riforming qurilmalari asosan platinali katalizatorlar ishtirokida boradi.

Katalitik riforming jarayonidan maqsad, yuqori oktanli avtomobil benzin komponentini ishlab chiqarish, shuningdek aromatik uglevodorodlar: benzol, toluol, ksilollar olishdir. Jarayon natijasida vodorod saqllovchi gaz ham olinadi va keyinchalik yoqilg'i, moy va boshka frakstiyalarni gidrotozalashda ham gidrokreking qurilmalarida foydalaniladi.

Katalitik riforming xom-ashyosi bo'lib to'g'ri haydashdan olingen benzin frakstiyalari xizmat qiladi. Yuqori oktanli benzin olish uchun  $85-180^{\circ}\text{C}$ da qaynovchi benzin frakstiyalari xizmat qilsa, benzol, toluol, ksilol olish uchun  $62-85^{\circ}\text{C}$ ,  $85-115^{\circ}\text{C}$  va  $115-150^{\circ}\text{C}$  frakstiyalaridan foydalaniladi. Ba'zida keng benzin frakstiyalariga termik kreking jarayonidan olingen past oktanli benzin ham qo'shiladi.

Bunda xom-ashyo oltingugurtli bo'lsa, katalizator zaharlanishi mumkin, shuning uchun doim riformingda gidrotozalangan xom-ashyo kiritiladi. Xom-ashyo tarkibidagi oltingugurt miqdori 0,01% (mass.) bo'lishi kerak.

Katalitik riforming vaqtida neftning benzin frakstiyasi uglevodorodlarining katta miqdori aromatik uglevodorodlarga aylanadi. Bunda olti a'zoli naften uglevodorodlari degidrirlanishi va parafin uglevodorodlarni degidrostikllanishi kuzatiladi. Bir vaqtning o'zida aromatik uglevodorodlarni dealkillanish reakstiyalari ham boradi. Shuningdek, ularni zichlanishi tufayli katalizator yuzasida koks qatlaminis hosil bo'lishiga olib keladi. Katalizator kokslanishini oldini olish va riforming vaqtida hosil bo'lgan tuyinmagan uglevodorodlar hidrogenlanishi uchun reaktordagi vodorodbosimini yuqori oktanli benzin olishda 3-4 MPa, individual aromatik uglevodorodlar olishda 2 MPa saklash zapur.

Barcha asosiy reakstiyalar issiqlik yutilishi bilan boradi. Uglevodorodlarni o'zgarish darajasi jarayon issiqlik effekti yig'indisiga ko'ra aniqlanadi. Jarayon borishida harorat ( $480-520^{\circ}\text{C}$ ) pasayadi va xom-ashyoda boshqa o'zgarish kuzatilmaydi. Shuning uchun xom-ashyonini to'la o'zgarishi uchun aralashma oraliq qizdirishdan o'tkazish lozim. Jarayon to'la o'tishi uchun odatda 3ta ketma-ketlikda o'rnatilgan reaktorlardan foydalaniladi.

Yuqori oktanli benzin komponentini chiqish miqdori 80-85% (mass.)ni tashkil etadi, uningoktanli soni 80-85 (motor usulida)ga teng.

Riforming jarayonini o'tkazishda asosan sanoat katalizatorlaridan hisoblangan alyumoplatinali katalizatorlar (0,3-0,8 mass.platina) qo'llaniladi. Keyingi yillarda platina bilan reniy birikmasi katalizatorlari keng qo'llanilmokda. Bimetalli platina-reniyli katalizatorlarni qo'ullash orqali reaktordagi bosimni 3-4dan 0,70-1,4 MPa gacha pasaytirishga erishildi. Katalizator stilindrik shakldabo'lib, uningdiametri 2,6mm, balandligi 4mm bo'ladi.

Katalitik riforming jarayoni umumiylaysi.

Ushbu qurilma tadqiqot usuli bo'yicha 102 oktan soni va motor usulida 90gacha bo'lgan, benzin ishlab chikarish uchun xizmat qiladigan mahsulotlar tarkibiga kiradigan etillanmagan riformatni va vodorodni iste'mol qiluvchi barcha qurilmalar uchun vodorod ishlab chikarish uchun mo'ljalangan. Qurilma ATdan etkaziladigan gidrotozalangan og'ir naftani qayta ishlaydi. Jarayon u yoki bu reakstiyalarni faollashtiradigan 0,3% (mass) platina va promotorlar bilan to'yintirilgangan glinozyom bo'lgan katalizator ishtirokida olibboriladi.

## Xom-ashyo materiallar, mahsulotlar tavsifi.

Katalitik riforming qurilmasi uchun xom-ashyo bo'lib neftni atmosferali haydash qurilmasi frakstiyalash bo'limidan etkaziladigan past oktanli gidrotozalangan benzin ishlatiladi. Riforming jarayonini olib borishda ishlab chiqariladigan vodorodning bir qismi ishlatiladi. Katalizatorni faollashtirish uchun juda kam miqdorda suv, xlororganik birikmalar va DMDSlar (dimetildisulfid) ishlatiladi. Qurilmaga etkaziladigan xom-ashyoning tarkibida mexanik qo'shimchalar emulgastiyalangansuv, suvda erigan kislota va ishqorlar bo'lmasligi kerak. Katalizatorlar – yuqori oktanli etillanmagan benzinni olish uchun girotozalangan benzinni riformlash, glikozyomni 0,3% platina va promotorlar bo'lgan to'yintirilgan katalizator ishlatiladi. Katalitik faollikni tashuvchisi bo'lib, platina xizmat qiladi. Xlororganikaning katalizatordagi konstentrasiyasi dozalash nasoslash orqali xloragentni qo'shishi hisobidan tutib turiladi. Xlororganik birikmalar katalizatorni reakstiya va regenirastiya stikllarida xlorlash uchun qo'llaniladi.

Ko'p ishlatiladigan xlororganik birikmalar quyidagilar:

- trixloretilen ( $C_2 H_3 Cl_3$ ),
- tetraxloretilen ( $C_2 H_2 Cl_4$ ),

Odatda qurilmada trixloretilen ( $C_2 H_3 Cl_3$ ) qo'llaniladi.

Trixloretilen tinik, yengil, harakatlanuvchi suyuqlik. Katalitik riforming regenegratoriga toza ko'rinishda va xom-ashyo qabuli quvuriga benzindagi 1%li eritma ko'rinishida uzatiladi.

Riforming jarayonini o'tkazish shartlariga asosiy omillar o'zgarishining ta'siri.

### A. Xom-ashyoning sifati.

Xom-ashyo kimyoviy tarkibi, haydalishi va zichligi bo'yicha xarakterlanadi. Xom-ashyo qancha kam parafinlangan bo'lsa, uni riformatlash shuncha oson kechadi va aksincha parafinli xom-ashyo murakkabroq riformatlanadi, buning uchun degidrostiklizastiyaning qulay sharoitlarini ta'minlash kerak. Buni amalga oshirish qiyin. Haydash xom-ashyo komponentlarining harakati bo'yicha tarqalishini xarakterlaydi. Qaynash temperaturasining yuqori harorati  $180^{\circ}C$ .

### V. Harorat.

Oktan sonini rostlash maqsadida harorat asosiy ishchi parametr hisoblanadi. Haroratni oshishi oktan sonini yaxshilaydi. Riformatni chiqishini kamaytiradi. Ristirkulyastion gazda vodorodni tozaligini kamaytiradi va koks hosil bo'lishini oshiradi.

### V.Bosim.

Reaktordagi bosim asosiy parametr hisoblanadi. Bosim qancha past bo'lsa, belgilangan oktan soniga riformat va vodorodning chiqishi shuncha yuqori bo'ladi. Bosimni pasayishi koks hosil bo'lishini kuchaytiradi, ammo amortizastiya darajasini pasaytiradi. Bosimning pasayishida turbokompressorning unumdorligi pasayadi va vodorod saqlagan gazning aylanma harakatining karraligi pasayadi. Bosimnin goshishi bilan gaz hosil bo'lishi oshadi, katalizatnin gchiqishi pasayadi.

G. Vodord saqlagan gazning aylanish karraligining tavsija etiladigan yuqori bo'lishi qurilmaning unumdorligini pasaytiradi, aksincha uning pasayishi katalizatorda koks hosilbulishini kupaytiradi.

### D. Aylanma gazda vodorodning miqdori (konst- si)

Aylanma harakatlanayotganzada vodorod konstentrasiyasining pasayishi katalizatordagи yuqori koks hosilbo'lishiga olib keladi, riforming asosiy reakstiyalari tezligini oshiradi.

#### E. Katalizatorning faolligi.

Katalizator metallari oksidlar ko'rinishida hosil bo'ladi va ularni faol bo'lishi uchun vodorod yordamida tiklash zarur. Tiklanishda metall fazasini yaxshi dispersiyasini ta'minlash uchun tiklanishdan oldin katalizator dastlab yuqori haroratda bo'rishi kerak. Katalizator metal funkstiyasining faolligi uchun metalning yaxshi disperstiysi birlamchi ahamiyatga egadir. Uning faolligi ko'rsatkichlarini dispersiyaga bog'lik holda stiklogeksanning benzolga degidrirlash reakstiyasi bilan tavsiflash mumkin.

#### J. Xlororganikaning ta'siri.

Xlor katalizatorda kerakli kislotalilikni beradi. Katalizatorning kislotaliligi katalizator massasidan 0,9-1,1% chegaradagi xlor miqdoriga rostlanadi. Xloring ortiqchasi juda katta kislotalilik vodorodning iste'molchilar bo'lishi va riformat bo'yicha unumdorlik uchun nomaqbul bo'lishi gidrokrekkingning reakstiyalarini kuchaytiradi. Bundan tashqari, haroratning oshishiga olib keladi, koks hosil bo'lishiga zamin yaratadi. Judapast kislotalilik katalizatorning kislotalilik funkstiyasini pasaytiradi, bu aromatik birikmalar hosil bo'lishini kamaytiradi.

Riforming jarayoning kimyoviy reakstiyalari.

### **Qo'zg'almas katalizator qatlamida boruvchi riforming**

Qurilma quyidagi bloklardan iborat: xom-ashyoni gidrotozalash, stirkulyastiyanuvchi gazni tozalash, katalitik riforming, gazlarni separatsiyalash va benzinni barqarorlashtirish.

Xom-ashyo 12-nasos orqali bosim ostida (4,7 MPa) gidrotozalangan stirkulyastiyanuvchi vodorod saqlagan gaz va riformingdan ajralgan ortiqcha vodorod saqlovchi gaz bilan aralashtirishga beriladi. Bu aralashma 16-pechning alohida bo'limida qizdiriladi ( $450^{\circ}\text{C}$ ) va 15-gidrotozalash reaktoriga kiritiladi. Reaktordagi alyumokobaltmolibdenli (AlCoMo) katalizator ishtirokida oltingugurtli birikmalar buzilib, so'ngra vodorod sulfid ( $\text{H}_2\text{S}$ ) holida chiqariladi. Shu bilan bir vaqtida azotli va kislorodli birikmalardan ham tozalash jarayoni boradi. Bug'-gazli aralashma 15-reaktordan chiqib, 10-qaynatgich va 14-sovutgichda sovutiladi va  $35^{\circ}\text{C}$  harorat bilan 8-gazoseparatorga kiritiladi. Bu erda aralashma suyuq gidrogenizatga va gazga aralashtiriladi. Gaz 2-absorber pastki qismidan monoetanolamin (MEA) yordamida vodorod sulfiddan tozalash uchun kiritiladi, so'ngra 11-kompressor yordamida 4,7-5,0 MPa bosimgacha siqiladi va gidrotozalash tizimiga yuboriladi. Ortiqcha gaz 1-kompressor yordamida 5MPagacha siqiladi va qurilmadan chiqariladi.


Gidrogenizat 8-gaz separatoridan 9-issiqlik almashtirgichda sovutiladi va 7-bug'latuvchi kolonnaga kiritiladi. Kolonna yuqori qismidan chiquvchi vodorod sulfid, uglevodorod gazlari va suv bug'i 6-sovutgichda sovutiladi va 4-separatorga yuboriladi. Separator pastki qismidan 5-nasos orqali kondensat yig'id olinadi va 7-bug'latuvchi kolonnaga qaytariladi. Vodorod sulfid va uglevodorod gazlari MEA bilan tozalash uchun 3-kolonnaga kiritilladi. Kolonna yuqori qismidan chiquvchi bug'lar 27-frakstiyalovchi absorberga yuboriladi.

Gidrogenizat 7-bug'latuvchi kolonna pastki qismidan chiqarilib 10-qaynatgich va 9-issiqlik almashtirgichdan so'ng, 13-nasos orqali riforming blokiga yuboriladi. Gaz mahsuloti aralashma dastlab 20-issiqlik almashtirgachda qizdiriladi, keyin 16-pechda 500-520°C haroratda 19-reaktorga kiritiladi. Aralashma 18 va 17-reaktorlardan ketma-ketlikda o'tib, har bir reaktordan so'ng 16-pechda qizdiriladi va nihoyat oxirgi 17-reaktordan keyin gaz mahsuloti 20-issiqlik almashtirgich va 21-sovutgichda 30°Sgacha sovitiladi va 22-yuqori bosimli separatororda (3,2-3,6 MPa) katalizatdan stirkulyastiyanuvchi vodorod saqlagan gazni ajratish uchun kiritiladi. Stirkulyastiyanuvchi gaz 5 MPa bosim ostida 24-kompressor yordamida platforming tizimiga qaytariladi, ortiqchasi esa gidrotozalash tizimiga uzatiladi. Beqaror katalizat 22-separatordan 23-past bosimli separatoroga (1,9 MPa) kiritiladi. Katalizatdan ajralgan uglevodorodli gaz separator yuqori qismidan chiqarilib, 27-frakstiyalovchi absorberga kirishdan oldin gidrotozalashdagi uglevodorod gazlari bilan aralashtiriladi. Absorbent sifatida beqaror katalizat (benzin) xizmat qiladi. 27-absorberda 1,4 MPa bosimda yuqorida harorat 40°C da quruq gaz ajratiladi. Beqaror katalizat 26-nasos yordamida 31-issiqlik aralashtirgich orqali 34-kolonnaga beriladi va bu erda beqarorlashtiriladi. Mahsulotning bir qismi 27 va 34-kolonnaning pastki qismidagi haroratni tutib turish uchun 28-pech orqali stirkulyastiya qilib turiladi. Barqarorlashtirishni bosh frakstiyasi 32-jihozda sovutiladi va 33-yig'gichga kiritiladi, u erda 35-nasos orqali kolonnaga "sovuv-sug'orish" sifatida qaytariladi, ortiqchasi qurilmadan chiqariladi.

Kolonna 34ni pastki qismidan barqaror benzin 31 va 30-issiqlik almashtirgichda sovitilgandan keyin 29-nasos orqali 27-frakstiyalovchi absorberga kiritiladi, uning ortiqcha qismi qurilmadan chiqariladi.

#### Qurilma ish rejimi:

Harorat, 0C.....	480-520
Bosim, MPa.....	3-4
Xom-ashyoni uzatish hajmiy tezligi, soat-1.....	1,5-2,0
Stirkulyastiyanuvchi N <sub>2</sub> saqlagan gazning xom-ashyoga nisbatan karraligi, m <sup>3</sup> /m <sup>3</sup> .....	1500
Bosqichlar bo'yicha katalizatorni taqsimlanishi .....	1:2:



**Rasm-9. Qo`zqalmas katalizator qatlamida boruvchi katalitik riforming texnologik sxemasi:**

1, 11, 24 – kompressor; 2 – absorber; 3 – vodorod sulfiddan tozalash kolonnasi; 4 - separatorlar; 5, 12, 13, 25, 26, 29, 35, 36 - nasoslar; 6 – kondensator-sovitgich; 7- bug’latish kolonnasi; 8, 22, 23 – gaz-separatorlari; 9, 20, 30, 31 - issiqlik almashtirgichlar; 10 - qaynatkich; 14, 21 - sovitkichlar; 15 – gidrotozalash reaktori; 16 – ko’p seksiyali pech; 17-19 – reforming reaktorlari; 27 – fraksiyalovchi absorber; 28 - quvurli pech; 32 - havoli sovitish jihozlari; 33-yig’gich; 34 – barqarorlashtirish kolonnasi.

## 6-amaliy mashg’ulot

### Atsetilen sintez qilishning karbid usulini o’rganish.

Atsetilen etin  $C_2H_2$  uch bog’li to‘yinmagan uglevodorodlarning eng oddiy vakili. Mol. m. 26,04. Rangsiz gaz. Suyuqlanish temperaturasi —  $81^\circ$  (1277 mm sim. ust. da). Toza Atsetilen hidsiz. Atsetilen yuqori bosim ostida qizdirilsa portlaydi, havo bilan aralashmasi ham portlashi mumkin. Atsetilen kalsiy karbidga suv ta’sir ettirib olinadi. U yuqori temperaturada chala oksidlab va elektr kreking yordamida metandan (tabiiy gazdan) ham hosil qilinadi. Atsetilen kimyoviy reaksiyalarga juda yaxshi kirishadi. U birikish reaksiyasiga kirishganda, reaksiya ikki bosqichda boradi, birinchi bosqichda etilen qatoriga kiruvchi birikmalar hosil bo‘lib, ikkinchi bosqichda bular to‘yingan birikmalarga aylanadi. Atsetilenni xlорlash reaksiyasidan foydalanib, sanoatda ko’p ishlatiladigan geksaxloretan va trixloretilen kabi muhim birikmalar olinadi. Atsetilenga simob tuzlari ishtirokida suv molekulasingin birikishi (qarang Kucherov reaksiyasi) natijasida atsetaldegid hosil bo‘ladi yoki Atsetilen katalizator ishtirokida polimerlansa, kauchuk ishlab chiqarishda xomashyo vazifasini o’taydigan vinilatsetilen olinadi. Atsetilen to‘yinmagan birikma bo‘lishiga qaramay, urin almashinish reaksiyalariga ham kirishishi mumkin. Atsetilen 1836-yilda kashf qilingan. Uni ilk bor 1862-yil fransuz kimyogari M. Bertlo ko‘mir va vodoroddan sintez qilgan. Nemis kimyogari F. Vyoler 1862-yilda Atsetilenni kalsiy karbidsan quyidagi reaksiyaga asosan olish mumkinligini ko‘rsatib berdi:



Bu usul hozir ham texnik usullardan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Sanoatda Atsetilen olishning muhim usuli tabiiy gazlarni termik krekinglashdir. Uni elektrokreking usuli bilan metanni volta yoyi orqali (1600ye da) o’tkazib olish ham mumkin. Atsetilen yonishidan ko’p miqdorda issiqlik ajralib chiqqanligi uchun metallarni payvandlashda va har xil mahsulotlarni sintez qilishda ishlatiladi

Atsetilen-rangsiz gaz bo‘lib, toza holda efir hidiga ega;  $-83,8^\circ C$  temperaturada (0,102 M Pa bosimda) kondensatsiyalanadi. Atsetilenning havo bilan 2,0-8,1% aralashmasi; kislород bilan 2,8-78% aralashmasi portlash xavfiga ega. Atsetilen parchalanish natijasida katta miqdorda issiqlik ajraladi:




Ushbu parchalanish kislорodsiz muhitda kerakli initsiatorlar ishtirokida sodir bo‘ladi. 0,2MPa bosimda sodir bo‘ladigan parchalanish uncha xavfli bo‘lmaydi. Yuqori bosimdagi parchalanish reaksiyasi 1000 m/s tezlikdagi detonatsiya to’lqinida portlash bilan sodir bo‘ladi. Portlashni oldini olish uchun reaksiyani 0,2 MPa bosim ostida olib boriladi. Bosim ostida ishlash vaqtida atsetilen azot bilan suyultiriladi. Atsetilenni siqish uchun maxsus atsetilen kompressorlari qo’llaniladi. Atsetilenni yana bir muhim texnik

xossalardan biri, uning boshqa uglevodorod gazlariga nisbatan yaxshi erish xususiyati hisoblanadi. Masalan, 20°C haroratda 1 hajm suvda 1 hajmga yaqin atsetilen eriydi, 60 °C da esa 0,37 hajm eriydi. Atmosfera bosimi va 20°C da atsetilenning eruvchanligi quyidagicha,%: metanolda-11,2; atsetonda- 23, dimetilformamidda-32; N-metilpirrolidonda-37. Atsetilenni olish va boshqa gazlar aralashmasidan ajratishda atsetilenning eruvchanligi muhim ahamiyatga ega.

### **Atsetilen ishlab chiqarishning ikki usuli mavjud:**

1. Kalsiy karbiddan olish.
2. Uglevodorodlardan olish.

**Atsetilenni kalsiy karbiddan olish texnologiyasi.** Bizga ma'lumki, kalsiy karbidi kalsiy oksidi va koksdan olinadi. Reaksiya kuchli ekzotermik bo'lib katta elektrenergiya sarfini talab etadi, bu esa ishlab chiqariladigan atsetilenning tan narxida o'z aksini topadi.



**Kalsiy karbidga suv ta'sir ettirilsa, atsetilen hosil bo'ladi (reaksiya ekzotermik tarzda sodir bo'ladi):**



1 kg texnik kalsiy karbiddan (tarkibida koks, kalsiy oksid va boshqa aralashmalar) 230–280 litr atsetilen olinadi. Nazariy jihatdan olganda esa 1 kg toza CaC<sub>2</sub>dan 380 litr atsetilen olish mumkin.



### **Kalsiy karbid va atsetilen**


Kalsiy karbidni parchalanish reaksiyasida jarayonni yaxshi sodir bo'lishi uchun ma'lum bir shart-sharoitlarga amal qilish kerak. Reaksiya geterogen bo'lganligi sababli, uning tezligi kalsiy karbidning yirik yoki maydaligiga bog'liq. Kalsiy karbid qancha mayda bo'lsa, reaksiya tezligi shuncha katta bo'ladi. Reaksiya aralashmasini aralashtirib turish kerak, chunki karbidning sirtida ohak qatlami hosil bo'lishi mumkin; u esa CaC<sub>2</sub> ni to'liq parchalanishiga xalaqit beradi. Reaksiya muhitida hosil bo'lgan issiqlikni tashqariga chiqarib turish kerak, chunki atsetilen polimerlanishi yoki parchalanishi mumkin. Atsetilen generatorlari. Kalsiy karbidni suv ta'sirida parchalanishi sodir bo'ladigan apparatlami atsetilen generatorlari deyiladi. Issiqlikni chiqarish bo'yicha generatorlar ikki turga

bo'linadi: 1. Ho'l turdagи generatorlar, bu generatorlardagi reaksiya issiqligi ortiqcha suv yordamida sovitiladi. Generatorlarda 1kg CaC<sub>2</sub>ga 10kg suv sarflanadi, bunda kalsiy gidroksid suvda suspenziya ko'rinishida hosil bo'ladi uni tiklash mumkin emas.

2. Quruq turdagи generatorlar. Ulardagi issiqlik ortiqcha olingan suvning bug'lanishi natijasida reaksiya muhitidan chiqariladi. Bu usulda kalsiy gidroksid quruq holda hosil bo'ladi va uni qurilish materiallari olishda qo'llash osonlashadi.

Ho'l turdagи generatorlar reagentlarni solish bo'yicha quyidagi sistemalarga bo'linadi: «suvga karbid», «karbidga suv» va kontaktli (suv va karbid o'zaro ta'sirda). Sanoatda ko'p miqdorda atsetilen olish uchun «Suvga karbid» turidagi generatorlarni qo'llash xavfsiz hisoblanadi. Bu apparatlarda karbid bo'laklari ortiqcha olingan suvga solinadi. Bu apparatni qizib ketishini oldini oladi va reaksiya issiqligini chiqarish uchun shart-sharoit yaratadi, «suvga karbid» turidagi atsetilen generatorlari bilan tanishamiz (11-rasm). Apparatning taxminan Va qismi kalsiy gidroksidning suvli suspenziyasi bilan to'ldiriladi. 50-80 mm o'lchamdagi CaC<sub>2</sub> dastlab, 1-oraliq bunkeriga keladi, u yerdagi havoni siqib chiqarish uchun azot yuboriladi.

So'ngra 2-konusimon qopqoq ochiladi va kalsiy karbid 2-bunksrga tushadi. Kalsiy karbidni kelishini avtomat tarzda 4-sektorli baraban boshqaradi. Sektorli baraban tezligini atsetilenga bo'lgan ehtiyojga qarab boshqarib turiladi. Kalsiy karbid bo'lakchalari 6-trubadan o'tib 5-konusga keladi va karbidning parchalanishi 10-arashtirgich yordamida 9-tuynukchalarda sodir bo'ladi. Aralashtirgich yordamida kalsiy karbid bo'lakchalaridagi ohak qatlami tozalanadi.



**11-rasm. Suvga karbid turidagi atsetilen generatorining sxemasi:**

1,3-kalsiy karbid solish bunker; 2-qopqoq; 4-sektor barabani;  
5-taqsimlovchi konus; 6-yutuvchi truba; 7-gidravlik idish; 8-qobiq;  
9-tuynukchalar; 10-aralashtirgich; 11-shlyuzli zatvor.

Kalsiy karbid suv ta'sirida parchalanishi natijasida kalsiy gidroksidining suvdagi suspenziyasi (ohakli sut), shuningdek, koks, fenrosilitsiy aralashmasidan iborat shlam hosil bo'ladi. Shlam generatoming tagida cho'kadi va 11-shlyuzli zatvorda yig'ladi.

Ohakli sut uzlusiz ravishda generatorning pastki qismidan chiqariladi va tindiriladi. Tindirilgan eritmaga suv qo'shiladi va  $\text{CaC}_2$  ni parchalash uchun generatorga yuboriladi. Hosil bo'lgan atsetilenni generatordan tashqariga chiqariladi. Bosim ortib ketsa (400-450 MPa) ortiqcha hosil bo'lgan gaz 7-gidravlik zatvor yordamida atmosferaga chiqariladi. «Suvga karbid» turidagi generatorlarda soatiga  $500 \text{ m}^3$  atsetilen ishlab chiqariladi.

Atsetilen aralashmalari va ularni tozalash. Generatordan chiqayotgan atsetilen yuqori konsentratsiyaga ega (99%) bo'lib, uning tarkibida 1% quyidagi aralashmalar mavjud:  $\text{NH}_3$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{PH}_3$  va h.k. Bu moddalar kalsiy karbid tarkibidagi birikmalami suvda parchalanishi natijasida hosil bo'ladi:




Bu moddalar ( $\text{NH}_3$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ) zararli bo'lib, atsetilenni qayta ishlash jarayonida qo'llaniladigan katalizatorni zaharlash qobiliyatiga ega (masalan, ikki valentli simob tuzlarini qaytaradi), shuning uchun karbid usuli bilan olingan atsetilenni tozalash jarayoni eng zarur bosqichlardan biri hisoblanadi. Buning uchun, ya'ni atsetilenni tozalash uchun natriy gipoxloritning suvli eritmasidan foydalaniladi, u aralashmadagi birikmalami kerakli kislotalarga oksidlaydi, masalan:



Endi ho'l usul yordamida kalsiy karbiddan atsetilen olish texnologiyasi bilan tanishasiz (12-rasm). Kalsiy karbid 1-vagonetkalarda 2-monorelsdan «ho'l» turdag'i 6-generator bunkeriga tushiriladi. Kalsiy karbidni parchalanishi natijasida hosil bo'lgan ohakli sut uzlusiz harakatlanuvchi aralashtirgichli 5-tindirgichga yuboriladi. Aralashtirgich hosil bo'lgan ohak loyqasini markaziy tushirilish shtutseri tomonga suradi. Ohak loyqasi maxsus nasoslar yordamida tindirish o'ralariga yuboriladi. Tindirilgan kalsiy gidroksidning suvli eritmasi 5- tindirgichdan 4-sovutgich orqali 3-bakka qaytib keladi, u yerda una kerakli miqdorda suv qo'shiladi va 6-generatorga yuboriladi. Generatorda hosil bo'lgan atsetilennenning temperaturasi  $50-60^\circ\text{C}$  bo'lgani sababli, uni 7-sovutgichda sovutiladi, kondensatdan ajratiladi va sulfat kislota eritmasi bilan namlangan 8-nasadkali skrubberdan o'tkaziladi. U yerda atsetilen ammiak qoldiqlaridan tozalanadi, so'ngra atsetilen gazi natriy gipoxlorit solingan 9-skrubberga yuboriladi. Oxirida atsetilen 10-ishqor solingan skrubberga yuboriladi, u yerda gipoxlorit kolonnasidan ilashgan xlordan tozalanadi. Barcha yutuvchi eritmalar sirkulatsiyasi nasoslar yordamida bajariladi; ishlatilib bo'lingan eritmaning bir qism sistemadan chiqariladi va tozasi bilan aralashtiriladi. Tozalangan atsetilen 11-ho'l gazgolderda yig'iladi, I2-yong'inni oldini oluvchi to'siqdan o'tadi va 13-kompressor yordamida iste'mol uchun yuboriladi.

Atsetilenni quruq usuldagagi generatorlar yordamida olish texnologiyasida tindirgich va sovutgich bo'lmaydi.




### **12-rasm. Kalsiy karbiddan atsetilen olish texnologiyasi:**

**1-vagonetkalar; 2- monorels; 3- bak; 4-7- sovutgich; 5- tindirgich;  
6- atsetilen generatori; 8–10- skrubberlar; 11-gazgolder;  
12- yong‘inni to‘suvchi apparat; 13- kompressor.**

**7-amaliy mashg’ulot**

### **Etilatsetat sintez qilish jarayonlarini o’rganish.**

Murakkab efirlar hosil bo’lishiga olib keluvchi barcha jarayonlarga eterifikatsiya reaksiyalari deyiladi. Ushbu mavzu bo'yicha kislota, ularning angidridlari va xlorangidridlarini spirtlar va olefinlar bilan reaksiyalarini ko'rib chiqamiz. Jarayon kimyosi va nazariy asoslari. Eterifikatsiya reaksiyalarining eng muhimlaridan biri organik va noorganik kislotalami spirtlar bilan o'zaro ta'siri natijasida murakkab efirlar va suv hosil bo'lishi jarayonlari hisoblanadi.



## Сложные эфиры



#### Meyalarda murakkab efirlar

Ikki asosli kislotalar ishtirokida ikki qator nordon va o‘rtacha efirlar hosil bo’ladi, ularning chiqimi ta’sir etayotgan reagentlar nisbatiga bog’liq:



Ikki va ko‘p atomli spirtlar uchun to’liq va to’liq bo’limgan efirlar hosil bo’ladi, bu hol reaksiya reagentlari nisbatiga bog’liq:



Kislota va spirt bifunksional bo'lganda, jarayon yuqori molekulalari birikmalar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi, ya'ni poliefirlar hosil bo'ladi:




Yuqoridagi reaksiyalar muvozanatda sodir bo’ladi, qaytar jarayonlarda esa murakkab efirlar gidrolizga uchraydi.

Spirtlarni karbon kislotalar bilan eterifikatsiyasini katalizatorlarsiz olib borish mumkin, lekin bu hoi u juda sekin ketadi, reaksiyani yetarli tezlikda olib borishi uchun yuqori temperatura kerak bo'ladi ( $200\text{-}300^{\circ}\text{C}$ ). Agarda katalizator aralashmasi yomon yuvilsa va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir etganda, nokatalitik jarayon qo'llaniladi.

Kislota katalizatorlari ( $H_2SO_4$ , HCl, ion almashinuvchi smolalar) ishtirokida murakkab efirlar eterifikatsiya va gidroliz jarayolari 70- 150°C suyuq fazada olib boriladi. Katalizator sifatida geterogen kislota turidagilari ( $Al_2O_3$ , alyumosilikatlar, fosfatlar) ham qo'llaniladi. Bunda eterifikatsiya jarayoni gaz fazasida olib boriladi, lekin bu usul deyarli

kam qo'llaniladi. Ba'zi hollarda, masalan, ko'mir va fosfat kislota bilan spirtlar asosida murakkab efirlar olishda reaksiya kerakli natija bermaydi, shuning uchun ularning xlorangidridlaridan foydalaniлади:



Karbon kislota xlorangidridlarining narxi ancha qimmat bo'lganligi sababli, ularning o'miga kislota angidridlaridan foydalanish mumkin. Ularning spirtlar bilan reaksiyalari ikki bosqichda sodir bo'ladi. Dastlab murakkab efir va kislota hosil bo'ladi va jarayon shu bilan tugaydi. Lekin sharoit o'zgartirilsa, ajralib chiqayotgan kislota bilan spirt eterifikatsiya reaksiyasiga kirishadi, bunda angidriddagi ikkala atsil guruhi ishtirok etadi:




Ozgina qizdirishi natijasida birinchi bosqich boshlanadi va kuchli mineral kislotalar ta'sirida tezlashadi. Ikkinci bosqich ham erkin kislotalar ishtirokidagi eterifikatsiyaga o'xshaydi va u ham kislotali katalizatorlami talab etadi.

Kislota angidridlari ishtirokidaga eterifikatsiya kislotaga nisbatan ancha qimmat bo'lganligi sababli, kam qo'llaniladi.


### **Karbon kislotalar efirlarini sintez qilish texnologiyasi. Olingan mahsulotlar.**

Karbon kislotalar murakkab efirlari muhim amaliy ahamiyatga ega, ular erituvchi, gidravlik suyuqlik, moylovchi moylar, plastifikator va monomerlar sifatida qo'llaniladi. Sirka kislota va past spirtlar asosida olingan murakkab efirlar ancha arzon bo'lganligi sababli erituvchi sifatida qo'llaniladi. Ushbu barcha efirlar rangsiz bo'lib, ular suvda yomon eriydi. Ular yonish va portlash xususiyatiga ega.

Etilatsetat  $\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$  ( $T_{\text{qayn.}} = 77,1^\circ\text{C}$ ). Uni etanolni sirka kislota bilan eterifikatsiyalab olinadi:



Sanoatda Tishenko reaksiyasi asosida, ya'ni alyuminiy alkogolyat ishtirokida atsetaldegidan etilatsetat olinadi:



Bir atomli spirtlar-etanol gomologlari bilan sirka kislota asosida olingan murakkab efirlar orasida eng muhimi quyidagilar hisoblanadi:


$\text{CH}_3\text{COOCH}(\text{CH}_3)_2$   
izopropilatsetat ( $T_{\text{qayn.}} = 88,4^\circ\text{C}$ )  
 $\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$   
izobutilatsetat  
( $T_{\text{qayn.}} = 116,5^\circ\text{C}$ )  
 $\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$   
n-butilatsetat ( $T_{\text{qayn.}} = 126,5^\circ\text{C}$ )  
 $\text{CH}_3\text{COOCH}(\text{CH}_3)\text{C}_2\text{H}_5$   
ikkilamchi-butilatsetat

( $T_{\text{qayn.}} = 112,4^{\circ}\text{C}$ )

Izopropil va ikkilamchi butilatsetat olish uchun propil yoki n-butenni sirka kislota bilan eterifikatsiyalanadi:



Ko‘p atomli spirtlar-etilenglikol va glitserin bilan sirka kislota asosida ham murakkab efirlar olish mumkin, ularni erituvchi sifatida qo’llaniladi:




Ftal angidrididi va  $C_4$ - $C_8$  spirtlar asosida olingan murakkab efirlar plastifikator sifatida muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, izooktanol va 2- etilgeksanoldan sintez qilinganlari:



### Eterifikatsiya jarayoni texnologiyasi.

Murakkab efirlar olish jarayonini ikki katta guruhgaga ajratish mumkin: 1) Katalizatorsiz suyuq fazada boruvchi yoki gomogen katalistik jarayonlar, bunda kimyoviy reaksiya ajratish jarayoni bilan birgalikda olib boriladi; 2) Suyuq yoki gaz fazasida boruvchi geterogen katalistik reaksiyalar ajratish jarayonisiz alohida apparatlarda olib boriladi. Birinchi turdag'i jarayonlar eterifikatsiya texnologiyasida keng tarqalgan.

Etilatsetat olish uzluksiz texnologik sxemasi bilan tanishamiz (31-rasm). 1-bakdan sirka kislota, etanol katalizator sulfat kislotadan iborat reagentlar aralashmasi 2-isitgichda isigandan so‘ng 4-eferizatorning tepe qismiga yuboriladi. Kolonnani bug‘ bilan isitish natijasida hosil bo’lgan etilatsetat spirit va suv bug’lari bilan birgalikda kolonnadan haydaladi, tarelkalardan pastga harakat qilayotgan suyuqlik esa suv bilan to‘yinadi. Reaksiya massasini efirizatorda bo’lish vaqtini va xomashyo reagentlar shunday nisbatda olish kerakki, bunda kub suyuqligi tarkibida oz miqdorda reaksiyaga kirishmagan sirka kislota ( $\text{H}_2\text{SO}_4$  ham) bo’lishi kerak. Bu suyuqliknin kubdan tashqariga chiqariladi va neytrallangandan so‘ng kanalizatsiyaga yuboriladi.



### **31-rasm. Uzluksiz usul bilan etilatsetat olish texnologiyasi:**


1-bak; 2-issiqIik almashtirgich; 3-kondensator; 4-efirizator; 5,10-rektifikatsiya kolonnnlari; 6,9-kondensator-deflegmatorlar; 7-araIashtirgich; 8-seperator; 11-sovutgich; 12-yig'gich; 13-qaynatgich.

Reaktorning tepa tomonidan chiqayotgan gazlar tarkibida 70% spirt va 20% efirdan iborat. Bu gazlar sovutish va kondensatsiyalanish uchun dastlab 2-issiqlik-almashtirgichga keladi, u yerda isigandan so‘ng 3-kondensatga yuboriladi, 2-apparatdagi kondensat va 3-apparatdagi kondensatning bir qismini 4-reaktoming tepa tomoniga yuboriladi. Qolgan qismi 5-rektifikatsiya kolonnasiga keladi, u yerda azeotrop aralashma suvli spirtdan ajratiladi. 5-kolonna kubi 13-qaynatgich yordamida isitiladi, 6-apparatda esa flegma hosil qilinadi, uning bir qismi sug‘orish uchun ishlatiladi. 5-kolonna suyuqligi spirtdan va suvdan iborat. U kolonnadan chiqariladi va 4-eterizatoming pastki tarelkalariga kelib tushadi, shu bilan kolonnaning pastki qismi kerakli miqdordagi spirt bilan ta’milnadi. 5-kolonnadan keladigan bug’lar 6-apparatda kondensatsiyalanadi, hosil bo’lgan kondensatning bir qismi u yerdan sug‘orishga, qolgan qismi esa 7-alarashtirgichga keladi va teng miqdordagi suv bilan aralashtiriladi. Hosil bo’lgan emulsiya 8-seperatorda ajratiladi, ikkita qatlam hosil bo’ladi, yuqori qismi efir va unda erigan spirt, suvdan iborat, pastki qismi esa spirt va efirning suvli eritmasidan iborat. Pastki qismini 5-kolonnaning o‘rtalidagi tarelkalariga yuboriladi. 8-seperatordagi efimi suv va spirtdan tozalash uchun yuboriladi. Bu jarayon 10-rektifikatsiya kolonnasida olib boriladi, bunda efir, spirt va suvdan iborat azeotrop aralashma bir-biridan haydash orqali ajratiladi. Aralashmaning bir qismi 9-kondensatordan o‘tgandan so‘ng 10-kolon-nani sug‘orish uchun yuboriladi, qolgan qismi esa 7-alarashtirgichga qaytariladi. Etilatsetatni 10-kolonna kubidan sovutish uchun ll-sovutgichga yuboriladi, u yerda esa 12-yig‘gichda yig‘ladi.

## **8-amaliy mashg'ulot**


## Etil spirti ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasini o'rganish.

**Olefinlarni sulfat kislotali gidratatsiya usuli.** Ushbu usul eng birinchi va hozirgacha qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Bu jarayon ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda olefinlar sulfat kislota bilan o'zaro ta'sir etib mono-, dialkilsulfatlar (sulfat kislota efirlari) hosil bo'ladi; ikkinchi bosqichda hosil bo'lgan mono- va dialkilsulfatlar suv ta'sirida gidrolizlanadi va bir atomli spirtlar hosil bo'ladi:



Olefinlarni sulfat kislota bilan gidratatsiyalashda jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun etilen boshqa gomologlardan yaxshilab tozalangan bo'lishi lozim, chunki ular (boshqa gomologlar)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta'sirida polimerlanish va smolasimon birikmalar hosil bo'lishi mumkin. Polimerlanishni oldini olish uchun absorbsiya o'tkaziladi. Bunda 60–98% li sulfat kislota 0–70°C temperatura va 0,2–2 MPa bosimda sulfat kislota va olefin shunday olinadiki, 1 mol  $\text{H}_2\text{SO}_4$  1,2–1,3 mol olefinni yutishi lozim, bu esa kislota sarfini kamaytiradi.

Etilen va propilenni sulfat kislota yordamida absorbsiyalash uchun 2 xil turdag'i apparatdan foydalaniladi (27-rasm). 27-rasmdagi a-turdagi apparat aralashtirgichli gorizontal absorber bo'lib, uning o'qiga ko'plab disklar mahkamlangan. Absorberning ichki tomoniga taxminan 1/3 qism sulfat kislota solinadi, disklar harakatlanganda turman hosil bo'ladi, u esa fazalar yuzasida o'zaro muloqot bo'lishini kuchaytiradi. Reaksiya issiqligi suv yordamida sovutiladi. Bu apparat davriy ravishda ishlaydi. Rasmdagi b-turdagi apparat uzliksiz ravishda ishlaydi, u 20–25 tarelkadan iborat kolonnani tashkil qiladi. Har bir tarelkada trubkasimon sovutgich joylashgan bo'lib, undan sovuq suv o'tib turadi, sovuq suv ajralayotgan reaksiya issiqligini pasaytirishiga yordam beradi. Kolonnaning yuqoridagi tarelkasiga kerakli konsentratsiyali toza sulfat kislota yuboriladi, kubdan kerakli tarkibdagi reaksiya massasi ajratiladi. Etilen yoki propilen kolonnaning pastki qismidan suyuqlikka qarama-qarshi yo'nalishda yuboriladi.



**27-rasm. Etilen va propilenni sulfat kislota bilan hidratlash qurilmalari:** a) diskli aralashtirgichli gorizontal absorber; b) uzlusiz ravishda ishlaydigan tarelkali-kolonnali absorber.

Birinchi bosqichda olingan reaksiya massasi keyingi sulfonatlar hidrolizi bosqichiga yuboriladi. Suyuqlik suv bilan suyultiriladi va kuchli bug' bilan isitiladi, so'ngra spirit, oddiy efir va polimerlar tindirish jarayoniga yuboriladi va rektifikatsiya yo'li bilan ajratiladi. Bunda 90% li spirit olinadi. Hidrolizdan keyingi sulfat kislotaning konsentratsiyasi 40–50% ni tashkil qiladi. Undan alyuminiy sulfat olinadi yoki uni konsentrantiriladi, so'ngra absorbsiyaga qaytariladi. Sulfat kislota bilan olefinlarni hidratatsiyalash jarayonining asosiy kamchiligidan biri, ishlatilgan kislotani utilizatsiya qilinishidir.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchilik tufayli olefinlarni to'g'ridan-to'g'ri hidratlash usulini yaratishga sabab bo'ldi. Bu usulda kislotali katalizatorlar ishtirokida olefindagi qo'shbog'ga suvni birikishi sodir bo'ladi. Katalizator sifatida qattiq tashuvchiga (silikagel, alyumosilikat) shimdirlig'an fosfat kislotadan foydalilanadi. Etilen hidratatsiyasi 260–300°C 2,5–3,0 MPa bosimda olib boriladi. Bunda olefin konsentratsiyasi 97–99% tashkil qilishi lozim. Reaksiya uzlusiz ravishda ishlaydigan apparatlarda olib boriladi, uni hidratator deyiladi. U diametri 1,5 va balandligi 10 metr bo'igan po'lat kolonnadan iborat. Fosfat kislota ta'sirida yemirilishni oldini olish uchun jihozning qobig'i va tag tomoni qizil mis bilan qoplanadi. Katalizator reaktorga baland qilib solinadi, olefin va suv bug'i qo'shimcha isitiladi (reaksiya haroratigacha) va apparatning yuqori qismidan yuboriladi, katalizator qatlamidan o'tgandan so'ng, u hidratorming pastidan chiqariladi.


Gidratatsiya jarayonida katalizator tashuvchi sirtidan fosfat

kislotaning doimiy ravishda chiqib ketishi sababli, 400–500 soatdan so'ng katalizator faolligini yo'qotadi. Shu sababli, yangi katalizator tayyorlanadi, bunda tashuvchiga 60–65% li fosfat kislota shimdirliladi va u 100°C da quritiladi. Unda 35% erkin fosfat kislota bo'ladi.

**Etanol ishlab chiqarish.** Etanolni etilenni to'g'ridan-to'g'ri gidratatsiyalab olish mumkin:



Bu jarayon katalizator va bosim ostida yuqori temperaturada sodir bo'ladi. Jarayon yuqori temperaturada sodir bo'lgani sababli energiyani tejash muhim ahamiyatga ega. Etilen hidratatsiyasida suv bug'i va suvdan foydalaniлади, bunda uch xil jarayon sodir bo'lishi mumkin:



**28-rasm. Etanol olish texnologiyasi:**

1,2-kompressorlar, 3-trubkasimon pech, 4-issiqlik almashtirgichlar, 5-reaktor, 6-tuzni ajratgich, 7-sovutgich, 8,10-separatorlar, 9-absorber, 11-yengil fraksiyani haydash kolonnasi, 12- etanolni haydash kolonnasi, 13-oqova suvlarni ion-almashinish usuli bilan tozalash qurilmasi, 14-nasos, 15-drossel ventili, 16-kondensatorlar.

Etanolni olish texnologiyasi 28-rasmida keltirilgan. Xomashyo sifatida tarkibida 47–50% etilen, 50–52% etan va 1% miqdorida aralashmalardan iborat gaz qo'llaniladi. 1-kompressor yordamida gaz 3-reaksiya kolonnasining pastki tomoniga yuboriladi. Gaz mayda barboter orqali o'tib, yuqoriga ko'tariladi.

Har bir tarelkada gaz suyuqlik qatlamida barbaterlanadi, buning natijasida uning kislota bilan uchrashi yuzasi kattalashadi. Reaksiya isiqligini chiqarish uchun har bir tarelkada sovuq suv aylanadigan trubkali sovutgichlar joylashtirilgan. Reaksiya kolonnasidan chiqayotgan gazlar tarkibi 90% etan, 4–6% etilenden iborat bo'lib, suyuqlikning sachrashi natijasida ajraladi.

Kolonnadan chiqayotgan gazlar 8–10 atm bosimigacha drosel-lanadi, 8-nasadkali skrubberdan o'tadi, so'ngra to'liq neytrallash uchun 9-skrubberda 5–10% li natriy ishqori bilan yuviladi.

Neytrallangan gazni pirolizlashga etanni etilengacha degidrirlash uchun yuboriladi. 3-reaksiya kolonnasining past tomonidan etilsulfat kislota dietilsulfat va reaksiyaga kirishmagan sulfat kislota aralashmasi uzlusiz ravishda oqib chiqadi. Ushbu aralashmani 4-sovutgichda 50°C gacha sovutiladi va 6–7 atm bosimgacha drossellangandan so'ng gidroliz jarayoniga yuboriladi.

3-kolonnani nomlanishni oshirish uchun suyuqlikning (ekstragent) bir qismini oraliq tarelkadan qaytarib olinadi (gazni yo'nalihi bo'yicha sakkizinchisi) va 2-separatorda gazdan ajratilgandan so'ng sulfat kislota bilan birgalikda sirkulatsiya nasosi yordamida kolonnaning yuqori tomoniga yuboriladi. Bu etilenni suyuqlikda erishiga yordam beradi va kolonna bo'ylab temperaturani bir xil bo'lishini ta'minlaydi.

Alkilsulfatlar gidrolizi 5-apparatda sodir bo'ladi. Gidroliz uchun etil sperti rektifikatsiyasida xosil bo'lgan suvdan foydalaniladi.

Gidroliiz jarayonida, etil spirtidan tashqari oraliq mahsulotlar – dietil efiri, polimerlar va h.k. hosil bo'ladi. Gidrolizga yubarilayotgan suyuqlikni drossellashda, shuningdek, gidroliz reaksiyasi issiqligi va sulfat kislotaning suyultirishda ajralayotgan issiqlik hisobiga eritmadan gazlar ajralishi sodir bo'ladi (etilen, etan va h.k.). Ushbu gazlar dietil efiri bug'lari bilan birgalikda gidrolizerning tepe qismidan 8 va – skrubberlarga ular bilan birgalikda kelgan sulfat kislota qoldiqlarini yuvish va neytrallash uchun yuboriladi. Yuvgan va neytrall gazlar 3-kolonnadan chiqib ketyotgan gazlar bilan birga piroliz sexiga yuboriladi.

Gidrolizerdagи suyuqlikni muntazam ravishda aralashtirib turish uchun 8-skrebberni past tomonidan chiqayotgan suvni 6-nasosga vo'naltiriladi. U yerda suv gidrolizerning tepe tomonidagi gidrolizat bilan aralashgan holda gidrolerni pastki qismiga keladi. Gidrolizat sirkulatsiyasi va uning suv bilan jadal aralashishi hisobiga alkilsulfatlarni deyarli to'liq gidrolizlanishi sodir bo'lishiga olib keladi. Girolizni 5,5–6 atm bosimda va 92–96°C olib boriladi. Gidrolerning

pastki tomonidan kelayotgan suyuqlik tarkibida etil spiriti, suv, sulfat kislota, dietil efiri, shuningdek, gidrolillanmagan etilsulfatlar mavjud. Gidrolizatda erigan, shuningdek, oz miqdorda etilen va etan bo'ladi. Ushbu suyuqlik uzliksiz ravishda gidrolizeming pastidan 7-bug'latish kolonnasining yuqori tarelkalariga oqib keladi. U yerdan etilsulfat kislota va dietilsulfat gidroliz jarayonini nihoyasiga yetkazish uchun bug'latish kolonnasining pastki qismiga yuboriladi. So'ngra, suyuqlikdagi spirit, efir va suv bug'inining bir qismi haydab ajratiladi. Bug'latish 1,4–1,5 atm bosimda 125°C kolonnaning kub qismida va 110°C da yuqori qismida olib boriladi. 7-bug'latish kolonnasining kub qismidan 45–47% li sulfat kislota ajratiladi va smolasimon moddalardan tozalangandan so'ng konsentraltirishga (boyitishga) yuboriladi. Suyultirilgan kislota 90% hosil bo'lguncha bug'latiladi va 96–98% li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> olish uchun oleum qo'shiladi. Ayrim hollarda esa foydalanilgan sulfat kislotani tozalanilgandan so'ng superfosfot, ammoniy sulfat va h.k ishlab chiqarishga yuboriladi.

7-bug'latish kolonnasining yuqori qismidan olinadigan tarkibida suv bug'i, etil spiriti, dietil efiri, etilen va etandan iborat bug'-gaz aralashmasi tarelkali 13-neytrallash-bug'latish kolonnasiga keladi. Aralashma keladigan joyida balandroqda kolonnaga 5% li natriy ishqorining suvli eritmasi yuboriladi. Ishqoriy eritmada o'tayotgan bug'-gaz aralashmasi neytrallanadi va yuqoridagi tarelkalarda tepadan kelayotgan suv bilan yuviladi.


Spirtni haydash uchun 13-kolonna kubiga o'tkir suv bug'i yuboriladi. 13-kolonnaning yuqori qismidan chiqayotgan neytrallangan bug'lar 12-apparatda kondensatsiyalanadi; 14-separatorda kondensat gazlardan ajratiladi, so'ngra 11-skrubberda suv bilan yuviladi va atmosferaga chiqariladi. 14-separatordan kelayotgan spirtning suvli eritmasi 15-sovitgichda sovutiladi va rektifikatsiyaga yuboriladi. Spirit mahsulotining taxminiy tarkibi (%).

Etil spiriti .....	25-35;	Suv .....	60-6
Dietil efiri .....	3-5;	Polimerlar .....	0,05


#### 9-amaliy mashg'ulot

#### Stirol ishlab chiqarish jarayonlarini o'rghanish.

Alkilaromatik birikmalami degidrirlash stirol va uning gomologlarini olishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda degidrirlash jarayonni ikki bosqichda amalga oshiriladi, buni benzol yoki uning gomologlarini olefin bilan o'zaro reaksiyasi tarzida quyidagicha ifodalash mumkin:




Stirol  $C_6H_5-CH=CH_2$  rangsiz suyuqlik bo'lib, 0,1 MPa bosim ostida uning qaynash temperaturasi  $145,2^{\circ}C$  teng. U qizdirish yoki initsiatorlar ishtirokida qattiq polimer polistirol hosil qiladi.




Polistirol yaxshi elektr izolatsiyalanish xususiyatiga ega va kimyoviy reagentlar ta'siriga chidamli. U elektr va radiotexnika jihozlarini qismlarini, penoplast, plastmassa buyumlari ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Stirol sintetik kauchuklar (SSK) olishda muhim xomashyo hisoblanadi. a-metilstirol  $C_6H_5-C(CH_3)=CH_2$  rangsiz suyuqlik,  $161-162^{\circ}C$  qaynaydi, u stirolga nisbatan sekin polimerlanadi, shuning uchun reaksiya aralashmasidan uni ajratish va saqlash qulay. Sintetik kauchuklar ishlab chiqarishda a-metilstirol stirol bilan bir qatorda qo'llaniladi, lekin plastik massalar ishlab chiqarishda u kam miqdorda qo'llaniladi.


Divinilbenzol  $C_6H_4 (CH=CH_2)_2$  (izomerlar aralashmasidan iborat) ionalmashuvchi smolalar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi. Divinilbenzolni dietilbenzol izomerlari aralashmasidan olinadi, bunda degidrirlash oraliq viniletibenzol hosil bo'lishi bilan boradi:




Yana bir muhim monomer 5-vinil-2-metilpiridin bo'lib, u tegishli dialkilpiridinni degidrirlash bilan olinadi:



Yuqorida ko'rsatilgan monomerlar orasida eng muhimi stirol hisoblanadi. Oxirgi yillarda u propilenoksid bilan birgalikda etilbenzolidroperoksiddan olinmoqda.






**Stirol, polistirol va polistirol asosidagi buyumlar**

### **Jarayon texnologiyasi.**

56-rasmda stirol ishlab chiqarish texnologik sxemasi keltirilgan. Toza va retsirkullangan etilbenzol oz miqdordagi bug'l bilan birlashtirilganda 3- va 4-issiqlik almashtirgichga yuboriladi, u yerda bug'lar issiq reaksiya aralashmasida  $520\text{--}530^{\circ}\text{C}$  gacha isiydi.  $700^{\circ}\text{C}$  gacha isigan suv bug'i 1-trubkasimon pechda ishlanadi, u yerdan esa etilbenzol bug'lari bilan aralashtirishda va 5-reaktorga yuboriladi. Reaksiya aralashmasi reaktordan chiqayotgan uning temperaturasi  $560^{\circ}\text{C}$  teng bo'ladi. U o'z issiqligini dastlab 3,4-issiqlik almashtirgichdagi etilbenzolni isitish uchun, so'ngra 2-utilizator-qozonda past bosimli bug' olish uchun sarf qiladi (ushbu bug' 3-issiqlik almashtirgichda keladigan etilbenzolni suyultirish uchun xizmat qiladi). So'ngra bug'-gaz aralashmasi sovutiladi suv va namakob yordamida 6-sovutgichda, 7-separatorda kondensat gazdan ajratiladi, u yoqish gazi bo'limiga yuboriladi. Shundan so'ng 8-separatordagi kondensat suv va organik fazalarga ajratiladi.



### 56-rasm. Stirol ishlab chiqarish texnologik sxemasi:

1-trubkasimon pech; 2-utilizator qozon; 3,4-issiqlik almashtirgich; 5-reaktor; 6-sovutgich; 7,8-separatorlar; 9-12-rektifikatsiya kolonnalari; 13-deflegmatorlar; 14-qaynatgich.

Organik faza tarkibidagi, etilbenzol, stirol va oraliq mahsulotlarni (benzol, toluol) pech moylari deyiladi. U rektifikatsiyaga yuboriladi, stirolni termik polimerlanishi oldini olishi uchun ingibitorlar (masalan, gidroxinon) qo'shiladi, temperatura pasaytirish uchun haydashni vakuumda olib boriladi. Etilbenzol va stirolni qaynash temperaturalari bir-biriga yaqin bo'lgani sababli (136 va 145°C) rektifikatsiya jarayoni ancha qiyinlashadi. Pech moyini 9-vakuum rektifikatsiyaga yuboriladi u yerda undagi benzol, toluol va etilbenzol haydaladi. Ushbu distillyat 10- kolonnada benzol-toluol va etilbenzol fraksiyalariga ajratiladi. 9- kolonnadagi stirol bo'lgan kub suyuqligini 11-vakuum rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi, u yerda kolonnadagi kub suyuqligini oxirgi rektifikatsiyalash uchun 12-vakuum-kolonnaga jo'natiladi. Distillyat tarkibi 99,8% stioldan iborat. Kolonna kubida stirol polimerlaridan iborat og'ir qoldiq qoladi. Undagi uchuvchan moddalarni ikkita haydash kubida davriy ravishda haydaladi, ular 12-kolonnaga rektifikatsiyaga qaytariladi.

Barcha sharoitlar bir xil bo'lganda bu koeffitsiyent qo'zg'aIMas katalizatomikidan yuqori. Ko'p miqdorda issiqlik ajraladigan oksidlanish jarayonini bir me'yorda bu kattalik muhim ahamiyatga ega. Qo'zg'aluvchan katalizatorдан foydalanilganda havoning kam sarflanishiga erishiladi. Bu usulning yutuqlari bilan birga kamchiliklari mavjud. Katalizatoming ko'p miqdorda sarf bo'lishi, iloji boricha naftalindan foydalanish zarur, moslamaning yemirilishi. Konvertordan ajralayotgan kontakt gazi tarkibida 0,5-15 mol% ftal angidridi bor. U darhol kondensatsiyaga uchrab, kristall hosil qiladi. Bu kristall kondensat ustiga yopishadi va issiqlik almashinuvini yomonlashtiradi.

Ftal angidridi qurilma yuzasidan 2 xil usulda olib tashlanadi:

1. Mexanik qirish.
2. Suyuqlantirish.

Mahsulot oxirigacha toza bo'lishi uchun 2 qayta haydalishi lozim. Sublimatlangan ftal angidridi sovitiladigan vallarga kelib yopishadi, u yerda pichoq yordamida kesib olinadi.

## 10-amaliy mashg'ulot

### Nitrolash jarayonlari kemyosi va texnologiyasini o'rganish.

Nitrobirkimlar biologik moddalar hisoblanadi. Ularning barchasi ozmi-ko'pmi zaharli ta'sir etuvchi vositalardir. Molekulaga gidroksil yoki karboksil guruhi kiritilganda zaharlilik xususiyati kamayadi. Nitroguruh markaziy asab sistemasi va jigarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin nitroguruhli moddalarini ko'pchiligi biologik xususiyatni ham namoyon qilishi sababli, turli mikroblar va hasharotlarga qarshi preparatlar sifatida qo'llaniladi. Masalan, antibiotiklardan levometsitin, p-nitrobenzilpenitsillin bunga misol bo'la oladi. Dorivor vositalar va vitaminlar olishda aromatik va geteroaromatik, alifatik nitrobirkimlar oraliq mahsulot sifatida muhim ahamiyatga ega.

Organik birikmalar tarkibidagi vodorod atomi o'rniga  $\text{NO}_2$  guruhi almashinish jarayoniga nitrollash reaksiyasi deyiladi. Nitrollash vositalari sifatida nitrat kislota, nitrat va sulfat kislota aralashmasi (melanj), nitrat va sırka kislota aralashmasi, azot oksidlaridan foydalaniлади. Nitrollash reaksiyasi tez sodir bo'luchchi, qaytmas va ekzotermik jarayondir. Nitrollashda aromatik uglevodorodlar, ulaming hosilalari, to'yinmagan birikmalar va alkanlar xomashyo sifatida qo'llaniladi.

Organik birikmalarga nitroguruh turli usullar yordamida kiritilishi mumkin. Sanoatda eng muhim ahamiyatga ega bo'lganlari quyidagilar hisoblanadi: 1) aromatik yadroda nitrollash; 2) to'yingan uglevodorodlami nitrollash.

Nitrollash jarayoniga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- 1) kislota konsentratsiyasi;
- 2) aralashtirish tezligi;
- 3) temperatura.

Kislota konsentratsiyasi ta'siri. Nitrollash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda eng muhim omillardan biri kislota konsentratsiyasi hisoblanadi. Reaksiya muhitida suvning konsentratsiyasini ortishi nitrat kislotali dissotsiatisiyasiga va nitroniy-kationlarini kamayishiga sabab bo'ladi. Suvsiz nitrat kislota tarkibida taxminan 1% nitroniy- ionlari mavjud bo'ladi, lekin 5% suv qo'shilishi natijasida  $\text{NO}_2^+$  konsentratsiyasi nolga tushadi. Nitroniy ionining sulfat va nitrat kislotalar aralashmasidagi miqdorini 7-jadvaldan ko'rish mumkin.


**Sulfat va azot kislotalar aralashmalarida nitroniy kationi miqdori 7-jadval**

Nitroniy kationi	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> : HNO <sub>3</sub> , %				
NO <sub>2</sub> <sup>+</sup> ga dissotsiatsiyalangan HNO <sub>3</sub>	100	62,5	16,7	5,9	1
aralashmadagi NO <sub>2</sub> <sup>+</sup>	10	12,5	10	5,3	1

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sulfat va azot kislota aralashmalarida nitroniy-ioni miqdori nisbatan ancha yuqori. Nitrollash jarayoniga temperatura ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Temperaturani 10°C ga ko’tarilishi natijasida reaksiya tezligi uch marta ortadi. Nitrollash reaksiyasida aralashtirish tezligi ortishi bilan reaksiya tezlashadi.

Nitrollash asosan kislota qatlamida sodir bo’ladi, chunki uglevodorodlami kislota aralashmasidagi eruvchanligi NO<sub>2</sub> ni uglevodorodda eruvchanligiga nisbatan ancha yuqori bo’ladi. Nitrollovchi vositalar tabiatini nitrollash jarayoni sharoitiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Konsentrangan nitrat kislota yoki nitrollash aralashmasi ishtirokida reaksiyani past temperaturada va reaksiya massasini doimo sovutish orqali olib boriladi.

Suyultirilgan HNO<sub>3</sub> yoki azot oksidlari ishtirokida esa jarayon reaksiya massasini isitish bilan yuqori temperaturada olib boriladi. Nitrollash jarayonida katalizatorlar deyarli qo’llanilmaydi. Biroq, simob va uning tuzlari ishtirokida benzolni nitrat kislota bilan nitrollash natijasida pikrin kislota sintez qilish mumkin.




### Parafinlarni nitrolash.

Parafinlami nitrollashni birinchi marta M.I. Konovalov XIX asmi oxirlarida kashf qildi. Keyinchalik parafinlami nitrollashni quyidagi usullari yaratildi:


- 1) Gaz fazasida 350-500°C da 40-70% li HNO<sub>3</sub> yordamida;
- 2) suyuq fazada 100-200°C da 50-70% li HNO<sub>3</sub> bilan;
- 3) suyuq yoki gaz fazasida azot ikki oksidi bilan.

Parafinlami nitrollashda nitroguruh turli uglerod atomlaridagi vodorod atomi bilan o’rin almashadi; ulami reaksiyaga kirishish qobiliyatini parafinlami xlorlashdagi kabi quyidagi tartibda joylashtirish mumkin: uchlamchi>ikkilamchi>birlamchi. Temperaturani ko’tarilishi bilan ularni reaksiyaga kirishish qobiliyati tenglashadi, lekin doimo nitroparafinlar izomerlari aralashmasi hosil bo’ladi, bunda uglerod skeleti izomerizatsiyasi ro’y bermaydi:




Nitroguruh keyingi o’rin almashinish reaksiyalariga to’siqlik qiladi, shuning uchun gaz fazasidagi nitrollashda ortiqcha miqdorda olinadigan uglevodorod (3:1 dan 10:1) ishtirokida, dinitrohosilalar hosil bo’lmaydi. Lekin suyuq fazadagi nitrollashda

mononitrobirikmalar nitrat kislotada reaksiyaga ishlatiladigan uglevodorodlarga nisbatan yaxshiroq eriydi, natijada dinitrohosilalar hosil bo'lishi kuzatiladi. Bunda ikkinchi nitroguruh birinchi nitroguruhdan uzoqroq holatga yoki nitroguruhi mavjud bo'lgan uglerodga birikadi. Buning natijasida 2-nitropropandan yaxshi chiqm bilan 2,2-dinitropropan olish mumkin:




Parafinlami yuqori temperaturada gaz fazasida nitrollash jarayonlarida uglerod zanjiri destruksiyaga uchrashi natijasida doimo past nitroparafinlar ham hosil bo'ladi:



Bu jarayon destruktiv nitrollash deyiladi. Bu jarayon tarmoqlangan uglevodorodlar uchun to'g'ri zanjirliga nisbatan kamroq uchraydi.

Nitrollash jarayonlarida sodir bo'ladigan oraliq, noxush reaksiyalardan biri, bu parafinlami nitrat yoki azot ikki oksidi bilan oksidlanishi hisoblanadi. Shuning uchun hosil bo'ladigan mahsulot unumi 50-80% ni tashkil qiladi. Oksidlash mahsulotlari tarkibida aldegid va ketonlar, karbon kislotalar, uglerod oksidlari borligi aniqlandi. Oksidlash jarayonlari temperatura ko'tarilishi bilan kuchayadi. Shuning uchun har bir uglevodorodni nitrollash uchun o'zining optimal temperaturasi mavjud bo'lib, unda mahsulotning chiqimi eng yuqori bo'ladi.

Nitrollash reaksiyalari erkin-radikal mexanizmi asosida sodir bo'ladi. Nitrat kislotasini gomolitik parchalanishi va hosil bo'lgan radikallarni uglevodorod bilan o'zaro ta'siri natijasida radikallar hosil bo'ladi.



Birinchi reaksiyalar natijasida hosil bo'lgan azot to'rt oksidi o'sha zahoti nitrollash vositasi sifatida ishlatiladi, shuningdek, u uglevodorodlar bilan reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega, undagi vodorod atomini tortib oladi (chunki  $\text{NO}_2$  da juftlanmagan elektronlar mavjud). Nitrollashdagi asosiy reaksiya erkin radikallarni azot to'rt oksidi bilan o'zaro ta'siridir, bu reaksiya zanjirli jarayonni rivojlantiradi:




### Jarayon texnologiyasi.


Parafinlarni gaz fazasida nitrollash reaksiyalari orasida propanni 40-70% li nitrat kislota bilan nitrollash jarayoni sanoatga tatbiq qilingan usullardan biri hisoblanadi. Bu jarayon  $400-450^\circ\text{C}$ ,  $0,5-1 \text{ MPa}$  bosim ostida olib boriladi, bunda propanni nitrat kislotaga 5:1 mol nisbatda olinadi. Hosil bo'ladigan nitroparafinlar tarkibi quyidagi mahsulotlardan iborat: 25% nitrometan (qaynash temperaturasi  $101,2^\circ\text{C}$ ), 10% nitroetan (qaynash temperaturasi  $114^\circ\text{C}$ ) 20% 1-nitropropan (qaynash temperaturasi  $131,6^\circ\text{ C}$ ) va 40% 2-

nitro- propan (qaynash temperaturasi 120,3°C). Ularni retifikatsiya usuli bilan bir- biridan ajratish mumkin.

Nitroparafinlar rangsiz suyuqlik bo'lib, uncha o'tkir bo'lmasagan hidga ega. Ular erituvchi sifatida keng qo'llaniladi va organik sintezning muhim oraliq mahsulotlari hisoblanadi. Ulardan nitrospirtlar, aminospirtlar, nitrofenollar va bir qator portlovchi moddalar (masalan, uch (nitroksimetil) nitrometan) va boshqa zarur moddalar olinadi:




Endi gaz fazasida propanni nitrat kislota bilan nitrollash texnologiyasi bilan tanishamiz (48-rasm). Jarayon adiabat turidagi silindrsimon 2-jihozda olib boriladi, unda isitish moslamalari mavjud bo’lmaydi. Reaksiya natijasida ajralayotgan issiqlik, xomashyo uglevodorodlami isitish va nitrat kislotani bug’latish uchun sarf bo’ladi. Isitilgan propan 2-reaktoming pastki tomoniga keladi. Nitrollash va oksidlash mahsulotlarini reaksiyaga kirishmagan propan bilan birgalikda suv yordamida 3sovutgichda sovutiladi va oksidlanish mahsulotlari (aldegid va ketonlar) va nitrobirikmalami kondensatsiyalanish mahsulotlami yig’ish uchun 4-absorberga yuboriladi. Absorber gidroksilamin xlориднинг suvli eritmasi bilan sug’oriladi (namlanadi).



#### **48-rasm. Propanni nitrollash texnologik sxemasi:**

1-istigich; 2-reaktor; 3-sovutgich; 4-absorber; 5- issiqlik almashtirgich; 6- bug'latish kolonnasi; 7- kondensator; 8-separator; 9-retifikatsiya kolonnasi; 10-qaynatgichlar.



### **Nitropropan molekulasining fazoviy tuzilishi**

Absorber kubidagi suyuqlik 6-bug'latish kolonnasiga keladi. U yerda nitroparafinlar hamda oksimlar gidrolizida hosil bo'lgan aldegid va ketonlar absorbentdan haydab ajratiladi va 5-sovutgichda sovutilgandan so'ng absorberga qaytariladi. 6-bug'latish kolonnasidagi bug'lar 7-kondensatorda kondensatsiyalanadi, 8-separatorda esa ikkita qatlamga ajraladi. Hosil bo'lgan pastki suv qatlamni bug'latish kolonnasining yuqori qismiga, yuqori organik qatlamini esa 9- retifikatsiya kolonnasiga yuboriladi. Nitroparafinlar keyingi qayta ishlash jarayoniga, ya'ni tozalash va retifikatsiyalashga yuboriladi, unda suv, nitrometan, nitroetan, 2-nitropropan va 1-nitropropan ajratib olinadi. Jarayonning tejamkorligi absorberdan ketayotgan gazlar tarkibidagi propan va azot oksidlarni regeneratsiyasi bilan bog'liq. Ushbu gazlarda =85% C<sub>3</sub>H<sub>8</sub> va 10% NO bo'ladi. Regeneratsiya bo'limida aralashmadagi propanni sovutish yoki kerosin bilan absorbsiyalash orqali ajratiladi, chunki kerosinda boshqa H<sub>2</sub>,CO,CO<sub>2</sub> komponentlari erimaydi. Qolgan gazga havo aralashtiriladi, hosil bo'lgan azot to'rt oksidi suv yoki suyultirilgan nitrat kislotasi yordamida yig'iladi. Bunda azot oksidlari nitrat kislotaga aylanadi, qolgan gaz esa atmosferaga chiqariladi. Regeneratsiyalangan propan va nitrat kislotasi toza xomashyo bilan aralashtiriladi va nitratorga yuboriladi. Nitroparafinlar ishlab chiqarish sanoati portlash xavfiga ega, undan tashqari, kuchli nitrat kislotasi va yuqori temperatura ta'siriga uchraydi. Shuning uchun qo'llaniladigan asbob-uskunalar legirlangan po'latdan, ferrosilid, titan yoki tantaldan yasalishi lozim. Parafinlami (160-180°C yuqorida qaynaydigan >C<sub>10</sub>) suyuq fazada nitrollashning eng samarali usullaridan biri azot kislotasi bug'ida nitrollash hisoblanadi. Ushbu jarayonda barbataj turidagi reaktorda suyuq uglevodorod 130-220°C nitrollanadi. Reaksiya massasiga tushirilgan ilonsimion trubalarga suyuq kislotasi yuboriladi. Reaksiya vaqtida ajralayotgan issiqlik kislotasi tomonidan yutiladi. So'ngra kislotasi bug'lari taqsimlanish moslamasiga keladi va reaksiya massasi orqali barbotirlanadi, uglevodorodlar nitrollanish amalga oshadi. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, bunda reaksiya hajmida nitrat kislotasi bug'lari uncha ko'p miqdorda bo'lmaydi, shuning uchun jarayon xavfsiz va oson boshqariladi.

### **11-amaliy mashg'ulot**

**Galogenlash jarayonlari sxemalarini o'rganish.**

**Galogenlash jarayoni.**

Asosiy organik sintez texnologik jarayonlarida sodir bo‘ladigan muhim kimyoviy reaksiyalami quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Galogenlash reaksiyalari;
2. Gidrolizlanish reaksiyalari;
3. Gid- ratatsiya;
4. Degidratatsiya;
5. Eterifikatsiya;
- 6 . Alkillash;
7. Sulfatlash;
8. Sulfirlash;
9. Oksidlash;
10. Gidrirlash;
11. Degidrirlash va h.k.

Organik birikmalarga galogen atomlarini kiritish jarayonlarini galogenlash deyiladi. Galogenlash reaksiyalariga: ftorlash, xlorlash, bromlash va yodlash kiradi.

Galogenlash organik moddalar sintezida muhim o'rin tutadi. Bu usul bilan quyidagi mahsulotlar olinadi:

1) xlororganik oraliq mahsulotlar (1,2-dixloretan, xlorgidrinlar, alkilxloridlar) molekula tarkibiga harakatchan xlor atomini kiritish bilan bir qator muhim moddalar olish mumkin;


2) xlor va ftororganik monomerlar (vinil xlorid, vinilidenxlorid, tetraftoretilen);

3) xlororganik erituvchilar (metilen xlorid, uglerod to'rtxlorid, uch va to'rtxloretilen);

4) xlor va bromorganik pestitsidlar (geksaxlorsiklogeksan, kislota va fenollami xlorli hosilalari) Undan tashqari, galogenli hosilalami sovutish vositalari (xlorftor hosilalar, freonlar deyiladi), meditsinada (xloral, xloretan), plastifikatorlar, moylovchilar va h.k. sifatida qo'llaniladi.

Galogenlash reaksiyalari 3 turga bo'linadi: o'rin almashish; biriktirish; parchalanish.

O'rin almashinish galogenlash reaksiyasida uglevodorod molekula- sidagi vodorod atomi yoki reaksiya guruhi galogen bilan o'rin almashadi.




Galogen tutgan uglevodorodlardagi bir galogen atomini boshqa galogen atomiga almashinishdan brom, ftor va yodli hosilalami olish mumkin:




Organik birikmadagi OH-gurujni galogenga almashinishi natijasida kislotalarning xlor angidridlari olinadi:



Biriktirish bilan galogenlash reaksiyalari to‘yinmagan uglevodo- rodga galogen birikishi bilan boradi. Erkin galogenlar C=C, C-C va C<sub>Ar</sub>-C<sub>Ar</sub>bog‘larga birikish qobiliyatiga ega:



Galogenvodorodlar qo‘shbog‘ va uchbog‘ga birikadi, shuningdek, olefinlar ham xlorgidrinlash reaksiyasiga kirishadi:



Ba’zi hollarda additiv xlorlash past valentlik holatida ham ro‘y beradi. Masalan, uglerod oksid va xlordan fosgen olish mumkin:



Xlorli hosilalami reaksiyalari muhim ahamiyatga ega.

Xlorli hosilalami parchalanish reaksiyalarini bir nechta turi mavjud: a) degidroxlorlash HCl birikishning parchalanishi; b) dex- lorlash; d) xloroliz e) xlorlinoliz; yoki yuqori temperaturada piroliz;

Degidroxlorlashga misol keltiramiz:



Dexlorlash reaksiyalari esa yuqori temperaturada keladi




Xloroliz yoki xlorinoliz reaksiyalari xlor ta’sirida uglerod bog‘ini uzilishi bilan boradi:



Yuqori temperaturada piroliz:




**Galogenlovchi agentlar.** Eng muhim galogenlovchi agentlar-bu erkin galogenlar va suvsiz galogenvodorodlardir. Atmosfera bosimi ostida ularning qaynash temperaturasi quyidagicha, °C:




Ushbu galogenlar organik erituvchilarda yaxshi eriydi Br<sub>2</sub>>Cl<sub>2</sub>>F<sub>2</sub> va HBr>HCl>HF. Bu xususiyatlari ulami suyuq fazada galogenlashda muhim ahamiyatga ega. Ular o’tkir hidli bo’lib, ko’zni, nafas olish organlarini yallig'lantiradi, erkin galogenlar bo’g’ish xususiyatiga ega.

Cl<sub>2</sub> olishda NaCl suvli eritmasi elektroliz qilinadi, natijada bir vaqtning o’zida vodorod va ishqor hosil bo’ladi:




Yuqori temperaturada vodorod va xlomi o‘zaro birikishi natijasida vodorod xlorid sintez qilinadi:




**Radikal-zanjirli xlorlash.** Barcha galogenlash jarayonlari, ularning sodir bo'lishi mexanizmi bo'yicha 2 guruhga bo'linadi: radikal- zanjirli va ion-katalitik.

Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalarida parafin, olefin va aromatik uglevodorodlardagi vodorod atomi hisobiga o‘rin almashinadi, shuningdek, galogenlami  $C=C$  va  $C_{Ar}-C_{Ar}$ , bog’larga birikishi sodir bo’ladi.

Parafin uglevodorodlari faqat o‘rin almashinish reaksiyasi orqali molekuladagi vodorod atomini birin-ketin galogenga almashtiradi.




Olefinlar radikal-zanjirli xlorlanadi. Reaksiya gaz muhitida ion katalizatorlarisiz davom etadi va reaksiya xlomi qo'shbog'ga birikishi va vodorod atomini almashishi bilan boradi:




Olefinlarning xlor bilan reaksiyasi davomida temperatura oshishi bilan birikish reaksiyasi sekinlashadi, o‘rin olish reaksiyasi esa tezlashadi.

Aromatik uglevodorodlar ham radikal-zanjirli mexanizm asosida xlorlash reaksiyasiga kirishadi. Olefinlar singari reaksiya 3 xil yo'nalishda borishi mumkin. Yon zanjimi o'rin almashinishi, aromatik halqada o'rin almashinish va halqadagi C-C bog'ga birikish hisobiga sodir bo'ladi. Benzol qatori uglevodorodlarida yon zanjirdagi vodorod atomi o'rinnini birin-ketin xlor atomi olishi mumkin:



Agar aromatik halqaga ulangan zanjir uzun bo'lsa, o'rin olish a- holatda boradi, masalan, etilbenzoldan a -xloretilbenzol C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>-CHC<sub>1</sub>-CH<sub>3</sub> hosil bo'jadi.


Temperatura pasayishi ( $<30^{\circ}\text{C}$ ) bilan benzol gomologlarini xlorlashda halqadagi C-C bog‘ga xlor birikishi ko‘payadi, temperatura ortishi bilan esa C-H bog‘dagi vodorodning xlorga almashishi ko‘payadi. Masalan, past temperaturada ( $<30^{\circ}\text{C}$ ) benzoldan geksaxlorsiklogeksan, yuqori temperaturada esa xlorbenzol hosil bo’ladi:




### Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari mexanizmi.

Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari uch bosqichda sodir bo'ladi: zanjir paydo bo'lishi; zanjimi davom etishi (zanjimi o'sishi); zanjimi uzilishi.


**Zanjir paydo bo'lishi.** Buni har xil yo'llar bilan amalgalashish mumkin. Radikal-zanjirli xlorlash jarayonlari tarmoqlanmagan zanjirli reaksiyalar turiga mansub bo'lib, reaksiya natijasida oraliq xlor atomlari va erkin radikallar hosil bo'ladi. Gaz fazasida termik xlorlashda yuqori temperatura ta'sirida xlor molekulalarining idish devorlari yoki nasadkaga urilishi natijasida xemosorbsiya orqali Cl-Cl bog'laming uzilishi osonlashadi:




Ba'zi hollarda, termik xlorlash reaksiyasi past temperaturalarda ( $100-200^{\circ}\text{C}$ ) boshlanadi (xlor molekulasi bu temperaturada atomlarga ajrala olmaydi), bunda atom va radikallami hosil bo'lishi xlorni organik modda bilan o'zaro ta'siri orqali amalgalashadi:




Fotokimyoviy xlorlashda xlor molekulasining atomlarga bo'minishi kvant nur energiyasini yutish hisobiga sodir bo'ladi. Masalan, ultrabinafsha nurlar yordamida xlor molekulasi xlor radikallariga parchalanadi (simob-kvars lampasi yordamida):




Kimyoviy initsirlashda initsiatorlar qo'shiladi, ya'ni mo'tadil haroratda erkin radikallarga parchalanuvchi moddalar. Xlorlashda ko'pincha benzoil peroksidi yoki 2,2-azo-bis(izobutironitril) (porofor) initsiatorlari ishlatiladi:




Hosil bo'lgan fenil radikallari xlor molekulasiiga birikishi natijasida xlor radikallari vujudga keladi:




Zanjirni davom etishi (zanjirni o'sishi) paydo bo'lishida hosil bo'lgan xlor atomlari yordamida amalgalashadi:



Olefinlarga xlomi birikishi quyidagicha bo'ladi:




Aromatik uglevodorodlardagi xlomi birikish reaksiyasi ancha qiyin tarzda amalga oshadi:




Zanjirining uzunligi, ya’ni zvenolarning soni o‘ta toza moddalarni xlorlashda bir necha o‘n mingtaga yetishi mumkin. Agarda texnik moddalar ishlatsa, zanjir bir necha yuz zvenolardan iborat bo’ladi.

**Zanjirning uzilishi.** Gazli muhitda xlorlashda ko‘pincha chiziqli zanjir uzilishlari sodir bo’lishi mumkin:

1) nasadka yoki reaktor devoriga urilishdan:




2) uglevodorod radikallarining bir-biri bilan to‘qnashishidan:



3) xlor radikallarining o‘zaro birikishi orqali:



4) uglerod radikalining xlor radikali bilan to‘qnashishidan:



5) ingibitorlar ta’sirida (fenollar, kislород, oltingugurt birikmalari orqali).

## 12-amaliy mashg’ulot

### Vinilxlorid sintez qilish jarayonlarini o’rganish.

**Gidrogalogenlash.** Uglerod-uglerod qo'sh yoki uchbog'lar hisobiga galogenlash jarayonlari muhim amaliy ahamiyatga ega.

C=C bog'lar bo'yicha gidrogalogenlash.

Gidrogalogenlash ekzotermik qaytar reaksiya hisoblanadi. Uning muvozanati temperatura pasayishi bilan o'ng tomonga siljiydi va < 50 °Cda reaksiya qaytmaydi:



Turli galogenvodorodlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati erkin galogenlarning faolligiga qarama-qarshi ravishda quyidagicha ortib boradi:




Gidroxlorlashda katalizator sifatida ko'pincha AlCl<sub>3</sub> yoki FeCl<sub>3</sub> qo'llaniladi. Reaksiya elektrofil mexanizmi asosida sodir bo'ladi. MCl<sub>3</sub> faolligini  $\pi$ -kompleksni  $\sigma$ - kompleksga o'tishining osonligida deb tushuntirish mumkin.

Yoki oraliq metallilxloridvodorod kislota  $\text{NaCl}_4$  (yoki  $\text{FeCl}_4$ ) bosil bo'ladi, undagi proton yuqori faolikka ega bo'ladi.

Ikkala mexanizm uchun eksperiment asosida aniqlangan bir xil kinetik tenglama mos keladi:

$$r = [\text{MCl}_3][\text{HCl}] [\text{RCH}=\text{CH}_2]$$

Gidroxlorlashda, asosan katalizator  $\text{MCl}_3$  ishtirokida oraliq polimerlanish reaksiyasi ham sodir bo'ladi:



Bunda past molekulali suyuq polimerlar bosil bo'ladi, temperatura ortishi bilan ularning miqdori ko'payadi.

Olinadigan mahsulotlar. Ular orasida eng muhimi etil xlorid  $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$  hisoblanadi, u normal sharoitda gaz (kondensatsiyalanish temperaturasi  $+12,3^\circ\text{C}$ ). Uni  $\text{AlCl}_3$  ishtirokida etilenga  $\text{HCl}$  ta'sir ettirib olinadi:



Etilxlorid etillovchi agent sifatida qo'llaniladi. Masalan, dietildixlorsilan ishlab chiqarishda  $(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{Cl}_2$ , to'rt etil qo'rg'oshin  $\text{Rb}(\text{C}_2\text{H}_5)_4$  va h.k. qo'llaniladi.

Etil bromid  $\text{C}_2\text{H}_5\text{Br}$  suyuqlik ( $T_{mp}=38,4^\circ\text{C}$ ). Uni, motor yoqilg'ilarini oktan sonini oshirish uchun tetraetilqo'rg'oshin eritmasini tayyorlashda qo'llaniladi.

$\text{C}\equiv\text{C}$  bog'lar bo'yicha gidroxlorlash. Bu reaksiya ekzotermik tarzda sodir bo'ladi va olefinlarni gidroxlorlash jarayoniga nisbatan ikki marta ko'p issiqlik ajraladi:



$\text{HCl}$  ni atsetilenga birikishi bosqichma-bosqich sodir bo'ladi, avval vinilxlorid, so'ngra 1,1-dixloretan bosil bo'ladi:



Shuning uchun atsetilenning gidroxlorlash reaksiyalari faqat birinchi reaksiyani tezlashtirish uchun selektiv katalizatorlar ishtirokida olib boriladi. Bunday maqsad uchun simobning ikki valentli va misning bir valentli tuzlarini qo'llash ijobiy ahamiyatga ega. Simobning ikki valentli tuzlari orasida  $\text{HgCl}_2$  sulema gaz fazasida  $150\text{--}200^\circ\text{C}$  da quruq reagentlar ishtirokida qo'llaniladi. Bunda atsetaldegid va 1,1-dixloretan

hosil bo'ladi.  $\text{Cu}_2\text{Cl}_2$  ishtirokida oraliq jarayon atsetilenning dimerizatsiyasi natijada vinilatsetilen hosil bo'ladi:



Bu reaksiyani to'xtatish uchun yuqori konsentratsiyali HCl olinishi va katalizator konsentrlangan xlorid kislota erigan bo'lishi kerak.

Simob va mis tuzlarini gidroxlorlash reaksiyalariga katalitik ta'sirini koordinatsion kompleks hosil bo'lishi orqali tushuntirish mumkin, bunda atsetilen faollashadi va xlor anioni bilan o'zaro ta'sirlashadi va haqiqiy metall-organik birikma hosil bo'ladi, ular kislota ta'sirida tez parchalanadi:



Vinilxlorid  $\text{CH}_2=\text{CHCl}$  (rangsiz gaz,  $T_{\text{bord}} = -13,9^\circ\text{C}$ ). U eng muhim monomerlardan biri hisoblanadi. Undan turli polimer materiallar olinadi:




Sanoatda vinilatsetenni suyuq fazada  $40\text{--}60^\circ\text{C}$   $\text{Cu}_2\text{Cl}_2$  ishtirokida gidroxlorlash orqali olinadi.



**Atsetilenden vinilxlorid olish.** Gaz fazasida geterogen katalitik jarayon yo'li bilan atsetilen va vodorod xloriddan vinilxlorid sintez qilinadi. Faollashtirilgan ko'mirga sulema shmdirish yo'li bilan katalizator tayyorlanadi. Hosil bo'lgan katalizator tarkibida 10% (mass)  $\text{HgCl}_2$  bo'ladi. Atsetilenni gidroxlorlash bilan vinilxlorid olish texnologiyasi bilan tanishamiz (23-rasm).

Tozalangan atsetilen 1-olovni to'suvchidan o'tadi va namlikni kondensatsiyalanishi hisobiga 2-sovitgichda quriydi, so'ngra 3-kolon-naga keladi. 4-aratlashtirgichda u, quruq vodorod xlorid bilan aralashadi va 5-trubkasimon reaktorga keladi. Atsetilenni konversiya darajasi 97–98% tashkil qiladi., bunda reaksiya gazlari tarkibida 93% vinilxlorid, 5% HCl, 0,5–1,0 %  $\text{C}_2\text{H}_2$ , 0,3 % atsetaldegid va 1,1-dixloretan bo'ladi. Ular o'lari bilan sulema bug'ini olib ketadi. Gaz 6-sovitgichda soviydi, 7,8-skrubberlarda sulema va HCl dan tozalanadi (20% li xlorid kislota, suv, ishqor yordamida). Shundan so'ng gaz 10-nomakopli sovitgich-

da sovutiladi va 11-kompressor yordamida 0,7–0,8 MPa bosim ostida siqiladi.



**23-rasm. Atsetilenni gidroxilorlash bilan vinilxlorid olish texnologik sxemasi:** 1-olovni to'suvchi; 2,6,10-sovutgichlar; 3-quritish kolonnasi; 4-arashtirgich; 5-reaktor; 7-9-skrubberlar; 11-kompressor; 12,13-rektifikatsiya kolonnalari; 14-separator; 15-deflegmator; 16-qaynatgich.

Aralashma navbatma-navbat 12 va 13-rektifikatsiya kolonnalarida ajratiladi. Dastlab, og'ir qoldiq (1,1 dixloretan), so'ngra yengil qismi (atsetilen, atsetaldegid) ajratiladi.

## **13-amaliy mashg'ulot GTL texnologiyasini o'rganish. “Oltin yo'sh GTL” tazodi**

Hozirgi kunda neft va gaz sanoatida bir qancha ko'zga ko'rindigan ishlar amalgam shirilib kelinmoqda. Bunga misol tariqasida "Oltin yo'l GTL" zavodi barpo etilmoqda zavod dunyodagi yetakchi litseziar kompaniyalar — "Sasol" (JAR), "Xaldor Topse" (Daniya) va "Shevron" (AQSH) texnologiyasi asosida barpo etilmoqda. Qurilish ishlari bosh pudratchi — Koreya Respublikasining "Hyundai Engineering Co. Ltd." Va "Hyundai Engineering and Construction Co., Ltd", Singapurning "Enter Engineering Pte. Ltd." kompaniyalari tomonidan olib borilmoqda.

Majmua uchun zarur 11 mingdan ortiq texnologik uskunalar Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, AQSH, Germaniya, Italiya, Xitoy, Rossiya kabi 21 ta davlatdagi 126 ta zavodda tayyorlanmoqda.

Loyihaning umumiy qiymati 3,6 milliard \$. Uning amalga oshirilishi natijasida yiliga 3,6 milliard kub metr gaz chuqur qayta ishlanib, YeVRO-5 standartlariga javob beradigan 1,5 million tonna sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqariladi. Bular 311 ming tonna aviakerosin, 743 ming tonna dizel yonilg'isi, 431 ming tonna nafta, 53 ming tonna suyultirilgan gazdir. Zavodda gazni qayta ishlash orqali 300 \$lik mahsulot ishlab chiqariladi. Foyda ikki barobar ortadi. Yiliga hisoblaganda, tabiiy gazdan ko'ra tayyor GTL mahsulotlaridan ko'rildigan qo'shimcha daromad 576 million \$dan oshadi.



### **“Oltin yo'l GTL” zavodi**

Ta'kidlanishicha, zavod mahsulotlari hozirda chetdan import qilanayotgan xomashyolar o'rmini qoplaydi. Buning evaziga yiliga neft sotib olishga ketadigan 1 milliard \$dan ortiq valyuta mablag'lari iqtisod qilinadi. Tabiiy gaz Toza gaz konlarining gazini tabiiy gaz deb nomlash qabul qilingan. Tarkibiy qismi bo'yicha u yo'ldosh gazlardan anchagina farq qiladi. Tabiiy gazda metanning miqdori yo'ldosh gazdagidan ko'p bo'lib, 98% gacha yetishi mumkin; C<sub>2</sub> va ayniqsa, C<sub>3</sub> – C<sub>4</sub> uglevodorodlarning miqdori tabiiy gazda, odatda, yuksak emas. Ko'pgina tabiiy gazlarda ko'proq miqdorda inert gazlar (N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>) va kamyob gazlar (Ar, He va boshqalar) ham mavjud. Ayrim tabiiy gazlarning tarkibi 3a-jadvalda keltirilgan. Tabiiy va yo'ldosh gazlar tarkibiga faqat to'yingan uglevodorodlar kiradi.

### **Gaz holidagi olefinlarning qo'llanilishi.**

Neftkimyo sintezi sanoatida gaz holidagi olefin uglevodorodlardan juda keng foydalaniлади. Polietilen, etil spirti, stirol va vinilxlorid olishda etilen ishlatiladi. Uni oksidlاب atsetaldegid, etilen oksidlари olinadi. Propilen esa polipropilenni va u orqali quyi molekular polimer bo'lmish sintetik yuvish vositalari xomashyosini, izopropil spirtini, glitserinlarni ham olishga ishlatiladi. Butilenni asosiy ishlatilish joyi – uni sintetik kauchuk uchun eng zarur monomer bo'lmish butadienga degidrirlash, hamda spirtlar ishlab chiqarishdir; uni oksidlаб va xlorlab ham qimmatli mahsulotlar olinadi.

Izobutilen – sintetik kauchuk ishlab chiqarishda monomer hisoblanadi. Izoamilenlar ham sintetik kauchuk ishlab chiqarishdagi izopren olishga yo‘naltiriladi.


Alternativ benzinni ishlab chiqarish Uchta sanoat yo‘nalishini ajratish mumkin.

I. Ko‘mirdan benzin (ko‘mirlarni destruktiv gidrogenlash).

II. Gazdan benzin (GTL – Gas Liquid);


III. Etanol. Ko‘mirdan benzinni olish jarayoni (ko‘mirlarni destruktiv gidrogenlash)

Ko‘mirlarni destruktiv gidrogenlash nemis kimyogarlari F. Bergius va M. Pir tomonidan 1913 yilda kashf etilgan. Ko‘mirga suv bug‘i bilan yuqori haroratli ishlov berishga asoslangan bo‘lib, quyidagi reaksiya bo‘yicha boradi.



va keyinchalik sintetik benzinni tashkil qiluvchi suyuq uglevodorodlar olinadi.


Bu texnologiya 450 C haroratda va 30 – 70 MPa bosimda vodorod ishtirokida suyuq yoqilg‘ini olishga imkon berdi. 1926 yilda nemis kimyogarlari F. Fisher va G. Tropsh uglevodorodlarni suvli gazdan (suvli gaz deganda CO va H<sub>2</sub> dan tarkib topgan gazni tushunadilar) olishga imkon beradigan katalizatorlarni taklif qildilar.



Rasm-1. Sintez gaz ishlab chiqarish reaktori

Ularning tadqiqotlari asosida Germaniyada sintetik yoqilg‘i olishning sanoat jarayoni ishlab chiqilgan; shu bilan biriga gaz holidagi va suyuq holidagilar bilan birga qattiq uglevodorod (parafin) lar hosil bo‘ladi. Sanoat katalizatorlari sifatida alyuminiy oksidiga cho‘ktirilgan kobalt, nikel va VIII guruhning boshqa metallarni qo’llaganlar. Fisher Tropsh bo‘yicha sintez jarayoni ko‘mirlarni destruktiv gidrogenlash kabi ikkinchi jahon urushi vaqtida Germaniyada keng rivoj topdi: 1942 – 1944 yillarda qo’ng’ir va


toshko'mir lar asosida sintetik suyuq yoqilg'ini ishlab chiqarish bir yilda 5 mln. m ga yaqinini tashkil qiladi.



**Rasm-2. Fisher Tropsh sintez jarayoni reaktorining texnologik sxemasi**

So'ngra bu ishlab chiqarish Janubiy Afrika Respublikasida (JAR) bu mamlakat uchun neftni sotib olish ma'n qilingan sharoitda muvaffaqiyat bilan ishlab turgan. Shuni takidlash kerakki, Germaniyada bu texnologiyalar bo'yicha qurilmalar XX asrning 80 – yillarida to'xtatilgan edi, chunki ko'mirdan olingan benzin neftdan ancha qimmat edi. XXI asrning boshida VR neft kompaniyasining olimlari tomonidan bu jarayon tiklandi, ammo Veba Sombi Cracker (VSS) nomi bilan og'ir neft qoldiqlaridan ochiq neft mahsulotlarini olish jarayoni sifatida. Ko'mirdan olingan benzinning sifati yuqri emas, u past oktan soniga ega. Dizel frastiyalarni ham olish mumkin. Keyinchalik olingan mahsulotlarni gidrokrekinga uchratiladi.

### синтез Фишера-Тропша



### Fisher-tropsh mexanizmi

Gazdan benzin olish jarayoni (GTL) Jarayon asosida sintez – gazni olish bilan metanni oksidlash reakstiyasi va sintez – gazni suyuq yoqig'iga qayta ishlash yotadi. GTL texnologiyasini qo'llash u yoki bu sabablarga ko'ra bozorga chiqarib bo'lmaydigan gaz

resurslarini foydali ishlatish uchun maqsadga muvofiqdir. Odatda, bu jarayon yirik gaz konlarida va yuqori gaz olish bo'lgan neft konlarida yo'ldosh neft gazlarini foydali ishlatishda qo'llaniladi. GTL texnologiyasi sanoat miqyosida ancha katta kapital mablag'larni talab qiladi va neft narxining o'zgarishiga juda sezgir. Quvvati yiliga 20 ming t bo'lgan birinchi zavod 1991 yilda JAR da qurildi. An'anaviy GTL – mahsulotlar metanoldan tashqari o'z ichiga sirka kislota, olefinlar, dimetil efirini (dizel yoqilg'isining komponenti sifatida ishlatilishi mumkin), mochevina ammiak, mineral o'g'itlarni va uglerod zanjirining uzunligi har xil bo'lgan sintetik uglevodorodlar. Bu texnologiya yordamida past qaynaydigan, alkanlar, polioksimetilenlar, nafta, benzin sifatida qo'llaniladigan distillyatlar, kerosin, dizel yoqig'isi, surkov moylar va parafinni olish mumkin. Sintez sharoitini o'zgartirib turib suvli gaz asosida kislorod saqlagan gazlarni xususan spirtlar – metanol va etanolni oladilar, ular esa avtomobil benzinning komponenti sifatida qo'llanilishi mumkin, vaholanki ular ma'lum kamchiliklarga ega (benzin bilan qo'shilganda qatlamlarga bo'linish mumkinligi, gidroskopiligi, korrozion faolligi, yuqori bug'lanish issiqlik). Hozirgi vaqtda Yaqin Sharq mamlakatlarida (Qatarda) bu texnologiya sanoat rivojini topdi (2010 yilda "Shell" neft kompaniyasining texnologiyasi bo'yicha bir yilda 1,6 mlrd. m<sup>3</sup> gazni to'g'ri haydalgan benzin, kerosin, dizel frakstiyalari va bazali moylarga qayta ishlash bo'yicha zavod ishga tushirilgan. Mahsulot sifatini oshirish uchun gidrokreking bosqichi shart. Etanol ishlab chiqarish Etanol benzinli dvigatellar uchun bevosita yoqilg'i bo'lishi mumkin hamda avtomobil benzining komponentiga qo'shimcha sifatida ishlatilishi mumkin. Etanolni motor yoqilg'isi sifatida birinchilardan bo'lib G. Ford qo'llashni boshlagan, u 1880 yilda etanolda ishlaydigan avtomobil (Model T) ni ixtiro qilgan. Uzoq vaqt davomida qimmatligi hamda yuqori gidroskopikligi va etarli quvvatga ega emasligi tufayli etil spirti yoqilg'isi yoki yoqilg'iga komponent sifatida qo'llanilmadi. Motor yoqilg'isi sifatida etanolni keng qo'llanilishi ko'pgina mamlakatlarda o'tgan asrning 70 – yillarida boshlandi, bu neft krizislari hamda motor yoqilg'isining ekologik xossalariqa qo'yiladigan keskin oshgan talablar bilan belgilangan edi. Etilenni gidrotastiyalash va nooziq – ovqat xomashyosini gidrolizlash yo'li bilan olingan etanol texnik etanol deb nom olgan va turli texnik maqsadlarda shu jumladan motor yoqilg'isi yoki uning komponenti sifatida qo'llaniladi. Etilenni to'g'ridan – to'g'ri gidrotastiyalash usuli bilan etanolni ishlab chiqarganda qattiq tashuvchida fosfat – kislotali katalizatorlarni qo'llaydilar; jarayon 260 – 280 C haroratda va 7 – 8 MPa bosimda sodir bo'ladi. Jarayonning eng katta kamchiligi bo'lib bitta o'tishda xomashyo konversiyasining pastligi (4 – 5 %) hisolanadi, bu ko'p miqdordagi o'zgarmagan xomashyo resirkulyastiyanishining zarurligiga hamda katalizatorning yuqori korrozion agressivligiga va uni reaksiya zonasidan olib ketilishiga olib keladi. Yog'ochning gidrolizianishi mahsulotlarini bijg'itib gidroliz spirtini oladilar. Bijg'itish uchun zarur bo'lgan shakillarni yog'och xomashyosi bo'lgan qipiqlik, yog'och bo'laklari va yog'ochni qayta ishlashning boshqa chiqindilarini gidrolizlab oladilar. Polisaxaridlarni saqlagan xomashyo (selyuloza) ni 5 % - li sulfat

kislota bilan 180 °C va 1 – 1,5 MPa da ishlab beradilar, bu glyukozaning hosil bo'lishiga olib keladi, so'ngra esa uni spirli bijig'itadilar. Bunday usul bilan olingan etanolni suvdagi eritmani rektifikatsiyalaydilar. Etanolni oziq – ovqat xomashyosidan olganda kraxmal yoki uglevodorodlarni saqlagan don, kartoshka, shakar qamish, makkajo'xori va shunga o'xshagan o'simlik mahsulotlar qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati uglevodorodlarni etanolga qayta ishlaydigan bakteriyalar yordamida bu mahsulotlarni bijg'itishdan iborat. 95 % va undan ortiq % li "toza" etanol motor yoqig'isi sifatida uncha katta bo'limgan hajmlarda qo'llaniladi, 5 dan 85 % gacha spirtni saqlagan etanolning benzin bilan turli aralashmali eng keng qo'llaniladi. Bunda asosan bioetanol deb ataladigan o'simlik xomashyosining qayta yangilanadigan manbalaridan olingan etanol qo'llaniladi. Bioetanolni ishlab chiqarish uchun neftdan an'anaviy yoqilg'i (benzin) ni ishlab chiqarishga qaraganda sarflanadigan energiyaga qaraganda ko'proq energiya talab qilinadi. Don, shakarqamish yoki makkajo'xorini ekish, parvarishlash, o'g'itlarni ishlab chiqarish, yig'ish va qayta ishlash (fermentastiyalash) uchun zarur bo'lgan quvvat hosil qilingan bioetanolning quvvat miqdoriga deyarli teng. Shu vaqtning o'zida neftdan yoqilg'i ishlab chiqarish uchun qilinadigan sarflar hosil qilingan yoqilg'i quvvat miqdorining qariyib 10 – 30 % ni tashkil qiladi. Etanol motor yoqilg'isi sifatida Braziliyada eng ko'p qo'llaniladigan, bu o'simlik xomashyosi bo'lgan shakarqamishdan etanolni ishlab chiqarish imkoniyatlari katta ekanligi bilan belgilangan. Brazilyada 2,5 mln. avtomobil (avtoparking 90 %) motor yoqilg'isida ishlaydi, bu yoqilg'i ko'proq yoki kamroq miqdorda o'z tarkibida etanolni saqlaydi. AQSh da motor yoqilg'isini ishlab chiqarishda etanol muhim o'rinni egallaydi, u asosan makkajo'xoridan ishlab chiqariladi. Bozorda E 85 benzin etanolli yoqilg'isining (85 % etanol va 15 % benzin) naydo bo'lishi egiluvchan yoqilg'i sistemasi bo'lgan avtomobillarning yangi konstenstiyasini ishlab chiqarish zarurati bilan bog'liq. Avtomobilga quyidagi talablar quyiladi: u etanolni saqlamagan benzin uchun ham, 100 % spirtni saqlagan uchun ham to'g'ri keladigan yoqilg'i bakiga esa bo'lishi kerak va tegishli ravishda avtomatik qayta sozlash va yoqilg'ining tarkibiga bog'liq bo'lgan yoqilg'i: havo zarur bo'lgan nisbatini saqlab turadigan sistemasiga ega bo'lishi kerak. Undagi qo'llaniladigan rezina texnik buyumlar spirt va benzinga nisbatan chidamli bo'lishi kerak. Rossiyada avtomobil benzinda etanolni ishlatishda asosiy to'siq bo'lib etanol narxining qimmatligi va uning akstizi hisoblanadi. Benzin (franstuzcha-benzine) -turlicha tuzilgan uglevodorodlar aralashmasi, 30- 2050 °C atrofida qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Muzlash temperaturasi-600 °C, alangalanish temperaturasi 0 °C dan past, zichligi 700-780 kg/m<sup>3</sup> (0,70-0,78 g/sm<sup>2</sup>). Havoda benzin bug'lari konstentrasiysi 74-123 g/m<sup>3</sup> ga etganda portlaydigan aralashmalar hosil bo'ladi. Benzin asosan, neftni haydash va katalitik qayta ishlash yo'li bilan olinadi: ozroq benzin toshko'mir va yonuvchi slanestlar qayta ishlash yo'li bilan (destruksiya gidrogenlash), shuningdek tabiiy va yo'lakay gazlardan olinadi. Benzin asosan, ichki yonuv dvigatellar uchun yonilg'i sifatida ishlatiladi. Qariyib 10% benzin erituvchi, yuvadigan suyuqlik

sifatida va boshqa maqsadlar uchun qo'llaniladi. Xulosa Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, sintetik uglevodorodlar asosidagi sintetik yoqilg'ining eng katta afzallik jihatni esa, ularning inson organizmiga ko'rsatadigan ta'siridadir. Ya'ni, sintetik yonilg'i odamga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmaydi (albatta, buni hali isbotlash ham kerak). Gap shundaki, uglevodorodlarning o'zi ham juda xilma-xil bo'lib, ularning kimyogarlar tili bilan aytganda, chiziqli, tarmoqli, siklik, aromatik kabi turlari mavjud. Shunga ko'ra, turli guruhlarga mansub turdag'i uglevodorodlar, bir-biriga juda o'xshash yoqilg'i xossalariiga ega bo'lsa-da, biroq, ularning boshqa fizik xossalari, masalan, hidi, qovushqoqligi, inson organizmiga ta'siri kabi xususiyatlari mutlaqo farqlanadi. Bu juda muhim jihatdir. Agar, neftdan olingan benzin odam oshqozoniga tushsa, u aniq zaharlanadi. Sintetik benzin esa neytral modda bo'lib, tarkibida turli zaharli moddalar, smolalar, aromatika bo'lmaydi va demak u odamni zaharlamaydi. Bu juda muhim jihatdir. Bu borada hozirgi kunda qilinayotgan ishlar insoniyatning yanada yengil turmush tarzini yaratib yaxshilaydi.


#### **14-amaliy mashg'ulot**

#### **Vinilatsetilen ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganish.**

#### **Vinilatsetilen fizik-kimyoviy xossalari**


Vinilatsetilen - o'tkir hidli rangsiz gaz. Suvda erimaydi, uglevodorodlar, benzol va boshqa organik erituvchilarda eriydi.

Sanoatda vinil asetilenni suvli muhitda ammiak xlorid va tuzli tuzlar ishtirokida asetilenni dimerlash yo'li bilan olinadi:



Vinil asetilen odatda reaksiyalarda asetilen kabi xossalarni namoyon etadi.

Suvni simob tuzlari ishtirokida biriktirib, metil vinil keton hosil qiladi:



#### **Vinilatsetilen**

Quyida vinilatsetilenni sanoat ishlab chiqarishda ishlatiladigan atsetilen dimerizatsiyasi katalizatorlarining taxminiy tarkibi keltirilgan.

Mis tuzlari ta'sirida asetilenlarning oksidlovchi dimerlanish mexanizmini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ega. Masalan, vinilatsetilen, shuningdek, asetilenden vinilxlorid ishlab chiqarishda diatsetilen hosil bo'lish mexanizmini tushuntirish mumkin.

Misning bir valentli tuzlari tuzlari simob va rux tuzlari singari bir qator asetilen reaktsiyalari uchun odatiy katalizatorlardir. Ular asosan vinilatsetilen, xloropren va akrilonitril ishlab chiqarish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'ldi.

Asetilenni katalitik dimerizatsiyalash jarayonida, ishlab chiqarishning asosiy mahsuloti vinilatsetilenden tashqari, bir qator reaktsiya yon mahsulotlari hosil bo'ladi. Bu asetilenni kimyoviy faolligi va unga bog'liq bo'lgan ko'plab reaktsiyalarga bog'liqligi bilan bog'liq.

### **Vinilatsetilen ishlab chiqarish texnologiyasi**

Vinil asetilen ishlab chiqarish operatsiyalariga asetilenni dimerizatsiya qilish va olingan vinilatsetilenni ajratish va tozalash jarayonlari kiradi.


Vinil asetilen ishlab chiqarishning asosiy apparati - atsetilen dimerizatsiya reaktori. Reaktor konstruktsiyasi bajarilishi kerak bo'lgan eng muhim shartlardan biri katalizatorda gaz (asetilen) oqimlarining yaxshi taqsimlanishini, ya'ni gazning katalizator bilan yaxshi aloqa qilishini ta'minlashdir.

Vinil asetilen ishlab chiqarish yonuvchan va portlashga xavfli jarayondir. Shuning uchun asetilenni kisloroddan yaxshilab tozalash zarur. Vinil asetilen ishlab chiqarish jarayonining xavfli tomoni divinilatsetilennen paydo bo'lishi va mavjudligi bilan bog'liq.

Divinilatsetilen polimerlanib, peroksid birikmalariga oson oksidlanadigan plastik va qattiq moddalarga aylanadi. Peroksidlar engil ishqalanishdan, mahalliy qizib ketishdan va boshqalardan portlashi mumkin, shuning uchun ular asetilen portlashiga olib kelishi mumkin. Bu divinilatsetilenni vinilatsetilen ishlab chiqarishda eng xavfli mahsulotlardan biriga aylantiradi. Divinilatsetilen peroksidlarini hosil qilish uchun kislorodning yuqori konsentratsiyasi talab qilinmaydi.

Bu shuni anglatadiki, kislorodning tizimga kirishiga yo'l qo'ymaslik uchun ko'rilgan barcha choralar bu potentsial xavfni kamaytiradi, lekin uni yo'q qilmaydi. Haroratning oshishi bilan divinilatsetilennen polimerlanishi va xavfli peroksidlarning hosil bo'lishi tezlashgani uchun haroratni belgilangan rejimdan oshishiga yo'l qo'ymaslik kerak va ishlab chiqarish xavfini kamaytirish uchun bir qator maxsus choralar ko'rish kerak.

Xom ashyo asetilen kimyoviy aralashmalardan tozalagichlar yordamida tozalanadi va vinilatsetilen ishlab chiqarishga o'tkaziladi. Vinil asetilen ishlab chiqarishning asosiy apparati - atsetilen dimerizatsiya reaktori. Vertikal ko'pikli reaktorda vinilatsetilen ishlab chiqarish texnologik jarayoni olib boriladi.



### Vinilatsetilen ishlab chiqarish jarayoni texnologik sxemasi

Vinilatsetilen ishlab chiqarish texnologik jarayonining sxematik diagrammasi yuqorida keltirilgan.

Vinil asetilen sintezining qo'shimcha mahsulotlari - vinilxlorid, asetaldegid, atsetilenedin, asetilen tetramer konsentrangan shaklda erkin kislorod bilan oksidlanib, beqaror mahsulot hosil qiladi. Kislorod bilan o'zaro ta'sirlashganda atsetilenni chuqurroq polimerizatsiya qilish yo'li bilan olingan divinilatsetilen peroksid birikmalarini hosil qilishi mumkin, ular past impulslarda, shu jumladan yorug'lik ishqalanishida portlashi mumkin.

### 15-amaliy mashg'ulot

#### Kimyo sanoati chiqarishning atrof muhitga ta'sirini o'rGANISH.

Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof muhit uchun zararliligi

Kimyo sanoatining atrof-muhitga zarari haqida gapirilganda faqat ishlab turgan ximiyaviy ishlab chiqarish korxonalarini emas, balki butun ximiyaviy mahsulotlar tushuniladi. Masalan, sintetik polimerlar tabiiy polimerlardan farq qilib, bo'linuvchi feramentlarga ega emas. Ana shu ma'noda sintetik polimerlarni biologik jihatdan yo'qotib bo'lmaydi. Ularni ishlatib bo'linganidan keyin yoqib yuborilishi natijasida havoning ifloslanishi yanada ko'payadi. Kimyo sanoatida polimerlarning miqdori tezlik bilan ortib borayotganini hisobga olgan holda ularning foydalanib bo'linganidan so'ng aniq mahsulot sifatida utilizatsiya qilish muammosi yana ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ximiklar oldiga biologik parchalanuvchi plastmassalar va sintetik tola yaratish masalasi qo'yilishi bejiz emas.



### **Atrof muhitni ifloslantiruvchi moddalar**

Kimyo sanoatida chiqindilardan qanday foydalanilmoqda? Hozirgi vaqtida kimyo sanoatida hosil bo‘ladigan 750 turdag'i chiqindilardan faqat 250 tasi qisman yoki butunlay qayta ishlatilmoqda. Ishlatilinmagan chiqindi holidagi xom ashyoning tannarxi esa yiliga astronomik raqami – taxminan 100 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda.

Tezlik bilan rivojlanayotgan ishlab chiqarishning insonga va atrof-muhitga ta’sir etuvchi haqiqiy va potensial zarari kimyoviy korxonalardan foydalanadigan ko‘pgina mamlakatlar olimlari va jamoatchiligidagi kuchli norozilikni yuzaga keltirdi. Ommaning ta’siri ostida AQSHda va ba’zi Yevropa mamlakatlarida kimyoviy korxonalardan chiqariladigan normadan yuqori zararli moddalarning ortib ketishini ko‘rib chiqadigan va katta miqdorda jarima soladigan qonun qabul qilindi. Bu tadbirning ajoyib natijasi shu bo‘ldiki, qisqa vaqt ichida, ammo katta miqdorda kapital mablag‘ sarf qilib kam chiqindili yoki chiqindisiz texnologiya jumlasiga kiruvchi, texnologik prinsiplar jihatidan yangi texnologiyalar ishlab chiqildi.

Bunday chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida sanoat ishlab chiqarilishida yangi yo‘nalish vujudga keldi. Uning mohiyati xomashyodan kompleks ravishda foydalanish, sanoat va maishiy chiqindilar hamda zararli tashlandiqlarni utilizatsiya kilish, oqava suvlarni tozalash natijasida ulardan foydalanish, barcha foydali boyliklardan ishlab chikarishda kayta foydalanish mahsadida butunlay yoki qisman

Xom ashyoni kompleks ravishda kayta ishlash turli-tuman maxsulotlar tayyorlash imkonini beradi, uning bir kismi xo‘jalikning bevosita ishi bo‘lib hisoblanmaydi, shuning uchun ko‘pgina chiqindilardan foydalanilmaydi, chunki ular iqtisodiy jihatdan foyda keltirmaydi. Ma’lumki, xom ashyodan har tomonlama va kompleks ravishda foydalanish muammosi tarmoqlararo ish-lab chikarish strukturasini amalga oshirgan takdirdagina hal

qilinishi mumkin. xozirgi vaqtda aynan shu strukturadan mamlakatimiz xalq ho‘jaligida foydalanilmokda.

Muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish katta miqdorda kapital mablag‘ talab kiladi. Ekspertlarning bergan bahosiga ko‘ra keltirgan zararimiz tufayli atrof-muhitni butunlay qayta tiklash uchun 5% gacha milliy mahsulotni, ya’ni 30—35% dan ko‘proq kapital mablag‘ni sarflash kerak. Jamoatchilikning fikri asosida ho‘jalik yuritish siyosati o‘zgargan bo‘lsa ham, hozircha dunyodagi birorta ham mamlakat buncha xarajatni sarflashga qodir emas.

### **Atrof-muhitdagi chiqindilarni kimyoviy vositalar yordamida tozalash.**

Dastlab oqava suvlardan boshlaymiz. Sanoat oqava suvlari va xo‘jalik oqava suvlar bo‘ladi. Bir kunda jon boshiga 200 l dan ko‘prok, ishlatiladigan xo‘jalikdagi oqava suvlar nisbatan biologik usulda tozalanadi, chunki ulardagি hamma qo‘shimchalar organik tabiatda uchraydi. Shuning uchun katta zarrachali qattiq jismlarni yo‘kotishdan iborat bo‘lgan birinchi qayta ishlashdan va bakteriyalarni yo‘qotish maqsadida xlor yoki ozon bilan tozalangandan so‘ng xo‘jalikdagi suvlar to‘g‘ri burchakli yoki silindir shaklidagi maxsus qurilmalardagi faollashtirilgan ko‘pik yordamida biokimyoviy oksidlanadi. Bunda mikroorganizmlar o‘sadi, natijada ko‘shimcha biomassa hosil bo‘ladi. Ko‘shimcha biomassadan oqsil-vitaminli konsentrat olishda foydalaniladi. U qishloq xo‘jalik mollariga qo‘shimcha oziq modda sifatida beriladi, natijada mollarning vazni sezilarli darajada ortadi.

Biologik tozalangan suvni tabiiy, biologik, jarayonlar toza—lashni tugallaydigan dengiz yoki daryoga quyish va shu bilan bir qatorda bu suvni uchinchi marta qayta ishlash mumkin. Bunda hosil bo‘lgan mahsulotdan sanoat sistemasida va hatto, ichimlik suv sifatida foydalanish mumkin. Oqava suvlarni uchlamchi qayta ishlash jarayoni quyidagilardan iborat: aktivlangan ko‘mirga sorbsiya, selektiv koagulyatsiya, aeratsiya, fosfatlarni cho‘ktirish, azot birikmalarini yo‘qotish, bakteriyalarni filtrlash, elektrokimyoviy qayta ishlash va sterillash.

Faollashtirilgan ko‘mirga yuttrish (sorbsiya) erigan va muallaq qo‘shimchalarni yo‘qotishning eng samarali usulidir. Bunda ko‘mir suv bug‘i atmosferasida 930°C gacha qizdirilib regeneratsiyalanadi va faollashtiriladi. Ko‘mir sirtiga adsorbilangan organik qo‘shimchalar bug‘ bilan birga haydaladi. Koagullanish, ya’ni mayda zarrachalarni aglomeratsiyalash ularni katta zarrachalar bilan birga cho‘kishi bilan sodir bo‘ladi.

Cho‘ktiruvchi sifatida kalsiy gidrokarbonat bilan ta’sirlasha oladigan alyuminiy sulfatdan foydalanish mumkin:



Bu reaksiyada alyuminiy gidroksid kolloid zarrachalarni o‘z ichiga qamrab oladi va ular bilan birga cho‘kmaga tushadi.

### **Ekologiya muammolari**

Ekologiya muammosi Yer yuzining xamma joylarida xam dolzarb, faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida turlichadir.

O‘zbekistonda murakkab, xafli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat quyidagilardan iborat:

1-Yerlarning sho’rlanganligi O‘zbekiston uchun ekologik muammodir.

2-Suv zaxiralarining, shu jumladan er usti va er osti suvlarining keskin tanqisligi xamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda.

3-Orol dengizini qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo.

4-Xavo bo'shliqining ifloslanishi xam respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan taxtiddir.

Mutaxassislarining ma'lumotiga qaraganda, xar yili respublikaning atmosfera xavosiga 4 million tonnaga yaqin zararli moddalar qo'shilmoqda shularning yarmi uglerod oksidiga to'qli keladi, 15 % ni uglerod chiqindilari, 14 % ni oltingugurt kuli oksidli, 9 % ni azot oksidi, 8 % ni kattiq moddalar tashkil etadi va 4 % ga yaqin o'ziga xos o'tkir zaxarli moddalarga to'g'ri keladi.

Atmosferada uglerod yig'indining ko'payib borishi natijasida o'ziga xos keng ko'lAMDAGI issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatda Er xavosning o'rtacha xarorati ortib ketadi.

Bu ekologik muammolarning oldini olish uchun chiqindisiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, chiqindilarni qayta ishslash yoki zararsizlantirish ishlab chiqarish korxonalarida tozalash moslamalaridan keng foydalanish, atmosfera xavosiga chiqayotgan gaz changlarini qayta ishslash, ushlab qolish ularni zararsizlantirish muxim ahamiyatga ega.

Shularni hisobga olib, xozirgi kunda O'zbekistonda qurilayotgan ishlab chiqarish korxonalarida shu masalalar muxim hisoblanadi.

Biron bir moddaning chegaraviy mumkin bo'lgan miqdori deganda moddaning inson ish qobiliyati, salomatligi va kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan kontsentratsiyasi tushuniladi. Atmosferaga chiqayotgan turli zaharli moddalarning zaharlilik darajsi ularning  $1 \text{ m}^3$  xavodagi milligramm miqdorini aniqlash yo'li bilan belgilanadi [ $\text{mgG}^{-1}\text{m}^3$ ].

Atmosfera xavosini changdan tozalashning quyidagi usullari mavjud.

1. Gravitatsion usul.
2. Quruq inertsion va markazdan qochma kuch asosida tozalash.
3. Quyish usuli.
4. Filtrlash usuli.
5. Elektrostatik usul.
6. Tovush va ultratovush yordamida koagullah.

Atmosfera xavosini zaxarli gazlardan absorbtion, adsorbtion, katalitik va termik usullar bilan tozalash mumkin.

Oqava suvlarni tozalash usullari quyidagilarga bo'linadi:

1. Mexanik tozalash usullari: filtrash, tindirish.
2. Fizik-kimyoviy usullar: koagulyatsiya, flokulyatsiya, flotatsiya va x.k.
3. Kimyoviy usul:
  - a) Regenerativ usul: adsorbsiya, xaydash rektifikatsiya.
  - b) Destruktiv usul: oksidlash, termookisdlash.
4. Biokimyoviy usul: kislородли aerobli va kislородсиз muxitda anaerobli.

Sho'rtan gaz kimyo kompleksida xar xil chiqindilarni yo'qotish uchun bir qancha tadbirilar ko'zda tutilgan shulardan biri chiqindilarni yondirish moslamasidir.

Bu moslamaga zavodni xar xil nuqtalaridan quvurlar orqali yoqish uchun chiqindilar yuboriladi oqim miqdori norma bo'yicha 200 kg/soat, maksimum 800 kg/soat ga

mo'ljallangan bu chiqindilar qatoriga past molekula oqirlikka ega bo'lgan polietilen xam kiradi. Xulosa qilib aytganda suyuq xolatdagi barcha chiqindilar yoqishga yuboriladi.

Atmosferaga chiqarib tashlanadigan chiqindilar qatoriga: fakeldan chiqayotgan gazsimon moddalar, saqlovchi rezervuardan (idishlardan) xosil bo'layotgan gazsimon moddalar va boshqalar.

Qattiq xolatdagi chiqindilarni ishlatish to'g'risida yuqorida aytib o'tildi (bularga polimer, silikagel alyuminiy oksidlar kiradi, katalizator qoldiqlari).

## **Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

- 1.Mexanik va kimyoviy texnologiya
- 2.Asiklik uglevodorodlar
- 3.Karbosiklik uglevodorodlar
- 4.Geterosiklik uglevodorodlar
- 5.To'yinmagan uglevodorodlar
- 6.Neft va uni qayta ishlash
- 7.Uglevodorod gazlari va ularni qayta ishlash
- 8.Toshko'mir konlari
- 9.Naftani gidrotozalash jarayoni
- 10.Qo'zg'almas katalizator qatlamida boruvchi riforming
- 11.Atsetilenni kalsiy karbiddan olish texnologiyasi
- 12.Eterifikatsiya jarayoni texnologiyasi
- 13.Etilenni to'g'ridan – to'g'ri gidratatsiya qilib etanol ishlab chiqarish
- 14.Stirol ishlab chiqarish texnologiyasi
- 15.Parafinlarni nitrolash
- 16.Aromatik uglevodorodlarni nitrolash
- 17.Galogenlash jarayonlari
- 18.Atsetilenden vinilxlorid ishlab chiqarish.
- 19.Sintetik yoqilg'ilar ishlab chiqarish jarayoni kimyosi
- 20.Chiqindisiz texnologiya

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## GLOSSARIY

<b>Absorbent</b>	tanlab yutuvchi suyuqlik.
<b>Absorbtiv</b>	absorbentga yutiluvchi komponent.
<b>Absorbat</b>	absorbentga yutilmaydigan komponent.
<b>Adsorbent</b>	tanlab yutuvchi qattiq g'ovaksimon modda
<b>Absorbsiya</b>	Bug', gaz yoki tutunli gazlarning hamda bug' gaz aralashmalaridagi bir yoki bir necha komponentlarning suyuqliklarga tanlanib yutilish jarayoni.
<b>Adsorbsiya</b>	Gaz aralashmalari va eritmalardagi bir yoki bir necha komponentlarning g'ovaksimon qattiq jismlar yuzasi bo'y lab tanlanib yutilish jarayoni.
<b>Desorbsiya</b>	absorbent yoki adsorbentni regeneratsiyalash.
<b>Ekstraksiya</b>	eritmalar yoki qattiq moddalar tarkibidan bir yoki bir necha komponentlarni erituvchilar yordamida ajratib olish jarayoni.
<b>Ekstragent</b>	erituvchi suyuqlik.
<b>Kavitsatsiya</b>	markazdan qochma nasosning taqqillab ishlashi.
<b>Korroziya</b>	metallar va ular qotishmalarining tashqi muhit ta'sirida o'z-o'zidan yemirilishi.
<b>Olefinlar</b>	tarkibida bitta qo'shbog' tutgan to'yinmagan uglevodorodlar
<b>Alkadienlar</b>	dien uglevodorodlari, yoki diolefinlar - molekulasida ikkita qo'shbog' bo'lган uglevodorodlar
<b>Piroliz</b>	grekcha so'zdan olingen bo'lib, "pir"-olov va "lysis"- parchalanish degan maъnoni bildiradi, ya'ni organik birikmalarini yuqori temperaturada parchanishi natijasida kichik molekula massasiga ega bo'lган mahsulotlar hosil bo'lishi
<b>Initsiator</b>	monomerga nisbatan pastroq xaroratda erkin radikallarga parchalanib polimerlanish reaksiyalarini tezlashtirib beruvchi modda
<b>Katalitik riforming</b>	bifunktsiyali katalizatorlar ishtirokida haydalgan benzinni oktan sonini oshirish va aromatik uglevodorodlar olish jarayoni
<b>Katalizator</b>	organik reaksiyani tezlashtirishda ishtirok etib, reaksiya tugagandan so'ng ajralib chiquvchi modda
<b>Plastifikator</b>	yoki yumshatgich deb, ba'zi bir polimerlarni plastik, elastik

	xossalariini yaxshilash uchun 30-40%-gacha qo'shiladigan moddalar
<b>Gidratatsiya</b>	olefinlarga suvni birikish jarayoni
<b>Gidrirlash</b>	to'yinmagan birikmalarga vodorod birikishi
<b>Konovalov reaktsiyasi</b>	to'yingan uglevodorodlar va ularning hosilalarini suyultirilgan nitrat kislota bilan past bosim va temperaturada nitrolash reaktsiyasi
<b>Parafinlar (alkanlar)</b>	uglerod qo'shni uglerod atomlari bilan bog'lanishga o'zining faqat bir valentligini sarflab, qolganlari vodorod atomlari bilan bog'langan birikmalar
<b>Dimerlanish</b>	dien uglevodorodlarini qizdirganda o'zaro birikish reaktsiyalariga kirishishi
<b>Naftenlar</b>	yoki tsikloalkanlar - kabotsiklik birikmalar sinfiga mansub bo'lib, $C_nH_{2n}$ umumiy formula bilan ifodalanadi
<b>Alkillash</b>	organik modda molekulasiga alkil guruhini kiritish jarayoni
<b>Vinillash</b>	organik modda molekulasiga vinil guruhini kiritish jarayoni
<b>Pestitsidlar</b>	o'simliklar va zararli xashoratlar bakteriya va zamburug'lariga qarshi zaharli xossaga ega bo'lgan moddalar

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Bux MTI rektori

\_\_\_\_\_ N.R.Barakayev

“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2021yil

**TARMOQ KIMYOSI VA TEXNOLOGIYASI**

faninig

**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 700000 – Muhandislik, ishvor berish va qurilish sohalari

Ta'lif sohasi: 710000 – Muhandislik ishi

Ta'lif yo'naliishi: 60710100 – Kimyoviy texnologiya (organik moddalar)

<b>Fan/modul kodi</b> TKT1104	<b>O'quv yili</b> 2021-2022	<b>Semestr(lar)</b> 1	<b>Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta`lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta`lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Tarmoq kimyosi va texnologiyasi</b>	60	60	120
2	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - talabalarda organik moddalarni ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik jarayonlari bilan tanishtirish, turli texnologik jarayonlarni tahlil qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Ushbu dastur asosiy organik sintez korxonalarida qo'llaniladigan tabiiy xomashyo manbalari, tayyor mahsulot tasnifi, organik moddalarning tuzilishi va olinish usullari, tarixi va rivojining tendensiyasi, istiqboli hamda respublikadagi ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar natijalari va xududiy muammolarning organik sintez sohasida ishlatiladigan texnologiyalar istiqboliga ta'siri masalalarini qamraydi.</p> <p>Organik mahsulotlar sintez qilishda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganib, mavjud kamchiliklarni aniqlashda, texnologik jarayonlarni zamonaviy tadqiq qilish usullari – matematik modellashtirish usullarini qo'llash, chiqindisiz texnologiyalar tadbiq qilish imkoniyatlarini beradi.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – Organik moddalar tasniflanishi va nomlanishi, ular xossalaring o'ziga xosligi, ularning noorganik moddalardan farqi, organik moddalar sintez qilish jarayonlarining kimyoviy o'zgarishlari, asosiy usullari va qonuniyatlarini o'rganish.</p> <p>Talabalarning "Tarmoq kimyosi va texnologiyasi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.</p> <p>Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, hamda virtual stendlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliyot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan (aqliy xujum, guruxli fikrlash, kichik guruxlar musobaqalari va boshqalar) foydalaniladi.</p>			

## **II. Asosiy nazariy qism (ma`ruza mashg'ulotlari).**

### **2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. Kirish. “Tarmoq kimyosi va texnologiyasi” fanining maqsad va vazifalari.**

Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. Mexanik va kimyoviy texnologiya. Texnologik jarayon xaqida tushuncha.

#### **2-mavzu. Organik moddalar klassifikatsiyasi.**

Uglevodorodlar klassifikatsiyasi. To‘yingan asiklik uglevodorodlar (parafinlar yoki alkanlar). To‘yinmagan etilen qatoridagi uglevodorodlar (alkenlar). Diyen uglevodorodlar (alkadiyenlar). Atsetilen qatoridagi uglevodorodlar (alkinlar)

#### **3-mavzu. Organik xomashyolarning tabiiy manbaalari.**

Neft haqida umumiy ma'lumotlar. Uglevodorod gazlari. Ko‘mir konlari

#### **4-mavzu. Naftani gidrotozalash jarayoni.**

Gidrotozalash jarayonining kimyosi. Gidrotozalash jarayoniga ta’sir etuvchi omillar. Distillyatlarni gidrotozalash texnologik tizimi

#### **5-mavzu. Aromatik birikmalar ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi.**

Aromatik uglevodorod xossalari. Katalitik riforming jarayonining umumiy xarakteristikasi. Qo’zg’almas katalizator qatlamida boruvchi reforming

#### **6-mavzu. Atsetilen ishlab chiqarish.**

Atsetilen haqida. Atsetilen generatorining tuzilishi. Atsetilenni kalsiy karbiddan olish texnologiyasi.

#### **7-mavzu. Eterifikatsiya jarayonlari.**

Eterifikatsiya jarayonlari tavsifi. Karbon kislotalar efirlarini sintez qilish texnologiyasi. Olingan mahsulotlar. Eterifikatsiya jarayoni texnologiyasi.

#### **8-mavzu. Etanol ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi.**

Olefinlarni sulfat kislotali gideratsiya usuli. Etanol ishlab chiqarish.

#### **9-mavzu. Stirol ishlab chiqarish.**

Stirol ishlab chiqarish kimyosi. Jarayon texnologiyasi.

#### **10-mavzu. Nitrolash jarayonlari kimyosi va texnologiyasi.**

Nitrolash jarayonlari tavsifi. Parafinlarni nitrolash. Jarayon texnologiyasi.

#### **11-mavzu. Galogenlash jarayonlari.**

Galogenlash jarayoni. Galogenlovchi agentlar. Radikal-zanjirli xlorlash reaksiyalari mexanizmi.

#### **12-mavzu. Vinilxlorid ishlab chiqarish.**

Gidrogalogenlash jarayoniga umumiy tavsif. C=C bog’lari bo'yicha hidroxlorlash. Atsetilenden vinilxlorid olish.

#### **13-mavzu. Sintetik yoqilg’ilar ishlab chiqarish jarayoni kimyosi va texnologiyasi.**

“Oltin yo’l GTL” zavodi. Sintetik yoqilg’ilar ishlab chiqarish jarayoni kimyosi. GTL texnologiyasi.

#### **14-mavzu. Vinilatsetilen ishlab chiqarish.**

Vinilatsetilen fizik-kimyoviy xossalari. Vinilatsetilen ishlab chiqarish texnologiyasi.

#### **15-mavzu. Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof muhitga ta’siri.**

Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof muhit uchun zararliligi. Atrof-muhitdagi chiqindilarni kimyoviy vositalar yordamida tozalash. Ekologiya muammolari

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1 Kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarini o'rghanish
- 2 Organik moddalar sinflarini o'rghanish
- 3 Uglevodorod gazlari, neft va toshko'mir xomashyolarini o'rghanish
- 4 Neft maxsulotlarini oltingugurt birikmalaridan tozalash jarayonlarini o'rghanish
- 5 Riforming kimyosi va texnologiyasini o'rghanish
- 6 Atsetilen sintez qilishning karbid usulini o'rghanish
- 7 Etilatsetat sintez qilish jarayonlarini o'rghanish
- 8 Etil spirti ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasini o'rghanish
- 9 Stirol ishlab chiqarish jarayonlarini o'rghanish
- 10 Nitrolash jarayonlari kimyosi va texnologiyasini o'rghanish
- 11 Galogenlash jarayonlari sxemalarini o'rghanish
- 12 Vinilxlorid sintez qilish jarayonlarini o'rghanish
- 13 GTL texnologiyasini o'rghanish
- 14 Vinilatsetilen ishlab chiqarish jarayonlarini o'rghanish
- 15 Kimyo sanoati chiqarishning atrof muhitga ta'sirini o'rghanish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### **IV. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

O'quv rejalarida laboratoriya mashg'ulotlari kiritilmagan.

### **V. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

O'quv rejalarida kurs ishi (loyiha) kiritilmagan.

### **VI. Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mexanik va kimyoviy texnologiya
2. Asiklik uglevodorodlar
3. Karbosiklik uglevodorodlar
4. Geterosiklik uglevodorodlar
5. To'yinmagan uglevodorodlar
6. Neft va uni qayta ishslash
7. Uglevodorod gazlari va ularni qayta ishslash
8. Toshko'mir konlari
9. Naftani gidrotozalash jarayoni
10. Qo'zg'almas katalizator qatlamida boruvchi riforming
11. Atsetilendi kalsiy karbiddan olish texnologiyasi
12. Eterifikatsiya jarayoni texnologiyasi
13. Etilenni to'g'ridan – to'g'ri gidratatsiya qilib etanol ishlab chiqarish

	<p>14. Stirol ishlab chiqarish texnologiyasi      15. Parafinlarni nitrolash      16. Aromatik uglevodorodlarni nitrolash      17. Galogenlash jarayonlari      18. Atsetilendan vinilxlorid ishlab chiqarish.      19. Sintetik yoqilg'ilar ishlab chiqarish jarayoni kimyosi      20. Chiqindisiz texnologiya</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3	<p style="text-align: center;"><b>VII. Ta'lif natijalari/Kasbiy kompetentsiyalari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Organik moddalarni xossalari va ishlatilish tarmoqlari <b>haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; (bilim)</b></li> <li>- Organik moddalar ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini, organik moddalar sintez qilishning asosiy usullarini bilish va ulardan foydalanish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi; (ko'nikma)</b></li> <li>- talaba turli tarmoqlarda ishlatish uchun organik moddalarni tanlashni bilishi , iqtisodiyotda uning afzalligi bo'yicha echimlar qabul qilish <b>malakasiga ega bo'lishi kerak. (malaka)</b></li> </ul>
4	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ma'ruzalar;</li> <li>interfaol keys-stadilar;</li> <li>seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>guruhlarda ishslash;</li> <li>taqdimotlarni qilish;</li> <li>individual loyihibar;</li> <li>jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihibar.</li> </ul>
5	<p style="text-align: center;"><b>Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha testni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1.A.Abdusamadov. "Organik kimyo", Toshkent, Talqin, 2005y.      2.S.Iskandarov, B.Sodiqov. "Organik kimyo nazariy asoslari", Toshkent, Ta'lif nashriyoti, 2012y.      3.T.A.Otaqo'ziyev, Q.A.Ahmerov, S.M.Turobjonov "Umumiy kimyoviy texnologiya" T.,Niso poligraf, 2013y      4.O.S.Maksumova, S.M.Turobjonov "Organik sintez maxsulotlari texnologiyasi", Toshkent, Fan va texnologiya, 2010y.</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p>

	<p>5. Robert O. Ebewelete “Polymer Science and technology” , New York 2000y.</p> <p>6.Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz / Sh.M.Mirziyoyev.-Toshkent : O’zbekiston, 2017. -232b.</p> <p>7.Семчиков Ю.Д. Высокомолекулярные соединения. М.: Академия, 2003 г.</p> <p>8.Дьячкова Т.П., Орехов В.С., Брянкин К.В., Субочева М.Ю. Химическая технология органических веществ. Учебное пособие. Тамбов: Изд-во Тамб. Гос. Техн. Ун-та,2008. – Ч. 2. -100с.</p> <p>9.М.Ю.Субочева, А.П.Ликсутина, М.А.Колмакова, А.А.Дегтярёв. Химическая технология органических веществ. Учебное пособие. Тамбов: Изд-во Тамб. Гос. Техн. Ун-та,2009. –Ч. 3. -80стр.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>10.<a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi.</p> <p>11.<a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> – O’zbekiston Respublikasi ta`lim portali.</p>
7	O’quv dasturi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Kengashida tasdiqlangan 2021 yil 31 avgust, 2-bayonnoma.
8	<p><b>Fan/modul uchun ma`sullar:</b></p> <p>Haydarov A.A. - BuxMTI “Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi” kafedrasи mudiri, dotsent.</p> <p>Rayimov Z.X. – BuxMTI “Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi” kafedrasи assistenti.</p>
9	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Temirova M.I. – BuxMTI “Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi” kafedrasи dotsenti.</p> <p>Xudoynazarova G.A. – BuxDU “Umumiy va noorganik kimyo” kafedrasи dotsenti.</p>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**Ro'yxatga olindi: № \_\_\_\_\_**  
2021y. " \_\_\_\_\_ "

**"TASDIQLAYMAN"**  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
\_\_\_\_\_  
" \_\_\_\_\_ " Sh.M.Xodjiyev  
" \_\_\_\_\_ " 2021yil

**TARMOQ KIMYOSI VA TEXNOLOGIYASI**  
**ISHCHI FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari  
Ta'lim sohasi: 710000 - Muhandislik ishi  
Ta'lim yo'naliш: 60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar)

Ta'lim yo'naliшi (mutaxassislik) kodi va nomi	Umumiy yuklama xajmi	Talabaning o'quv yuklamasi, soat							Semestr/ soat	
		Jami	Auditoriya mashg'uotlari							
			Jumladan							
60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar)	120	60	30	30	-	-	-	60	I	
60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar) sirtqi	210	30	30	-	-	-	-	180	2	

**Buxoro – 2021**

Fan/modul kodi <b>TKT1104</b>		O'quv yili 2021-2022	Semestr(lar) 1	ECTS – Kreditlar			
				60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar)		4	
				60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar) sirtqi		7	
Fan/modul turi Majburiy		Ta`lim tili o'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b>			
				60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar)		4	
				60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar) sirtqi		2	
1	Fanning nomi	Yo'nalish nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta`lim (soat)	Jami yuklama (soat)		
	<b>Tarmoq kimyosi va texnologiyasi</b>	60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar)	60	60	120		
		60710100 - Kimyoviy texnologiya (organik moddalar) sirtqi	30	180	210		
2	<p><b>Fanning mazmuni</b></p> <p><b>2.1. Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - talabalarda organik moddalarni ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik jarayonlari bilan tanishtirish, turli texnologik jarayonlarni tahlil qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Ushbu dastur asosiy organik sintez korxonalarida qo'llaniladigan tabiiy xomashyo manbalari, tayyor mahsulot tasnifi, organik moddalarning tuzilishi va olinish usullari, tarixi va rivojining tendensiyasi, istiqboli hamda respublikadagi ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar natijalari va xududiy muammolarning organik sintez sohasida ishlatiladigan texnologiyalar istiqboliga ta'siri masalalarini qamraydi.</p> <p>Organik mahsulotlar sintez qilishda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganib, mavjud kamchiliklarni aniqlashda, texnologik jarayonlarni zamonaviy tadqiq qilish usullari – matematik modelllashtirish usullarini qo'llash, chiqindisiz texnologiyalar tadbiq qilish imkoniyatlarini beradi.</p> <p><b>Fanning vazifi</b> – Organik moddalar tasniflanishi va nomlanishi, ular xossalarning o'ziga xosligi, ularning noorganik moddalardan farqi, organik moddalar sintez qilish jarayonlarining kimyoviy o'zgarishlari, asosiy usullari va qonuniyatlarini o'rganish.</p> <p>Talabalarning "Tarmoq kimyosi va texnologiyasi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.</p> <p>Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, hamda virtual stendlardan foydalaniлади.</p> <p>Ma'ruza va amaliyot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan (aqliy xujum, guruxli fikrlash, kichik guruxlar musobaqalari va boshqalar) foydalaniлади.</p>						

**2.2. Asosiy nazariy qism (ma`ruza mashg`ulotlari). Fan tarkibi mavzulari:**

**1-mavzu. Kirish. “Tarmoq kimyosi va texnologiyasi” fanining maqsad va vazifalari.**

Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. Mexanik va kimyoviy texnologiya. Texnologik jarayon xaqida tushuncha.

**2-mavzu. Organik moddalar klassifikatsiyasi.**

Uglevodorodlar klassifikatsiyasi. To‘yingan asiklik uglevodorodlar (parafinlar yoki alkanlar). To‘yinmagan etilen qatoridagi uglevodorodlar (alkenlar). Diyen uglevodorodlar (alkadiyenlar). Atsetilen qatoridagi uglevodorodlar (alkinlar)

**3-mavzu. Organik xomashyolarning tabiiy manbaalari.**

Neft haqida umumiy ma’lumotlar. Uglevodorod gazlari. Ko‘mir konlari

**4-mavzu. Naftani gidrotozalash jarayoni.**

